UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARINING

5-SINFI UCHUN

ONA TILIDAN

O‘QITUVCHI KITOBI
YANGI NASHR

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan

TOSHKENT – 2020

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2 O‘zb – 922
O–58

Ushbu nashrga doir barcha huquqlar muhofaza qilinadi va nashriyotga tegishlidir. Undagi matn va rasmlarni nashriyot roziligisiz to‘liq yoki qisman ko‘chirib bosish taqiqlanadi.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ijara uchun chop etildi.

UO‘K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2 O‘zb – 922

ISBN 978-9943-04-118-9

© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot ijodiy uyi, 2020

Kirish

Mamlakatimizning har tomonlama ravnaq topishi, istiqboli, taraqqiy etishi, yoshlarimizning kelajagi – bugungi ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan yangiliklar, islohotlar samaradorligi bilan belgilanadi. Ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi yutuqlarni, yangiliklarni ta’lim jarayoniga olib kirish va amaliyotga joriy etishda o‘qituvchilarning o‘rni beqiyosdir. O‘qituvchi doimo izlanishi, yangilikka intilishi, o‘z faoliyatini tahlil qilib, uni rivojlantirib borishi, bugungi kun talablari asosida ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalana olishi lozim. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchini sevishi va bugungi kun o‘quvchilarining qiziqishi va o‘quvchilar nima bilan yashayotganini ham tushunishi darkor. O‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining dars jarayonidagi ilmiy-amaliy faoliyatini samarali tashkil qilishi, aniq bir maqsadga, mustaqil yo‘naltirish uchun har bir darsni puxta rejalashtira olishi, darsni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishi, lozim bo‘lsa, yangi mashq namunalarini tanlab, qo‘shimcha mashg‘ulot sifatida rejaga kiritishi, darsni guruhlararo musobaqa ruhida olib borishi lozim. O‘qituvchi doimiy ravishda o‘z o‘quvchilarini o‘rganilgan mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini aytishga undashi, ular tomonidan kiritilgan taklif va mulohazalarni, o‘z iste’dodini namoyish qilishga bo‘lgan urinishlarini ijobiy tushunishi, bunday ijodkorlik, kashfiyotchilik harakatlarini muttasil rag‘batlantirib borishi, ularga sharoit va imkoniyatlar yaratib berishi, nutqiy kompetensiyasini, ya’ni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim bo‘ladi. O‘qituvchi shu tariqa nafaqat o‘quvchi bilimini, balki o‘zidagi pedagogik mahoratni ham takomillashtirib boradi. O‘quvchi shaxsi, uning nutqiy darajasi haqida hukm va xulosa chiqarishga shoshmaslik, o‘z vazifasiga mas’uliyat hissi bilan yondashish, o‘zidagi intellektual salohiyatini o‘quvchi bilan baham ko‘rish, o‘zida bag‘rikenglik, komil ustozlik fazilatlarini tarbiyalashga o‘rganadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Ona tili ta’limining maqsadi o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda bugungi kunda ona tili ta’limining mazmuni o‘zgarmoqda. Biz yillar davomida ona tili ta’limi orqali o‘quvchilarga grammatik qonun-qoidalarni, nazariy bilimlarni o‘rgatib keldik. Endilikda grammatikadan ko‘ra o‘quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya’ni tinglab tushunish,

gapirish, o‘qish, yozish kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ko‘proq e’tibor berishimiz lozim. Shunday ekan, bu maqsadga erishishda ona tilining nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish)ni har bir darsda amaliy qo‘llash va o‘quvchida bunga nisbatan ko‘nikma shakllantirish darkor.

Qo‘lingizdagi mazkur metodik qo‘llanmada 5-sinf ona tili darsligidan o‘rin olgan tilning ijtimoiy ahamiyati, o‘zbek tili-davlat tili, fonetika, grafika, talaffuz va imlo me’yorlari, leksikologiya, punktuatsiya, ish qog‘ozlari bo‘limlaridan o‘rin olgan mavzularni o‘rganish jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, metodlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar, darslikdagi mashq, topshiriqlarning bajarilish yechimi hamda matn va lug‘at ustida ishlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan.

Nutqiy kompetensiya elementlarini ona tili darslarida shakllantirish

Tinglab tushunish

Ona tili darslarida tinglab tushunish ko‘nikmasini o‘quvchilarda mashq qildirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon orqali o‘quvchi diqqatini uzoq vaqt ushlash malakasi, o‘quvchilarning og‘zaki bayon qilinayotgan o‘zgalar fikrini, monologik va diologik nutqni hamda matn mazmunini tushuna olish ko‘nikmasi shakllantiriladi. O‘quvchilar sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushuna olishi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib olishi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etishi, tinglab tushunishi, nutqning to‘g‘riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligini anglashi, barqaror atamalar, kasb-hunar so‘zlarining ma’no xususiyatlarini farqlashi va tushunishi lozim.

Gapirish

Ona tili darslarida o‘quvchining og‘zaki nutqi berilgan matnlarni o‘rganishi, mazmunini esa og‘zaki bayon qilishi bilan shakllanib boradi. O‘quvchining gapirish ko‘nikmasi o‘rganilgan mavzuni og‘zaki ifodalashida yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘rganilgan mavzuni yoki matnni og‘zaki bayon qilayotganida fikrlarini o‘z ona tilida xatosiz, to‘g‘ri ifodalashi, mavjud lug‘at boyligidan oqilona foydalanib, mavzudan chetga chiqmay mazmunni yoritishi, bog‘lanishli nutqi asosida gapira olishi, undan xulosa chiqarishi zarur. Bu ko‘nikmalar dars jarayonida takomillashtirilib borilishi kerak. Nutqini adabiy talaffuz me’yorlariga amal qilgan holda ifodali, ravon, mazmunli va ta’sirchan ifoda eta olishi, leksik, grammatik va stilistik me’yorlarga amal qilishi lozim.

O‘qish

O‘qish ko‘nikmasi orqali o‘quvchining tanish va notanish bo‘lgan matnni ifodali o‘qiy olish darajasi aniqlanadi. Bunda turli janrdagi matnlarni ifodali va ta’sirchan o‘qiy olishi, gapning ifoda maqsadi, his-hayajon, sodda va qo‘shma gaplar ohangiga rioya qilib o‘qishi, berilgan grammatik tamoyil va ma’lumotlarni o‘qib tushunishi, turli janrdagi matnlarni o‘qib o‘zi tushungan mazmunni tinglovchilarga gapirib bera olishi, gazeta va jurnallarni, yozilgan reklama va e’lon, turli mavzulardagi broshuralarni, internet materiallarini, badiiy, ilmiy-ommabop hamda rasmiy uslubda yozilgan matnlarni o‘qib tushunishi aniqlanadi. Sinfdan sinfga o‘tish davrida berilgan matnni o‘qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

Yozish

O‘quvchining ona tili ta’limi jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. O‘quvchilar fikr ifodasida mantiqan izchillikka rioya qilishlari, unda kirish va kiritmalar, ko‘chirma gaplar, tilning ifoda vositalaridan foydalana olishlari kerak. Ijodiy matnlar yarata olishi, imlo, tinish belgilari va uslubiy qoidalarga amal qilgan holda yozishlari, rasmiy va shaxsiy xatlarni farqlab yozishlari kerak. Sinfdan sinfga o‘tish davrida berilgan matnni yozishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

Matn haqida

Izohli lug‘atda *matn* so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, aynan *tekst* so‘zi bilan bir xil ma’no anglatadi, deyiladi. *Tekst* esa asli lotincha so‘z bo‘lib, unga lug‘atda quyidagicha ta’rif beriladi: *yozilgan, ko‘chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va boshqalarning bir parchasi, matn.*

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchi gaplar tuzadi, sekin-asta gaplarni bir-biriga bog‘lab, *bog‘lanishli matn* hosil qiladi. Yozma matnlar og‘zaki nutqqa ko‘chib, og‘zaki matnni hosil qiladi.

Ma’lum bir maqsadda bir-biriga grammatik, uslubiy va ma’no jihatidan bog‘langan gaplar matn hisoblanadi

5-sinf darsligida 38 soat matn va lug‘at bilan ishlash mavzusiga ajratilgan. Bundan tashqari, har bir grammatik mavzu ichida ham matnlar berilgan. Matnlarning barchasi ma’lum bir vazifa bajaradi. Grammatik mavzularda berilgan matnlarda shu mavzu doirasida savollar beriladi. Topshiriqlar ham aynan shu matn lug‘ati asosida bajariladi. Alohida matnlar topshiriqlariga avvalgi grammatik mavzular singdirilgan.

O‘quvchiga matn nima uchun kerak?

1. Avvalo, matn tuzish texnikasini o‘rganadi. O‘zi matn tuzib, yoza oladigan bo‘ladi.

2. Matn lug‘ati bilan ishlash jarayonida qanday so‘zlardan foydalanish kerakligi, shu o‘rinda, aynan, qaysi so‘z qo‘llansa, o‘rinli bo‘lishini tushunadi. Berilgan “muqobillardan maqbuli”ni tanlaydi.

3. Matnga savol berishni o‘rganadi. Aytilmoqchi bo‘lgan asosiy fikrni ajratib oladi. Savollarga xoh to‘g‘ri, xoh noto‘g‘ri javob berish jarayonida mustaqil fikrlaydi.

4. Ba’zi matnlarga sarlavha qo‘yilgan, ba’zilariga esa yo‘q. Sarlavha tanlash jarayonida matndagi asosiy fikrni anglab yetib, uni qisqa va mazmunli jumlada aks ettirishni o‘rganadi. Sarlavha tavsiya qilingan matnlarda bu nomlanishning matnga qay darajada mosligini aniqlaydi, fikrlaydi.

5. Lug‘at bilan ishlash jarayonida o‘quvchi o‘zi uchun yangi bo‘lgan so‘zlar izohini o‘rganadi, lug‘at boyligi oshadi.

Matnlarni o‘rganishda asosiy e’tibor o‘quvchining og‘zaki nutqini rivojlantirishga, fikrlash qobiliyatini o‘stirishga yo‘naltirilgan. Ammo matn asosida beriladigan yozma topshiriqlar ham borki, ular o‘quvchidagi yozma savodxonlikni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Darslikda berilgan matnlar har xil mavzularda: tarixiy, adabiy, ilmiy, boshqa fanlar bilan aloqador, ijtimoiy-siyosiy, hatto topishmoq, handa shaklidagi matnlar ham mavjud.

Aziz kasbdoshlar! Matnlar bilan ishlash jarayonida munasabat bildirish uchun berilgan ruhlantiruvchi, dalda beruvchi savollarga diqqat qilishingizni, o‘zingiz ham shunday savollar qatorini davom ettirishingizni so‘ragan bo‘lar edik. Bu mustaqil fikrlovchi shaxslarni voyaga yetkazishda muhim omil hisoblanadi.

Matnni tahlil qilishda, albatta, quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishingizni so‘rab qolamiz:

1. Sarlavha. U qay darajada shu matnni o‘zida aks ettirgan? Sarlavha tavsiya etilmagan matnlarda o‘quvchi topgan sarlavhaning matnga mosligi.

2. Xatboshilardagi bosh fikr. Keyinchalik insho yozish jarayonida o‘quvchi buni rejalar shaklida amalga oshiradi.

3. Muallifning maqsadi. Matn muallifi nima demoqchiligini anglash.

4. Xulosa. Shu matn mutolaasidan so‘ng o‘quvchi, tinglovchida paydo bo‘ladigan fikr.

5. Lug‘at bilan ishlash. Matndagi so‘zlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchida so‘z boyligining ko‘payishi,so‘z tanlash qobiliyatining

o‘sishi.

METODLAR

“Tinglab tushunish ” metodi (5–11 sinflar)

Maqsad: til o‘qitishning bu metodida o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmalari aniqlanadi.

O‘quvchilarga audio eshittirish moslamasi orqali matn eshittiriladi. Guruh o‘quvchilari birgalikda eshitgan matnidan tinglab tushunish asosida eslab qolganlarini yozishadi. Belgilangan ma’lum vaqtdan so‘ng yozilgan matnlar birinchi guruh ikkinchi guruh bilan almashinadi va matnning xatosini topishga, tahlil qilishga kirishadi.

O‘qituvchilar bu matnni turli variantda qo‘llashi mumkin. Nazorat ishlarini o‘tkazishda, o‘quvchilar savodxonligini aniqlashda, yozma topshiriqlar berishda qulaylik jihatlari mavjud.

Bu usul orqali o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmalari shakllantirishga erishiladi.

“Qayta ta’sir” metodi (5-9 sinflar)

Maqsad: “Nima uchun tuzulmasi” mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi metoddir. O‘quvchilarda mustaqil muammoni hal qila olish ko‘nikmasini rivojlanishida ko‘maklashadi..

Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin. Muammoning yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va bartaraf etish talab etiladi. O‘quvchilarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu metod o‘quvchilarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Darslikda berilgan matn bilan o‘quvchilar tanishib bo‘lgach, zehnini sinash uchun yoki uyga vazifa sifatida berilgan matnni mustahkamlash uchun qo‘llaniladi.

O‘quvchilarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Qayta hikoya” metodi (5-11 sinflar)

Maqsad: “Qayta hikoya” metodi (AQSh) o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishdan iborat. “Qayta hikoya” metodi til o‘qitishning samarali metodlaridan biri hisoblanadi. Guruhdan ixtiyoriy bir o‘quvchining qiziqishi so‘raladi.

Bu o‘quvchi o‘z qiziqishlarini hikoya qilib bergandan so‘ng guruh a’zolari birgalikda eshitganlari asosida bu o‘quvchining qiziqishi asosida

matn yozishadi. Shu guruhdan bir o‘quvchi yozilgan matnni og‘zaki qayta hikoya qilib beradi.

Bunda ham tinglab tushunish, yozish, hamda qayta hikoya qilish asosida og‘zaki nutqi rivojlanadi.

“Xatoni toping!” metodi

Dars jarayonida o‘qituvchi qasddan xato qiladi. Avval o‘quvchilar bu haqda oldindan ogohlantirilgan. Ba’zan siz hatto xavfli narsani taklif qilishingiz mumkin.

joylar-intonatsiya yoki imo-ishora. Asosiysi, bolalarni ogohlantirishga o‘rgatish. Xatolar. Ushbu hiyla-nayrangning maqsadi emas, balki imloni tushunishdir. Mexanik ravishda to‘g‘ri javobni eslab qolisshga asoslangan pedagogik texnologiyalarning maqsadli yo‘nalishlari - shaxsning ijodkorlik poydevorini shakllantirish.

“2+” metodi

O‘qituvchi “uzviylik uzluksizlik” metodidan foydalanib, birinchi guruh o‘quvchilarni doira shaklida joylashtiradi va bir-birining qo‘lini ushlagan holda bir o‘quvchi savol beradi, ikkinchisi o‘quvchi javob beradi, savollar ixtiyoriy bo‘ladi. Misol uchun ko‘k rang timsoli, ikkinchi o‘quvchi osmon, uchinchi o‘quvchi osmon yiroq yer qattiq, to‘rtinchi o‘quvchi, qattiq temir deyishi mumkin. Ikkinchi guruh o‘quvchilari so‘zlarning tarjimalarini yozishadi. Ham og‘zaki, ham lug‘at ustida ishlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. O‘qituvchi so‘zlarning mazmun-mohiyatini anglatishi, lug‘at bilan ishlashda ko‘maklashib borishi lozim.

“Topgan topoloq” metodi

Bu metod 5-6-sinflarga mos bo‘lib, bir tovush orttirib, yoki o‘zgartirib yangi so‘zlar yasash topshirig‘i aosida so‘z boyligini oshirishga erishiladi.

1-topshiriq. Bitta harf orttirilishi bilan yasaladigan so‘zlarni aniqlang.
2-topshiriq. Bitta harf o‘zgarishi bilan yasaladigan so‘zlar toping.
3-topshiriq. Teskari o‘qilganda ham mazmuni o‘zgarmaydigan so‘zlar toping.

“Pinboard” metodi:

Maqsad: O‘quvchilarni mustaqil, mantiqiy, tanqidiy fikrlash, nutqini rivojlantirishga qaratilgan.

O‘tkazish tartibi. O‘qituvchi stoli ustiga so‘zlar yozilgan qog‘ozchalar teskari holatda qo‘yilgan bo‘ladi. Doskaga jadval osiladi. Har bir guruhdan bittadan o‘quvchi chiqib shu qog‘ozchalardan birini tanlaydi.

Tanlagan so‘zi mos kelsa jadvaldagi yozuvga mos kelgan katakka yopishtirib qo‘yadi va shu so‘zni o‘qib ma’nosini izohlab beradi.

Afzalliklari - O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning bilim orttirish harakatlarini rag‘batlantiradi.

Qiyinchiliklar. O‘quv mavzusi bo‘yicha mazkur mashqdan foydalanishda kuchsiz o‘quvchilarga yordam kerak bo‘lishi mumkin.

Ushbu metod uchun tog‘larda o‘sadigan gul.

Cho‘llarda o‘sadigan o‘simliklar.

Vodiylarda o‘sadigan o‘simliklar misol qilib olish mumkin.

“Intervyu” metodi.(5-7 sinf)

Maqsad: O‘quvchilar og‘zaki nutqini o‘stirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.Bu

sinf o‘quvchilaridan biri gazeta yoki televideniye muxbiri sifatida tanlanadi. Muxbir har bir guruhdan intervyu oladi.

1 –guruhga savol: Siz qaysi ko‘chada turasiz?

2 – guruhga savol: Uyingiz atrofida qanday inshoatlar bor?

3 –guruhga savol: Shahar markazida qanday xiyobon bor? Shu kabi savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Istagan o‘quvchi muxbir vazifasini bajaradi. Mashg‘ulot shu tariqa davom etadi.

Savol va javoblar takrorlanmasligi kerak.

“Zakovatli zukko” metodi.

“Zakovatli zukko” metodi o‘quvchilarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o‘z xohishlariga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay imkoniyatni yaratadi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o‘rtacha arifmetik qiymatini topish asosida o‘quvchilarning tafakkur tezligi aniqlanadi.

“Vizual o‘qitish” metodi.

Bu metodda vizual o‘qitish ya’ni o‘quvchilar ko‘rgazmali qo‘llanmalarni (jadvallar, rasmlar, badiiy buyumlarning reproduksiyalari, doska eskizlari va boshqalar) namoyish etishlari kerak.

Namoyish etishda o‘rganilayotgan mavzu va ixtirochilik vazifalarining mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan asboblar, eksperimentlar, texnik qurilmalar, filmlar, taqdimotlar va boshqalarni namoyish qilishni o‘z ichiga oladi. Ixtirochilik vazifalarini shakllantirish uchun

o‘qituvchilar texnik vositani, ko‘rgazmali qurollar, video, biologik obyektni va boshqalarni namoyish etganda o‘quvchilarning o‘zlari kerakli ma’lumotlarni topishadi.

Sinkveyn metodi.

Bu metod har qanday materialni bir nechta iboralar bilan qayta ko‘rib chiqishga yo‘naltiradi. Sinkveyn – fransuzcha so‘z bo‘lib, “besh” degan ma’noni beradi. Bu usul qatorlar metodi bo‘lib besh qatordan iborat. Har bir qatorga yozilgan so‘zlar bitta gap hisoblanib, u keng ma’noni o‘ziga qamrab oladi.

Bunday she’r muayyan qoidalarga muvofiq yozilishi kerak:

1-qator – bitta so‘zdan iborat. Unda muhokama qilinadigan mavzu (yoki narsa) ko‘rsatilishi kerak.

2-qator – qo‘yilgan mavzuning sifatlari yoki belgilarini tavsiflashlari kerak.

3-qator – mavzuning odatiy harakatlari haqida tuzish kerakligini tushunishga harakat qilayotgan bolalar ko‘pincha bu erda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

4-qator – har qanday mavzuga mos ibora. Bunga she’r nomida yozilgan narsa yoki mavzu haqida sinxronni yaratuvchisining shaxsiy fikri kiritilishi kerak.

5-qator – mavzu mazmunini umumlashtirish yoki kengaytirish uchun so‘z topishi tushuntiriladi. Bu material va ma’lumotni qisqa iboralar shaklida uzatishni talab qiladigan ish, shuning uchun o‘quvchi biror narsani qisqacha tasvirlab berishi yoki takrorlashi mumkin.

“Ha-yo‘q” metodi.

Bu metod oddiy shaklda bo‘lganligi bilan o‘qituvchidan katta mahorat talab etiladi. Aslida “ha-yo‘q” metodi keng qamrovli bo‘lib, mavzuning turli belgilarini farqlash, aniqlangan xususiyatlarga ko‘ra narsalarni guruhlash va maqsadga va o‘ziga xos vaziyatga qarab tasniflash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu nomutanosib faktlarni yagona fikrga bog‘lash, tizimlashtirish qobiliyatini shakllantiradi.

O‘qituvchi biror narsani (masalan, nutqning bir qismi yoki adabiy qahramon) to‘ldiradi. O‘quvchilar o‘qituvchiga faqat “ha” va “yo‘q” javob berishi mumkin bo‘lgan savollarni berishadi. Shunday qilib, qidiruv maydoni torayib boradi va mustaqil ravishda oshkor qilish (ochilish) yuzaga keladi. Mahoratli o‘qituvchilar bu metoddan dam olish daqiqalarida keng foydalanishadi. O‘quvchilarning tasodifiy savollar orqali ham ular bilan yaqindan ishlash imkoniyatlari yaratiladi.

Jumladan,

Agar men o‘qituvchilarimni maktabdan tashqarida ko‘rsam, ko‘rinmaslikka harakat qilaman. _____

Dars jarayonida men nimadir gapirsam ularga qiziqarli bo‘lishini istayman, menga tasanno hissi bilan qarashlarini xohlayman. _____

“Brenrayting” metodi.

Bu metodning qo‘llanishida barcha g‘oya, fikrlar yozma bayon etiladi. Bu esa o‘z fikr va g‘oyalarini og‘zaki bayon etishga qiynaladigan ba’zi o‘quvchilar uchun qulaylik yaratadi. O‘quvchilar tomonidan yozilgan fikr va g‘oyalarning imloviy va uslubiy xatolariga e’tibor qaratilmaydi hamda yozilgan fikrlar oralarida keyinchalik xayolga kelgan fikrlarni yozish uchun bo‘sh joylar ham qoldiriladi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin, mustaqil ifoda etish topshiriladi. G‘oyalar tahlili keyinroq o‘tkaziladi. Bu metoddan foydalanilganda muammoning echish variantlari imkon qadar ortadi.

Filologiya fanlarida bu metoddan o‘quvchilarning fikrlashi, yozma savodxonligi, grammatik bilimlari rivojlantiriladi.

“Impuls – plakat” metodi.

Bu metodda ham yozma, ham og‘zaki shaklda topshiriqlar beriladi, darslarning mustaqkamlash qismiga ko‘proq to‘g‘ri keladi.

“Impuls – plakat” metodini qo‘llashda o‘qituvchi har bir o‘quvchi uchun vatman varaqlari va markerlar tarqatadi. Stollarning ustiga oxirigacha etkazilmagan fikrlar yozilgan plakatlar qo‘yilgan:

«Ushbu mavzuda meni hammasidan ko‘proq .....qiziqtiradi»,

«Men shuni aniqlashtirmoqchi edimki, ...»,

«Men orttirgan bilimlarimni ..... qo‘llayman»,

«Ushbu mavzuni o‘rganish jarayonida men.....erishdim»,

«Men ..... to‘g‘risida ko‘proq bilib olmoqchi edim»,

«Men uchun .....murakkab bo‘ldi»,

Taxminan 20 daqiqa ushbu savollarni sarlavha qilib olish asosida o‘quvchilar o‘z loyihalarini yaratishadi, Buni guruhlar shaklida ham olib borish mumkin. Har bir loyiha kamida 10 so‘zdan iborat bo‘lishi, ixtiyoriy manbalardan foydalanishi tushuntiriladi. Loyihalar yaratilgandan so‘ng plakatlar ilib qo‘yiladi.

Va o‘quvchilarning aylanib o‘qib chiqish asosida mavzu mustahkamlanadi. Bir o‘quvchi ilg‘amagan narsani vatman varaqdan o‘qishi mumkin.

5-SINF O‘QUVCHILARI O‘QUV FAOLIYATI NATIJALARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

NUTQIY KOMPETENSIYA (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish)
Tinglab tushunish:
- monologik, dialogik nutq va suhbatni eshitib tushuna oladi;
- tinglangan matn (audio matn, hikoya matni)ni tushunadi;
- ko‘rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqea-hodisalarni tushunadi;
- darslikda berilgan grammatik tamoyil va ma’lumotlarni tinglab tushunadi;
- turli sodda matndagi va jadvallardagi ma’lumotlardan kerakli bo‘lgan detal, fikrni tushunadi, taqqoslaydi, ajratadi, umumlashtirib xulosalaydi;
audiomaterialni tinglab, og‘zaki aytib beradi va matn ko‘rinishida yozib beradi;
- **Gapirish**
oilasi, qiziqishlari haqida ravon gapiradi, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi;
turli rasmlarga qarab fikrini og‘zaki bayon qiladi va kundalik buyumlarga mos ta’riflar beradi;
- mantiqiy, kreativ, ijodiy, tanqidiy fikrlaydi va fikrini og‘zaki bayon qiladi;
o‘rganilgan matn, topshiriq, grammatik tamoyil va ma’lumotlarni ketma-ketlikka amal qilgan holda og‘zaki bayon qiladi;
- nutqini adabiy talaffuz me’yorlariga amal qilgan holda, ifodali, ravon, mazmunli va ta’sirchan gapiradi.
O‘qish
- berilgan matnni tinish belgilariga amal qilgan holda ravon o‘qiydi;
- matnning ma’lum qismini o‘qib uni mantiqan davom ettira oladi;
o‘qish mobaynida sodda matnni tushunib, matnning umumiy mavzusini belgilaydi, matnga sarlavha qo‘yadi;
- unli va undoshlarni talaffuz me’yorlariga amal qilgan holda o‘qiydi;
yangi so‘zlarni o‘rganadi va ularni avval o‘rganilgan so‘zlarga bog‘lab eslab qoladi, yangi so‘zlarning ma’nolarini lug‘at va kontekstlar yordamida o‘qib tushunadi, xulosa chiqaradi, xulosani matnda berilgan hodisaga bog‘laydi;
Yozish:
nuqta, so‘roq, undov, vergulni to‘g‘ri qo‘ygan holda sodda gaplar tuzadi;
berilgan tanish mavzu asosida, eshitilgan audiolavha yoki dialog asosida matn tuzadi;
rasm asosida matn tuzib, yozma bayon qiladi;
- mantiqiy, kreativ, ijodiy, tanqidiy fikrlaydi va fikrini yozma bayon qiladi;
- turli matndagi va jadvallardagi ma’lumotlardan kerakli bo‘lgan detal, fikrni tushunib ajratadi, taqqoslaydi, umumlashtirib, yozma munosabat bildiradi;

- husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda10-12 ta gapdan iborat matn yaratadi;
- husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 80-90 ta so‘zdan iborat diktant yozadi;
- Ish qog‘ozlarini (xat, tabriknoma, taklifnoma, e’lon) yozadi.
LINGVISTIK KOMPETENSIYA
Fonetika. Grafika
unli va undosh harflarni biladi va so‘zlarda to‘g‘ri foydalanadi.
tovush almashishi, tovush orttirilishi, tovush tushishi kabi hodisalarni biladi, yozuvda to‘g‘ri aks ettiradi;
bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qiladi;
- nutq tovushlarining ma’no farqlash vazifasini izohlaydi;
- lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini biladi;
- **Talaffuz va imlo me’yorlari**
A va O unlilarining talaffuzi va imlosini, I va E unlilarining talaffuzi va imlosini, U va O‘ unlilarining talaffuzi va imlosini, yonma-yon kelgan unlilar talaffuzi va imlosini izohlaydi;
ayrim undoshlarning talaffuzi va imlosini, Sh, Ch, Ng harflar birikmasining talaffuzi va imlosini, qo‘sh va qator kelgan undoshlar talaffuzi va imlo me’yorlarini biladi;
- bosh xarflar imlosini, so‘zlarni qo‘shib yozish va ajratib yozish imlosini biladi;
asos va qo‘shimchalarning talaffuzi va imlosini izohlaydi.
- **Leksikologiya**
- so‘z va uning ma’nolarini anglaydi, matnda so‘zlardan o‘rinli foydalanadi;
- sinonimlar, antonimlar, omonimlarni biladi, og‘zaki va yozma nutqida ulardan foydalanadi;
- o‘zbek tili leksikasining boyish manbalarini biladi;
- yangi paydo bo‘lgan so‘zlarni biladi, tarixiy va arxaik so‘zlarni bir-biridan farqlaydi;
- terminlarni, kasbiy terminlarni, internet va iqtisodga oid terminlarni, fanga oid terminlarni izohlaydi;
- lug‘at va uning turlarini farqlaydi.
- **Punktuatsiya**
- gaplarda tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llaydi;
- gap va matn tuzishda nuqta, vergul, so‘roq, undov, qo‘shtirnoqdan o‘rinli foydalanadi.
- **Ish qog‘ozlari**
- ish qog‘ozlari (xat, tabriknoma, taklifnoma, e’lon)ni yozadi.

5-sinf Ona tili. 136 soat
Haftasiga: 4 soat

T/r	Bo‘lim va mavzular	Soat	Sana	Uyga vazifa
	I chorak - 36 soat			
	Kirish			
1	Tilning ijtimoiy ahamiyati	1		5 -mashq
2	O’zbek tili - davlat tili	1		10 -mashq
	Takrorlash			
3	Mustaqil so‘z turkumlarini takrorlash. Ot so‘z turkumini takrorlash	1		14 -mashq
4	Sifat so‘z turkumini takrorlash.	1		18 -mashq
5	Son va olmosh turkumini takrorlash	1		23 -mashq
6	Fe’l so‘z turkumini takrorlash.	1		28 -mashq
	Fonetika. Grafika			
7	Tilshunoslik va uning bo’limlari. Fonetika.	1		32 -mashq
8	Matn va lug‘at ustida ishlash.	1		35 -mashq
9	**Nazorat ishi.**	1		Mustahkamlash
10	**Nazorat ishi tahlili.**	1		Takrorlash
11	Nutq tovushlari va harf	1		40 -mashq
12	Matn va lug‘at ustida ishlash	1		44 -mashq
13	Unli tovushlar.	1		51 -mashq
14	Undosh tovushlar	1		57 -mashq
15	Nutq a’zolari.	1		62 -mashq
16	Matn va lug‘at ustida ishlash.	1		65 -mashq
17	**Nazorat ishi.**	1		Takrorlash
18	Nutq tovushlarining aytilishi, va yozilishi	1		69-mashq.
19	Nutq tovushlarining ma’no farqlash vazifasi	1		73-mashq.
20	Matn va mashq ustida ishlash	1		77-mashq

21	Fonetik hodisalar.Tovush orttirilishi	1		80-mashq.
22	Matn va lug‘at ustida ishlash.	1		83-mashq.
23	So‘zlarda tovush tushishi	1		88 -mashq.
24	So‘zlarda tovush almashishi	1		93-mashq.
25	Bo‘g‘in va uning ahamiyati	1		97 -mashq.
26	Mustahkamlash	1		5-topshiriq
27	Matn va lug‘at ustida ishlash	1		101-mashq.
28	**Nazorat ishi.**	1		Takrorlash
29	Urg‘u va uning ahamiyati	1		105-mashq
30	Urg‘u va uning ahamiyati	1		110-mashq.
31	Matn va lug‘at ustida ishlash.	1		113-mashq
32	Yozuvlar tarixi	1		118-mashq.
33	Matn va lug‘at ustida ishlash	1		122-mashq.
34	Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi	1		127-mashq.
35	**Nazorat ishi. Test**	1		Takrorlash
36	Mustahkamlash	1		5-topshiriq
2-chorak 28 soat				
Talaffuz va imlo me’yorlari				
1	Ayrim unlilar imlosi. A va O unlilarining talaffuzi va imlosi.	1		133-mashq
2	I va U unlilarining talaffuzi va imlosi.	1		139-mashq
3	E va O‘ unlilarining talaffuzi va imlosi.	1		144-mashq
4	Matn va lug‘at ustida ishlash	1		147-mashq
5	Yonma-yon kelgan unlilar talaffuzi va imlosi.	1		153-mashq
6	**Nazorat ishi**.	1		Takrorlash
7	G –K undoshlarining talaffuzi va imlosi.	1		159-mashq
8	Q –G‘ undoshlarining talaffuzi va imlosi.	1		166-mashq
9	Matn va lug‘at ustida ishlash	1		170-mashq

10	D va T undoshlarining talaffuzi va imlosi.	1		176-mashq
11	Matn va lug‘at ustida ishlash	1		181-mashq
12	Jj va Dj undoshlarining talaffuzi va imlosi	1		186-mashq
13	Ff va V v undoshlarining talaffuzi va imlosi	1		190-mashq
14	**Nazorat ishi.**	1		Takrorlash
15	X va H undoshlarining talaffuzi va imlosi.	1		196-mashq
16	Z va S undoshlarining talaffuzi va imlosi	1		201-mashq
17	Matn va lug‘at ustida ishlash	1		205-mashq
18	Sh,sh va Ch,ch harflar birikmalari va uning vazifalari.	1		209-mashq
19	Ng harflar birikmalari va uning vazifalari	1		214-mashq
20	Matn va lug‘at ustida ishlash	1		217-mashq
21	**Nazorat ishi.**	1		Mustahkamlash
22	**Nazorat ishi tahlili**	1		Takrorlash
23	Qo‘sh undoshlar talaffuzi va imlosi.	1		221-mashq
24	Qator undoshlar talaffuzi va imlosi.	1		226-mashq
25	Asos va qo‘shimchalar imlosi	1		230-mashq
26	Asos va qo‘shimchalar imlosi(davomi)	1		234-mashq
27	**Nazorat ishi.**	1		Takrorlash
28	Mustahkamlash	1		5-topshiriq
3-chorak 40 soat				
1	Qo‘shib yozish.	1		238-mashq
2	Ajratib yozish.	1		241-mashq
3	Bosh harflar imlosi,	1		244-mashq
4	Chiziqcha bilan yozish.	1		247-mashq
5	Ko‘chirish qoidalari.	1		252-mashq
Leksikologiya				
6	O‘zbek tilining lug‘at boyligi	1		256-mashq

7	So’zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko’ra turlari.	1		260-mashq
8	Sinonimlar. Sinonomik qatorda bosh so’z.	1		263-mashq
9	Matn va lug‘at bilan ishlash.	1		266-mashq
10	Omonimlar. Nutqda omonimlardan foydalanish.	1		271-mashq
11	Antonimlar	1		275-mashq
12	Matn va lug‘at bilan ishlash.	1		280-mashq
13	**Nazorat ishi.**	1		Takrorlash
14	Paronimlar	1		285-mashq
15	Matn va lug‘at ustida ishlash.	1		289-mashq
16	O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari. O‘z va o‘zlashma so‘zlar	1		293-mashq
17	Yangi paydo bo‘lgan so‘zlar.	1		297-mashq
18	Tarixiy va arxaik so’zlar	1		301-mashq
19	Matn va lug‘at ustida ishlash.	1		303-mashq
20	Joy nomlari tarixi	1		308-mashq
21	Matn va lug‘at ustida ishlash.	1		311-mashq
22	**Nazorat ishi**	1		Takrorlash
23	**Nazorat ishining tahlili**	1		Mustahkamlash
24	Ismlar ma’nosi va imlosi	1		316-mashq
25	Matn va lug‘at ustida ishlash.	1		319-mashq
26	Mustahkamlash	1		5-topshiriq
27	Terminlar. Kasbiy terminlar	1		323-mashq
28	Iqtisodiyotga oid terminlar.	1		326-mashq
29	Internetga oid terminlar.	1		329-mashq
30	Matn va lug‘at ustida ishlash	1		333-mashq
31	Aniq fanlarga oid terminlar	1		336-mashq
32	Ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid terminlar.	1		339-mashq
33	Matn va mashq ustida ishlash	1		342-mashq
34	Qavm- qarindoshlik bilan bog‘liq so’zlar	1		345-mashq
35	Mustahkamlash.	1		5-topshiriq
36	**Nazorat ishi.**	1		Takrorlash
37	Iboralar	1		348-mashq
38	Iboralar (davomi)	1		353-mashq
39	Matn va lug‘at ustida ishlash	1		357-mashq

40	**Nazorat ishi. Test**	1		Mustahkamlsh
	4-chorak. 32 soat			
1	Maqollar	1		364-mashq
2	Maqollar (davomi)	1		368-mashq
3	Hikmatli so‘zlar	1		371-mashq
4	Hikmatli so‘zlar(davomi)	1		377-mashq
5	Matn va lug‘at ustida ishlash	1		381-mashq
6	Lug‘at, lug‘at turlari	1		386-mashq
7	Matn va lug‘at ustida ishlash	1		390-mashq
8	**Nazorat ishi.**	1		Takrorlash
9	**Nazorat ishi tahlili**	1		Mustahkamlash
10	Izohli lug‘at	1		394-mashq
11	Izohli lug‘at. (davomi)	1		398-mashq
12	Matn va lug‘at ustida ishlash	1		402-mashq
13	Imlo lug‘ati	1		406-mashq
14	Imlo lug‘ati.(davomi)	1		411-mashq
15	Matn va lug‘at ustida ishlash	1		415-mashq
16	Mustahkamlash.	1		6-topshiriq
17	**Nazorat ishi.**	1		Takrorlash
	Punktuatsiya			
18	Punktuatsiya bo‘limi haqida ma’lumot.	1		421-mashq
19	Nuqta, vergulning ishlatilishi.	1		425-mashq
20	So‘roq belgisining ishlatilishi,	1		430-mashq
21	Undov belgisining ishlatilishi	1		434-mashq
22	Qo‘shtirnoqning ishlatilishi	1		439-mashq
23	**Nazorat ishi .**	1		Takrorlash
	Ish qog‘ozlari			
24	Ish qog‘ozlari. E’lon, xat	1		443-mashq
25	Ish qog‘ozlari.E’lon, xat (davomi)	1		447-mashq
26	Ish qog‘ozlari bilan ishlash . Tabriknoma	1		449-mashq
27	Ish qog‘ozlari. Taklifnoma.	1		452-mashq
	O‘quv yili oxirida takrorlash			
28	Fonetika va grafika bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash.	1		456-mashq
29	Imlo (orfografiya) bo‘yicha takrorlash.	1		463-mashq

30	Leksikologiya bo‘yicha takrorlash.	1		472-mashq
31	**Nazorat ish.**	1		Takrorlash
32	Lug‘atshunoslik bo‘yicha takrorlash.	1		475-mashq
Jami		**136 soat**		

t/r	Nazorat ishi va uning turi	I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak
1	Diktant	1	1	1	1
2	Bayon	1	1	1	1
3	Matn tuzish. Taassurot yozish	1	1	1	1
4	Test	1	1	1	1

Diktantni baholash mezoni

Diktant o‘quvchilarning savodxonligini tekshirish bilan birga til qurilishi bo‘yicha olgan bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash ko‘nikmasi va yozma nutq hosil qilish malakasini tarkib toptirishga qaratiladi.

Tanlangan diktant matni quyidagi talablarga mos bo‘lishi lozim:

– o‘quvchilarning o‘quv yili davomida o‘rgangan mavzulari yuzasidan bilim va malakalarini mustahkamlashga hamda savodxonligini tekshirishga xizmat qilishi;

– diktant matnining hajmi 80-90 ta so‘zdan iborat bo‘lib, o‘tilgan mavzularga to‘la muvofiq keladigan va olingan bilimlarni sinash imkoniyatini beradigan material tanlanishi;

– tanlangan matn o‘quvchiga ma’lum darslikdan olinmay, imkon qadar ijodiy bo‘lishi, mustaqil o‘qilgan yoki o‘quvchiga notanish bo‘lgan asarlardan olinib, ta’limiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi lozim.

Diktant o‘qib eshittirish orqali yozdiriladi. Diktant yozilgandan so‘ng matn qayta ifodali o‘qib beriladi.

Diktant quyidagi baholash mezoni asosida baholanadi

MEZONLAR	BALL
Husnixat bilan yozilgan, 1 ta imlo 2 ta ishoraviy xatosi bo‘lgan diktantga qo‘yiladi. (bu 1/ 2 shaklida belgilanadi)	5 ball
Xatolar soni turlicha bo‘lishi mumkin: 2 ta imlo, 2 ta ishoraviy xato; 1 ta imlo, 3 ta ishoraviy xato; 0 imlo, 4 ta ishoraviy xato. (Bu: 2/2; 1/3; 0/4) Xatolar nisbati o‘zgarishi mumkin, lekin ularning umumiy miqdori 5 tadan, imlo xatolar soni 2 tadan oshmasligi kerak.	4 ball

4 ta imlo, 4 ta ishoraviy xato; 3 ta imlo, 5 ta ishoraviy xato; 0 imlo, 7 ta ishoraviy xato; 4 ta imlo, 6 ta ishoraviy xato. (Bu: 4/4; 3/5; 0/7; 4/6) Ammo, imlo xatolar soni 4 tadan oshmasligi kerak.	3 ball
7 ta imlo, 7 ta ishoraviy xato; 6 ta imlo, 8 ta ishoraviy xato; 5 ta imlo, 9 ta ishoraviy xato; 8 ta imlo, 6 ta ishoraviy xato. (Bu: 7/7; 6/8; 5/9; 8/6) Har qanday 7 tadan ortiq imlo xatoga qo‘yiladi.	2 ball

Izoh:

1. Belgilangan mezonlardan ortiqcha xatoliklar bo‘lsa, “1” ball qo‘yiladi.

2. Diktantga baho qo‘yishda belgilangan mezonda chegara bo‘lishi kerak. *Masalan: “4” baho uchun imlo xatolar soni 2 tadan, “3” baho uchun imlo xatolar soni 7 tadan ortiq bo‘lishi kerak.*

3. Diktant matnidagi tuzatishlar soni 3ta yoki undan ortiq bo‘lgan diktantga “5” baho qo‘yilmaydi.

4. Tuzatishlarning soni 5 ta yoki undan ko‘p bo‘lsa, diktant bahosi o‘z-o‘zidan 1 ballga pasaytirilib qo‘yiladi. Bunday holatda, masalan, “4” baho “3” bahoga tushiriladi.

Agar ishoraviy xatoliklar umuman bo‘lmay, faqat 4, 5 ta imloda xato bo‘lsa, “3” baho qo‘yiladi.

Ijodiy bayon va uning baholash mezoni

Ona tili fanidan o‘quvchilarning DTSda belgilangan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarning elementlari qay darajada shakllanganligini, hamda fikrini mantiqiy izchillikda, ona tilining keng imkoniyatlaridan o‘rinli foydalangan holda ravon va to‘g‘ri bayon eta olish malakasi, fikr bayon etilayotgan soha bo‘yicha o‘quvchining bilimlari kengligi va chuqurligi, tuzgan matnining imloviy, uslubiy, savodlilik darajasini aniqlash maqsadida, o‘quvchilar nazorat darslarida bayon yozadilar.

Tasviriy vositalardan foydalanib bayon yozishda o‘quvchi matn mazmuniga bog‘lab, mustaqil ravishda ayrim narsa, voqea hodisalarni tasvirlaydi. Boshlab berish yo‘li bilan bayon yozishda boshlanishi berilgan matnni o‘quvchilar ijodiy davom ettirib, uni to‘liq matn shakliga keltiradilar. O‘quvchining yozgan bayoni mazmun izchilligi va lisoniy qurilishi jihatidan talab darajasida bo‘lishi bilan birga, savodli bo‘lishi kerak. Shuningdek, bayonning reja asosida yozilishiga erishilishi zarur. Aniq tuzilgan reja o‘quvchi bayonining izchil mantiqiy bo‘lishini taminlaydi.

Ijodiy bayon uchun ikkita baho (mazmuniga va savodxonligiga, 5/5

tarzida) qo‘yiladi.

Ijodiy bayon quyidagi baholash mezoni asosida baholanadi:

Baho	Mazmuni	Savodxonligi
“5”	– yozma ishning rejasi mavzu mazmunini to‘liq qamrab olgan bo‘lsa; – ish mazmuni mavzu rejasi bilan to‘liq mos kelsa; – yozma ish mazmuni tizimli, uzluksiz ravishda yoritilgan bo‘lsa; – yozma nutqning leksik boyligi, so‘zlarning o‘z o‘rnida ishlatilishi va sintaktik gap qurilishining har xilligi bilan ajralib tursa; – yozma ishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hikmatli so‘z, maqol va statistik ma’lumotlardan o‘rinli foydalangan, hamda keltirilgan ma’lumotlar asosli bo‘lsa; – yozma ishda adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda, mavzu mazmuni hozirgi davr bilan bog‘liq umumiy xulosalangan bo‘lsa.	Matn husnixat bilan yozilib , 1ta imlo, 1ta ishoraviy xato, 1ta grammatik xatoliklar bo‘lsa, bu 1/1/1 shaklida belgilanadi.
“4”	– yozma ish rejaga mos mazmuni batafsil yoritilgan, ammo ayrim joylarida keltirilgan voqea-tasvirlarda noaniqliklar mavjud bo‘lsa; – milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hikmatli so‘z, maqollardan o‘rinli foydalangan, ammo mustaqil fikrlar bayon qilishda ketma-ketlik qisman buzilgan bo‘lsa; – yozma nutqning leksik, grammatik tuzilishini turlicha qo‘llagan bo‘lsa; – matn mazmunining qurilishi yagonaligi va ifodaliligi bilan ajralib tursa; – mavzu adabiy til me’yorlariga amal qilgan, umumiy xulosalangan bo‘lsa, ammo matn mazmunida mavzudan biroz chetga chiqishlar bo‘lsa;	Bu yozma ishda xatolar soni quyidagicha bo‘lganda: 2/2/3; 1/3/3; 0/4/3. Biroq grammatik xatolar soni 3 tadan, imlo xatolarning umumiy soni 2 tadan oshmasligi kerak.

“3”	– yozma ish aniq yozilgan, ammo matndagi 3–4 faktlarda xatoliklar bor bo‘lsa; – yozma ishda belgilangan mavzudan chetlashlar (mavzuga aloqasi bo‘lmagan ma’lumotlar) mavjud bo‘lsa; – yozilgan matnning mavzuga mosligi 70% dan kam bo‘lgan holatlarda; – matnning rejalarini yoritishda ketma-ketlik buzilsa; – yozma nutqda leksik boyligi yo‘q, gap tuzish usullari bir xil bo‘lsa; – matnning qurilishida bir xillik yo‘q, ifodali yoritilmagan bo‘lsa.	Bunda xatolar quyidagicha bo‘lganda: 0/5/7; 1/4-7/4; 2/3-6/4; 4/4/4; 3/5/4
“2”	– yozma ish mazmuni rejaga umuman to‘g‘ri kelmagan bo‘lsa; – ma’lumotlarda xatoliklar ko‘p bo‘lsa; – matn mavzuga mosligi 50% dan kam bo‘lsa; – mavzuni yoritishda ketma-ketlik butunlay buzilgan, mavzu bilan reja bir-biriga to‘g‘ri kelmasa; – yozma ishning matnida qisqa bir xil tipdagi umumiy so‘zlarni o‘rinsiz qo‘llash holatlari kuzatilsa;	Xatolar soni turlicha bo‘lishi mumkin: – yozma ishda ishoraviy xatoliklar qancha bo‘lishidan qat’i nazar, 5ta imlo xato qilganda; – 8 yoki undan ortiq ishoraviy xato, imlo xatoliklar, grammatik xatolar soni 5 ta bo‘lganda.
“1”	yuqorida ko‘rsatilgan mezonlardan past darajada yozilgan matnga qo‘yiladi.	7 va undan ortiq grammatik xatoliklar bo‘lsa.

Eslatma:

1. Yozma ishni baholashda o‘quvchining mustaqil fikrlari, qiyoslash, tasvirlash uslubi, zamonga mos talqinlar, yozma nutq savodxonligi, gap qurilishi yagona fikrlarning o‘rinli ishlatilishi, ijodiy yondashishiga qarab bir ballga oshirib qo‘yilishi mumkin.

2. Agar matnning hajmi belgilangan betdan 1,5 yoki 2 baravar ortiq bo‘lsa, yuqorida ko‘rsatilgan mezondan bittaga oshiriladi. Ammo “5” baho qo‘yiladigan yozma ish bundan mustasno. Masalan, “4” baho qo‘yiladigan yozma ishda xatolar sonini har biridan (yuqorida belgilangan imlo, ishora kabi) 1 taga, “3” qo‘yiladigan yozma ishda 2 taga oshiriladi.

3. Matnning mavzusi umuman yoritib berilmagan bo‘lsa, birinchi baho tog‘ridan tog‘ri qoniqarsiz qo‘yiladi.

KIRISH

1-d a r s. TILNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Darsning ta'limiy maqsadi: *o'quvchilarga tilning jamiyatda va insonlar hayotida tutgan o'rnini tushuntirish, tilning ijtimoiy ahamiyati haqida tasavvurlar hosil qilish;*

tarbiyaviy maqsad: *o'quvchilarni ona tili va dunyo tillariga nisbatan bag'rikenglik ruhida tarbiyalash;*

rivojlantiruvchi maqsad: *o'quvchilarda mustaqil til ko'nikmalarini shakllantirish.*

Darsni noan'anaviy usullarda boshlash maqsadga muvofiq. 1- va 2-topshiriq o'quvchilarning *O'QIB TUSHUNISH* , o'qish savodxonligini shakllantirishga yo'naltirilgan. **"Kim zukko?" o'yini** orqali savollar o'rtaga tashlanadi va o'quvchilardan javoblar olinadi.

1. "Til – ijtimoiy hodisa" deganda nimani tushunasiz?

2. Siz hozir qaysi tillarni o'rganyapsiz?

3. Ona tilidan tashqari boshqa xorijiy tillarni bilish hayotda qanday ahamiyat kasb etadi?


Sundan so'ng ***topshiriqdagi*** **Shoir To'ra Sulaymonning fikrlari audio orqali tinglanadi.**

Til – millatning ko'zgusi, deydilar. Bu ko'zguni gard-g'uborlardan, chang-to'zonlardan soniya sayin tozalay borish har birimizning farzandlik, fuqarolik burchimizdir. Til – o'zagimizning, o'zligimizning, o'ziga bekligimizning bosh belgisidir. Til – millatning ruhi, – deyiladi, – til yo'qolsa, millat ham tamom bo'ladi. Til yashasa, millat ham yashaydi.

Til haqida berilgan ma'lumotdan so'ng To'ra Sulaymon tilning *"o'zagimizning", "o'zligimizning", "bekligimizning bosh belgisi"* deganda nimalarni nazarda tutgani o'quvchilardan so'rab, fikrlar umumlashtiriladi. (O'quvchilarning *GAPIRISH* ko'nikmasi shakllantiriladi)

2-topshiriqni berishdan avval monitorda yoki doskada Alisher Navoiyning rasmi va u tomonidan aytilgan fikr namoyish etilib, unga o'quvchilarning munosabati so'raladi. Bu topshiriqni bajarishdan maqsad o'quvchilarning TINGLAB TUSHUNISH ko'nikmalarini shakllantirish hisoblanadi.

Bunda Alisher Navoiyning ona tilimizga nisbatan katta hurmat va e'tibor bidan qaragani, o'tmishda va u yashagan davrda xalqimiz ish yuritishda, asosan, arab, fors tillaridan foydalangani, Navoiy millat fidoyisi, turkiy tilning jonkuyari sifatida o'zbek tilining jamiyatdagi



mavqeyini ko‘tarish uchun astoydil kurashgani tushuntiriladi. Uning asarlaridan parchalar o‘qib, izohlanadi, “Muhokamat ul-lug‘atayn”asarining ona tilimiz mavqeyini ulug‘lashdagi o‘rni izohlab beriladi.

Dunyo tillarining rang-barangligi, ular ichida o‘zbek tilining tutgan o‘rni, oilada, ko‘chada, maktabda, jamoat joylarida odamlar qaysi tillardan foydalanayotgani savol-javoblar asosida aniqlanadi. So‘ng o‘quvchilarning e’tibori 1-mashqdagi rasmga qaratiladi**.**

O‘quvchilar rasmdagi rus, ukrain, belorus, qirg‘iz, qozoq, tatar koreys va boshqa millat vakillarini tanib, ularning tillari o‘zbek tilidan farqlanishini yoki o‘xshashligini aytadilar.

O‘qituvchi til so‘zining o‘zbek, qirg‘iz, qozoq tillarida bir xil *“til”* tarzida aytilishini, rus, ukrain, belorus tillarida ham *“язик”* ko‘rinishida qo‘llanilishini, sababi yuqoridagi tillar bir-biriga qarindosh ekanligini tushuntirib beradi. Qarindosh bo‘lmagan tillarda bir-biridan keskin farq qilishini ingliz tilidagi *“tongue”, “linguage”* so‘zlari misolida tushuntiriladi.

2-mashqni ishlashda ham o‘quvchilar faollikka tortiladi. Ularga *1. Ijtimoiy hodisa deganda nimani tushunasiz? 2. Til ijtimoiy hayotimizning qaysi sohalarida ishlatiladi? 3. Respublikamizda qaysi tillardan foydalanamiz?* kabi savollar tashlanadi va javoblar olinib, umumlashtiriladi. Ushbu mashq o‘quvchilarning *GAPIRISH* ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilardan quyidagi fikrlarga munosabat bildirish so‘raladi.

1. Til bilmasdan chet ellarga borgan odam qiyin vaziyatga tushib qoladi.

2. Til yo‘qolsa, millat ham yo‘qolib ketadi.

3. Inson o‘z hayoti davomida ko‘plab tillarni o‘rgana olishi mumkin.

4. Til – og‘zaki so‘zlashuv quroli. Uni o‘qimasdan turib ham o‘zlashtirsa bo‘ladi.

5. Til – millat mulki. Uni e’zozlash va qardlash lozim.

6. Inson o‘z hayoti davomida 10 tadan ortiq tilni o‘rgana olmaydi.


Aytilgan fikr-mulohazalar asosida quyidagi nazariy fikr o‘quvchilarga o‘qitiladi, 3–4 ta o‘quvchidan qayta so‘zlash so‘raladi.

Til kishilar o‘rtasidagi aloqa-aralashuv qurolidir. Shunga ko‘ra u ijtimoiy hodisa sanaladi. Til vositasida fikrlaymiz va boshqalarga fikrimizni uzatamiz. Tilni xalq yaratadi va unga sayqal beradi.

Lug‘at: ijtimoiy – inson va jamiyat hayotiga oid

O‘qituvchi nazariy qoidadagi tushuntirishda kalit so‘z sanalgan *ijtimoiy* so‘zining izohiga alohida urg‘u berishi lozim.

3-mashq. **O‘quvchilar** *GAPIRISH* **ko‘nikmasi asosida rasmdagi turli millat vakillarining ona tili qaysi til ekanligini bayon etadilar.**



Yechim:

O‘zbekning ona tili - o‘zbek tili, qozoqning ona tili - qozoq tili, tojikning ona tili - tojik tili, tatarning ona tili - tatar tili.

4-mashqda **o‘quvchilar Til haqidagi maqollarni davom ettiradilar.**

Yechim:

	Taom lazzati tuzida, inson izzati so‘zida	
Tig‘ jarohati bitar, til jarohati bitmas	Tilingda bo‘lsa boling, Kulib turar iqboling	Til bor, bol keltirar, til bor- balo

5-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Til haqida maqol, she’r, rivoyatlar topib, yozib kelish.**

2-d a r s. O‘ZBEK TILI – DAVLAT TILI

Darsning ***a)*** **ta’limiy maqsadi:** *o‘quvchilarda davlat tili haqida tushuncha va tasavvurlar hosil qilish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o‘quvchilarda ona tilidan faxrlanish va g‘ururlanish tuyg‘ularini rivojlantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda davlat tilida ish yuritish ko‘nikamasini shakllantirish.*

Dars boshlanishida o‘qituvchi monitorda yoki xattaxtada “O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqida”gi Qonun matnini qo‘yishi va darsni interfaol usullar yordamida tashkil etish maqsadga muvofiq. Buning uchun o‘qituvchi “Brainboard”(aqlli doska) metodi orqali ***“So‘z xazinasi”*** sarlavhasi ostida *davlat, millat, xalq* so‘zlarini yozuv taxtasiga yozadi.Bunda o‘quvchilarning ***YOZISH*** ko‘nikmasi rivojlantiriladi.

O‘quvchilardan *davlat, millat, xalq* tushunchalari haqidagi fikrlari so‘raladi. Ular so‘zlarni izohlagach, o‘qituvchi ushbu so‘zlarni umumlashtirib beradi.

Xususan, o‘qituvchi O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti tomonidan

2006–2008 yillarda nashr etilgan 5 jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *davlat, millat, xalq* so‘zlariga berilgan izohlarni o‘quvchilarga yetkazishi lozim bo‘ladi. Bunda o‘quvchilarning *TINGLAB TUSHUNISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Yechim:

DAVLAT – o‘z fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy huquqlarini himoya qiluvchi, bunga qarshi turuvchi kuchlarning qarshiligini sindiruvchi hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlar tizimiga ega bo‘lgan **mustaqil mamlakat**.

MILLAT – kishilarning yagona tilda so‘zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, madaniyat va ruhiyatga ega bo‘lishi asosida tarixan tarkib topgan barqaror birligi.

XALQ – odamlarning ko‘pligi, kishilarning tarixiy birligi, muayyan joyda istiqomat qiluvchi aholi.

O‘qituvchi davlat, millat, xalq so‘zlarining bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar sanalishini, ular qatorida har bir mustaqil davlatning boshqa davlatlar o‘rtasidagi o‘rnini ko‘rsatib berishda tilning alohida o‘rin tutishini o‘quvchilarga atroflicha tushuntirib berishi darkor bo‘ladi. Shunga ko‘ra 80-yillarning oxirida ijtimoiy hayotimizda ro‘y bergan o‘zgarishlar, o‘zbek xalqining o‘zligiga qaytishi va bu jarayonda ona tilining mavqeyi, nufuzi uchun kurashning muhim ahamiyatga ega bo‘lishi, pirovard maqsadda 1989-yilning 21-oktabrida qabul qilingan “O‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish to‘g‘risida”gi Qonuni haqida ham alohida to‘xtab o‘tish kerak bo‘ladi.

Topshiriq. **Muhammad Yusufning “*Ona tilim*” she’ridan olingan parcha tinglanadi. *TINGLAB TUSHUNISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi)**

Sen bo‘lmasang, nima bizga silliq she’rlar,
Bu dunyoda tili yo‘qda dil yo‘q, – derlar.
Bahoying-ku berib ketgan Alisherlar,
Yuragimning to‘ridagi so‘nmas gulim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Yuqoridagi she’rda ilgari surilgan g‘oyaga “Munosabat bildiring”da ilova qilingan “Tili yo‘qda dil yo‘q”, degan tushuncha izohlanadi.

So‘ngra ***6-mashq*** o‘qitiladi. O‘quvchilarning *O‘QIB TUSHUNISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi.

O‘qituvchi FSMU – metodi asosida o‘quvchilarga to‘rtta bosqichda yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi.

F – mavzu bo‘yicha fikringizni bayon eting
S – fikringiz sababini ayting
M – misollar keltiring
U – umumlashtiring.



O‘zi o‘zbek bo‘la turib, ona tilida gapira olmaydigan insonlarning hayotda uchrab turishi, ularga hayotda juda qiyin bo‘lishi haqida aytiladi. Amerika, Germaniya, Xitoy, Fransiya, Hindiston kabi 70 dan ortiq mamlakatlarda o‘zbek tilining o‘rganilayotgani haqida o‘quvchilarga faktik materiallar yetkaziladi, o‘zbek tilini o‘rganayotgan chet el fuqarolar haqida ma’lumotlar beriladi. Masalan, **Yaponiyalik Komatsu** tilshunos olim sanaladi. U o’zbek tilini mustaqil o‘rgangan. O’zbek tilini chuqur o‘rganish maqsadida 1976–1981-yillar mobaynida O‘zbekistonga to‘rt marta safar qilgan. O‘zbek tili bo‘yicha **«Oson o‘zbek tili» asarini va «O‘zbekcha -yaponcha lug‘at»ini nashr qildirgan.** *(E. Umarov)*

Darslik qahramonlari Komiljon va Donoxonlarning savollariga o‘quvchilar fikr beradilar.

Komiljon: – Nima uchun har bir millat o‘z ona tilining taqdiri uchun kurashadi?

Donoxon: – Davlat tilida ish yuritish deganda nimani tushunasiz?

1989-yilning 21-oktabr kuni o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Shundan boshlab jamiyatimizda ona tilimizning obro‘yi oshdi. Majlislar, ish yuritish, asosan, o‘zbek tilida olib boriladigan bo‘ldi.

Mustaqillik tufayli bu ish yanada jadallashdi. Milliy qadriyatlarimizni, tariximizni o‘rganish uchun keng yo‘l ochildi. O‘zbek tilining xalqaro nufuzini ko‘tarish bo‘yicha amaliy ishlar boshlandi.

Lug‘at: nufuz – obro‘-e’tibor, ta’sir

7-mashq. **Qoida (nazariy matn)ga asoslanib savollarga javob qaytariladi. (O‘quvchining *GAPIRISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi.)**

1. Davlat tilining mavqeyi deganda nimani tushunasiz?
2. Qachondan boshlab majlislar, ish yuritish (hujjatlar) o‘zbek tilida olib boriladigan bo‘ldi?

8-mashq. **O‘zbek tilining nufuzini ko‘tarish uchun yurtimizda olib borilayotgan ishlar haqida 3 ta ma’lumot yozing.**

(*YOZISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi)

Masalan:

1989-yil 21-oktabr kuni “O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqida”gi Qonunning qabul qilinishi, uning olamshumul ahamiyati to‘g‘risida o‘quvchilarga ma’lumotlar berishi zarur.

Mustaqillik yillarida ona tilining mavqeyini oshirish bo‘yicha qanday ishlar qilinayotgani yuzasidan o‘quvchilardan fikrlar so‘raladi. Natijada, o‘quvchiga *GAPIRISH* ko‘nikmasini rivojlantirishga yordam beriladi. Ularning fikr-mulohazalari asosida o‘qituvchi o‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish borasida hozirda amalga oshirilayotgan ishlar ustida to‘xtaladi.

9-mashq. **O‘quvchilar o‘z ism-familiyasini to‘liq yozadilar. Ular O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi Qonunining quyidagi bandiga to‘g‘ri kelishi haqida suhbat o‘tkazadilar.**

15-modda. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o‘z millatidan qat’i nazar, o‘z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an’analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

10-mashq. ***Uyga vazifa.***

1. O‘zbekiston Respubli kasi “Davlat tili haqida”gi Qonunining quyidagi moddasiga diqqat qiling:

6-modda. Televideniye va radioeshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

I. Shu moddaga tayanib, “Bolajon” kanalidagi o‘zingizga yoqqan o‘nta ko‘rsatuvning nomini yozing.

1.
2.
3…



II. Muhammad Yusufning “Ona tilim” she’rini to‘liq yodlang.

3-dars. MUSTAQIL SO‘Z TURKUMLARINI TAKRORLASH. OT SO‘Z TURKUMINI TAKRORLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o‘quvchilarda mustaqil so‘z turkumlari va ot so‘z turkumi yuzasidan hosil qilingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o‘quvchilarda vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarni mustaqil fikrlarga o‘rgatish.*

Darsni o‘quvchilarning *O‘QIB TUSHUNISH* ko‘nikmasini shakllantirish bilan boshlash maqsadga muvofiq.

Topshiriqdagi matn **o‘quvchilarga o‘qitiladi. Shahobiddin Nasaviyning Jaloliddin Manguberdi to‘g‘ risida yozgan fikrlariga diqqat qilinadi.**

O‘qituvchi Jaloliddin Manguberdi to‘g‘risidagi matnni o‘quvchilarga o‘qitib, ulardan ”Mardlar qo‘riqlaydi Vatanni” mavzusida og‘zaki matn tuzishni so‘raydi. Bu orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini va og‘zaki nutqini o‘stirishni rejalashtiradi. “Zinama-zina“ usulida Manguberdiga xos sifatlar, *shijoatli, mard, irodali, sarkarda* so‘zlari izohi va mazkur so‘zlarning qaysi so‘z turkumiga kirishi haqida so‘raladi. (O‘quvchida GAPIRISH ko‘nikmasi shakllantiriladi)

O‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarning mustaqil so‘z turkumlari va ot yuzasidan boshlang‘ich sinflarda hosil qilingan bilim hamda ko‘nikmalarini mustahkamlashga, o‘quvchilardagi vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratishi kerak. Mustaqil so‘z turkumlariga xos bo‘lgan leksik ma’no anglatishi, muayyan so‘roqqa javob bo‘lishi, gap bo‘lagi vazifasini bajarishi kabi belgilar o‘quvchilar bilan bo‘ladigan savol-javoblar jarayonida yuzaga chiqib turishi kerak. Masalan, *“Jaloliddin shijoatli, sherlar ichra sher edi”* gapida ishtirok etayotgan *sher* va *ichra* so‘zlari misolida ko‘rsatib berishi mumkin.

Bu mashqni “Tushunchalar tahlili” texnologiyasi orqali bajarish mumkin.

So‘z	Leksik ma’nosi	So‘rog‘i	Gapdagi vazifasi
sher	yovvoyi hayvon	nima?	ikkinchi darajali bo‘lak
ichra	leksik ma’no anglatmaydi	yo‘q	-

11-mashqni **bajartirishda o‘qituvchi rasmda “Mustaqillik maydoni”ning ko‘rki sanalgan “Ezgulik monumenti” tasvirlanganini aytib, u haqda o‘quvchilarga gapirib beradi va matn tuzishni so‘raydi, matndagi so‘zlar jadvalga joylashtiriladi.(O‘quvchilarda *TINGLAB TUSHUNISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi.)**

Matn:

“Rasmda “Ezgulik arkasi” tasvirlangan. U 2005-yil 1-sentabrda qurib bitkazilgan, uzunligi 150 metr, ikki tomoni o‘n metr, o‘rta peshtoqi o‘n ikki metr balandlikka ega, qator ketgan o‘n oltita oq marmar ustunlardan iborat. Bu joy o‘zbekistonliklarning eng aziz va muqaaddas joylaridan biri”.



Matndagi so‘zlar quyidagi tartibda jadvalga solinadi.

Kim? Nima?	Qanday? Qaysi?	Nima qilmoq?	Qancha?	Qachon?
“Ezgulik arkasi”	eng aziz	tasvirlangan	150 metr	2005-yil 1-sentabr

O‘quvchilar ham ***YOZISH*** ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida mustaqil matn yaratadilar. Matndagi so‘zlarni jadvalga joylashtiradilar.

12-mashq. **O‘quvchilar berilgan savollarga javob yozadilar. (*YOZISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi)**

1. O‘zbekiston Respublikasining maydoni necha kv. km?
Yechim: **448.978 kv.km**.
2. O‘zbekiston qaysi davlatlar bilan chegaradosh?
Yechim: Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Afg‘oniston, Turkmaniston.
3. O‘zbekiston BMTga qachon a’zo bo‘lib kirgan?
Yechim: 1992-yil 2-mart.
4. Mustaqil so‘zlar deb qanday so‘zlarga aytiladi?
Yechim: Mustaqil so‘roqqa javob bo‘ladigan, gap bo‘lagi vazifasida keladigan so‘zlar.
5. Ot so‘z turkumining belgilarini aytib bering.
Yechim: **Kim? Nima? qayer? So‘rog‘iga javob bo‘ladi. Gapda bosh va ikkinchi darajali bo‘lak va undalma vazifasida kela oladi.**
6. *Istiqlol, ozodlik, erkinlik* degan so‘zlarning sharhini yozing.
Yechim:
Istiqlol- Ozodlik- Erkinlik-

13-mashqda **“Kim ko‘p davlat nomini yozadi?” o‘yini** tashkil etiladi. Darslikda quyidagi davlatlar bayroqlari aks etgan:

1. O‘zbekiston 2. Qozog’iston3. Xitoy 4. Rossiya 5. Buyuk Britaniya (Angliya) 6. AQSH



14-mashq. Uyga vazifa. Yer sharining qayerlariga borishni orzu qilasiz va nima uchun? Shu haqda hikoya tuzib kelish.

4- d a r s. SIFAT SO‘Z TURKUMINI TAKRORLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o‘quvchilarda sifat so‘z turkumi yuzasidan hosil qilingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o‘quvchilarda komil inson sifatlarini rivojlantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarni ijodiy fikrlarga o‘rgatish.*

Darsni tashkil etishda o‘qituvchi M.Jabborovning *“Komil inson g‘oyasining tarixiy-falsafiy asoslari”* (Toshkent: Tafakkur, 2011. – 256 bet) kitobida komil insonga berilgan quyidagi ta’rif bilan boshlashi maqsadga mos keladi. (O‘quvchilarda *TINGLAB TUSHUNISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi)

Komil inson g‘oyasi – ham milliy, ham umuminsoniy mohiyatga ega bo‘lgan, odamzotga xos eng yuksak ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliyjanob g‘oyadir. Komil inson g‘oyasi qadimiyatdan xalqimizning ezgu orzusi, milliy ma’naviyatimizning uzviy bir qismi bo‘lib kelgan.

Shunga binoan, darsda berilgan 15-mashq bajartiriladi. Topshiriqni bajartirishda o‘quvchilar “Men bilib oldim, sen-ch?” texnologiyasi asosida komil inson haqidagi savollarga javoblar beradilar.(*GAPIRISH* ko‘nikmasi rivojlantiriladi)

Oqillar suhbatidan xulosa chiqarish komillik sari yetaklaydi. Siz nima deysiz?	Alisher Navoiy kabi allomalarimizni nima uchun komil inson deb hisoblaymiz?
Komil inson yaxshi oilada tarbiya topadi. Shu fikrga qo‘shilasizmi?	Inson kamolotida badiiy asarlarni o‘qish qanday o‘rin tutadi?

Topshiriq. **Hikmatli so‘zlarni o‘qing. Ularda ilgari surilgan fikrlarga diqqat qiling.**

O‘quvchilarning *O‘QIB TUSHUNISH* ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, unda Abdurauf Fitrat**,** Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy kabi allomalarning hikmatli so‘zlari asosida komil insonga va sifat so‘z turukmiga oid so‘zlar aniqlanadi. Masalan, Abu Nasr Farobiyning “Aql yomonlikka qaratilsa, inson razil, makkor, aldamchi bo‘lib qoladi” degan gapi ichida berilgan razil, makkor, aldamchi so‘zlarining komil inson sifatlariga zid turishi izohlanadi. Chunki komil inson insonparvar, rahmdil, samimiy, rostgo‘y bo‘lishi tushuntiriladi. O‘quvchilarning ham aytilgan ijobiy sifatlarga ega bo‘lishi lozimligi uqtiriladi. Shu bilan birga mazkur so‘zlarning sifat so‘z turkumiga kirishi aytiladi. Boshqa buyuk insonlarning hikmatomuz gaplaridan namunalar keltiriladi.

16-mashq **o‘quvchilarning *YOZISH* ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Berilgan so‘zlarni jadvalga namunadagi kabi kiritish topshirig‘i beriladi.**

Yechim:

Ijobiy sifatlar	Salbiy sifatlar
rostgo‘y, halol, or-nomusli, ishbilarmon, o‘qimishli, hayoli, odobli, g‘ururli, xalqparvar, kamtar, kitobsevar, adolatli	yolg‘onchi, ayyor, o‘jar, nodon, dangasa, janjalkash, kaltafahm, cho‘rtkesar, betgachopar, uyquchi, besabr, andishasiz...

17-mashq “O‘z o‘rningni top” grammatik topshirig‘i orqali bajariladi. Audio orqali yoki o‘qituvchi yordamida Alisher Navoiy haqidagi matn tinglanadi *(TINGLAB TUSHUNISH)*



Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir, barcha xalqlar uchun yoqimlidir. Odob kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor qiladi.Yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo‘ladilar.

(“Ibratli hikoyatlar”dan)

(O‘quvchilar matndagi ot va sifat turkumiga oid so‘zlarni jadvalga joylashtiradilar)

Yechim:

OT	SIFAT
inson	*odobli*
odam	*yaxshi*
xalqlar	*yoqimli*
duo	*kichik*
baraka	*yoshli, yosh*
	katta

18-mashqda **o‘quvchilarga yuqoridagi fikrlar asosida “Alisher Navoiy o‘gitlariga amal qilaman” mavzusida matn tuzib kelish uyga vazifa qilib topshiriladi.**

5-dars. SON SO‘Z TURKUMINI TAKRORLASH. OLMOSH TURKUMINI TAKRORLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o‘quvchilarda son va olmosh so‘z turkumlari yuzasidan hosil qilingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o‘quvchilarda tadbirkorlik sifatlarini rivojlantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarni ijtimoiy faollikka o‘rgatish.*

Darsni matematika fanidan o‘quvchilarda hosil qilingan bilim va ko‘nikmalarni takrorlashdan boshlash mumkin. O‘quvchilardan “ Debat” metodi asosida mazkur fanda ko‘p ishlatiladigan so‘zlar haqida gapirib berish so‘raladi. (O‘quvchilarning *GAPIRISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi) Shuningdek, darslik qahramoni Komiljonning tengdoshlarida bergan savoliga ham to‘xtab o‘tiladi.

Topshiriqda Said Ahmadning “Haykal” hikoyasidan olingan parcha ustida *O‘QIB TUSHUNISH* (o‘qish savodxonligi)ni shakllantirish uchun foydalaniladi.Matndagi ajratilgan so‘zlarga savol berib ularning vazifasini aniqlash mumkin.

Yechim:

Buxoro ko‘chalarida xayolchan kezarkanman, **bir to‘da** (qancha? , ikkinchi darajali bo‘lak) sayyohlar boshi bulutga chulg‘angan minoraga qarab turishganini ko‘rdim. **Ularga** (kimlarga?, ikkinchi darajali bo‘lak) bir kishi minora tarixini tushuntiryapti. Quloq soldim.

– **Yetti yuz yil** (qancha?, ikkinchi darajali bo‘lak) bo‘lgan bu minoraning qurilganiga. Sayyohlar hayrat bilan yoqalarini ushlashdi. Buxoro ko‘chalarida kezarkanman, juda ko‘p xotiralar xayolimdan o‘tadi. Asrlar qa’rida qolib ketgan jang-u jadallarni ko‘rgandek, qilich-qalqonlarning jarangini eshitgandek bo‘laman. **Bularning** (kimlarning?, ikkinchi darajali bo‘lak) barini tarix shamollari uchirib ketdi. Ammo ko‘hna devorda qolgan **besh barmoq** (nimaning?, ikkinchi darajali bo‘lak) izi hali ham ko‘rinib turibdi.

Bu – **ming yillar** (qancha? , ikkinchi darajali bo‘lak) qa’rida yo‘q bo‘lib ketgan odam qo‘lining izi. **Shu** (qaysi? , ikkinchi darajali bo‘lak) azamat binoga g‘isht tergan me’mor qo‘lining izi. Odam qo‘ligina odamga abadiy haykal qo‘yishiga **ana o‘shanda**(qanchon? , ikkinchi darajali bo‘lak) ishonganman. *(Said Ahmad)*

Matn asosida o‘quvchilarning *GAPIRISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi. O‘quvchilar topshiriqni bajarish orqali mustaqil fikrlarini bayon qiladilar.

Topshiriqni bajaring.

1. Siz yashayotgan joyda qanday tarixiy obidalar bor? Ularning barpo bo‘lganiga qancha vaqt bo‘lgan?
2. O‘zbekistondagi tarixiy obidalarni sanang. Ularni ifodalashda qaysi so‘z turkumidan foydalanyapsiz?

19-mashqni **bajartirishda fanlararo integratsiya masalasiga diqqat qaratiladi. O‘quvchilarga matematika fanida o‘rgangan raqamlarning xossalari gapirtiriladi.**

123 x 9+4=1111
1234 x 9+5=11111
12345 x 9+6=111111
123456 x 9+7=1111111
1234567 x 9+8=11111111
12345678 x 9+9=111111111
123456789 x 9+10=1111111111

O‘quvchilarning *YOZISH* ko‘nikmasini shakllantirish uchun yuqoridagi sonlarni so‘z orqali husnixat bilan yozish vazifasi yuklanadi.

Masalan, bir yuz yigirma uchni to‘qqizga ko‘paytirib, hosil bo‘lgan ko‘paytmaga to‘rtni qo‘shsak, bir ming bir yuz o‘n bir hosil bo‘ladi.

Qissadan hissa tariqasida, matematikada ham sonlar so‘z orqali talaffuz qilinishi; masalalar so‘z vositasida idrok etilishi; so‘z, tilimizning jozibasini ona tili fani o‘rganishi haqidagi xulosaga kelinadi.

20-mashq **asosida o‘quvchilar hayotida hisob-kitob bilan bog‘liq holda ro‘y bergan qiziqarli voqealar o‘rtaga tashlanadi, ularning vaziyatdan chiqib ketish uchun qanday yo‘l tanlagani muhokamaga tashlanadi, qaltis vaziyatlarga tushib qolmaslik uchun nimalar qilish kerakligi uqtiriladi**.

G‘azablangan ota do‘konga telefon qildi: “Men o‘g‘limni ikki kilogramm olxo‘ri olib kelishga yuborgan edim, u bo‘lsa bir kilogramm olib kelibdi.

– Tarozilaring to‘g‘rimi o‘zi?”

– Bizning tarozilarimiz to‘ppa-to‘g‘ri. Siz o‘z o‘g‘lingizni tortib ko‘rdingizmi? (“*Zamonaviy xandalar*”dan)

21-mashq o‘quvchilarning ***YOZISH*** ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda Abdurahmon Akbarning *“Raqamli she’rlar”* to‘plamiga kirgan*“Uchqunjonning toychog‘i”* she’ri o‘quvchilarga o‘qitiladi. Sonlar bilan bog‘liq so‘z o‘yiniga e’tibor qilib, harfga aylantirib husnixat bilan daftarga ko‘chirish topshirig‘i beriladi**.**

She’rda keltirilgan *qo‘shilamiz, ayrilamiz, bo‘linmaydi, ikilanmang, bir, yetti, tenglik* kabi so‘zlarning matematika fanida qo‘llanishi to‘g‘risida fikr-mulohazalar tinglanadi. Son so‘z turkumining uslubiy vazifalari tushuntirib beriladi.

22-mashq o‘quvchilarning ***TINGLAB TUSHUNISH*** (talaffuz mashqlari), ***GAPIRISH*** ko‘nikmasini shakllantirishga qaratiladi.”Kim zukko?” texnologiyasi orqali mashqni bajarish mumkin.

1. *ikki, uch, o‘n, yigirma, o‘ttiz besh, bir yuz olti* so‘zlariga *-ta, -ov, -ovlon, -tacha, -lab, -tadan* qo‘shimchalarini qo‘shing. Mazkur qo‘shimchalarning ba’zi sonlarga qo‘shilmaslik sababini ayting.

2. Ota-onalaringiz, opa-singillaringiz va aka-ukalaringizning tug‘ilgan yili va tug‘ilgan kunini bilasizmi? Aytib bering.

Dars so‘ngida o‘quvchilar “ Men bilib oldim, sen-chi?” o‘yini orqali o‘tilgan mavzu yuzasidan qayta ta’sir o‘tkazadilar

23-mashq. Uyga vazifa. Namuna uchun bir-ikki o‘quvchidan oilasi to‘g‘risida og‘zaki gapirib berish iltimos qilinadi.

6- dars. FE’L SO‘Z TURKUMINI TAKRORLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o‘quvchilarda fe’l so‘z turkumi yuzasidan hosil qilingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o‘quvchilarni doimiy harakatda bo‘lishga odatlantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash.*

Dars “Donolar bisoti”dan olingan ruhlantiruvchi (motivatsion) matn tahlili bilan boshlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilar e’tiborini insonni harakatga keltiruvchi omillarga, maqsad sari doim olg‘a intilishga qaratish kerakligiga yo‘naltiradi. O‘qituvchi yo‘nalishini ***TINGLAB TUSHUNGAN*** o‘quvchilar matnni o‘qiydilar.

Keksa bir qayiqchi qayig‘idagi eshkaklarning biriga “*Ishon*”, ikkinchisiga “*Harakat qil*” deb yozib qo‘ygan ekan.

Buning ma’nosini so‘raganlarga u shunday deb javob berarkan:

– Daryodan suzib o‘tish uchun har ikki eshkakka ehtiyoj bor.

– Harakatsiz ishonch, ishonchsiz harakat sizni olg‘a yetaklamaydi. Daryoni bitta eshkak bilan suzib o‘tib bo‘lmaganidek, hayot yo‘llariga ham ularning bittasi bilan chiqib bo‘lmaydi, har ikkisiga tayanish kerak. (*“Donolar bisoti”dan*)



O‘QIB TUSHUNILGAN matn asosida 24-mashq orqali o‘quvchilar savollarga fikrlab javob beradilar.(*GAPIRIRISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi)

– Shamol esayotgan paytida daraxtlarning shoxlari, barglari harakatlanayotgani yaqqol ko‘rinadi. Havo sokin paytida ham daraxtlar harakatda bo‘ladimi? Bu qaysi so‘zlar yordamida ifodalanadi?

– Odamlarning harakat va holati qanday so‘zlar bilan ifodalanadi? “Harakatda – barakat” degan iborani qanday sharhlaysiz?

25-mashq **o‘quvchilarning *YOZISH* ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltiriladi. O‘quvchilar berilgan hikmatlardan fe’llarni aniqlab, gaplarni daftarga yozadilar.**


Yechim:

1. Biz o‘z hayotimiz davomida nimaga ishonsak va nimani kutsak, o‘shanga erishamiz. 2. Hayot go‘zalligiga ishonsangiz, hayotingiz go‘zallashadi. 3. Siz o‘zingizga ishonsangiz, har qanday qiyinchiliklardan chiqish yo‘lini topasiz. 4. Kasallikdan qo‘rqsangiz, bemor bo‘lasiz. 5. Omadga ishonsangiz, uni yaratasiz. (*“Hikoyalar sarasi”*)

26-mashqda o‘quvchilar rasmlar asosida harakat va holat haqida fikr bildiradilar. Harakatni ifodalovchi so‘zlarga misollar keltiradilar. O‘z nutqlarida ularning qaysilaridan ko‘proq foydalanishlari haqida gapiradilar.









chopmoq, yugurmoq, sakramoq; yotmoq, uxlamoq; suv ichmoq, dam olmoq, qaramoq; turmoq; erimoq, ko‘karmoq, o‘smoq. uchmoq, parvoz qilmoq, ko‘rmoq,



Bu mashqda 5 ta rasm berilgan. Rasmlarda otlar, tog‘, uxlayotgan bola, kiyik va burgut tasviri ko‘rsatilgan. O‘qituvchi bolalarni fikrlashga da’vat etib, shunday savollarni o‘rtaga tashlashi maqsadga muvofiq. Bunda, albatta, o‘quvchining *GAPIRISH* ko‘nikmasiga diqqat qaratiladi.

– Qani, kim aytadi, rasmdagi otlar nima qilyapti?

Javob olinadi:

– Chopib ketmoqda.

– Otlar yana qanday harakatlarni amalga oshira oladi?

– Yo‘rg‘alaydi, kishnaydi, o‘tlaydi, yem yeydi va h.k.

– Otlarning qnday xususiyatlarini bilasizlar?

– Ular insonga do‘st, uzog‘imizni yaqin qiladi, arava tortib, bizga yordamlashadi.

– Otlar haqida qanday asarlarni o‘qigansiz?

– Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom”, Chingiz Aytmatovning “Alvido, Gulsari”...

O‘qituvchi tog‘larning turishi, bolaning uxlashi holatga, kiyikning o‘tlashi, burgutning uchishi real harakatga aloqador ekanini o‘quvchilarga tushuntirishi kerak. Fe’l so‘z turkumiga kiruvchi so‘zlar tilning asosiy qismini tashkil etishi, nutqda fe’llarning turli-tuman shakllarda qo‘llanishi *uchdi, uchyapman, uchib ketdi, uchayotir, uchmoqchi edik, uchib o‘tdi* kabi fe’llar misolida aytilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Uloqchi ot, samolyot, burgutning *uchib ketdi* fe’li bilan birga qo‘llanganda, qanday ma’nolarni anglatishi o‘quvchilarga yetkazilsa, darsdan ko‘zlangan maqsadga erishiladi.

27-mashq. ***(Audio yordamida)*** **Alisher Navoiyning quyidagi hikmatli so‘zi tinglanadi. Unda qo‘llangan fe’llarga o‘quvchilar tomonidan izoh beriladi. (*TINGLAB TUSHUNISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi)**

Umrni zoye etma, mehnat qil,
Mehnatni saodatning kalidi bil!

Yechim: Fe’llar: zoye etma, mehnat qil, bil.

28-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Berilgan matnni o‘qib, *“Suv – hayot manbayi”* mavzusida hikoya tuzish vazifasi topshiriladi. Harakat va holatni ifodalagan so‘zlarning tagiga chiziladi.**

Tabiat boyliklari ichida suv alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u tiriklik manbayidir. Xalqimizda “Ummon oldida tursang ham, bir tomchi suvni isrof qilma!” degan naql bor. Ushbu naqlga amal qilib, suvni tejash, uni isrof qilmaslik haqida ko‘p gapiramiz. Lekin suvni ehtiyojdan tashqari ishlatish, huda-behuda oqizib qo‘yish holatlari hamon uchramoqda...

O‘tmishda ota-bobolarimiz ariq va anhorlardagi oqar suvni iste’mol qilishgan, chunki o‘zanlardan ichishga yaroqli top-toza suv oqar edi. Hozirgi kunda esa ba’zilarimiz xonadon chiqindilarini, axlatlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri oqar suvlarga ag‘daramiz. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bunday ariqlardagi suv nihoyatda ifloslangan va unda kasallik tarqatuvchi mikroblar mavjud bo‘ladi. (*F.Sayfullayev*)

FONETIKA, GRAFIKA

7-dars. TILSHUNOSLIK VA UNING BO‘LIMLARI. FONETIKA

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o‘quvchilarda tilshunoslik va uning bo‘limlari, fonetika yuzasidan hosil qilingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o‘quvchilarda komil inson sifatlarini rivojlantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarni ijodiy fikrlarga o‘rgatish.*

Dars “Qisqa hikoyalar” dan olingan matnni tinglash bilan boshlanadi. (*TINGLAB TUSHUNISH* ko‘nikmalari orqali o‘quvchilar hikoyatdagi asosiy fikrni to‘g‘ri talaffuz me’yorlariga amal qilgan holda so‘zlab beradilar)



Bir donishmanddan shogirdlari:

– Nima qilsak, tinch va rohatda umr kechiramiz? – deb so‘radilar.

Donishmand:

– Hech qayerda hech kimga biror so‘z so‘zlamang, sukut eting, – deb javob berdi.

Shunda shogirdlari:

– Axir,doim sukut etib yuraveramizmi, bu mumkinmi? Boshqacha yo‘l ko‘rsating! – dedilar.

Donishmand maslahat berdi:

– Sukut eta olmasangiz, so‘zlang, lekin qisqa va ma’noli so‘zlang, og‘zingizdan sira nojo‘ya so‘z chiqmasin. Yomon so‘z tinglovchining dilini xira qiladi, bundan saqlaning.

Bayt:

Yaxshi so‘zdan ko‘rasan mehr-u vafo,
Nomunosib so‘zlasang, yetkay jafo.
Ha, til bo‘lsa ham, bo‘lmasa ham – boshga balo.

Shuning uchun donishmandlar so‘zni doriga o‘xshatadilar. “Ortiqchasi zarar keltiradi”, – deydilar.

Hikoya tinglangach, o‘quvchilarning *O‘QIB TUSHUNISH* ko‘nikmasi ustida ishlanadi. O‘quvchilar matndan chiqargan xulosalari asosida savollarga o‘z munosabatlarini bildiradilar. Bu orqali o‘quvchilarning fikrlash, *GAPIRISH* ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Munosabat bildiring.

1. Donishmandning fikriga nima deysiz?
2. Sizningcha, so‘zni yana nimalarga o‘xshatish mumkin?

Quyidagi nazariy ma’lumotlar o‘qituvchi uchun asos vazifasini bajaradi.

Til o‘z ichki tuzilishiga ega. Tilning ana shu ichki tuzilishidan qaysi birini o‘rganishga ko‘ra tilshunoslik fani ham bir necha bo‘limlarga bo‘linadi. Tilning tovush tuzilishi fonetika bo‘limida, harfl ar tizimi esa grafi ka bo‘limida o‘rganiladi. So‘zlarni to‘g‘ri yozish qoidalari bilan orfografi ya (imlo)da,to‘g‘ri talaffuz qoidalari bilan esa orfoepiya bo‘limida tanishiladi. So‘z va uning ma’nolarini leksikologiya bo‘limi, so‘z turkumlarini morfologiya bo‘limi o‘rganadi. Gap va gapda so‘zlarning bog‘lanishi bilan sintaksis bo‘limida tanishasiz. Sintaksis bo‘limi bilan uzviy bog‘liq bo‘lim punktuatsi-yadir. Unda tinish belgilarining vazifalari o‘rganiladi. Shunday qilib, tilshunoslik fonetika, grafi ka, orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, morfologiya, sintaksis va punktua tsiya bo‘limlarining uzviy bog‘liqligidan iboratdir.

O‘quvchilar fikrini bilish maqsadida quyidagi **“Debat” metodidan** foydalanish mumkin.:

1. – Til insonga nima uchun berilgan?

– ...

2. – Tildan qanday foydalanish kerak?

– ...

3. O‘rinsiz so‘zlash odamga qanchalik foyda keltiradi?

– ...

Avloddan avlodga tayyor holda o‘tuvchi, jamiyatning barcha a’zolari uchun bab-barobar xizmat qiluvchi, har bir so‘zlovchi xotirasida imkoniyat tarzida yashovchi ijtimoiy hodisaga til deyiladi.

Ma’lum shaxs tomonidan tovushlar yoki harflar ketma - ketligi orqali ifodalanadigan faoliyat nutq deb ataladi.

Mazkur dars 5-sinfda tashkil etiladigan darslarning xamirturushi hisoblanadi. *TINGLAB TUSHUNISH*ga yo‘naltirilgan ushbu daqiqada o‘qituvchi o‘quvchilarga til va uning jamiyatda tutgan o‘rnini, tilshunoslik bo‘limlari haqidagi nazariy ma’lumotlarni chuqur singdirmas ekan, butun yil davomida katta qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shunga ko‘ra, u butun e’tiborni til to‘g‘risidagi nazariy ma’lumotlarni o‘quvchilarga yetkazishga qaratmog‘i, buning uchun bor imkoniyatlardan to‘liq foydalanmog‘i lozim bo‘ladi.

Tilning tarixiyligi, xalq tomonidan yaratilishi, unga asrlar davomida sayqal berilishi, o‘z navbatida, uning nutq orqali yuzaga chiqishi, nutqning zamonaviyligi, yakka bir shaxsga tegishli bo‘lishi, uning qanday yuzaga chiqishi shu shaxsning muayyan vaziyatdagi holatiga bog‘liqligi tushuntiriladi.

Barcha jonzotlar, masalan, hayvonlar, qushlar, hasharotlarning ham tovush chiqara olishi, lekin inson tovushining ma'noga ega ekanligi, aynan mana shu xususiyati bilan uning ijtimoiy ahamiyat kasb etishi aytiladi. Boshqa tovushlar ma'no bildirmaydi, ya'ni aloqa-aralashuda ishlatilmaydi.

Til bo'limlar haqida ma'lumotlar berish uchun quyidagi jadvaldan foydalanish maqsadga muvofiq.

Til bo'limlari	Nimani o'rgatadi?
Fonetika	tilning tovush tuzilishini o'rgatadi
Yozuv (grafika)	tilning yozuv tizimi bilan shug'ullanadi
Orfografiya	to'g'ri yozish qonun-qoidalarini o'rgatadi
Orfoepiya	to'g'ri talaffuz qilish qonun-qoidalarini
Leksikologiya	so'z va uning xususiyatlarini o'rganadi
Leksikografaya	lug'at va uning turlarini o'rgatadi
Morfologiya	so'z turkumlari va ularning xususiyatlarini
Sintaksis	so'z birikmasi, gap va uning turlarini
Punktuatsiya	tinish belgilarining ishlatilish o'rinlarini

Tilshunoslikning fonetika (grafika), orfofrafiya, orfoepiya, leksikologiya, morfologiya, sintaksis va punktuatsiya bo'limlarining uzviy bog'liqligidan iborat yaxlit tizim ekanligi, albatta, aytilishi lozim.

Nazariy ma'lumotlar singdirilgach, 29-mashq shartiga ko'ra bajariladi

29-mashqda ***o'quvchilar "Tarbiya kitobi" dan olingan Muhammad Zehniyning hikmati bilan tanishtiriladi, nuqtalar o'rniga zarur harflarni qo'yib, daftarga ko'chiradilar.(o'quvchilarning YOZISH*** ko'nikmasi shakllantiriladi).

Yechim:

Bolalar o'z otalaridan meros qilib oladigan uch afzal narsa bor, bular: xushmuomalalik, odob, sadoqat.

30-mashqni bajartirishda ikki jihat e'tiborga olinadi.

1. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilish.

2. Ular ishtirokida gaplar tuzish. (O'quvchilarning *GAPIRISH* ko'nikmasi shakllantiriladi).

Yondash-yondosh, uyim-uyum, tasir-ta'sir, mard-mart, qiymat-qimmat, kaft-kift.

Namuna: yondash – yondosh. 1. *Masalaga to'g'ri yondashilsa, yechim topiladi.*

2. Yer harakatida unga yondosh bo‘lgan sayyora – oyning alohida o‘rni bor.

Ma’lumki, 5-sinfda boshlang‘ich sinfda o‘tilgan materiallar takrorlanib, ona tilining izchil kursi boshlanadi. Mazkur kursning ibtidosi fonetikadir. Shu bois o‘quvchilarga og‘zaki nutqning tovush tizimini o‘rgatadigan tilshunoslik bo‘limiga fonetika deyilishi tushuntiriladi. Tovushlarning fizik tovushlar (masalan, soatning chiqillashi, eshikning taraqlashi, suvning shovullashi) hamda nutq tovushlari (insonning nutq a’zolari vositasida hosil qilinadigan *a ,o, l, r, q* kabi tovushlar)ga ajralib ketishi jonli misollar yordamida yetkaziladi.

Og‘zaki nutqning tovush tizimini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi fonetika deb ataladi. Nutq tovushlari, tabiatdagi boshqa tovushlardan farqli ravishda, ma’no farqlaydi.

31-mashqda. **Gaplardagi nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi so‘zlardan mosini qo‘yib ko‘chirish, nega aynan shu so‘zni tanlanganini izohlash vazifasi yuklanadi.**

Yechim:

Mashq shartiga ko‘ra 1-gapda nuqtalar o‘rniga *sayroqi,* keyingilariga *qadimgi, nolasi, yoqimli* so‘zlarining qo‘yilishi o‘qituvchi tomonidan nazoratga olib turiladi. (O‘quvchilarning *YOZISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi).

32-mashq. **Uyga vazifa. “Ish bilganga bir tanga, gap bilganga ming tanga” mavzusida 10–12 ta gap orqali yozma bayon qilish topshirig‘i beriladi.**

8-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o‘quvchilarнинг матн ва унинг турлари ҳақидаги bilim va ko‘nikmalaruni mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o‘quvchilarda komil inson sifatlarini rivojlantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarni ijodiy fikrlarga o‘rgatish.*

Dars “Odamiy ersang…” kitobidan matnini tinglash bilan boshlanadi.

Matnni *TINGLAB TUSHUNGAN* o‘quvchilar o‘zlari uchun matndagi tushunilishi qiyin tuyilgan so‘zlar lug‘atini tuzadilar.

Lug‘at: odamiylik – odamga, chin insonga xos xislatlar

Matnning birinchi qismi yuzasidan “Debat” metodi asosida savol-javob (*GAPIRISH*) tashkillashtirilgach, matnning 2-qismi o‘quvchilar tomonidan ifodali o‘qitiladi.

Yaxshi so‘z – odamiylikning tamal toshi, tarbiyalanganlikning asl mevasi, insonning ziynati. Darhaqiqat, odamning odamga, elning elga nisbatan ezgu muomalasigina bu dunyoning davomiyligini ta’minlaydi va madaniyatini belgilaydi.

Yaxshi ish – odamiylikning ikkinchi mezoni. Dunyoda ezgu maqsad va ezgu ish abadiy qoladi.

Yaxshi xulq – odamiylikning uchinchi alomati. Yaxshilik yo‘lini tutganlar yaxshi xulq sohibi ham bo‘ladilar.

Ma’rifat – odamiylikning to‘rtinchi belgisi.

Zero, har bir muslimga “Beshikdan to qabrgacha ilm izlash” joizdir. (*“Odamiy ersang…” kitobidan*)

Matndagi tushunilishi qiyin tuyilgan so‘zlar lug‘ati tuziladi.

Lug‘at: ma’rifat – bilim, fan; ma’lumot; tanishish
mezon – o‘lchov
tamal toshi – poydevor

(Matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarda o‘qish savodxonligi; *O‘QIB TUSHUNISH* ko‘nikmasi shakllanadi.)

O‘quvchilar matndan olgan taassurotlari asosida :

1. Odamiylikning to‘rt mezonini sanang va sharhlang.

2. Hikoyatdagi asosiy fikrni adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda uch jumlada ifodalang kabi topshiriqlarni bajaradilar.

33-mashq. **O‘quvchilarning *YOZISH* ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Nuqtalar o‘rniga kerakli tovushni qo‘yib, Konfutsiyning hikmatlari daftarga yozdiriladi. So‘zlarni talaffuz qilganlarida qanday holni kuzatganliklarini bayon qiladilar.**

Yechim:

Shogird:

– Odamgarchilikka qanday erishish mumkin? – deb so‘radi.

Muallim javob berdi:

– O‘z ishini oliy darajada bajarish uchun hunarmand avval asboblarni sozlaydi. Yaxshi niyatli va yuksak insoniy fazilatga ega kishilar o‘z manfaati evaziga odamlarga ziyon keltirishni xohlamaydilar. Ulardan ibrat ol va yaxshilar bilan do‘stlash. (*“Hikoyalar sarasi” dan*)

34-mashq. **O‘quvchilar odamiylik, yaxshilik haqidagi maqol yoki hikmatli so‘zlardan 3 ta yozadilar. (*YOZISH* ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltiriladi) Lablarimiz ishtirokida hosil bo‘lgan tovushlarning talaffuziga diqqat qiladilar, tagiga chizadilar.**

Masalan:

1. Baliq suv bilan tirik, Odam – el bilan. 2. Begona tuproq – devona tuproq.

3. Bulbulga bog’ yaxshi, Kaklikka – tog’. 4. Vatan qadrini bilmagan o’z qadrini bilmas. 5. Ona yerning tuprog’i – ona sutidan aziz…

35-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Odamiylik sifati kuchli bo‘lgan ertak qahramonlarini tasvirlab 10 ta gap yozadilar. Jarangli undoshlarning talaffuzda jarangsizlashishi kuzatiladigan so‘zlarni ajratib, tagiga chizadilar.**

9–10 darslar. Nazorat ishi va uning tahlili

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o‘quvchilarda yozma savodxonlik hosil qilingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o‘quvchilarda komil inson sifatlarini rivojlantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarni ijodiy fikrlarga o‘rgatish.*

11-dars. NUTQ TOVUSHLARI VA HARF

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o‘quvchilarga so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish; so‘z ma’nosidagi farqqa e’tibor qaratishni o‘rgatish; nutq tovushlarining vazifasini singdirish..*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarda ona tiliga bo’lgan muhabbatni orttirish; tabiat hodisalaridan zavqlanish hissini tarbiyalash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda talaffuz va imloda tovush o‘zgarishi hodisalaridan o‘rinli foydalana olish; matndagi ma’lumotlardan kerakli bo‘lgan detal, fikrni ajratib, fikrni umumlashtirish ko‘nikmasini shakllantirish.*

Darsni **“Tezkor savol-javob”** bilan boshlash maqsadga muvofiq. (O‘quvchilarning *GAPIRISH* ko‘nikmasi rivojlantiradi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi orttiriladi; nutqi shakllantiriladi)

1. Kuzda oltindek tovlanadigan narsa (barg)
2. Kuzda janubga uchib ketadi(turna, laylak)
3. Yer haydasang kuz hayda..(kuz haydamasang, yuz hayda)
4. Kuzda uchib keladigan qush…(qarg‘a)

Topshiriqda **Feruza va Abrorlarning kuz fasli haqidagi hikoya-nutqlari audio orqali tinglanadi.**

Tinglangan matndan ularning faslga bo‘lgan munosabatlari taqqoslanadi.Topshiriqni bajarish orqali o‘quvchida *TINGLAB TUSHUNISH* ko‘nikmasi shakllanadi.

Masalan:

Feruzaning munosabati	*Abrorning munosabati*

Feruza va Abrorlarning fikrlari taqqoslangach, o‘quvchilar tabiatga munosabat bildiradilar.

1. Feruzaning zavqlanib gapirishiga sabab nima? Unga kuz nimasi bilan yoqadi?

2. Abrorning nutqidagi “kulrang kundalik” nimaga ishora qilyapti? Bu faslning Abrorga yoqqan va yoqmagan taraflarini ayting.

3. Sizga kuz yoqadimi? Nega?

Matndagi talaffuzi va yozilishida farq qiluvchi so‘zlar ustida ishlash ham o‘quvchining so‘zga bo‘lgan e’tiborini oshiradi. *YOZISH* ko‘ikmasini shakllanishiga yordam beradi

***“Men boshlayman, sen davom ettir!”* grammatik o‘yini orqali o‘quvchilarning *GAPIRISH* ko‘nikmasi orqali nutqi, shuningdek, tovush va harf haqidagi fikrlari kengaytiriladi.**

Izoh: O‘quvchilar yozuv taxtasi yoki daftarga yozilishi talaffuz qilinganidek bo‘lmagan so‘zlarni ajratib yozadilar. Ularga izoh beradilar. Masalan: “tabiat” so‘zi talaffuzida tovush ortishi kuzatiladi. Yozuvda esa bu holatga amal qilinmaydi…

***36-mashqda* o‘quvchilar topshiriqdagi matndan xulosa chiqaradilar, kuz haqida o‘zlariga xos o‘xshatishlar topadilar, daftarga yozadilar.**

Namuna: 1. Kuz – bahorda ekilgan ekinlarni yig‘ishtirish fasli.

2. Kuzda ba’zi qushlar issiq o‘lkalarga uchib ketadi.

***“O‘xshatdim”* grammatik o‘yini orqali vazifani bajarishlari mumkin.**

1-o‘quvchi:

– Kuzni o‘xshatdim!

2-o‘quvchi:

– Nimaga o‘xshatding?

1-o‘quvchi:

– Oltin libosli ulkan insonga o‘xshatdim!

***37-mashqda* berilgan topishmoqli matnni o‘qib, katakchalar ichiga berkitilgan kuz ne’matini topish so‘ralgan. (O‘quvchilarning *O‘QIB TUSHUNISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi)**

Poliz ekini, kattaligi odam boshidek keladi, mevasi qat-qat yaproqlardan iborat. Uning shirasi yo qaynatmasini kunjut yog‘i bilan qo‘shib, tomoq chayqalsa, og‘riqqa foyda bo‘ladi.

k	a	r	a	m

O‘quvchilar bilan **“Kuz ne’matlari”** topqirlar musobaqasi ham o‘tkazish mumkin.

Masalan: Yer tagida oltin qoziq, u hammaga bo‘lar oziq…

38-mashq. **Nuqtalar o‘rniga kerakli tovushni qo‘yib, matn ko‘chiriladi.**

So‘zlar talaffuzida yuzaga kelgan tovush o‘zgarishlarini bayon qilish orqali *YOZISH* **ko‘nikmasi shakllantiriladi.**

Kuzda ona tabiat bor saxovatini insonlarga to‘kib (talaffuzda *b p* bilan almashadi) soladi.

Bir-biridan shirin meva va sabzavotlardan (talaffuzda *o a* bilan almashadi) to‘yib iste’mol qilgan kishi qish bo‘yi kasalga chalinmaydi. (talaffuzda *m n* bilan almashadi) Ayniqsa, (talaffuzda *x q* bilan almashadi) yurtimizda kuz o‘zgacha fayzli bo‘ladi. Hamma yoqda(talaffuzda g‘ q bilan almashadi) to‘kin-sochinlik. Shunday yurtda (talaffuzda t d bilan almashadi) yashayotganimizdan(talaffuzda k g bilan almashadi) faxrlansak arziydi. (“*Gulxan*” jurnalidan)

39-mashq. **So‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilib o‘qish mashqi o’tkaziladi. O‘quvchi so‘zlarni *O‘QIB* ma’nosini *TUSHUNADI*. Ma’nosidagi farqqa diqqat qilinadi. Ushbu so‘zlar yordamida gaplar tuziladi.**

Masalan: Sayyora ovqat tayyorlash uchun kartoshka archa boshladi.Umida olmalarni tozalab artib, likopchada soldi.

Artish – tozalash	Archish – po‘stlog‘idan ajratish
Ato – in’om, sovg‘a	Ota – farzandli er kishi
Shoh – podho	Shox – daraxt shoxi
Bog‘ – meva bog‘i	Boq – qara, o‘stir

40-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Saxiy kuz haqida 10 ta gapdan iborat ertak to‘qish vazifasi yuklanadi.**

12-d a r s. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a) ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarda matnga munosabat bildira olish ko‘nikmasini shakllantirish; nutq tovushlarining vazifasini singdirish.*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarda mehr-shafqat tuyg‘usini tarbiyalash; qushlarning tabiat va odamga keltiradigan foydasini uqtirish.*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda tinglab tushunish,o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Hasharot Qush

Yozuv taxtasiga, **“brainboard”(aqlli doska)** metodidan foydalangan holda, ari, chumchuq, kapalak, burgut, chivin, qarg‘a kabilarning rasmlari tirkaladi. “O‘z uyingni top” grammatik topshiriqli o‘yin tashkil etiladi.

Topshiriqdagi **matn audio yoki o‘qituvchi yordamida tinglanadi.**

Ertalab Dilshod ayvonchada bobosi bilan nonushta qilib o‘tirgandi. Shu payt ochiq turgan derazadan ikkita qaldirg‘och uchib kirdi-da, tepalarida charx urib aylana boshladi.



– Vooy, qaldirg‘och, – dedi Dilshod ularni ko‘rsa tib.

– Qaldirg‘och – baxt timsoli. U kirgan xonadonda hamisha tinchlik, xotirjamlik bo‘ladi, – tushuntirdi bobosi.



– Janjal ham bo‘lmaydimi, bobo?

– Bo‘lmaydi, bo‘talog‘im, nega so‘rayapsan?

– Haa, endi bildim.– Nimani, qo‘zichog‘im?

– Demak, Qobil akaning uyida har kuni janjal bo‘lishi qaldirg‘ och yo‘qligidan ekan-da!

Bobo nevarasining yelkasiga ohista qoqib, kulib qo‘ya qoldi. Ertasiga qarashsa, Qobil akaning eshigiga kimdir kattakon qog‘oz yopishtirib ketibdi. Unda uchib ketayotgan bir juft qaldirg‘ och surati tasvirlangan edi. Surat ostiga esa “Qaldirg‘och – xotirjamlik timsoli” deb yozilgandi. Hamma hayron!

Bu kim ning ishi ekanligini esa faqat ikki kishigina bilardi, xolos.

(*A. Xudoyberganov*)

TINGLAB TUSHUNGAN **o‘quvchi bu matn bilan ishlaganida tabiatshunoslik fanidan olgan ma’lumotlariga tayanadi. Berilgan savollarga javob beriladi.**

1. Qaldirg‘ochlar qanday xonadonlarga in qurishadi?
2. Siz ham Dilshod qilgan ishni qila olasizmi?
3. Nima deb o‘ylaysiz: surat osilgach, janjalkash xonadonda o‘zgarish bo‘larmikan?

“Men bilaman, sen-chi?” munosabat bildirish daqiqasi (*GAPIRISH*) o‘tkazilsa, o‘quvchi fikrlari teranlashadi..

1. Nima uchun odam bolasi qaldirg‘ochni o‘ziga do‘st tutadi?
2. “Qaldirg‘ochning inini buzsang, yomon bo‘ladi”, – deyishganini eshitganmisiz? Sizningcha, inni buzishning yomonligi nimada?

41-mashq. Matnga tayanib, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib ko‘chiriladi.

(O‘quvchilarda *YOZISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi)

Yechim: Qaldirg‘och- baxt timsoli, tinchlik, xotirjamlik timsoli…

“Qush va timsollar” topshirig‘i “Tushumchalar tahlili” texnologiyasi orqali bajariladi.

Qushning nomi	Timsoli
Qaldirg‘och	bahor elchisi
Kabutar	tinchlik timsoli
Humo	erk timsoli
Burgut	sanitar qush timsoli
Zag‘izg‘on	xabarchi

42-mashq. **Rasm asosida “Qushlar – bizning do‘stimiz” mavzusida matn tuziladi. Bunda o‘quvchining o‘qish savodxonligi (O‘QIB TUSHUNISH) shakllanadi.**



O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga kalit so‘zlar tavsiya qilinishi mimkin. Bu esa bolaning topshiriqni tezroq bajarishga kirishishiga yordam beradi.

Masalan: Sanitar qushlar, parvarish qilmoq, yordam bermoq, qushlarga in, qush uyasi,

43-mashq. **Qush nomlarini ko‘chiriladi. So‘zda ba’zi tovushlarning yozilishidagi farqqa diqqat qaratiladi. Zavq beruvchi qushlar aniqlanadi.Ular ishtirokida gaplar tuzib, daftarga yoziladi.**

Zag‘izg‘on, kalxat, tovus, sassiqpopishak, bulbul, sa’va, qarg‘a, chumchuq, to‘ti, tuyaqush, bedana, boyo‘g‘li.

—— Zavq beruvchi qushush

44-mashq. ***Uyga*** internet sahifalaridan qushlar haqida 5 ta qiziqarli ma’lumot topib, yozib kelish vazifasi yuklanadi.

13-d a r s. UNLI TOVUSHLAR

Darsning maqsadi:

a) ***ta’limiy maqsad****: o‘quvchilarga tovushlarning hosil bo‘lishi; unli va undosh tovushlar haqida nazariy ma’lumot berish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarni ommaviy-axborot vositalaridan unumli va o‘rinli foydalanishga o‘rgatish; mafkuraviy immunitetini mustahkamlash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Yozuv taxtasi yoki monitorga internet rasmi tirkaladi.

"Rolli o'yin" *orqali topshiriqda berilgan* dialog ikki o'quvchi tomonidan o'qiladi. O'quvchilarda *TINGLAB TUSHUNISH* ko'nikmasi ustida ishlanadi.

Internetning afzallik tomonlari haqida o'quvchilar "Bumerang" texnologiyasi elementidan foydalanib, "Men internet haqida shuni bilaman, sen-chi?"qisqa muloqot uyushtiradilar**.**

45-mashqda **o'quvchilarning o'qish savodxonligi shakllantiriladi. O'quvchilarning** *O'QIB TUSHUNISH* **ko'nikmasi shakllantiriladi**.

O'quvchilar matnni mustaqil o'qiydilar. Ajratilgan so'zlar imlosiga diqqat qiladilar.

XXI asr yoshlar hayotiga sezilarli o'zgarishlar olib keldi. O'tgan asr bolalari maktab, turli to'garaklar va **sport** markazlariga chopgan hamda vaqtini shu kabi mashg'ulotlar bilan mazmunli o'tkazgan bo'lsa, bugungi yoshlarning qiziqishi boshqacha. **Bugungi** hayotni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Shubhasiz, internet – davrimizning eng buyuk ixtirolaridan biri. Katta-kichik har kim uning xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Biroq yoshlar undan to'g'ri foydalanyaptimi? Hozir to'rt-besh **yashar** bola ham kompyuterdan **bemalol** foydalanishi, ertadan kechgacha "**avtopoyga**" o'ynashi yoki "**jangari film** ishtirokchisi"ga aylanishi **mumkin**. Bir qarashda buning **yomon** joyi **yo'qdek**. Bolaning uquvi kuchayadi, ko'proq axborot oladi. Ammo bu narsa odat tusiga kirsa, noxush oqibatlarga olib kelishi hech gap emas. Hamma gap internetdan qanday foydalanishda! (*H.Hamdamov*)

"Men bilib oldim, sen-chi?" texnologiyasi orqali qisqa savol-javob o'tkazadilar**.**

46-mashqda **o'quvchilarning o'qish savodxonligi shakllantiriladi. Matnga tayangan holda o'qib tushungan matndan xulosalarini bayon etadilar.**

1. Sizni internetdagi qanday ma'lumotlar qiziqtiradi?
2. Ertalabdan kechgacha kompyuter yonida o'tirib, jangari filmlar tomosha qilishni yoqtirasizmi? Buning nimasi sizga yoqadi?
3. Uy vazifasi uchun internet ma'lumotlaridan axborot izlashni bilasizmi?

47-mashqda **o'quvchilarning GAPIRISH ko'nikmasi shakllantiriladi. O'quvchilar savollarga javob berish orqali internet haqida mustaqil fikrlarini bayon etadilar.**

Internetdagi "Gugl" ("Google") tizimi haqida bilasizmi? Bu qidiruv tizimi 101dan ortiq tillarda so'rovlarni qayta ishlaydi va 132 mingdan ortiq kompyuterdan iborat. Uning imkoniyati juda katta. Bu tizim

kuniga bir milliarddan ortiq qidiruvni amalga oshiradi. Siz ham uning imkoniyatlaridan foydalanganmisiz? Jumladan, qanday qidiruvlarni amalga oshirgansiz?

Tovushlar talaffuziga e'tibor qaratiladi. Qaysi unli tovushlar yozilgani kabi talaffuz qilinmayotgani haqida o'qituvchi yordamida mushohada yuritadilar.

O'qituvchi o'quvchilar bilan "Talaffuz mashqi" usulidagi amaliy ish o'tkazadi.

(O'qituvchi o'quvchilarga ko'zlarini yumishni taklif qiladi. O'quvchilar ko'zlarini yumgach, chuqur nafas olishlari haqida aytiladi.O'quvchilar qanday holatni sezganliklari haqida so'rab boriladi. Chuqur nafas olgan o'quvchilarga "A", "O"… unlilarini aytish taklif etiladi. O'quvchilar o'pkadan chiqayotgan havoning to'siqqa uchrashi yoki uchramayotgani haqida xulosalarini bayon etadilar)

48-mashq. *YOZISH* ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'quvchilar *tanovul, kulgi, uyqu,ustomon, maza,uchala, xohish, xushhol, shoxobcha,qutulmoq, hamfikr* so'zlarini daftarga ko'chirishlari orqali *YOZISH* ko'nikmasi ustida ishlaydilar.So'zlardagi tovushlarning talaffuzi va imlosiga diqqatni qaratadilar.

Tovushlar o'pkadan chiqayotgan havoning og'iz bo'shlig' ida to'siqqa uchrashi yoki uchramasligiga ko'ra ikki xil bo'ladi: unli tovushlar va undosh tovushlar.

O'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramasa, unli tovushlar hosil bo'ladi. Tilimizda oltita unli tovush bor: *a, o, e, o', u, i.*

49-mashqdagi **maqollar daftarga ko'chiriladi. Unlilar talaffuziga e'tibor beriladi. Har bir maqol og'zaki sharhlanadi. Shuningdek, so'zlardagi qisqa aytilayotgan unlilari bor so'zlarning tagiga chiziladi. Ular imlosi haqida fikr bildiriladi.**

1. Yoshlikda bilgani – toshga yozgani, Qarilikda bilgani muzga yozgani. 2.Bilmaslik ayb emas, bilishga tirishmaslik – ayb. 3. Dehqon bo'lsang, shudgor qil, olim bo'lsang, takror qil. 4.Bilimli kishi o'zar, bilimsiz kishi to'zar. 5. Ilm-u hikmat suvni yondirar.

50-mashq. **Boshqotirma yechiladi. Katakchalar ichiga beshta harfdan iborat so'z joylashadi.**

So'zning to'liq shakli – *oldi-sotdi bo'ladigan joy*; boshidan birinchi harf olib tashlansa, *bu so'zdan yurak yaralanadi*. 2 ta harf olinsa, *qattiq sog'inch*, 3 ta harf olib tashlansa, *nomus, uyat* ma'nolari ifodalanadi.

Yechim: BOZOR-OZOR-ZOR-OR.

51-mashq. ***Uyga vazifa*****: “Internetning foydalari” mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn yaratish vazifasi yuklanadi. O‘quvchilarga matn yaratishlari uchun o‘qituvchi tomonidan kalit so‘zlar taklif etilishi mumkin**.

14-d a r s. UNDOSH TOVUSHLAR

Darsning maqsadi:

a) ***ta’limiy maqsad****: o‘quvchilarni vaqtni; moddiy va ma’naviy boyliklarimizni qadrlashga o‘rgatish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o‘quvchilarda o‘qish savodxonlikni shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda tinglab tushunish,o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Tashkiliy qismda o‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini jamlash va o‘zaro munosabatni shakllantirish uchun **“Muzyorar”** usulidan foydalansa bo‘ladi. Bu usul yordamida o‘quvchilarning *GAPIRISH* ko‘nikmalari shakllantiriladi.

O‘qituvchi: – Kimga nima qadrli?

(o‘quvchilar fikrlari tinglangach, o‘qituvchi vaqtning qadri haqida mulohaza bildiradi)

(Audio yoki o‘qituvchi yordamida *“Biz bilgan va bilmagan dunyo” kitobidan* olingan topshiriqdagi matn o‘qiladi. Bunda o‘quvchilarning *TINGLAB TUSHUNISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi)



Vaqt qanday belgilanishini bilasizmi? Yerning quyoshga nisbatan harakati vaqtni o‘lchashda asosiy rol o‘ynaydi. Ona sayyoramizning bir qismi quyosh nurlaridan bahramand bo‘lganida, boshqa qismi qorong‘ilik ichida bo‘ladi. Shu sababli yer yuzining turli nuqtalaridagi soatlar har xil vaqtni ko‘rsatadi.

Toshkentdagi tarixiy-me’moriy yodgorlik – kurant Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alaba sharafiga 1947-yil shahar markazida Usta Shirin ishtirokida qurilgan.1966-yildagi zilzila natijasida soat buzilgan va zudlik bilan ta’mirlanib, ishga tushirilgan. Toshkent kurantishahar me’moriy ansamblining Markaziy xiyobonida joylashgan.

Matndagi tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar lug‘ati daftarda yozdiriladi.

Lug‘at: ansambl – o‘zaro mos va uyg‘un qismlarning birikuvidan iborat bino va inshootlar majmuyi; kurant – minoraga o‘rnatilgan soat

“Mening taklifim” metodi orqali o‘quvchilar xattaxtaga sarlavhalarini yozadilar.

Sarlavhadan mosi aniqlanadi va “Eng yaxshi sarlavha” nomini olgan o‘quvchi ishi rag‘bat sifatida boshqa o‘quvchilar daftarlariga yozdiriladi.

Ajratilgan: ***quyoshga, yodgorlik, shahar, markazida, Toshkent, xiyobonida*** so‘zlari o‘quvchilarga talaffuz qildiriladi; Bu so‘zlarning hosil bo‘lishida qatnashayotgan a’zolar sanab o‘tiladi. (Masalan: q,y,sh,g –tilimizda; h – bo‘g‘izda to‘siqqa uchrashi kuzatiladi)

2. Toshkent kuranti Toshkentning ramzi hisoblanadi. Shaharning boshqa ramzlarini sanash uchun “Men boshlayman, sen davom ettir” munozarasi olib boriladi:

– Ona haykali- Mustaqillik monumenti;

– O‘zbekiston mehmonxonasi;

– Amir Temur muzeyi;

– Ko‘rgazmalar binosi..

Aytib o‘tilgan ramzlarni ifodalagan so‘zlar qanday undoshlardan hosil bo‘lgani; ularning hosil bo‘lishida qaysi a’zolar qatnashgani haqida fikrlar eshitiladi. (Bu esa o‘quvchini e’tiborli bo‘lishga undaydi)

“Bilib oling” rukni ustida ishlanadi.

52-mashqda “Talaffuz mashqi” o‘tkaziladi.(Ma’lum tovush olinib, talaffuziga e’tibor qaratiladi. Lablar yordamida yuzaga kelayotgan undoshlar; tillar yordamida yuzaga kelayotgan undoshlar; bo‘g‘iz yordamida yuzaga kelayotgan undosh talaffuz qilinadi.)

53-mashqda so‘zlardagi nuqtalar o‘rniga tegishli undosh tovushlarni qo‘yib gaplar daftarga ko‘chiriladi. (***YOZISH*** ko‘nikmasi shakllantiriladi)

54-mashqda **boshqotirma ustida ishlanadi.birinchi va uchinchi so‘zi P bo‘lgan so‘zlar katakchalarga joylashtiriladi. ”Zukko o‘quvchi” musobaqasi o‘tkaziladi. O‘quvchilarning xotirasi mustahkamlanadi**.

Yechim: *1.p*apalamoq 2.Po‘pisa 3.Popishak 4.Pop.

55-mashqda vaqt qadri haqidagi maqollar daftarga ko‘chiriladi. O‘quvchilarning *YOZISH* ko‘nikmasiga diqqat qaratiladi.Maqollarni sharhlash jarayonida *O‘QIB TUSHUNISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi)

56-mashqda *K* tovushi bilan boshlanib, *k* tovushida tugaydigan so‘zlar asosida tuzilgan boshqotirma yechiladi.

Yechim: kerak; kovak; kiyik; ko‘rik.

59-mashq. Uyga vazifa. **Uydagi kattalar bilan maslahatlashib, ”Vaqtning qadriga yeting” mavzusida matn yaratiladi.**

15-dars. NUTQ A’ZOLARI

Darsning maqsadi:

*a) **ta’limiy maqsad**: o‘quvchilarga tovushlarning hosil bo‘lishi; unli va undosh tovushlar, nutq a’zolari haqida nazariy ma’lumot berish;*

***b) tarbiyaviy maqsad:** o’quvchilarni ommaviy-axborot vositalaridan unumli va o‘rinli foydalanishga o‘rgatish; mafkuraviy immunitetini mustahkamlash;*

***d) rivojlantiruvchi maqsad:** o‘quvchilarda tinglab tushunish,o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Topshiriq. **Audio yoki o‘qituvchi yordamida topshiriqdagi matn o‘qiladi. O‘quvchilarning *TINGLAB TUSHUNISH* ko‘nikmasi shakllantirish uchun topshiriqlar bajariladi..**

O‘qituvchim, ustozim, yaqinsiz **yuragimga,**
Har so‘zingiz mo‘tabar, qanotdir tilagimga.
Tunlar o‘tirib bedor, o‘ylaysiz faqat bizni,
Quyoshdek qalbingiz bor, yoritar **ongimizni.**

(*“Tong yulduzi” gazetasidan*)

“Munosabat bildiring” orqali o‘qituvchi o‘quvchilarni mushohadaga undaydi. O‘quvchilarning ***O‘QISH SAVODXONLIGI*** shakllantiriladi. Ajratilgan so‘zlardagi undoshlar talaffuz qilinganda qaysi nutq a’zolari qatnashayotganiga e’tibor tortiladi.

Q, t, v, ch, m; y, r, g, m, g; h, r.

(O‘qituvchi tomonidan til, lablar, bo‘g‘iz faolligi uqtiriladi)

Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarga nutq a’zolari haqidagi mavzuni tushuntirishni “**aqlli doska” (“brainboard”)** metodidan foydalangan holda, ular e’tiboriga **nutq a’zolari** tushurilgan rasmni doskaga qo‘yib nutq a’zolarini birma- bir yozuv taxtasida ko‘rsatgan holda tushuncha berishdan boshlashi mumkin:

58-mashq. **O‘quvchilarning *YOZISH* va *O‘QIB TUSHUNISH* ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar daftarga husnixat bilan matnni ko‘chiradilar. Qavs ichidagi so‘zlardan mosini tanlaydilar va shaxsiy mulohazalarini bayon etadilar.**

Dunyoda shunday sharafli kasb egalari borki, ular tufayli biz oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratamiz. Kelajakda erishmoqchi bo‘lgan orzu-umidlarimizga yetamiz. Odamlar bilan muomala qilishni, dasturxon atrofi da o‘tirishni, ko‘chada harakatlanish qoidalarini, umuman, hayotimiz uchun zarur bo‘lgan barcha saboqlarni ulardan olamiz. Ular … (shifokor, muallim, muhandis) lardir, ... (*“Kasblar olami” jurnali*)

Yechim: ular muallimlardir.

59-mashqda **o‘quvchilar nutq a’zolari nomi qayd etilgan 3 ta maqol yoki hikmat yozib, unda qaysi tovushlar ishtirok etgani aytiladi.Bu mashq vositasida o‘quvchilarning** *YOZISH* **va** *GAPIRISH* **ko‘nikmalari shakllantiriladi**.

Namuna:

Tilingni avayla, omondir boshing.

So‘zingni avayla, uzayar yoshing.

Til tovushi: *t, ng, n, d, r, sh, l, s, z, y*

Lab tovushi: *v, m, b*

60-mashqda. O‘quvchilar matndagi yo‘l qo‘yilgan xatolarni to‘g‘rilab, daftarlariga yozadilar. Qaysi a’zolarda hosil bo‘lgan tovushlarda xatolikka yo‘l qo‘yilgani “Kim zukko?” **garmmatik o‘yini orqali aniqlanadi. Ushbu mashq yordamida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi shakllantiriladi.**

Yechim: ***k****etayotip-ketayotib,boxchadoshi-bog‘chadoshi, uchratip-uchratib, eslaship-eslashib, baxslaship-baxslashib, qolishti-qolishdi, kelajagda-kelajakda, zavqlanip-zavqlanib, kasp-kasb, cho‘chip-cho‘-chib, ranjitkisi-ranjitgisi* kabilar.

60-mashq. **“Lug‘at diktant”metodidan foydalanish mumkin. (Ushbu dars o‘qituvchi va murabbiylar bayrami arafasida bo‘lgani uchun o‘quvchilar bilan o‘qituvchi haqida “Tezislar tanlovi” o‘tkazilsa, va bu sitatalardagi so‘zlarning hosil bo‘lishida faol qatnashayotgan nutq a’zolari xususida ham munozara uyushtirilsa, o‘quvchilar nutqining shakllanishiga ta’sir qilanadi)**

61-mashq. **“brainboard” metodi orqali “Qaysi a’zo faol?”** topshirig‘i xattaxtada bajariladi. So‘zlarning hosil bo‘lishida qaysi nutq a’zolari faol qatnashayotgani og‘zaki bayon qilinadi.

(Masalan: beshik-b,sh,k- lab,til faol






Uyga vazifa: ***64-mashq.*** **“*Mening sevimli ustozim*” mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn yaratiladi. So‘zlardagi undosh tovushlarning hosil bo‘lishida qaysi nutq a’zolari faol ishtirok etayotganiga e’tibor berish vazifasi yuklanadi..**

16-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o‘quvchilarning nutq tovushlari, nutq a’zolari mavzulari yuzasidan olgan bilimlarini matn va lug’at bilan ishlash orqali mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o'quvchilarni yer osti va yer usti boyliklarni qadrlashga o'rgatish ;*

d) rivojlantiruvchi maqsad:*o'quvchilarda tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

O'qituvchi darsni monitor orqali ekologiya zarar yetkazilgan holatlar aks ettirilgan ilmiy-ommabop filmdan parcha namoyishi bilan boshlasa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Film ta'sirida darslikda berilgan matnni tasavvur qilishi osonlashdi.

"Tabiat va biz" matni o'qituvchi tomonidan yoki audio shaklida o'qib eshittiriladi. Matndan maqsad o'quvchining *TINGLAB TUSHUNISH* ko'nikmasini shakllantirish.

"Tanqidiy tafakkur" metodi matn uchun tavsiya etiladi. Metod o'quvchining *GAPIRISH* ko'nikmasini rivojlantiradi.

– Bugungi kunda tabiat insonning yordami va g'amxo'rligiga muhtojmi?

1. O'quvchilarga topshiriq yoki chalkash masala qo'yiladi va quyidagi savollar beriladi:

– Nima deb o'ylaysiz?

– Fikringiz qanaqa?

– Sizningcha qanday?

2. O'quvchiga o'z nuqtayi nazari, fikrini ishlab chiqish uchun imkoniyat va fursat beriladi.

3. O'quvchi o'z fikrini asoslaydi, bunda uning nuqtayi nazarini aniqlab olish uchun quyidagi savollarni berish mumkin:

– Nega bunday deb o'ylaysiz?

– Nimalar asosida bunday xulosaga keldingiz?

63-mashq. Matn asosidagi lug'at bilan tanishing. Izohlariga e'tibor bering. Matndan shu so'zlar ishtirok etgan gaplarni toping va *YOZING***.**

Yechim:

1. Masalan, yirik zavod, fabrikalardan turli zararli gazlarning chiqishi natijasida atmosferadagi ozon qatlami yirtiladi, hosil bo'lgan tuynuk hozirgi paytda butun insoniyatni tashvishga solmoqda.

2. Ekologik muammolar tabiat qonuniyatlariga ko'r-ko'rona aralashish oqibatida kelib chiqadi.

3. Purviqor tog'lari, daryo va ko'llari, musaffo osmoni, yam-yashil dalalari, bir so'z bilan aytganda, butun tabiati har qanday insonni maftun etadi.

64-mashq. **Matndagi eng oxirgi xatboshini daftaringizga *YOZING.***

"Impuls – plakat" metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu metodda ham yozma, ham og'zaki shaklda topshiriqlar beriladi, darslarning

mustahkamlash qismiga ko‘proq to‘g‘ri keladi. “Impuls – plakat” metodini qo‘llashda o‘qituvchi har bir o‘quvchi uchun vatman varaqlari va markerlar tarqatadi. Stollarning ustiga oxirigacha yetkazilmagan fikrlar yozilgan plakatlar qo‘yilgan:

«Ushbu mavzuda meni hammasidan ko‘proq .....qiziqtiradi»,
«Men shuni aniqlashtirmoqchi edimki, ...»,
«Men orttirgan bilimlarimni ..... qo‘llayman»,
«Men ..... to‘g‘risida ko‘proq bilib olmoqchi edim»,
«Men uchun .....murakkab bo‘ldi».

65-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“*Ona tabiatni avlodlarga bus-butun yetkazaylik*” mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn yarating.**

17-dars. NAZORAT ISHI VA UNING TAHLILI

18-dars. NUTQ TOVUSHLARINING AYTILISHI VA YOZILISHI

Darsning a) ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarga so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish; so‘z ma’nosidagi farqqa e’tibor qaratishni o‘rgatish; nutq tovushlarining vazifasini singdirish;

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarda xalqlar do’stligiga bo’lgan muhabbatni rivojlantirish; jamoaga hurmat ruhini singdirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda tovushlarning talaffuz va imlodagi birlashtiruvchi va farqli belgilarini ajrata olish; tinglab tushunish, o’qish, yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

“Yoshlar ovozi” gazetasidan olingan matn o’quvchining *TINGLAB TUSHUNISH VA GAPIRISH* ***ko’nikmasini rivojlantrishga mo’ljallangan. Matn o’qib eshittirilsa, ma’qul.***

Inson – dunyodagi eng oliy zot. Yakka o‘zi jamiyatdan ajralgan holda yashay olmaydi. Xalqimiz hamisha yoshlarga jamiyat bilan, ko‘pchilik bilan birga bo‘lish kerakligini uqtiradi.

Ko‘pchilik, jamoaning kuch-qudrati esa hammaga ma’lum. Jamoadan ajrash, yakka-yolg‘iz yashash yomon oqibatlarga olib borishi mumkin. “Bir tayoqni **sindirib** bo‘ladi, o‘n tayoqni bukib ham bo‘lmaydi”, “**Bir** kishi – bir, ikki kishi – sher”, “Sher – bilagi bilan, el birligi bilan kuchli”, “Birikkan kuch – kuch, birikmagan kuch puch” kabi **maqollarda** xalqning ko‘p yillik tajribasi, **hayotiy** xulosalari o‘z aksini **topgan**.

Matn tinglangach, quyidagi topshiriq ustida ishlanadi.

Topshiriqni bajaring.

1. Jamoaning kuch-qudrati haqida uch jumlada fikr bayon qiling.
2. Matnga har xil sarlavha tanlang.
3. So‘nggi xatboshidagi maqollar qatorini sharhlang.
4. Ajratilgan so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring, aytilishi va yozilishiga

Yechim: Taxminan quyidagicha sarlavha tanlanishi mumkin.

– Kuch birlikda!

– Birikmagan birlashmas.

3. So‘nggi xatboshidagi maqollar qatorini sharhlang (*GAPIRING*)

“Bir kishi – bir, ikki kishi – sher”,

“Sher – bilagi bilan, el birligi bilan kuchli”,

“Birikkan kuch – kuch, birikmagan kuch puch”

Ajratilgan so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring, aytilishi va yozilishiga diqqat qiling.

Yechim:

Aytilishi	Yozilishi
sindirip	sindirib
br	bir
maqollarda	maqollarda
hayotiy	hayotiy
topkan	topgan

66-mashq. Quyidagi so‘zlardan foydalanib, “*Bizning qudratimiz birligimizdadir*” mavzusida og‘zaki matn tuzing. So‘zlardagi tovushlarning talaffuziga va eshitilishiga diqqat qiling**. “Ikki yorti - bir butun” metodi**dan foydalanish mumkin. Matn tuzishda ikki o’quvchi biriktiriladi. Birinchi o’quvchi tuzgan gapini ikkinchi o’quvchi mantiqan davom ettiradi yoki dialog shaklida tashkillasa ham bo’ladi.

Yechim:

Donoxon: Komiljon, hayotingizda do’stlaringiz ko’pmi?

Komiljon: Ha, albatta, do’stlarim juda ko’p.

Donoxon: Insonning eng yaqin do’sti kim bo’lishi kerak deb o’ylaysiz?

Komiljon: Hayotdagi eng yaqin do’stlarimiz bu ota-onalarimiz hisoblanadi.

67-mashq. **Darslikdagi rasmga e’tibor qaratiladi.**

1-guruh	2-guruh	3-guruh
“Barchamizning tilagimiz bitta – tinchlik”	“Dunyo tinchligi bolalar kulgisida aks etadi”	“Kurrayi zamin barchamizniki”

68-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** Maqollarni daftaringizga ***YOZING***. Aytilishi va yozilishi farqli so‘zlarning tagiga chizing. Ulardagi g‘oya to‘g‘ri sida fikrlashing.

Yechim:

1. Ayrilmagin elingdan, Quvvat ketar belingdan. 2. Elga qo‘shilsang, er bo‘lasan, Eldan ajralsang, yer bo‘lasan. 3. Ikki qo‘l qilganini bir qo‘l qilolmas. 4. Birlashgan qo‘lda unum bo‘lar. 5. Bir kishi ming kishi uchun, ming kishi bir kishi uchun.

69-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Do‘stlik va birdamlik haqida o‘zbek shoirlari ijodidan namunalar YOZING. Talaffuzi va yozilishida farq qiluvchi so‘zlarning tagiga chizing.**

19-dars. NUTQ TOVUSHLARINING MA'NO FARQLASHI

Darsning a) ta'limiy maqsadi: *o‘quvchilarga nutq tovushlarining vazifasi ma'no farqlash ekanligini o'rgatish; nutq tovushlarining vazifasini singdirish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o'quvchilarning ixtirochilikka bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish; inson aqli, qudrati, imkoniyatlari haqidagi tushunchalarini boyitish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda tinglab tushunish,o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Dars Anvar Obidjonning "Avtobola" asariga ishlangan "Tilsimoy-g'aroyib qizaloq" filmidan eng qiziq voqeani gapirish bilan boshlansa, o'quvchilarda robotlar haqida tasavvur paydo bo'ladi. Darslikdagi matn audio shaklda eshitiriladi. Matn o'quvchilarning TINGLAB TUSHUNISH VA GAPIRISH ko'nikmasini rivojlantirishga mo'ljallangan.

Bizning zamonda bir qishloq bo‘lgan ekan. Qishloq odamlari mehnatkash va **ahil** ekanlar. Kunlarning birida bu qishloqqa bir ixtirochi yigit o‘zi yasagan robotni olib kelibdi va qishloq **ahl**ini kashfi yoti bilan tanishtiribdi. Bu robot juda kuchli va mehnatkash ekan. Tez orada u qishloqdagi og‘ir ishlarni o‘rganib olibdi. Robot dastyor **bola** bajaradigan barcha ishlarni: yer chopish, daraxt **o‘tqaz**ish, hayvonlarga ortiladigan anjom-**abzal**larni tashishni ham o‘zi uddalar ekan. Odamlar bir haftada qiladigan qiyin, o‘g‘ir ishlarni robot bir kunda qilar ekan. Qishloqdagilar o‘zlari ishlashdan ko‘ra robotni ishlatishni **afzal** ko‘ra boshlashibdi. Ixtirochi yigit esa yana o‘nta shunday robot yasab, ularni sinovdan **o‘tkaz**a boshlabdi. Ammo odamlar bora-bora arzimagan ishlarni ham robotlarga buyuradigan bo‘lishibdi. Ana shundan keyin muammolar boshlanibdi: kuni bilan bekorchilikka o‘rgangan odamla yalqov, urishqoq bo‘lib qolishibdi. Ahillik yo‘qolganini ko‘rgan qishloq

oqsoqoli **balo**ning oldini olish maqsadida odamlarga ham, ixtirochiga ham yoqadigan taklif aytibdi… (*Sh. Sattorov*)

Topshiriqni bajaring. “Kichik guruhlarda ishlash” metodidan foydalanish tavsiya etiladi.

1. Nima deb o‘ylaysiz, qishloq oqsoqoli muammoni hal qilish uchun qanday taklif berishi mumkin? Bu haqda o‘ylagan 3 ta yechimingizni *YOZING.*

2. Robotlarning hayotimizga kirib kelishi, sizningcha, yaxshimi yoki yomon? Fikringizni asoslovchi 5 ta og‘zaki dalil keltiring. *GAPIRING.*

3. Matnda ajratilgan talaffuzdosh so‘zlar ma’nosini farqlayotgan tovushlarni toping, ma’nosini o‘qituvchingiz yordamida izohlang. *GAPIRING.*

70-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** Bir tovush o‘zgarishi bilan ma’nosi butunlay farqlanadigan 10 ta so‘z *YOZING.* “So‘zlar bahsi” metodi tavsiya etiladi.

Yechim:

1-topshiriq. Bitta harf orttirilishi bilan yasaladigan so‘zlarni aniqlang.

2-topshiriq. Bitta harf o‘zgarishi bilan yasaladigan so‘zlar toping.

1-topshiriq: Ot, ota, otam, hotam, sot,soat…

2-topshiriq: to‘z, to‘y, to‘k, to‘q, to‘r, to‘l, to‘ladi, bo’ladi…

71-mashq. *GAPIRING.* Sinfda rasm chizishga qiziqadigan o’quvchilar anchagina. Avvalgi darsda o’quvchilarga robotlarning har xil harakatlarni amalga oshirishlari aks etgan rasmlarini chizib kelish topshirig’i berilsa, ma’qul bo’lar edi. O’quvchilar chizgan rasmlaridagi robotlarning qanday ishlarni amalga oshirayotganligini sharhlab beradilar.

72-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan unli yoki undoshlardan mosini qo‘yib, *YOZING.*

Yechim:

1. Avvalo, robot tabiiy emas, o‘zi yaralmagan, ongli mavjudot tomonidan yasalgan.

2. Atrof-muhitni kuzata oladi, bunda ko‘rish orqali kuzatishi shart emas, boshqa turdagi sezgi bo‘lishi ham mumkin.

3. Dasturga tayanib, buyruqlar ketma-ketligida erkin harakatlana oladi. (*“Biz bilgan va bilmagan dunyo”*)

73-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“*Kelajak robotlari*” mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn yarating.**

20-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning a) ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarga matnga munosabat bildira olish ko‘nikmasini shakllantirish; nutq tovushlarining vazifasini singdirish;

b) tarbiyaviy maqsad: o’quvchilarning baxt tuyg’usi haqidagi tasavvurlarini boyitish; baxtli hayot kechirishlari uchun motivatsiya berish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda tinglab tushunish,o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Erkin Vohidovning “Baxt” nomli maqolasi o’qituvchi tomonidan yoki audio shaklda *TINGLAB TUSHUNISH* uchun eshittiriladi.

Matn eshittirilgandan so’ng o’quvchilarga matn mazmunidan kelib chiqib, ularning *GAPIRISH* ko’nikmasini rivojlantirish uchun savollar beriladi.

Matn so’ngida “Lug’at diktant” o’tkazish tavsiya etiladi.

Lug‘at: **ta’na-dashnom** – pand-nasihat, malomat; **jar solmoq** – baland ovoz bilan e’lon qilmoq; **majmua** – to‘plam; **ko‘rgilik** – kishi hayotida yuz bergan erk-ixtiyoridan tashqari ko‘ngilsiz voqea

74-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Matnda ajratilgan so‘zlarning bir tovushini o‘zgatirib, boshqa bir so‘z hosil qiling. Yozgan so‘zlaringizda tovushlarning ma’no farqlash xususiyatiga e’tibor qarating. Masalan, borlik (mavjudlik) – borliq (butun olam) Mashq uchun “So‘zlar bahsi” metodi tavsiya etiladi.**

Yechim:

Matnda berilgan so’zlar	Bir tovushi o’zgargan so’zlar
olam	alam
asl	asil
bosh	fosh
o’tgan	otgan
judo	juda
surat	sur’at

Izoh: **tana-ta’na juftligida so’z hosilqiluvchibirlik tovush emas, tutuq belgisi hisoblanadi.**

75-mashq. ***Qo’yilgan muammo: To‘y, judo, ko‘z, iborat, visol*** **so‘zlarining bir tovushini o‘zgartirib boshqa so‘z hosil qiling. Hosil bo‘lgan so‘zlarga tegishli bo‘lgan ma’nolarni ajrating. Mashq uchun “Tushunchalar tahlili“ metodi tavsiya etiladi.**

Yechim:

№	Tushuncha	Mazmun
1	toy	otning bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan bolasi
2	juda	ortiq, nihoyat darajada, g'oyat; nihoyatda, benihoya
3	ko'l	quruqlikning suvga to'lgan (suv qoplagan), atrofi berk, chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasi
4	imorat	yashahs yoki boshqa maqsadda qurilgan uy, bino
5	misol	yechish, mashq qilish uchun berilgan matematik ifoda

76-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Testni yeching.** ***TINGLAB TUSHUNISH*** **ko'nikmasini rivojlantirish uchun.**

Yechim:

1. *Baxt shunday narsaki, borligida kishi uni* … , yo'qligida … .
Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.
a) sezmaydi, orzu qiladi; c) yo'qotadi, topadi;
b) qadrlamaydi, xohlaydi; d) sevmaydi, orzu qiladi.
2. Ijodkorning fikricha, baxt nima?
a) kuyib-yonib yurish; b) mashaqqat chekish;
c) biror maqsad bilan yashash; d) boy-badavlat bo'lish.
3. "*Baxtiyorlik lahzasi*" filmida qanday tasvir yo'q?
a) she'r yozib tugatgan shoir quvonchi;
b) yerga qo'ngan kosmonavtning kulgisi;
c) lotereyada avtomashina yutib olgan inson shodligi;
d) uzoq judolikdan so'ng bolasini quchoqlagan onaning ko'z yoshi.

77-mashq. ***Uyga vazifa.*** **"*Men, albatta, baxtli bo'laman*" mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn tuzing. Matningizda *umid qilmoq, harakat qilmoq, intilmoq, izlanmoq, erishmoq, havas qilmoq* kabi so'zlardan foydalaning.**

21-dars. FONETIK HODISALAR. TOVUSH ORTTIRILISHI

Darsning *a)* ta'limiy maqsadi*: o'quvchilarga fonetik hodisalar, og'zaki va yozma nutqning adabiy me'yorlari, tovush orttirilishi hodisasi haqida tushuncha berish orqali tinglab tushunish va yozish kompetensiyasini singdirish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o'quvchilarda ota-bobolarimizga hurmat ruhini singdirish va tibbiy madaniyatni shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o'quvchilarda talaffuz va imloda tovush o'zgarishi hodisalaridan o'rinli foydalana olish;*

Darsni tabletka haqidagi qiziq ma'lumot bilan boshlash mumkin.

Siz va bizning odatiy kun tartibimizdan joy olib ulgurgan tabletka

so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, kulcha degan ma'noni anglatar ekan. O'quvchilarga tabletkalar haqidagi quyidagi savollar beriladi?

1. Tabletkalardan qachon foydalanamiz?

2. Parasetamol tabletkasidan nima maqsadda foydalanamiz?

3. Ayrim tabletkalarning o'rnini bosuvchi qanday o'simliklarni bilasiz?

4. Kattalar dorixonadan tabletka sotib olayotganda ko'pincha qaysi davlatlarda ishlab chiqarilganlarini so'rashadi?

*Darslikda berilgan "*O'zbekni mashhur qilgan "Allapinin" matni audio yoki o'qituvchi yordamida *O'QIB ESHITTIRILADI.*

O'zbekni mashhur qilgan "Allapinin"

Inson organizmida har bir a'zoning alohida o'rni bor. Aytaylik, miya fi krlash, borliqni anglashda asosiy sanalsa, ko'z bajarayotgan vazifani hech bir mubolag'asiz hayot ramziga muqoyasa qilish mumkin.

Lekin vujudimiz ichra shunday bir a'zo borki, uning holati, umuman, inson tirikligini ifoda etadi. Bu – yashashni ta'minlaydigan a'zo, ya'ni yurakdir.

Vujudimizda "jon" deb atalmish omilning barhayotligi, yurib turganimizga sabab, avvalo, yurakning ishlab turishidir.

Yurakni asrash uchun ko'plab dori vositalari yaratilyapti. Ammo shunday dori kashf qilish kerakki, uning yurakka ta'siri boshqa noqulayliklarni keltirib chiqarmasin.

O'zbekiston olimlari yurak xuruji kasalliklariga malham bo' luvchi "Allapi nin" degan preparatni kashf etishdi. Uning ixti ro qilinishiga o'n yildan ziyod vaqt ketdi. Yer yuzidagi mu taxassislarning tan olishi, dorini sanoat asosida ishlab chiqarishga ham undan kam vaqt sarfl anmadi.

O'zbekiston kimyogarlari va kardiologlarining hamkorlikda o'tkaz gan tajribalari, tinimsiz izlanishlari natijasida ana shu preparat insoniyatga tuhfa etildi. Kashfi yotchi olimlar ilm-fan sohasidagi yuksak mukofot – Beruniy nomidagi davlat mukofoti bilan taq dirlandilar. (Sh. Jabborov)


O'quvchilarning *TINGLAB TUSHUNISH* **kompotensiyasini sinab ko'rish maqsadida matn bilan bog'liq quyidagi savollar berilishi mumkin?**

Munosabat bildiring.

1. Mashhur tabib bobomiz Ibn Sino haqida nimalarni bilasiz?
2. Inson tanasida yurak faoliyatining o'rni qanchalik deb o'ylaysiz?
3. Siz qaysi sohada kashfi yot qilishni xohlar edingiz?

Matnda uchragan quyidagi so'zlar sinf doskasiga va o'quvchilarning lug'at daftarlariga yozdiriladi.

Lug‘at: preparat – dori-darmon; kardiolog – yurak shifokori; xuruj – hujum, hamla; malham – davo bo‘ladigan narsa; muqoyasa – qiyoslash, solishtirish



Tilimizda quyidagi kabi tovush orttirilishi hodisalari uchraydi.

Bular yozuvda aks etadigan tovush orttirilishi hodisalaridir:

– bu, shu+-ga, -da, -dan → bunga, shundan (- n tovushi) – mavzu+ -ing → mavzuying (-y tovushi)

Ba’zi tovush orttirilishi hodisalari faqat talaffuzda sodir bo‘ladi:

– orzu, insho kabi so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda y tovushi qo‘shib aytiladi, yozilmaydi (orzuyim emas, orzum)

– yonma-yon kelgan unlilar orasida ba’zan y undoshi qo‘shib aytilsa ham, yozilmaydi. Masalan: material, tabiat, biologiya, maishat, teatr, aeroport va hokazo.

Qo’shimcha nazariy ma’lumot:

Tovush o’zgarishlari asosan asosga qo’shimcha qo’shilganda sodir bo’ladi. So’zning asos holatidagi tovush o’zgarishlari yozuvda aks etmaydi. Masalan, odop(odob), qars(qarz); o’yin+a=o’yna, his+i=hissi, qaymoq+i=qaymog’i

78-mashq. Qo’yilgan muammo: Bu mashq “ Bilag’on o’quvchilar” o’yini orqali sinf doskasida bajariladi. Matndagi ajratib ko’rsatilgan so’zlardagi tovush o’zgarishlarini ikki ustunga(faqat talaffuzdagi va yozuvdagi) ajratib YOZADILAR.

Yechim:

Yozuvda	*Faqat talaffuzda*
o‘rni (o’rin+i) angla (ong+la) sana (son+a) shunday (shu+n+day) tirikligi (tiriklik+i) o‘rni (o’rin+i) yasha (yosh+a) ata (ot+a)	organizm(arganizm) – almashish mumkin(mumkun) – almashish

79-mashq. Qo’yilgan muammo: **Bu mashqni ham doskada bajargan ma’qul. “Tingla va angla” o’yini orqali o’quvchilar**

tominidan jadvalga joylanadi. So'zlar o'qituvchi tominidan aytib berib turilsa, o'quvchi ikki karra o'ylashga majbur bo'ladi.

Yechim:

Tovush ortishi	Tovush tushishi	Tovush almashishi
Parvoyim (parvo+y+im)	Seniki (sen+niki)	Sanoq (son+a+q)
Shundan (shu+n+dan)	Meni (men+ni)	Ishlov (ishla+v)
Mavqeyi (mavqe+y+i)	Ko'ngli (ko'ngil-i)	Varag'i (varaq+i)
Obro'yim (obro'+y+im)	Shahrimiz (shahar+imiz)	O'quvchi (o'qi+vchi)
	Pasaymoq (past+ay)	Qishlog'ingiz (qishloq+ingiz)

Shu mashqni "Teskari usul" metodi orqali mustahkamlash ham mumkin. Ya'ni so'zlarni asos va qo'shimchaga ajratish orqali. Bu usul ham jadvalda aks etgan.

80-mashq. ***Uyga vazifa. ia, io, ai, oi, ea*** **kabi yonma-yon keladigan unlilar ishtirok etgan 10 ta so'z yozing va ular ishtirokida gaplar tuzing.**

22-dars. MATN VA LUG'AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ta'limiy maqsadi*: o'quvchilarga matn bilan ishlash orqali fonetik hodisa mavzusini mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o'quvchilarda ota-bobolarimizga hurmat ruhini singdirish va tibbiy madaniyatni shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o'quvchilarda talaffuz va imloda tovush o'zgarishi hodisalaridan o'rinli foydalana olish;*

Darsni noan'anaviy usulda boshlagan ma'qul. O'qituvchi tomonidan taqvim.uz saytidan olingan kun yangiliklari eslatib o'tiladi.

Matn va lug'atlar ustida ishlash darsini o'quvchilar faolligini oshirish maqsadida "Kichik guruhlarda ishlash" metodi asosida tashkillasa ham bo'ladi. Sinf imkondan kelib chiqib,

3 yoki 4 guruhga bo'linadi. Guruhlarga ham matn mazmunidan kelib chiqib, **"Ko'kkezar", "Galaktika", "Gravitatsiya", "Somon yo'li", "Kahkashon"** kabi nomlar qo'yilishi mumkin. O*'tgan darsda o'quvchilar guruhlarga bo'linib, uyga topshiriq sifatida, guruh logotipini tayyorlab kelish topshirig'i berilsa, topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilarning galaktika haqidagi tushunchalari yanada boyiydi.*

Sa'dullo Quronovning "*Galaktikada bir kun*" asaridan olingan parcha audio orqali ***O'QIB ESHITTIRILADI***. Monitorda galaktika

haqidagi ilmiy-ommabop film ovozsiz holatda namoyish etib turilsa, o'quvchilarda tushuncha hosil qilish osonlashadi.

Har bir guruh o'qituvchi tomonidan berilgan quyidagi savollarga yozma javob tayyorlaydilar. Matn tuzish jarayonida, albatta, yuqoridagi matnda uchragan *galaktika, hayot kechirmoq, portlash, kislorod, kompyuter, zarra* kabi so'zlardan foydalanish tavsiya etiladi.

1. Sayyoramizni o'zga sayyoradan turib kuzatishni xohlaysizmi?

3. O'zga sayyoralar sizni nimasi bilan qiziqtiradi? Uchar likopchalar haqida nimalarni bilasiz?

81-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** O'quvchining *TINGLAB TUSHUNISH* qobiliyatini rivojlantirish maqsadida matn asosida tuzilgan test topshiriqlari havola etiladi.

Yechim:

1. "Ulkan portlash"dan keyin koinot nimalar bilan to'lgan?

a) mayda zarralar va suv tomchilari bilan;
b) quyuq chang va gazlar bilan;
c) qum zarralari va kislorod bilan;
d) chang va tomchilar bilan.

2. "Ulkan portlash" haqidagi noto'g'ri hukmni toping.

a) 13,8 milliard yil avval sodir bo'lgan;
b) biz shu portlashning ichida hayot kechiryapmiz;
c) "Ulkan portlash" hali tugagan emas;
d) u faqatgina bir marta sodir bo'lgan.

82-mashq. ***Qo'yilgan muammo: "Kim chaqqon?" o'yini orqali sinf doskasida bajariladi. Matnda uchragan so'zlar "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan o'quvchilarning mustaqil ravishda topishlari tavsiya etiladi; lug'at bilan ishlash ko'nikmasi shakllanadi.***

Yechim:

koinot	butun borliq, galaktika
milliard	mingta million
undan	3-shaxs shaklidagi kishi yoki narsaga ishora
atalmoq	nomlanmoq
mikroskop	zarrabin, kattalashtirib ko'rsatuvchi asbob

83-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Quyidagi gaplarni davom ettiring va daftaringizga YOZING.**

1. Men o'zga sayyoralik bilan uchrashib qolsam, …

2. Ming yildan so'ng bizning sayyoramizda …

3. Men ham sayyoralararo uchuvchi kema yasayman. Buning uchun…

23-dars. SO‘ZLARDA TOVUSH TUSHISHI

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o‘quvchilarda og’zaki va yozma nutqdagi tovush tushish hodisalari haqida bilim va ko’nikma hosil qilish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarga turli yot g’oyalarga qarshi munosabat bildirishlarida diniy va dunyoviy kitoblarning ahamiyatini singdirish ;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda talaffuz va imloda tovush o‘zgarishi hodisalaridan o‘rinli foydalana olish; tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish*

Darsning tashkiliy qismidan so’ng o’quvchilar bilan hadislar va ularning tarbiyadagi ahamiyati haqida suhbatdan boshlash tavsiya etiladi.

“O’zgalarga muhtoj bo’lmaslik uchun mehnat qilish insonning fazilatidir”

Bahouddin Naqshband haqidagi matn avval o’qituvchi tomonidan o’qib eshittiriladi. O’quvchilarda ***TINGLAB TUSHUNISH*** ko’nikmasini sinash uchun 5–6 nafar o’quvchidan “Navbat sizga” o’yini orqali matn ***GAPIRILADI***.

Qo’yilgan muammo: **Matnni o‘qing. Matnda ajratilgan so‘zlarning talaffuzi va yozilishiga e’tibor bering.**

Diniy ma’rifatni targ‘ib qilishda, tinch va pokiza hayot kechirishda bizga ibrat bo‘ladigan ulug‘ bobolarimizdan biri Bahouddin Naqshband sanaladi.

U 1318-yilda Buxoro yaqinidagi Qasri Orifon qishlog‘ida **tavallud** topgan. Bolalik chog‘idanoq **ko‘ngli** ilmga moyil bo‘lgan.

Bahouddin Naqshband ilmni puxta o‘rganish va targ‘ib qilish bilan birgalikda usta **hunarmand** sanalgan. Shoyi gazlamalarga, temir va mis buyumlarga naqsh solish bilan kun kechirgan. Umrini insonlarga xolis xizmat qilish bilan o‘tkazgan. O‘z ta’limotiga “**Dast** ba kor-u dil ba yor!”, ya’ni “Qo‘ling ishda va diling Allohda bo‘lsin!” degan g‘oyani bosh shior qilib olgan. Shu bois Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi Sharq allomalari uni o‘zlariga pir (ustoz) deb bilishgan.

Matnni o’qigandan so‘ng o‘quvchilar *O‘QIB TUSHUNISH* ko‘nikmasini rivojlanttirish uchun quyidagi savollar ustida ishlaydilar.

Munosabat bildiring.

1. “Qo‘ling ishda va diling Allohda bo‘lsin!” degan iborani qanday izohlaysiz?
2. Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm avj olgan bugungi kunda alloma aytgan fikrlarning qanday foydali tomonlari bor?
3. Buxorodan yetishib chiqqan yana qanday allomalar haqida o‘qigansiz?

Matnda ajratilgan so‘zlarning talaffuzi va yozilishiga diqqat qaratiladi..

Yechim:

Faqat og’zaki nutqda tovush o’zgarishlari	Yozma nutqda tovush tushishi
tavallud (tavallut)	ko‘ngli (ko’ngil+i)
hunarmand (hunarman)	
dast (das)	

Munosabat bildiring.

1. “*Qo‘ling ishda va diling Allohda bo‘lsin!*” degan iborani qanday izohlaysiz?

2. Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm avj olgan bugungi kunda alloma aytgan fi krlar- ning qanday foydali tomonlari bor?

3. Buxorodan yetishib chiqqan yana qanday allomalar haqida o‘qigansiz?

84-mashq. ***Qo’yilgan muammo: Ikki, olti, yetti*** **so‘zlariga *-ov*, *-ala*, *-ovlon* qo‘shimchalarini qo‘shib *YOZING. S*odir bo‘lgan o‘zgarishga diqqat qiling.**

Yechim:

Bir	-
Ikki	*Ikkov,ikkala,ikkovlon*
Uch	-
To’rt	-
Besh	-
Olti	*Oltov,oltala,oltovlon*
Yetti	*Yettov,yettala, yettovlon*
Sakkiz	-
To’qqiz	-
O’n	-

Nega aynan ikki, olti, yeti sonlarida tovush tushyapti, bir, uch, to’rt kabi so’zlarda esa bu holat kuzatilmayapti? Tovush tushish hodisalari so’zning unli va undosh tovush bilan tugashiga bog’liqligi haqida GAPIRING.

85-mashq. **Qo’yilgan muammo: Past, sust so‘zlariga -ay qo‘-shimchasini, qayir, ayir fe’llariga -il qo‘shimchasini qo‘shib yozing. Sodir bo‘lgan o‘zgarish haqida GAPIRING**

Yechim:

Past	*-ay*	*Pasay*

Sust	*-ay*	*susay*
Qayir	*-il*	*Qayril*
ayir	*-il*	*ayril*
ayir	*-im*	*ayrim*

Nazariy ma’lumotga quyidagilarni qo’shimcha qilish mumkin.

Ayrim bir yoki ikki bo’g’inli so’zlarga egalik qo’shimchalari qo’shilganda *a, i, u* unli tovushlari tushadi. Masalan, shahri, o’rni, shahri.

86-mashq. ***Qo’yilgan muammo: Maqollar mazmuniga diqqat qilib, daftaringizga YOZING. Tovush tushishi hodisasiga uchragan so‘zlarning tagiga chizing.***

Yechim:

1. Yig‘lab-yig‘lab marza (ariq sirti, pushta, egat) olsang,

O‘ynab-o‘ynab sug‘ora san. (yig’i ot so’z turkumiga fe’l yasovchi –la qo’shimchasi qo’shilib, asosdagi i tovushu tushgan; o’yin otiga fe’l yasovchi –la qo’shimchasi qo’shilib, asosdagi i tovushi tushgan)

2. Ishlaganning og‘zi oshga tegar, Ishlamaganning boshi – toshga. (og’iz otiga –i egalik qo’shimchasi qo’shilib, asosdagi i tovushi tushgan)

3. Tuyaga yantoq kerak bo‘lsa, bo‘ynini cho‘zar. (bo’yin otiga –i egalik qo’shimchasi qo’shilib, asosdagi i tovushi tushgan)

4. Berarman (beruvchi)ga beshov ko‘p, olarman (oluvchi)ga oltov oz. (olti soniga – ov jamlovchi son qo’shimchasi qo’shilib, asosdagi i tovushi tushgan)

5. Ko‘ngli ochiqning qo‘li ochiq, qo‘li ochiqning – yo‘li. (ko’ngil otiga –i egalik qo’shimchasi qo’shilib, asosdagi i tovushi tushgan)

87-mashq. **Qo’yilgan muammo: Quyidagi so‘zlarga -im egalik qo‘shimchasini qo‘shib YOZING. Tovush o‘zgarishlariga diqqat qiling.**

Yechim:

Yozuvda aks etadigan tovush tushishi sodir bo‘lgan so‘zlar	Tovush o’zgarishi sodir bo‘lmagan so‘zlar
ko’nglim	qo’ziqorinim
og’zim	axloqim
zahrim	yukim
qornim	chokim
bo’ynim	idrokim
begim	ishtirokim

	ittifoqim
	huquqim
	peshtoqim
	ravnaqim
	axloqim

88-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Quyidagi so‘zlarni ikki ustunga ajratib yozing. Sustkashlik, ayrim, yettovlon, bilan, daraxt, qayrilmoq, bag’ringiz, payvand, o‘g‘lon, Samarqand.**

24-dars. SO‘ZLARDA TOVUSH ALMASHISHI

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi*: o‘quvchilarda og’zaki va yozma nutqdagi tovush almashish hodisalari haqida bilim va ko’nikma hosil qilish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *Vatanga sadoqatli bo’lish, insonlarga mehr-oqibatli bo’lish layoqatini shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda talaffuz va imloda tovush o‘zgarishi hodisalaridan o‘rinli foydalana olish; tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Qo’yilgan muammo: Topishmoqlarning javobini toping. Mashqni bajarishda “Zakovatli zukko” metodi tavsiya etiladi.

O’quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan topishmoqlarga mantiqan fikrlab, to‘g‘ri javobni topishlari kerak. Ajratilgan so‘zlarning qaysi birida tovush almashishi hodisasi sodir bo‘lgan? Ular ishtirok etgan gaplarni YOZING

Yechim:

1. O’ynar (o’yin otiga –a fe’l yasovchi qo’shimcha qo’shilib, asosda gi i tovushi tushgan)

2. O‘ynaydi (o’yin otiga –a fe’l yasovchi qo’shimcha qo’shilib, asosda gi i tovushi tushgan)

3. Taroq (tara fe’liga –q ot yasovchi qo’shimchasi qo’shilib, asosdagi a tovushi o tovushiga almashgan)

4. Quduqqa (Asos q tovushi bilan tugagani sababli –ga jo’nalish kelishigi –qa shaklida qo’shilgan)

5. Barmog’i (barmoq so’zi q tovushi bilan tugagani sababli III shaxs birlikdagi egalik qo’shimchasi –i qo’shilib, asosdagi q tovushi g’ tovushiga almashgan)

6. Shundan (shu ko’rsatish olmoshiga chiqish kelishigining –dan shakli qo’shilib, n tovushi ortgan)

89-mashq. **Qo’yilgan muammo: so‘zlarida qo‘shimcha qo‘shilishi bilan qaysi tovush qaysi tovushga almashganini haqida GAPIRING. YOZING.**

Hushyorligim, bulog‘i, tilakka, qo‘g‘irchoqqa, sinov, qaynoq, sovuq, anglamoq, atamoq

Mashqni “Ha, Yo’q” metodi orqali bajarish tavsiya etiladi. O’qituvchi tovush o’zgarishiga uchragan bir nechta so’zlarni o’quvchilarga havola etadi. Masalan,

1. Hushyorligim so’zida tovush almashganmi? Ҳa.
2. Bulog’i so’zida tovush ortganmi? Йўқ.

Yechim:

Hushyorligim-hushyorlik+im (Ishaxs birlikdagi egalik qo’shimchasi)

Bulog‘i- buloq+i (III shaxs birlikdagi egalik qo’shimchasi)

Tilakka-tilak+ -ga(-ka) (jo’nalish kelishigi qo’shimchasi)

Qo‘g‘irchoqqa- qo’girchoq+ -ga(-qa) (jo’nalish kelishigi qo’shimchasi)

Sinov-sina+ -v (harakat nomi qo’shimchasi)

Qaynoq-qayna+q (sifat yasovchi qo’shimcha)

Sovuq-sovi+q (sifat yasovchi qo’shimcha)

Anglamoq ong+la (fe’l yasovchi qo’shimcha)

Atamoq-ot+a (fe’l yasovchi qo’shimcha)

90-mashq. ***Qo’yilgan muammo: Mashqda berilgan so‘zlarini O‘QING. Qanday o‘zgarish bo‘layotganiga e’tibor qarating. Mashqni “Xatoni top” metodi orqali bajarish mumkin. Bu metodda o’qituvchi ataylab xato qiladi. Avval o’quvchilar bu haqda oldindan ogohlantirilgan bo’ladi.***

Yechim: uchta-uchta, pochta- po’shta, yigitcha- yigichcha, yozsin-yossin, ketdi- ketti, o‘n besh-ombesh

Nazariyaga qo’shimcha:

Tovush almashishi hodisasi asosda ham, qo’shimchada ham yuz berishi mumkin.

Asos qismida: o’qi+v=o’quv, qo’shimcha qismda: chiq+qach.

91-mashq. **Qo’yilgan muammo: Maktab hayotidan olingan xandalarni O‘QING, so‘zlarning talaffuziga va yozilishiga e’tibor bering. To‘g‘ri javobni tanlang.**

Yechim:

Tarix darsida o‘qituvchi bir o‘quvchiga savol berdi:

– Fransiya – Prussiya urushi haqida nima bilasan?

O‘quvchi o‘rnidan turdi, lekin undan sado chiqmadi.
– Nega gapirmayapsan?
– Dadam urush- janjalga aralashma, deganlar.

Botanika darsida ustoz so‘rayapti:
– Aytgin-chi, Ali, olmani daraxtdan qachon uzamiz?
Bola javob berdi:
– Bog‘bon uxlaganida va iti bog‘liq bo‘lganida!..

92-mashq. **Qo’yilgan muammo: Bilimingizni sinab ko‘ring. Savollarga javob bering (GAPIRING), topshiriqni bajaring.**

1. Tilshunoslikning fonetika bo‘limida nimalar o‘rganiladi?
2. Nutq a’zolarini sanang. Ularning boshqa tana a’zolaridan asosiy farqi nimada?
3. Nutq tovushlarining asosiy vazifasini ayting.
4. Qanday tovush o‘zgarishlari haqida bilib oldingiz, ta’rifl ab bering.

93-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Sinfdoshlaringiz bilan sodir bo‘ladigan qiziqarli voqealarni uch-to‘rt latifa shaklida YOZING. Tovush o‘zgarishiga uchraydigan so‘zlarning ostiga chizing.**

25-dars. BO‘G‘IN VA UNING AHAMIYATI

Darsning *a)* tarbiyaviy maqsadi: *o‘quvchilarda bo’g’in haqidagi bilim va ko’nikmalarini rivojlantirish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *Vatanga sadoqatli bo’lish, insonlarga mehr-oqibatli bo’lish layoqatini shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda talaffuz va imloda tovush o‘zgarishi hodisalaridan o‘rinli foydalana olish; tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

“Yo‘limizdagi to‘siqlar” matni o’qituvchi tomonidan yoki sinfdagi ifodali o’qiydigan o’quvchi tomonidan audio shaklda tayyorlab kelinib, o‘qib eshittiriladi. Matn o’quvchilarning *TINGLAB TUSHUNISH*lari uchun mo’ljallangan.

GAPIRING.

1. Har qanday to‘siqni yengsa bo‘ladimi? Yoki gap to‘siqning hajmidami?
2. “*Xohlagan imkoniyat qidiradi, xohlamagan – bahona*” degan maqolni sharhlab ko‘ring.To‘siqlarga uchrab qolsangiz, nima qilasiz: yengib o‘tasizmi, aylanib o‘tasizmi?



94-mashq. **Qo'yilgan muammo: Mashq doskada bajarilgani ma'qul. Matnda ajratilgan so'zlarni bo'g'inga bo'lib YOZING. Bo'g'inga ajratayot ganda nimaga e'tibor berdingiz?**

Yechim:

Za-mon-lar-da, sav-do-gar-la-ri, kar-von-bo-shi-lar, a-mal-dor-lar-i, xalq-dan, e'-ti-bor, yel-ka-si-da-gi, a-mal-lab, a'-zo-yi, mu-vaf-faq

95-mashq. **Qo'yilgan muammo: Ushbu hikmatlarni TINGLANG. Mazmuni yuqoridagi matnga mos kelmagan hikmatni ajratib, so'zlarini bo'g'inga bo'lib chiqing.**

Yechim:

1. Yaxshilik qil – daryoga tashla: baliq bilar, baliq bilmasa, Xoliq bilar. (*Maqol*)
2. Har yaxshilik sadaqadir. (*Hadisdan*)
3. Sog' yuray desang, ozoda yur. (*Maqol*)
4. Umidsizlik uyin buzsang, umidingga yetarsan. (*Maqol*)

96-mashq. **Qo'yilgan muammo: Matndan olingan so'zlarning qaysilari xato yozilgan?**

Matnga tayanib to'g'rilang, barchasini bo'g'inga ajratib YOZING. Mashqni "Xatoga yo'l qo'ying" metodi orqali bajarish mumkin. Bu metodda o'qituvchi qasddan xato qiladi. Avval o'quvchilar bu haqda oldindan ogohlantirilgan bo'ladi.

Yechim:

Tog'ri yozilgan so'zlar	**Xato yozilgan so'zlar**	
sa-roy-ga	Zomonlarda	Za-mon-lar-da
kar-von-bo-shi-lar	podishoh	Pod-shoh
ba-dav-lat	kuzatip	Ku-za-tib
mu-vaf-faq	sovdagarlari	Sav-do-gar-la-ri
a-mal-lab	ichkarga	Ich-ka-ri-ga
	solig'	So-liq
	deqqon	Deh-qon
	sabzovot	Sab-za-vot
	harsang	Xar-sang
	itora boshladi	i-ta-ra bosh-la-di
	shoxdan	Shoh-dan
	a'zoi badani	a'-zo-yi ba-da-ni

97-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Boshqotirmani yeching. 1-so'zning so'nggi bo'g'ini bilan 2-so'zning 1-bo'g'ini bir xil tovushlardan iborat. Masalan: Qimmatbaho metall – barmoqlar jami (kumushtum)**

Yechim:

1. “Oq oltin” – pul birligi
2. Maroqli – xasis
3. Uy hayvoni – tog‘ hayvoni
4. Yozuv quroli – poliz ekini
5. Idish – idish

1. Paxta-tanga
2. Qiziq- ziqna
3. Echki- kiyik
4. Piyola- lagan

26-dars. MUSTAHKAMLASH

Darsning *a)* o‘quv maqsadi: *o‘quvchilarda tovush o’zgarishlari yuzasidan hosil qilingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad:*jamoa bilan ishlash ko’nikmasini shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda talaffuz va imloda tovush o‘zgarishi hodisalaridan o‘rinli foydalana olish; tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Qo’yilgan muammo: 1-topshiriq. **Savollarga javob bering. (*GAPIRISH* ko‘nikmasi ustida ishlash)**

1. Til – ijtimoiy hodisa deganda nimani tushunasiz?
2. Tilshunoslik fanining qanday bo‘limlari bor va ularda nimalar o‘rganiladi?
3. Nutq tovushlarining asosiy vazifasi nimalardan iborat?

Ularning qanday turlari bor?

4. Qanday tovush o‘zgarishi hodisalarini bilasiz?

Misollar asosida tushuntiring.

5. Bo‘g‘in nima?



2-topshiriq. ***“Zanjir”*** **o‘yini o‘tkazing. Sinf 2 guruhga bo‘linadi.**

1-guruh	2-guruh
yozuvda ham, talaffuzda ham tovush o‘zgarishi sodir bo‘ladigan so‘zlarni navbat bilan doskaga **YOZING.** **Yechim!!!** *sening, pasay, sovuq, yasha, sana, ata, o’yna, quvnoq, issiq, yumshoq, qaynoq, oltov, bitta, singlim, o’rni…*	faqat talaffuzda tovush o‘zgarishi sodir bo‘ladigan, ammo yozuvda ifodalanmaydigan tovush o‘zgarishlari uchraydigan so‘zlarni doskaga **YOZING** **Yechim!!!** *fi k(i)r, birga, o(y)ila, so(g‘)at, sho(y)ir, do(y)im, go’sh(t), sin(i)f, ma(o)shina, trakto(i)r, mo(a)nitoring…*

3-topshiriq. **Qo’yilgan muammo: Qavs ichidagi harflardan mosini qo‘yib, matnni YOZING. Ezopning ushbu masalini O’QING, O’QIB TUSHUNGAN fikringizni bayon qiling.**

Yechim:



4-topshiriq. **“*Marraga yetguncha*” o‘yinini o‘tkazing. *Qo’yilgan muammo:* Bunda sinf 3 guruhga bo‘linadi. Har bir guruh bir xil bo‘g‘in bilan tugaydigan so‘zlar zanjiri hosil qiladi, qog‘ozga yozadi.**

Yechim:

1-guruh	2-guruh	3-guruh
sado – nido – fi do – judo – ibtido – ado …	shalola-lola-piyola-sulola-salla-palla-g’alla-tola-bola…	qanoat-toat-soat-saodat-muddat-kulfat-sifat…

5-topshiriq. ***Uyga vazifa.*** **“Aql kuchdan qudratliroq” degan mavzuda matn tuzing va YOZING, fikringizni maqol yoki hikmatli so‘zlar bilan asoslang.**

27-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* o‘quv maqsadi: *o‘quvchilarning tovush o’zgarishlari, bo’g’in va uning ahamiyati yuzasidan olgan bilimlarini matn va lug’at ustida ishlash orqali mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad: *fan sohasida buyuk kashfiyotlar qilgan olimlarning ibratomuz hayoti, fan rivojlanishiga qo’shgan hissalarini singdirish orqali kashfiyotlar yaratish hissini shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *tinglab tushunish,o‘qish;gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Topshiriq. **Matnni O‘QING. O’QIB YOKI TINGLAB TUSHUNISH VA GAPIRISH ko’nikmalarini rivojlantiradi. Matn o’qituvchi tomonidan yoki audio shaklda o’qib eshittiriladi. “Qayta hikoya” metodi tavsiya etiladi.**

Qutb yulduzi

Qadimda dengizchilar yoki sahrodagi karvonlar yulduzlarning joylashishiga qarab yo‘lni aniqlashgan. Yulduzlarni o‘rganib, ularning xaritasini chizib beradigan kishilarni esa munajjim deb atashgan.

Bilasizmi, yulduzlarning ham “yulduzi“, ya’ni mashhurlari bo‘ladi. Qutb yulduzi ana shundaylardan biri. Chunki u o‘tgan davrlar mo baynida

koʻplab adashganlarga yoʻl koʻrsatib, oʻz manzillariga eson-omon yetib olishlarida koʻmakchi boʻlgan.

Qutb yulduzi osmondagi eng yorqin yulduzlardan biri boʻlgani uchun uni topib olish qiyin emas. Olimlarning aytishicha, kunlar, oylar, baʼzan yillar oʻtishi bilan yulduzlarning samodagi oʻrni oʻzgarib turar ekan. Faqatgina Qutb yulduzi oʻz joyidan hech qachon jilmaydi, doim osmonning shimoliy qismida yaraqlab turadi. Shunday oʻziga xos xususiyati tufayli sayyohlar Qutb yulduziga qarab shimol, janub, sharq va gʻarbni aniqlay olishgan.

Qutb yulduzi Katta ayiq yulduzi turkumiga kiradi. U Quyoshdan 120 marta katta boʻlib, oʻn ming marta kuchliroq nur taratadi. Odamlarga yoʻl koʻrsatib turgani uchun "Yoʻlchi yulduz" deb ham atashgan. Juda olisda boʻlgani bois ushbu yulduz nurlari Yergacha 472 yilda yetib keladi. (*"Jajji akademik" jurnalidan*

98-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** Matn asosida test topshiriqlarini yeching. **TINGLAB TUSHUNISH VA GAPIRISH ko'nikmalarini rivojlantiradi.**

Masalan:

Qutb yulduzi **osmon**dagi eng yorqin yulduzlardan biri boʻlgani uchun uni topib olish qiyin emas.

a) Qutb yulduzi **falak**dagi eng yorqin yulduzlardan biri boʻlgani uchun uni topib olish qiyin emas.

b) Qutb yulduzi **koinot**dagi eng yorqin yulduzlardan biri boʻlgani uchun uni topib olish qiyin emas.

c) Qutb yulduzi **samo**dagi eng yorqin yulduzlardan biri boʻlgani uchun uni topib olish qiyin emas.

d) Qutb yulduzi **fazo**dagi eng yorqin yulduzlardan biri boʻlgani uchun uni topib olish qiyin emas.

Yechim:

1. Yulduzlarni oʻrganib, uning xaritasini chizib beruvchilarni qadimda qanday atashgan?

a) munaqqid; b) mudarris; c) folbin; d) munajjim.

2. Qutb yulduzining qaysi xususiyati tufayli sayyohlar dunyoning 4 tomonini aniqlay olishgan?

a) eng yorqin yulduz boʻlgani uchun;

b) odamlarga yoʻl koʻrsatib turgani uchun;

c) juda olisda boʻlgani uchun;

d) joyi oʻzgarmay, osmonning shimolida turgani uchun.

3. Qutb yulduzi yulduzlarning "yulduz"i hisoblanadi, chunki u ...

a) adashganlarga yoʻl koʻrsatadi;

b) eng yorqin va go‘zal yulduz hisoblanadi;
c) quyoshdan ham katta;
d) qutbda joylashgan.

99-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Quyidagi gaplarni YOZING. Ajratilgan so‘zlarni ma’nodoshlari bilan almashtiring. Nechta gap hosil qila olasiz? “Ortiqchasini top” o’yini orqali mashqni yanada qiziqarli tashkillash mumkin. Mashq ma’nodosh so’zlar qatorini hosil qilishga qaratilgan. Ma’nodoshlik qatorida o’qituvchi tomonidan maxsus begona so’z qo’shib qo’yiladi. O’quvchi ortiqsa so’zni topishi va fikrini dalillashi kerak. TINGLAB TUSHUNISH VA GAPIRISH VA YOZISH ko’nikmalarini rivojlantiradi.** Masalan, Vatan, yurt, diyor, qishloq, o’lka

Yechim:

1. **Odamlarga** yo‘l ko‘rsatib turgani uchun uni “Yo‘lchi yulduz“ deb ham **atashgan.**

Odam-inson-kishi-shaxs-odamzod-kimsa-bashar;

Atamoq-nomlamoq-nom bermoq

2. Olimlarning aytishicha, kunlar, oylar, ba’zan yillar o‘tishi bilan yulduzlarning samodagi **o‘rni** o‘zgarib turar ekan.

O’rni-joyi-makon-manzil

3. Faqatgina Qutb yulduzi o‘z joyidan hech qachon **jilmaydi,** doim osmonning shimoliy qismida yaraqlab turadi.

Jilmaydi-siljimoq-qo’zg’almoq- surilmoq

100-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **“Buni o‘qing – bu qiziq!” Ma’lumotlar bilan tanishing. Xato yozilgan so‘zlarni toping. TINGLAB TUSHUNISH VA GAPIRISH ko’nikmalarini rivojlantiradi.**

Mashqni **“Xatosini toping” metodi** orqali bajarish mumkin. Bu metodda o’qituvchi ataylab xato qiladi. Avval o’quvchilar bu haqda oldindan ogohlantirilgan bo’ladi.

Yechim:

Bilasizmi?

• Kometalardan biri vatandoshimiz Mirzo Ulug‘bek nomi bilan otaladi(ataladi)

• Insoniyat tarixidagi eng ulkan maymun (primat) – bundan 100 ming yil avval yoshagan (yashagan) “King-Kong”. Uning bo‘yi 3 metr, vazni 1,58 tona (tonna) bo‘lgan.

• “Titanik” kemasining cho‘kish vaqtida omon qolgan eng keksa inson 104 yosh-u 72 kun umr ko‘rgan. 1912-yil kema cho‘kgan (

cho’kkan) paytda u 28 yoshda bo‘lgan.

101-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Koinot haqida 5 ta qizi qarli ma’lumot toping va daftaringizga YOZING. Topgan ma’lumotlar asosida savollar tuzing.**

28-dars. NAZORAT ISHI.

29-dars. URG‘U VA UNING AHAMIYATI

Darsning ***a)*** **ta’limiy maqsadi:** *o’quvchilarga urg’u, so’z urg’usi va uning ma’no ajratuvchanlik xususiyati haqida* tushuncha berish;

b) tarbiyaviy maqsad: *ona tabiatni asrash, o’simlik va hayvonlarga rahm-shafqat tuyg’usida tarbiyalash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: tinglangan matn asosida urg’uning xususiyatlarini aniqlash, o’qib va tinglab tushunish;

Darsni Sanobar Rahmonova ijrosidagi “Alla” qo’shig’idan parchani TINGLASH bilan boshlash tavsiya etiladi. O’quvchilarga quyidagi savollarni berish mumkin.

1. Aytinglar-chi, bolajonlar, qo’shiqni tinglash jarayonida xayolingizdan qanday o’ylar o’tdi?

2. Qo’shiqning avji qaysi bandda ekan?

Shunda o’quvchilar qo’shiqning avji yo’q ekanligini aytadilar. Avji yo’qligi uchun ham bolajonlar “Alla”ni tinglab, tezdagina uyquga ketishlari haqida, qo’shiqdagi avj og’zaki nutqimizdagi urg’u tushunchasi bilan uyg’un ekanligi haqida GAPIRING.

Topshiriq. **Qo’yilgan muammo: She’rni ifodali O‘QING. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qaysi bo‘g‘ini biroz cho‘ziqroq aytilayotganiga e’tibor bering.**

Yechim:

anormisan	nor	2-bog’in
fanor	fa	1-bo’g’in
narsadan	-dan	3-bog’in
barchamizga	bar	4-bog’in
bolakaylar	-lar	4-bog’in
chumchuqlarga	-ga	4-bog’in

Qo’shimcha nazariy ma’lumot:

So’z urg’usi ma’no farqlash vazifasini ham bajaradi. Masalan,
Ho-zir (endigina) – ho-**zir** (tayyor,taxt)

Gul-**lar**(ko'p gul) – **gul**-la-r (gullamoq)

O'zbek tilida urg'u qabul qilmaydigan grammatik vositalar ham mavjud.

1. –ma (fe'lning bo'lishsizlik qo'shimchasi)

2. –dek, -day (o'xshatish qo'shimchalari)

3. –cha (ravish yasovchi qo'shimcha)

4. –ta, -tadan (sonning ma'no turlarini hosil qiluvchi qo'shimchalar)

5. –man, -san, -dir,- miz, -siz (kesimlik shakllari)

6. – dir (gumon olmoshi, gumon yuklamasi) qo'shimchasi

102-mashq. ***Qo'yilgan muammo: O'zbek tilida urg'u, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushishini hisobga olib, qatorni davom ettiring.***

Bola, kitob, savdo, davo …… *YOZING*. **"Pinbord" metodi**dan foydalanish tavsiya etiladi. O'qituvchi stoli ustiga qo'shimchalar yozilgan qog'ozchalar teskari holatda qo'yilgan bo'ladi. Doskaga so'zlarning faqat asos qismigina yoziladi Har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqib, shu qog'ozchalardan birini tanlaydi. Tanlagan qo'shimchani mos ravishda asosdan keyin tartib bilan yopishtirib (yoki yozadi) va hosil bo'lgan so'zni o'qib ma'nosini izohlab beradi.

O'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim orttirish harakatlarini rag'batlantiradi

Yechim: bola+jon+lar+im+ga kitob+xon+ni savdo+gar+ga davo+si+da

103-mashq. **Qo'yilgan muammo: Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarda urg'u, ko'pincha, so'z oxiriga tushmaydi. O'qituvchingiz bilan birga to'g'ri talaffuz qilish (GAPIRISH)ni mashq qiling.**

Masalan: traktor, fizika, matematika, direktor, fonetika, grafika, printer, skaner, kompyuter, kasting.

Qo'shimcha nazariy ma'lumot: Urg'uli bo'g'indagi unli aniq talaffuz qilinadi.

Yechim: tra-ktor, fi- zi-ka, ma-te-ma-ti-ka, di-rek-tor, fo-ne-ti-ka, gra-fi -ka, prin-ter, ska-ner, kom-pyu-ter, kas-ting.

104-mashq. **Mashqda berilgan so'zlarni avval o'qituvchining o'zi talaffuz qilib beradi, so'ng o'quvchilar urg'uga e'tibor qaratgan holda takrorlaydilar.**

Suzmá (*ot*, quyuq qatiq) – súzma (*fe'l*, suvda yoki ovqatni suzish)

Tortmá (*ot*) – tórtma (*fe'l*)

Akadémik (*ot*) – akadémik (*sifat*)

Fízik (*ot*) – fizík (*sifat*)

105-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“Qiyoslang”. Jadvaldagi so‘zlarning urg‘usini qo‘yib o‘qing. Namuna asosida beshta so‘zni uch tilda yozib, urg‘usiga diqqat qiling.**

O‘ZBEK TILIDA	***RUS TILIDA***	***INGLIZ TILIDA***
xushmuomalá	приве́тливая (ж.р)	friéndly
qadrdó n	дорога́я (ж.р)	déar

30-dars. URG‘U VA UNING AHAMIYATI (davomi)

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarga urg’u, so’z urg’usi va uning ma’no ajratuvchanlik xususiyati haqida;* nasriy va she’riy asar o’qishda urg’uning ahamiyati haqida ma’lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad*: ijodkorlik ruhida tarbiyalash, badiiy adabiyotga muhabbat tuyg’usini rivojlantirish ;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish;*

Topshiriq. Qo’yilgan muammo: **Oybekning “Dengizda oqshom” she’rni ovoz chiqarib *O‘QING.***

DENGIZDA OQSHOM

Suvlarda sekin o‘ynar,
Oltin qayiqchalardek,
Quyosh alangalari…

Ufqlar quchog‘iga
Sig‘magan buyuk dengiz
Chayqalar sekingina.

G‘urub yong‘ini qoplar,
Samo yuzi anordek,
Bulutlar atlas kabi…

Suvlar quyosh sochiga
O‘ralishib tinimsiz,
O‘par qirg‘oqni asta… (*Oybek*)

Lug‘at: g‘urub – quyoshning botish payti

Qaysi so‘z talaffuzida ovozingiz biroz ko‘tarilganiga e’tibor bering. She’r avvalgi darsda o’quvchilarga yodlab kelish topshirig’i berilsa, maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Nazariy ma’lumotga qo’shimcha.

Arab tili grammatikasining so’z yasalish tizimi haqida qisman tushuncha berib ketilsa, ma’qul edi. Aksariyat so’zlarimiz arab tilidan o’zlashgan. Arab tili grammatikasida so’zning asosini undoshlar tashkil etadi va bu undoshlar orasiga unli tovushlarni qo’yib,so’z yasalaveradi. Masalan, kitob so’zining asosi KTB . Mazkur asosdan maktub, kotib, maktab… kabi so’zlarni hosil qilish mumkin.

Munosabat bildiring. ***1. “Chayqalar”, “o‘par” kabi so‘zlarning misra boshida kelishi she’rga qanday ohang bag‘ishlayapti?***

2. She’rdagi o‘xshatishlarga e’tibor bering. Ularni alohida tovush ohangi bilan o‘qidingizmi?

Nazariy ma’lumotga qo’shimcha.

Urg’u qaysi birlikka tushishiga ko’ra:

1. So’z urg’usi (bo’g’indagi unli tovushga tushadi).

2. Gap urg’usi (gapdagi biror bo’lakka tushadi).

Gap urg’usi mantiqiy, ma’no urg’usi kabi atamalar bilan ham yuritilishi mumkin. Gap urg’usi og’zaki nutqda xohlagan bo’lakka tushishi mumkin. lekin yozuvda kesimdan oldingi bo’lakka tushadi.

Ba’zan gap tarkibida kelayotgan so’roq olmoshlari ham boshqa bo’laklardan baland ohangda talaffuz qilinib, shu olmoshga tushishi mumkin.

106-mashq. Qo’yilgan muammo: **Quyidagi gaplarda ajratilgan so‘zning talaffuziga e’tibor bering. Ma’nosida qanday farq bo‘layotganiga diqqat qiling. Mashq “O’rningni top” o’yini orqali singdirilsa, maqsadga muvofiq bo’lar edi.**

Biz O‘zbekistonning kelajagimiz. (*Aynan biz*)

Biz O‘zbekistonning kelajagimiz. (*O‘zbekistonning, boshqa yurtning emas*)

Biz O‘zbekistonning kelajagimiz. (*Bugunimas, kelaja gimiz*)

Gapdagi so‘zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinishi gap urg‘usi hisoblanadi.

107-mashq. Qo’yilgan muammo: **Quyidagi qiziqarli topishmoqlarni *O‘QING*. Qaysi so‘zlar ohangi boshqa so‘zlar ohangidan ajralib turibdi. “Zakovatli zukko” metodi tavsiya etiladi. Ta’kidlanayotgan so’zlarni o’quvchilar tez ilg’ab olishlari kerak.**

Yechim:

1. – Temir ko‘chada qolsa, zanglaydi, oltin ko‘chada qolsa, nima bo‘ladi?

– O‘g‘irlanadi.

2. – Olti kishi bitta soyabon ostida ho‘l bo‘lmay tura oladimi?

– Ha, yomg‘ir yog‘masa.

3. – Dengizlar nima uchun sho‘r?

– Baliqlar sasib qolmasligi uchun.

4. – Barcha alifbolar “*a*” harfi bilan boshlanadi, ammo shunday harflar jadvali borki, uning boshlanishi “*sh*”. Bu qaysi jadval?

– Ko‘z doktorining harflar jadvali.

5. – Dengizda qancha baliq bor?
– Qanchasi tutilmagan bo‘lsa, shuncha.

108-mashq. Qo’yilgan muammo: **Quyidagi hikmatlarni daftaringizga *YOZING.* Alohida ohang bilan *AYTILISHI* zarur bo‘lgan so‘zlarga diqqat qiling.**

Yechim:

1. Bilim qaytarish, takrorlash mevasidir. (*Beruniy*) 2. Zakovat qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘ladi. Bilim kimda bo‘lsa, buyuk bo‘ladi. (*Yusuf Xos Hojib*) 3. Bilim bilan saodat yo‘li ochiladi, shunga ko‘ra ilmli bo‘l, baxt yo‘lini izla. (*Ahmad Yugnakiy*) 4. Bilmaganni so‘rab o‘rgangan – olim, Orlanib (uyalib) so‘ramagan – o‘ziga zolim (zulm qiluvchi). (*Alisher Navoiy*) 5. Kishikim ilm-u fandin boxabardir, xaloyiqqa mo‘tabardir. (*Abdulla Avloniy*)

109-mashq. Qo’yilgan muammo: **Tez aytishlar ham urg‘u kabi og‘zaki nutqimizni shakllantirishga, charxlashga xizmat qiladi. Quyidagi tez aytishlarni daftaringizga**

YOZING. **Takrorlanayotgan tovushlarga, talaffuzda so‘zlar ohangiga e’tibor bering. “So‘zlar bahsi” metodi tavsiya etiladi.**

Yechim:

1. Eshik oldida buloq, buloqdan suv ichar uloq, uloqcham uzun quloq (b, q, u) 2. Metallchi Mutal metalli detal yasadi (m, l). 3. Namanganlik To‘lagan to‘la lagan handalak yegan (t, n). 4. Qishda kishmish pishmasmish, pishsa kishmish qishmasmish (sh)

110-mashq. Uyga vazifa. **“*Nutqimizda urg‘uning qanday ahamiyati bor?*” mavzusida 10–12 gapdan iborat matn tuzing, shaxsiy fikringizni misollar asosida tushuntirishga harakat qiling.**

31-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ***ta’limiy maqsad****: o‘quvchilarning urg‘u va uning ahamiyati, so‘zlarda tovush o‘zgarishlari haqidagi olgan ma’lumotlarini mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarda jamoat joylarida, o‘zaro muloqot jarayonida telefondan foydalanish madaniyatini shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

O‘qituvchi ko‘rsatmasi bilan “Rolli o‘yin” orqali 6 ta o‘quvchi xattaxtada telefonda gaplashish boy‘icha, turli shart-sharoitlarni ko‘zda tutgan holda, juftlik guruhda sahna uyushtiradilar. (Bunga

o‘quvchilarning *GAPIRISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi)

Masalan: 1-guruh kattalat bilan muloqot jarayonini;
2-guruh kichiklar bilan muloqot jarayonini;
3-guruh do‘stlar bilan muloqot jarayonini aks ettiradi.

Har bir guruh 1 daqiqa vaqt oralig‘ida muloqot-sahnasini ko‘rsatadi. O‘quvchilar bilan telefonda gaplashilganda faol qo‘llanilgan so‘zlarga diqqat qaratiladi.

Ayting-chi?

1. Telefonda gaplashish madaniyati haqida tushunchaga egamisiz?
2. Bir kunda necha daqiqa qo‘l telefonida suhbatlashasiz?
3. Uzundan uzoq suhbatlashganda boshingiz og‘rib qolmaydimi?
4. E’tibor berganmisiz, suhbat jarayonida qanday ovozda gaplashasiz: pastmi, balandmi?

Shundan so‘ng o‘qituvchi AKT vositasida matnni o‘quvchilar diqqatiga havola qiladi.

O‘quvchilar matnni eshitib, o‘qib tushunadilar. (*TINGLAB TUSHUNISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi)

***111-mashq* matnga tayangan holda bajariladi. Matnda ajratilgan *bunday , yumshoqroq, oshmasligi* so‘zlaridagi tovush o‘zgarishlarini aniqlash uchun ”Sanamay sakkiz dema” topshirig‘i bajariladi. (*YOZISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi)**

Savol: So‘zda qanday tovush o‘zgarishi yuz berdi?

Yechim:

№	So‘z	Asos	Qo‘shimcha	Tovush o‘zgarishi
1	bunday	bu	-day	tovush ortdi
2	yumshoqroq	yumsha	-q	tovush almashdi
3	oshmasligi	oshmaslik	-i	tovush almashishi

***112-mashq* *ham* matnga tayangan holda bajariladi. Matndan 5 ta ochiq, 5 ta yopiq bo‘g‘in bilan tugagan so‘zlar ajratib yoziladi. (*O‘QIB TUSHUNISH* ko‘nikmasi shakllanadi)**

Yechim:

Ochiq bo‘g‘in bilan tugagan so‘zlar: ayniqsa, to‘g‘ri, ammo, qisqa.o‘zini. **Yopiq bo‘g‘in bilan tugagan so‘zlar:** telefon, qo‘l, muhim, hurmat, muloyim.

113-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Qo‘l telefonining foydali va zararli tomonlarini sanab, jadvalga yoziladi**.

32-dars. YOZUVLAR TARIXI

Darsning *a) ta’limiy maqsad*: *o‘quvchilarga yozuvlar tarixi haqida nazariy ma’lumot berish; yozuv ham aloqa vositasi ekanligini uqtirish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarni moddiy va ma’naviy me’rosni qadrlashga o‘rgatish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

O‘qituvchi husnixat mashqi o‘tkazadi.

Unda *tinchlik,do‘stlik,o‘qish,sport* so‘zlari uch xil : o‘zbek, rus va ingliz tilida yozdiriladi. O‘quvchilar o‘zaro daftarlar almashib, yozganlarini o‘qiydilar.

O‘quvchilar quyidagi savolga javob beradilar:

1. Siz sinfdoshingiz daftaridan ma’lumotni nima orqali bilib oldingiz?
2. Siz yozgan ma’lumot qanchagacha saqlanishi mumkin?

AKT vositasida topshiriqdagi matn tinglanadi (Matn o‘qituvchi tomonidan o‘qib berilishi ham mumkin).

”Munosabat bildiring” dagi topshiriqni **“+” Texnologiyasi**ni qo‘llash orqali bajarish mumkin.

“+” Texnologiyasida vazifani individual bajarishlari uchun har bir o‘quvchiga alohida-alohida varaq beriladi. 5 ballik sistemada baholanadi.

Yechim:

№	So‘z	ma’naviy boyliklarni saqlash ehtiyoji	avlod-larga yetkazish ehtiyoji	Kitob yaratish ehtiyoji	Yo-zuv	Xalq og‘zaki ijodi
1	Yozuvning kelib chiqishiga nima sabab bo‘lgan?	+	+	+		
2	Yozuv orqali ajdodlardan avlodlarga nimalar meros bo‘lib qoladi?	+	+	+	+	+
3	So‘z san’ati durdonalari bizga qadar qanday yetib kelgan?				+	+

114-mashqda **yozuvlar tarixi haqidagi matn ko‘chiriladi. O‘tmishda ota-bobolarimiz foydalangan yozuvlar yodga olinadi.**

O‘zbek xalqi o‘z tarixi davomida oromiy, kushon, sug‘d, o‘rxun-enasoy kabi yozuvlardan foydalanib kelgan.

VIII asrdan 1929-yilgacha arab yozuviga asoslangan eski o‘zbek yozuvidan foydalanilgan.

1930–1940-yillar oralig‘ida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek yozuvi amalda bo‘lgan. Undan so‘ng kirill yozuviga o‘tilgan.

1993-yil xalqimiz lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosini qabul qildi.

Matn mazmuni o‘quvchi xotirasida yaxshi saqlanishi uchun “+” Texnologiyasidan foydalanish mumkin.

Yechim:

№	Tarixiy sanalar	Yozuvlar		
		arab	kirill	lotin
1	1929-yilgacha	+		
2	1930–1940-yillarda			+
3	1940-1993- yillarda		+	
3	1993-yildan			+

115-mashq. **Yozuvlar tarixi haqidagi matnga tayanib quyidagi savollarga javob beriladi. Mashq “Menga so‘z bering” texnologiyasi asosida bajariladi. (O‘qituvchi savol bergach, o‘quvchi: “Menga so‘z bering”, – deya savolga fikrini bildiradi. Ushbu mashq orqali o‘quvchining** *GAPIRISH* **ko‘nikmasi shakllanadi.**



1. O‘zbek xalqi tarixida ushbu yozuvlarning qanday
2. Ahamiyatga ega bo‘lgani to‘g‘risida fikr bildiring.
3. Navoiy, Bobur kabi buyuk allomalarimizning asarlari
4. qaysi yozuvda bitilgan? Amir Temur “Tuzuklar”i-chi?
5. Temur qurdirgan binolarga hikmatlar qaysi yozuvda yozilgan?

3. Sizning bobo-buvilaringiz qaysi yozuvdan foydalanishgan?

116-mashq. **Amir Temur o‘gitlari bo‘yicha bahslashing. Ikkinchi gapni kirill yozuviga o‘giring.**

1. Kim bizning qudratimizga shubha qilsa, biz qurgan binolarga qarasin.

2. Farzandlar, qarindoshlar, qo‘shnilar va do‘stlarni davlat-u ne’mat martabasiga erishganimda unutmadim, haqlarini ado etdim.

117-mashq. **Maqollar lotin yozuviga o‘giriladi. Unda ilgari surilgan g‘oya haqida bahslashiladi.**

1. Узоқдаги қариндошдан яқиндаги қўшни яхши. 2. Гилам сотсанг, қўшнингга сот, бир четида ўзинг ўтирасан. 3. Яхши ҳамсоя (қўшни) – гулдир, ёмон ҳамсоя – чўлдир. 4. Қўшнинг ёмон бўлса, кўчиб кутуласан. 5. Қўшнингга ёмонлик тилама.

118-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Alisher Navoiy asarlarining qo‘l-yozmasini ko‘rganmisiz? U yashagan davrda xalqimiz qaysi yozuvdan foydalangan? Shoir asarlarini qaysi yozuvda o‘qish sizga oson tuyiladi? Navoiyning hayoti va ijodi haqida 10–12 ta gapdan iborat matn tuzing.**

33-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ***ta’limiy maqsad****: o‘quvchilarga yozuvlar tarixi haqida nazariy ma’lumotni berish; yozuv ham aloqa vositasi ekanligini uqtirish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarni moddiy va ma’naviy me’rosni qadrlashga o‘rgatish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

“**Aqlli doska”** metodiga asosan (o‘quvchilarning *TINGLAB TUSHUNISH* ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida) yozuv taxtasiga ninachi, it, qurbaqa, bo‘rilarning rasmlari tirkaladi.

Topshiriqdagi **Dilshod Rajabning “*Harflarga hazil*” she’ri audio orqali eshittiriladi yoki o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qiladi. Hosil bo‘lgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuziladi.**

“Nina”ga “chi”ni qo‘shdim, “Tosh”in tashlab toshbaqa, Uchib keldi pirillab. Tilga kirdi qurillab.

“Kit”dan “k”ni oluvdim, “Bo‘r” bilan “i”ni yozdim,

Jahl qildi irillab. Qoching endi zirillab.

Yozuv taxtasidagi *ninachi,it,baqa,bo‘ri* **so‘zlari qanday hosil bo‘lgani haqida savol-javob o‘tkaziladi. Shundan so‘ng “Xotira mashqi” tashkillashtirish mumkin.**

119-mashq. ***“Yozuv – dil oynasi”*** **nomli matn diqqat bilan o‘qitiladi. Bunda o‘quvchining O‘QIB TUSHUNISH ko‘nikmasi shakllantiriladi.**

Yozuviga qarab insonning fe’l-atvori haqida xulosalar qilish mumkin. Qattiq bosib yozish hayotda o‘z o‘rnini topishga intilish, qiziqishlarning rivojlanganligidan dalolat beradi. Yirik yozuv serg‘ayratlik, ruhiy ko‘tarinkilik, mag‘rurlik, o‘z qadr-qimmatini baland qo‘yish, oldinga

qarab intilishni anglatadi. Qirrali qilib yozish yozuv egasining qat'iyatli, hayotga e'tibor bilan qarashidan dalolat beradi. Pala-partish, xunuk, xato yozgan odamning hayot tarzi yozuviga monand bo'ladi.

"Navbat sizga" o'yini orqali o'quvchilar matndan olgan xulosalarini bayon etadilar. O'qituvchi yordamida o'z yozuvlari va uni takomillashtirish uchun harakatlari haqida gapiradilar. Fikrlash vositasida o'quvchilarning *GAPIRISH* **ko'nikmasi, o'zlariga ishonchi shakllantiriladi.**

120-mashqda **berilgan so'zlardagi fonetik o'zgarish hosil qilayotgan tovushlarni topish orqali o'quvchilarning** *O'QIB TUSHUNISH* **ko'nikmasiga diqqat qaratiladi.**

1. *Mening* so'zidagi tushgan tovush. 2. *Shahri* so'zidagi tushgan tovush. 3. *O'quv* so'zida asosdagi *i* tovushini *u* tovushiga aylantirayotgan qo'shimcha. 4. *Sana* so'zidagi almashayotgan tovush. 5. *Singlim* so'zidagi tushgan tovush. 6. *Deyiladi* so'zidagi ortgan tovush.

1	2	3	4	5	6
N	A	V	O	I	Y

121-mashq **3 guruhga bo'lingan holda bajariladi.. Doskada "*Solishtirib ko'raylik, kimning xati chiroyli?*" musobaqasini o'tkaziladi.Har bir guruh a'zosi chiqib bittadan so'z yozadi. Hakam o'qituvchi yozuvlarni baholab boradi. Eng ko'p ball yig'gan guruh g'olib hisoblanadi. Bu mashq orqali o'quvchilarning** *YOZISH* **ko'nikmasi shakllantiriladi.**

122-mashq. Uyga vazifa. **Berilgan so'zlardagi aniqlanishi kerak bo'lgan tovushlar topiladi, 20 yoshida yangi bir yozuvni kashf etgan, o'z yurtini tark etishga majbur bo'lgan ijodkorning taxallusi aniqlanadi.**

Yechim: 1. *Odop* so'zidagi xato yozilgan tovushning jaranglisi. (b) 2. *Angla* so'zidagi almashayotgan tovush. (o) 3. *Afzal* – (*ustun, yaxshi*) abzal (*ot-ulov anjomi*). Juftlikdagi tushirilgan tovush. 4. Burni so'zidagi tushirilgan tovush(u). 5. Alifbodagi 17-harf (r)

Hosil bo'lgan so'z:

B	O	B	U	R

34-dars. LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSI

Darsning *a)* ***ta'limiy maqsadi****: o'quvchilarga yozuvning hayotdagi ahamiyatini uqtirish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o'quvchilarni moddiy va ma'naviy me'rosni qadrlashga o'rgatish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o'quvchilarda tinglab tushunish, o'qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

"Munosabat bildiring" vositasida o'quvchilarning *GARIRISH* ko'nikmasi, o'ziga ishonchi shakllantiriladi:

"**Pinbord"** metodiga asosan yozuv taxtasiga A1 formatdagi qog'oz tirkaladi. Klaster orqali yozuvning hayotdagi ahamiyati o'quvchilar tomonidan sharhlanadi.



"Ha yoki yo'q" texnologiyasi orqali savol-javob o'tkaziladi.

1. Sizning yozganlaringizni bobo, buvilaringiz o'qiy olishadimi?
2. Oila a'zolaringiz, o'rtoqlaringiz bilan SMS yozishib turasizmi?
3. SMS yozishda so'zlarning ma'nosi va imlosiga rioya qilasizmi?



SMS so'zi inglizcha *short* – "qisqa", *message* – "xabar" va *servise* – "xizmat" so'zlaridan olingan bo'lib, *qisqa xabarlar xizmati* degan ma'noni anglatadi.

123-mashqda **o'quvchilar savollarga javob berish orqali O'QIB TUSHUNISH, GAPIRISH ko'nikmalarini shakllantiradilar.**

1. O'zingiz yashayotgan shahar (qishloq) ko'chalarida binolarga o'rnatilgan peshlavhalar, shiorlar, reklamalardagi xato yozilgan yozuvlarga e'tibor berganmisiz?
2. Bunday yozuvlar sizga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Yozayotganingizda har doim imlo qoidalariga qat'iy rioya qila sizmi?

124-mashqda **berilgan topshiriqni bajarish orqali o'quvchilarda** *YOZISH* **ko'nikmasi shakllanadi.**

1993-yil 2-sentabrda respublikamizning har taraflama kamol topishini va jahon kommunikatsiya (axborot almashish) tizimiga kirishini jadallash tirish maqsadida "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" gi Qonun qabul qilindi.

1995-yil 24-avgustda ushbu yozuvning imlo (to'g'ri yozish) qoidalari qabul qilindi.

125-mashqda **berilgan topshiriqni bajarish orqali o'quvchilarda** *YOZISH* **ko'nikmasi shakllanadi. Yangi o'zbek alifbosini daftarga ko'chirib,"Kimning yozuvi chiroyli" tanlovi o'tkaziladi.**

Harflarning ma’lum bir tartibda joylashuviga alifbo deyiladi. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi 26 ta harfva 3 ta harflar birikmasidan iborat.

126-mashq. **Berilgan so‘zlar alifbo tartibida joylashtiriladi.**

Yechim: alifbo, axborot, harf, imlo, qonun, xat, yozuv, o‘zbek.

127-mashq. ***Uyga vazifa. “Kimning tabrigi eng chiroyli?” O‘quvchilar t*ug‘ilgan kun munosabati bilan tabriklab o‘rtoqlariga SMS yozishadi. Matnda qo‘llagan kalit so‘zlarini sharhlaydilar.**

36-dars. MUSTAHKAMLASH

Darsning maqsadi: a) ta’limiy maqsad*: o‘quvchilarning yozuvlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarni moddiy va ma’naviy me’rosni qadrlashga o‘rgatish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

1-topshiriqni ***“Qayta ta’sir” (Fedback) bilan boshlash maqsadga muvofiq. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan “tezkor savol-javob” o‘tkazishi mumkin.***

Bunda o‘quvchilarning GAPIRISH ko‘nikmasi shakllanadi.

1. Ayting-chi, yozuv o‘zi nima uchun kerak? Hayotda uning qanday ahamiyati bor?

2. Qadimgi yozuvlar haqida nimalarni bilasiz?

3. Alisher Navoiy va Bobur asarlari bizgacha qaysi yozuvda yetib kelgan?

4. Arab, kirill yozuviga asoslangan alifbolardan foydalani shi miz ning qanday sabablari bor? 5. Yurtimizda lotin yozuviga asoslangan alifbo qachon qabul qilingan? Uning imlo qoidalari-chi? 6. Siz qaysi yozuvdagi asarlarni mutolaa qilasiz? Qaysi tillarda asarlar o‘qiy olasiz?

2-topshiriqda **Qadimgi Misr ehromlarida qoldirilgan yozuvlardan olingan manbadan olingan ma’lumot audio yordamida tinglanadi. (Matnni o‘qituvchi o‘qib bersa ham bo‘ladi). O‘qish jarayonida o‘quvchining TINGLAB TUSHUNISH ko‘nikmasi rivojlantiriladi.**

O‘g‘lim, temirchilarni ko‘rgin, kun bo‘yi og‘ir mehnat ostida ezilib, yetarli ovqat topa olmaydilar. Etikdo‘zlarga qaragin, tun bo‘yi chiroq yorug‘ida etik tikib, ochlikdan kasal bo‘lib, be vaqt vafot etadilar. Tosh yo‘nuvchilarni ko‘r, qancha ko‘p ishlasalar ham, kambag‘allikdan boshlari chiqmaydi. Shuning uchun sen xat yozishni o‘rgan, savodli bo‘l. Xat yozishni bilgan odamlar baxtli bo‘ladilar.

O‘quvchilar tinglab tushungan matnlari yuzasidan 3-topshiriqdagi savollarga javob beradilar.

Bu topshiriqni bajarish uchun “Men bilib oldim, sen-chi?” texnologiyasida harakat qilinsa, o‘quvchilarning o‘zlariga ishonchi yanada oshadi.

1. Misr ehromlarida yozilgan “Yozishni bilgan odamlar baxtli bo‘ladilar”, degan fi krga qanday qaraysiz?

2. Nima deb o‘ylaysiz: savodxon bo‘lishda, to‘g‘ri yozishda ko‘p kitob o‘qishning qanday ahamiyati bor?

4-topshiriqni bajarish orqali o‘quvchilarning *O‘QIB TUSHUNISH va YOZISH* **ko‘nikmalari shakllantiriladi. O‘quvchilar jahon donishmandlari tomonidan kitob haqida aytilgan gaplarni yangi o‘zbek alifbosida ko‘chirib oladilar. Donishmandlar ushbu fikrlarini lotin yozuvda yozishganligi haqida xulosa chiqaradilar.**

1. Китобнинг сони эмас, унинг яхшиси фойда келтиради. (*Цицерон, юнон*)

2. Саводли бўла туриб китоб ўқимаган кишининг саводсиздан фарқи йўқ. (*Марк Твен, инглиз*)

3. Яхши китоб – бу менинг ҳаётимдаги муҳим бир ҳодиса. (*Стендаль, француз*)

4. Китоблар донишмандликни ёйиш қуролидир. (*Ян Коменский, поляк*)

5-topshiriq. Uyga vazifa. **Rasmda keltirilgan asar qahramonlaridan biriga maktub yozing**

37-dars. AYRIM UNLILAR IMLOSI. *A* VA *O* UNLILARINING TALAFFUZI VA IMLOSI

Darsning ***a) ta’limiy maqsad****: o‘quvchilarning A va O unlilarining talaffuzi va imlosi haqidagi bilimlarini oshirish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarni Vatanga munosib farzand etib tarbiyalash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Topshiriqda o‘**quvchilar sadoqat, zamon, bilan, tezkor, qalban, his (hissiyot), ziyo, fidoyi, xizmat qilmoq, darkor, farzand, kamarbasta kabi so’zlarni audio orqali TINGLAB daftarlariga lug‘at diktant sifatida yozadilar**

So‘ng “Pinbord” metodidan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘qituvchi stoli ustiga eshitilgan so‘zlarning to‘g‘ri yozilgan

nusxasini teskari holatda qo‘ygan bo‘ladi.



Lug‘at diktant yozib bo‘lingach, kalit so‘zlar stol ustidagisi bilan yoki kitobdagisi bilan solishtiriladi. Har bir o‘quvchi imlosini o‘zi tekshiradi.Tekshirilgan kalit so‘zlarni qatnashtirib kichik og‘zaki matn yaratiladi. Shu tariqa o‘quvchining *GAPIRISH* ko‘nikmasining shakllanishiga ham diqqat qaratiladi. O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning bilim orttirish harakatlari rag‘batlantirib boriladi.

128-mashq. ***Hamon, tomon, zamon, shamol, sholg‘om, faktor, orkestr*** **so‘zlarining qanday aytilishi va yozilishiga o‘quvchilar diqqati tortiladi. Bu topshiriqni bajarishda boshlang‘ich sinfda “Urg‘u” mavzusi, rus tili fanidan olingan bilimlaridan foydalaniladi.**

Yechim: Yuqoridagi so‘zlarning talaffuzi va imlosiga e’tibor beriladi.

A tovushi *zamon, hamon, shamol,* kabi so‘zlarda ***o*** kabi aytiladi, ammo ***a*** yoziladi. ***O*** tovushi *orkestr* singari so‘zlarda ***a***, *poyezd,povest* kabi so‘zlarda ***o‘*** aytilsa-da, ***o*** yoziladi. *Faktor* kabi so‘zlarning oxirgi bo‘g‘ini ***i*** ga moyil aytilsa ham, ***o*** yozilishi haqida xulosalar chiqariladi.

A tovushi zamon, hamon, baho, jahongir kabi so‘zlarda ***o*** kabi aytiladi, ammo ***a*** yoziladi.

O tovushi Pomir, okean, konsert singari so‘zlarda a, tonna, orden kabi so‘zlar ***o‘*** aytilsa-da, ***o*** yoziladi.

Termos, tormoz, direktor kabi so‘zlarning oxirgi bo‘g‘ini ***i*** ga moyil aytilsa ham, ***o*** yoziladi.

129-mashq. Yodingdami? **texnologiyasi asosida bajartirish mumkin. O‘quvchilarga tarix fanidan olgan bilimlari asosida savollar beriladi. Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning** *GAPIRISH* **ko‘nikmasi shakllantiriladi.**

1. To‘maris va Shiroqlarning jasoratini bilasizmi?
2. Spitamen, Jaloliddin Manguberdi haqida eshitganmisiz?
3. Temur Malik kim bo‘lgan? Najmiddin Kubro-chi?

130-mashqda ***O‘*****quvchilarning** ***O‘QIB TUSHUNISH*** **ko‘nikmasiga diqqatqaratiladi. “Najmiddin Kubro” matni o‘qitiladi.**

Najmiddin Kubro

Xorazmni istilo qilishdan oldin Chingizxon Najmiddin Kubroga maktub yo‘llaydi: “Men Urganchni bosib olib, qatli om qilmoqchiman. Siz oila a’zolaringiz va shogirdlaringiz bilan xohlagan tomoningizga

ketishingiz mumkin”.

Vatanparvar bobomiz uning taklifi ni rad etadi. Mo‘g‘ul qo‘shinlari shaharga hujum qilgan vaqtda: “Yo Vatan, yo o‘lim!” – deb shaharni mudofaa qilishga kirishadi.

Hal qiluvchi jangda u dushman bilan mardlarcha olishadi. Kamondan otilgan o‘qlardan biri uning ko‘ksiga sanchiladi. Shahid bo‘layotgan Najmiddin Kubro yov qo‘lidan bayroqni tortib olib, uni changallagancha halok bo‘ladi. Dushman bayroqni tortib olish uchun uning barmoqlarini kesishga maj bur bo‘ladi.

Najmiddin Kubroning bu jasorati tildan tilga o‘tib, afsonaga aylandi.

Lug‘at: ***qatli om*** – yoppasiga qirish; ***shahid*** – haqqoniyat yo‘lida qurbon bo‘lish

Qo‘shimcha *“****Men bilib oldim, sen-chi?” texnologiyasi asosida “Qayta ta’sir” o‘tkazish mumkin.(Bunda o‘quvchilar bir-birlarida navbat berib, matndan bilib olgan ma’lumotlarini GAPIRADILAR. So‘ng “Munosabat bildiring ”dagi savollarga javob beriladi.***

Matndagi “*a*” va “*o*” unlilarining aytilishi va yozilishiga diqqat qilinad.

Yechim:

Kamon **so‘zida “*a*” va “*o*” unlilari farqlanayotgani haqida xulosa chiqariladi.**

131-mashq. **Talaffuzi yozilishidan farq qiladigan *a* va *o* unlilari ishtirok etgan so‘zlardan 10 ta topib daftaringizga ko‘chirish topshirig‘i o‘quvchilarning** *YOZISH* **ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi.**

Yechim: Savob, tavof, bahor, Bahodir, savdo, savod, Ravshan, Mavluda, mavjud, vaqt, vafo, shu zahoti, janon, jahon, Kamron, Kamol, kamolot, navbat, qavs…

(O‘qituvchi tanlangan so‘zlarni alifbo tartibida yozdirsa, o‘quvchining so‘z mohiyatiga bo‘lgan e’tibori yanada mustahkamlanadi)

132-mashqda ***ham*** **o‘quvchilarning** *YOZISH* **ko‘nikmasini shakllantirishga** yordam beriladi. Bu mashqni yozuv taxtasida bajarish yaxshi samara beradi.

O‘quvchilar “Xatosini toping” metodi orqali to‘rtburchaklar ichidagi xato yozilgan so‘zlarni imlo qoidalariga mos ravishda daftarlariga ko‘chiradilar. Ular ishtirokida og‘zaki gaplar tuzadilar.

133-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“*Vatan ostonadan boshlanadi*” mavzu-**

sida 10–12 ta gapdan iborat matn yoziladi. Matndagi “*a*” va “*o*” harfl ari qo‘llangan so‘zlarning tagiga chiziladi**.**

38-dars. *I* VA *U* UNLILARINING TALAFFUZI VA IMLOSI

Darsning *maqsadi: a) ta’limiy maqsad*: o‘quvchilarga *i va u* unlisining talaffuzi va imlosi haqida ma’lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarni mehnatsevarlikka o‘rgatish;ularda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

O‘quvchilarning *GAPIRISH* ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida dars tarix fani bilan bog‘langan holda boshlanishi mumkin. O‘qituvchi Misr ehromlari, Fir’avn, odamlarning nimaga sig‘inishi, e’tiqodi haqida savol-javob qila turib *e’tiqod* so‘zining lug‘aviy ma’nosiga to‘xtaladi.

E’tiqod – qattiq ishonch, dildan e’tirof etiluvchi tushuncha, nuqtayi nazar, qarash; iymon.

E’tiqod so‘zi haqidagi lug‘atni o‘quvchilarning lug‘at daftariga yozdiriladi. So‘zdagi *i* unlilar talaffuzi va imlosiga diqqat qaratiladi.

“Munosabat bildiring “ da berilgan savollarga **“Kim zukko?” metodi** orqali savol-javob o‘tkaziladi.

Munosabat bildiring.

1. E’tiqodli odam deganda kimni tushunasiz?
2. E’tiqodli bola qanday bo‘ladi? Unga xos xususiyatlarni sanang.
3. Vatanga sadoqat va e’tiqod orasida qanday bog‘liqlik bor? Yurtga xiyonat nimalarda ko‘rinadi?

134-mashq. **O‘quvchilarga rasmlar asosida “*Vatanni sevmoq iymondandir!*” mavzusida 5 daqiqa ichida matn tuzish vazifasi beriladi. Gaplarda *i* va *u* unlilaridan foydalangan holda kalit so‘zlar ham tavsiya qilish mumkin.**

Kalit so‘zlar: *inson, kitob, obida, muqaddas, zamin, muhim, vatanim, tarixiy…*

135-mashqni **“Yodda saqlang!” metodi asosida bajarish mumkin. *S*o‘zlar talaffuziga o‘quvchilar diqqati qaratiladi va daftarga yozdiriladi.Bu mashq orqali o‘quvchilarning** *TINGLAB TUSHUNISH* **va** *YOZISH* **ko‘nikmalari shakllantiriladi.**

Yechim: *umid, e’tiqod, qishloq, chiroq, qirg‘ovul, chirmoviq, xirmon*

so‘zlaridagi *i* unlisi qisqa aytilsa ham yoziladi.

Shoir, doim so‘zlarida talaffuzda i dan oldin *y* tovush ortsa ham, yozuvda yozilmaydi

Qirg‘ovul so‘zida u unlisi i ga moyil aytilsa ham, u yoziladi.

Chirmoviq so‘zida i unlisi u ga moyil aytilsa ham, i yoziladi

I tovushi bilan, bir, kir, qirg‘oq, zirapcha, likopcha kabi so‘zlarda qisqa talaffuz etilsa ham, yozuvda ***i*** harfi bilan yoziladi.

Kunduz, qovun, tovuq kabi so‘zlarda ikkinchi bo‘g‘indagi ***u*** tovushi ***i*** kabi aytilsa ham, ***u*** yoziladi.


136-mashq **o‘quvchilarning O‘QIB TUSHUNISH ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.**

Zilola opa shogirdi Maftuna bilan muzeydan chiqqanda, soat oltidan oshgandi. Zilola opa bolalarini bog‘chadan olishga shoshardi. Shu sababdan taksida ketmoqchi bo‘lishdi. **Aksiga** olib, mashinalar kam. Nihoyat, oq “Neksiya” chetroqda to‘xtadi...

Zilola opa uyga kelgach, haydovchiga ikkita besh ming so‘mlik **uzatib**, uyiga kirdi. **Biroz** o‘tib ko‘cha eshigining qattiq taqillagani eshitildi. Opa kimligini so‘radi:

– Men boya sizni **uyingizga** olib kelgan haydovchiman, – degan ovoz keldi. Haydovchining aytishicha, Zilola opa besh ming so‘mlik o‘rniga ellik ming so‘mlik pulni berib **yuborgan** ekan. Opa haydovchining halolligini ko‘rib sevindi, so‘ng **suyunchi** bermoqchi bo‘ldi.

– Opajon, duo qilsangiz bo‘ldi. Alloh bizni hamisha halol rizq bilan siylasin, – dedi haydovchining ayoli. Zilola opa bu **iymonli** odamlarni kuzatar ekan: “Eh, qanday insofl i, samimiy yurtdoshlarimiz bor-a...” – deb **g‘ururlanib** qo‘ydi. (*“Gulxan”dan*)



Matn o‘qitilgach, matn yuzasidan berilgan “Munosabat bildiring” savol-javobi o‘tkaziladi.O‘quvchilarning *iymon* haqidagi tasavvurlarini kengaytirish maqsadida, “Iymon” klasteri tashkil qilish mumkin.Klasterni turli ko‘rinishda qilish mumkin.Masalan, moychechak ko‘rinishida. Moychechak barglariga Vatanni sevish, tejamkorlik, birovning haqidan qo‘rqish, ota-onani qadrlash, nonni uvol qilmaslik, suvni uvol qilmaslik… kabi iymon belgilarini yozish mumkin. (Muharrirga! Iloji bo‘lsa, yuqoridagi so‘zlarni barg ichiga joylash kerak)

137-mashq. **Matnda ajratilgan so‘zlar ko‘chiriladi; talaffuzi va yozilishiga diqqat qilinadi. Bu mashq orqali o‘quvchilarda** *YOZISH*

ko‘nikmasi shakllantiriladi.

138-mashqni **3 guruhga bo‘linib, quyidagi mavzularda 10–12 ta gap dan iborat kichik hikoya yozish vazifasi beriladi. O‘quvchida** *YOZISH* **ko‘nikmasi shakllantiriladi.Hikoyada** ***i*** **va** ***u*** **unlilari qatnashgan so‘zlar tagiga chiziladi. Bu tovushlarning talaffuziga diqqat qaratiladi.**

1. “Halol mehnat ham iymonning bir bo‘lagi”.
2. “Mehnatning tagi – rohat”.
3. “Mehnat qilgan xor bo‘lmas”.

139-mashq. Uyga vazifa. **Rasm asosida “*Men iymon haqida bobom va buvimdan so‘rab bildim*” mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn tuziladi.**

Qo‘llash uchun so‘zlar:*halollik, ishonch, hayo-andisha, shirin-so‘zlik, salom beraman, umid qilaman, mening, ulg‘ayaman*.

39-dars. *E* VA *O‘* UNLILARINING TALAFFUZI VA IMLOSI

Darsning maqsadi: a) ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga *e va o‘* unlisining talaffuzi va imlosi haqida ma’lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarni mehnatsevarlikka o‘rgatish; ularda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Topshiriqdagi **“Ona mehri” hikoyasidan olingan matnni o‘qish orqali o‘quvchilarning** *O‘QIB TUSHUNISH* **ko‘nikmasini rivojlantirish maqsad qilinadi. Ajratilgan so‘zlardagi unli tovushlar talaffuzi va imlosiga diqqat qilish vositasida** *TINGLAB TUSHUNISH* **ko‘nikmasi shakllantiriladi.**

Matnni o‘qigan o‘quvchilar “Men bilib oldim, sen-chi?” texnologiyasi asosida navbatma-navbat matndagi mazmunni o‘zaro singdiradilar.Shundan so‘ng so‘nggi xatboshidagi ***e*** **va** ***o‘*** **tovushi qatnashgan so‘zlarni ajratib daftarga yoziladi, talaffuziga e’tibor qaratiladi.**

140-mashqda **Alisher Navoiyning bayti tinglanadi. Unda ifodalangan fikr haqida munosabat bildiriladi. Unli tovushlarga diqqat qilinadi. (E va O‘ unlilarining so‘z tarkibida to‘liq yoki qisman talaffuz qilinishiga e’tibor qaratiladi)**

Oldiga qo‘yganni yemoq – hayvonning ishi,
Og‘ziga kelganni demoq – nodonning ishi.

***141-mashqda e* va *o‘* tovushlari qatnashgan quyidagi insoniy xususiyatlarni ikkiga ajratib yoziladi. Ushbu vazifani “+” texnologiyasi orqali ham bajarish mumkin.**

Yechim:

№	Xususiyatlar	Ijobiy	Salbiy
1.	elparvar	+	
2	qo‘rs		+
3	obro‘li	+	
4	erkatoy		+
5	sadoqatli	+	

E harfi kecha, ekran, ne’mat kabi so‘zlarda to‘liq talaffuz qilinadi. Telefon, teatr, okean, material kabi so‘zlarda ***i*** ga monand aytiladi, lekin ***e*** yoziladi.

O‘ tovushli *ko‘l, o‘s, cho‘l, jo‘ra, mo‘tabar* kabi so‘zlarda **torroq, bo‘ri, qo‘ri, xo‘roz, ro‘mol** kabi so‘zlarda esa kengroq eshitiladi, ammo har vaqt bir xil shaklda yoziladi.

Mo‘tadil, mo‘jiza, mo‘tabar kabi so‘zlardagi tutuq belgisi yozuvda tushirib qoldiriladi.

Mavzu bo‘yicha berilgan qoidada ***e*** va ***o‘*** unlilarining talaffuzi va imlosi bilan birga *mo‘tadil, mo‘jiza, mo‘tabar* kabi so‘zlardagi tutuq belgisining yozuvda tushirib qoldirilishiga alohida diqqat qaratiladi.



***142-mashqdagi* berilgan hikmatlarni ko‘chirish orqali o‘quvchilarda *YOZISH* ko‘nikmasi; ular haqida fikr bildirish orqali esa *O‘QIB TUSHUNISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi.**

***143-mashqda* Berilgan so‘zlarni *e* va *o‘* unlilarining so‘z boshida, so‘z o‘rtasida va so‘z oxirida kelishiga qarab jadvalga joylashtiriladi.**

E’lon, sekin, sergap, obro‘, qo‘rqinchli, to‘ri, o‘yinqaroq, terakzor, ekologiya, o‘qimishli, mehribon, egizak, tentak, ellik, gulro‘ (gul yuzli), badxo‘ (yomon xulqli), ehtiyotkor, o‘chirg‘ich, berk, ertakchi, o‘simlik, elparvar

Ushbu vazifani bajarish uchun “Sharhlash”, “Aqlli doska” texnologiyalari yaxshi natija beradi.Shuningdek, o‘quvchilarning husnixat bilan *YOZISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi.

So‘z boshida	So‘z o‘rtasida	So‘z oxirida
egizak	**sekin**	**mavqe**
o‘yinqaroq	**qo‘rqinchli**	**obro‘**

144-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Quyidagi maqollarni o‘qib, mavzuga mos 10–12 ta gapdan iborat matn yaratiladi.**

1. Odobli bola elda aziz. 2. Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l.

40-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning maqsadi: a) ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda *i va u; e va o‘* unlilarining talaffuzi va imlosi haqidagi bilimlarni mustahkamlsh;

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Yurtimizda ta’lim sohasidagi islohotlar haqida 3 daqiqalik videolavha namoyish qilish; “Pinnbord” metodi yordamida darsni boshlash mumkin.

Texnologiya:

5 tashabbus bandlari alohida-alohida varaqqa yozib, teskari holda qo‘yiladi. O‘quvchilar bittadan varaqni olishlari, undagi bandga taalluqli she’r yoidan aytishlari kerak. Xonada o‘tirgan o‘quvchilar qaysi tashabbus haqida so‘z borayotganini aytadilar. Varaq xattaxtaga tirkaladi.

1-tashabbus *3-tashabbus* *5-tashabbus* *2-tashabbus* *4-tashabbus*

Topshiriq. **Rasm asosida o‘quvchilar maktablarida besh tashabbus doirasida qanday ishlarni amalga oshirayotganliklari haqida gapiradilar. Qo‘llash uchun so‘zlar:** ***texnologiya darsi, qo‘shiq, kuylamoq, sport, musobaqa, kompyuter, internet, kitobxonlik, badiiy asar, qizlar mehnati, e’tibor*** **“**Munosabat bildiring”**da berilgan savol-topshiriqlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash,** *GAPIRISH* **ko‘nikmalarsini shakllantirishga qaratilgan.**

Munosabat bildiring.

1. Musobaqada raqiblaringizni yengib, g‘olib bo‘lganmisiz? O‘sha payt da qanday kayfiyatda yurgansiz?

2. Mag‘lubiyatga uchragandagi holatingiz qanday bo‘lgan? Shu haqda gapirib bering.

3. Maktabingizda 5 tashabbus bo‘yicha qanday ishlar qilinyapti?

145-mashqda **o‘quvchilarning** *YOZISH* **ko‘nikmasi orqali xotiralari mustahkamlanadi.**

Ushbu vazifaning davomi sifatida “Men o‘qiganman, sen-chi?” texnologiyasi yordamida harakat qilish mumkin.

1. Botir o‘lsa, nomi qolur, nomard o‘lsa, nimasi qolur? 2. Yovdan qo‘rqqan – yovga do‘st, Elni suygan – elga do‘st. 3. Tiz cho‘kib yashaguncha tik turib o‘lgan yaxshi. 4. Tulkidan sher chiqmas, Qo‘rqoqdan er chiqmas. 5. Qo‘rqoqda uyat bo‘lmas. 6. Qo‘rqoqqa ip ilon bo‘lib ko‘rinadi

146-mashqda. **“*O‘zbekiston tarixi*” *kitobidan* olingan “ALP ER TO‘NGA” matnini o‘qitish orqali o‘quvchilarning** *O‘QIB TUSHUNISH* **ko‘nikmasiga diqqat qaratiladi.**

Matnda ishlatilgan *e* va *o‘* unlilarining talaffuzi, imlosiga e’tibor beriladi. “Men bilaman, sen-chi?” texnologiyasi yordamida o‘quvchilarning xalq qahramonlari haqidagi fikrlari tinglanadi.

ALP ER TO‘NGA

Afrosiyob – Turon davlatining sha’ni, shavkati uchun qattiq kurash olib borgan afsonaviy tarixiy shaxslardan biri. U – yurtini yovuz bosqinchilardan himoya qilgan ulug‘ sarkarda. Turkiy manbalarda bu hukmdor Alp Er To‘nga nomi bilan tilga olingan. Demak, Alp Er To‘nga va Afrosiyob, aslida, bitta shaxsning turkey va forsiy nomlari bo‘lib, u Turon davlatining asoschisidir.

Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit-turk” kitobida Alp so‘zini quyidagicha izohlaydi: “Alp – botir, qahramon”. Turkiy xalqlarda botir sarkardalar va podshohlar nomiga, odatda, Alp so‘zi qo‘shib ishlatilgan.



Demak, Alp Er To‘nga bu nomni o‘ziga ism qilib olgan dastlabki inson, turkiy xalqlarning ilk podshohi dir. (“*O‘zbekiston tarixi* ” *kitobidan*).

147-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“*Tarixdan hikoyalar*” kitobidan Amir Temur g‘alabalari to‘g‘risida berilgan ma’lumotlarni topish; ular asosida va rasmga tayanib matn yaratish vazifasi yuklanadi.**

41-dars. YONMA-YON KELGAN UNLILAR TALAFFUZI VA IMLOSI

Darsning maqsadi: a) ta’limiy maqsad*: o‘quvchilarga yonma-yon kelgan unlilar talaffuzi va imlosi haqida nazariy ma’lumot berish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o'quvchilarda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o'quvchilarda tinglab tushunish, o'qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

148-mashq **o'quvchilarning** *YOZISH* **ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Berilgan tezislardan biri dars shiori sifatida ham olinishi mumkin. Yozuv taxtasiga "Donolar bisoti"dan olib yozilgan** *Ulug'lar demish:* "Qanoatli odam maqsadiga yetadi". "Yaxshi xulq – saodat kaliti" **gaplari yoziladi, ulardagi yonma-yon kelgan unlilar talaffuziga diqqat qaratiladi.**

Yechim: Qanoat, saodat.

Topshiriq. **"Gulxan" jurnalidan olingan matn o'quvchilarga o'qitiladi.**

Katta ko'chani kesib o'tishga qiynalayotgan onaxonni ko'rgan ikki bola o'zlarining **doimiy** odatlariga **rioya** qilib unga ko'makka shoshilishdi. Ularni kuzatib turgan uchinchi bola **taajjublanib**:

– Senlarga bundan nima **manfaat**, yo'lingda ketavermaysanmi? – dedi. Yaxshi **oilada** o'sgan bolalar doimiy ishlarini davom ettirib, onaxonni yo'ldan o'tkazib qo'yishdi.

Ko'chaning bu betiga o'tgach: – Tarbiya bergan ota-onangizga ming rahmat, baxtli, **saodatli** bo'linglar! – dedi onaxon ularni **duo** qilib.

Munosabat bildiringda **berilgan savol-topshiriq yordamida o'quvchilarning** *O'QIB TUSHUNISH* **ko'nikmasi ustida ishlanadi.**

Ajratilgan so'zlar talaffuziga diqqat qaratiladi. Bu topshiriqni bajarish uchun "Ishbop o'yin" metodidan foydalanish mumkin. O'quvchilar matndan yonma-yon kelgan unlilar qatnashgan so'zlarni ajratib olib, jadvalga yozadilar. *YOZISH* **ko'nikmasini shakllantiradilar.**

oi	io	aa	ao	uo
doimiy	rioya	taajjublanib, manfaat	saodatli	duo

149-mashqda **o'quvchilarga berilgan "Oila taqvimi"dan berilgan nasihatlar o'qitiladi, ularda o'qish savodxonligi shakllantiriladi.**

Aratilgan so'zlarning yozilishi yuzasidan "Ishbop o'yin" metodiga murojaat qilinadi.

oi	uo	aa	ua
doim	xushmuomala	taalluqli	muallimlarning
oila		manfaatingizni	
		taassurot	

		murojaat	

150-mashq *YOZISH* **ko‘nikmasini shakllantirish uchun yordam beradi. O‘quvchilar so‘zlardagi nuqtalar o‘rniga kerakli harflarni qo‘yib daftarga ko‘chiradilar. Yonma-yon kelgan unlilar haqida xulosa chiqaradilar.**

Yechim: Muallif, taomil, geolog, doira, shoira, joiz, maosh, muammo, maorif, tabiiy, manfaat, ziroat, inshoot.

Yonma-yon kelgan unlilar:ua , ao, eo, oi, ii, aa, oa, oo.

151-mashqda **Boshqotirmaga yashiringan so‘z topilib, tarkibida yonma-yon kelgan unlilarga izoh beriladi. Shu so‘z ishtirokida gap tuziladi.**

M A Y T B Y U G A T

Yechim:

152-mashqda **O‘quvchilar jadvaldagi xato yozilgan so‘zlarning to‘g‘ri shaklini imlo lug‘atidan foydalangan holda uchinchi jadvalga yozishadi.**

Yechim: *Taassurot, taajjub, taalluqli, muallaq, mudofaa, murojaat, muallif, muovin, muolaja, muattar.*

153-mashq. ***Uyga vazifa. O‘quvchilar b*****erilgan fikrni davom ettiradilar va yozgan matnga sarlavha qo‘yadilar.**

43-dars. *G* VA K UNDOSHLARINING TALAFFUZI VA IMLOSI

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi*: o’quvchilarga G va K undoshlarining talaffuzi va imlosi haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarga musiqiy madaniyatni singdirish; o’zbek milliy musiqasiga hurmat ruhini rivojlantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad:*o’quvchilarda tinglab tushunish, o’qish, yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Darsni tashkiliy qismdan so’ng quyidagi “Filologik tajriba” bilan boshlash tavsiya qilinadi.

1-usul. *Kaftingizning ichki qismi bilan quloqlaringizni mahkam berkiting. So’ng quyidagi tovushlarni talaffuz qilib, o’zaro solishtiring. B-p, d-t, z-s, g-k…*

2-usul. *Bosh va ko’rsatkich barmoqlaringiz tutashgan qismni tomog’ingizga qo’ygan holatda yuqoridagi tovushlar juftligini talaffuz qilib ko’ring. Farqini ayting.*

1-topshiriq. Jarangli va jarangsiz undoshlar qatoriga diqqat qiling.

Jarangli yoki jarangsiz jufti bo‘lmagan undoshlarni esda saqlab qoling.

Jarangli undoshlar	*b*	*v*	*z*	*g*	*d*	*j*	*dj*	*g’*	*y*	*m*	*n*	*g*	*l*	*r*	-	-
Jarangli undoshlar	*p*	*f*	*s*	*k*	*t*	*ch*	*sh*	*x*	-	-	-	-	-	-	*q*	*h*

***154-mashq. G* va *k* tovushlari qatnashgan so‘zlarni o‘qing. Ular ishtirokida 10 ta gapdan iborat matn yarating**.

Qo‘llash uchun so‘zlar: *bugun, kuy, guruh, maktab, gazeta, go‘zal, ko‘rik, ishtirok.*

***2-topshiriq.* Matnni O‘QING. *G* va *k* undoshi qatnashgan so‘zlarga diqqat qiling.**

***155-mashq.* Qo’yilgan muammo: Quyidagi so‘zlarga egalik va kelishik qo‘shimchalari qo‘shib, daftaringizga YOZING. So‘z oxirida kelgan “k” tovushlariga diqqat qiling.**

So‘zlar: *ishtirok, idrok, go‘dak, istak.*

Yechim:

So’zlar	**Kelishik qo’shimchasining qo’shilishi**	**Egalik qo’shimchasining qo’shilishi**
ishtirok	*ishtirokka*	*ishtiroki*
idrok	*idrokka*	*idroki*
go’dak	*go’dakka*	*go’dagi*
istak	*istakka*	*istagi*

Qoida shunchaki eslatib o’tilmay, chizma yoki rasm shaklida tushuntilsa, bola yodida mustakham o’rnashadi.

1	*K* undoshi bilan tugagan asosga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilsa, bu qo‘shimcha *-ka* tarzida aytiladi va shunday yoziladi.	*...k+ga=... kka*	*Terakka,bilakka, elakka, tilakka, tokka*
2	*G* undoshi bilan tugagan so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilsa, asos va qo‘shimcha qanday aytilishidan qat’i nazar, o‘zgarmaydi	*...g+ga=ga*	*bargga, pedagogga, kordeologga,*

***156-mashq. Qo’yilgan muammo:* Nuqtalar o‘rniga *g* yoki *k* harfl aridan mosini qo‘yib, matnni daftaringizga *YOZING*.**

Yechim: *Ko‘pchilik, kerak, aksincha, xolisligimiz, shaksiz*

Mashq yakuniga yetgandan so’ng “Minidebat” o’yini orqali o’quvchilarga quyidagi savollarni tashlash mumkin.

1. Sizga qaysi musiqa ko‘proq yoqadi; estradami, mumtoz musiqami?

Uyingizdagi yoshi ulug‘larga-chi?

2. O‘zbek to‘ylarini karnay-surnaysiz tasavvur qila olasizmi?

Lug‘at bilan ishlashdan avval hafta kunlari esga olinadi. Shanba haftaning nechanchi kuni ekanligi so’raladi. Aslida, shanba-shashshanba bo’lishi kerakligi, ya’ni oltinchi shanba degan ma’noni anglatishi haqida ma’lumot berish tavsiya etiladi. Shunda Shashmaqom so’zini bolaning o’zi tushunib oladi.

Lug‘at: ***maqom*** *– Sharq musiqasida musiqiy ohang, kuy yo‘li, tartibi, shakli;* ***“Shashmaqom”*** *– olti qismdan iborat o‘zbek musiqa asari*

157-mashq. ***Qo’yilgan muammo: R*asmlarda aks etgan musiqa asboblari ishtirokida 5–6 ta gapdan iborat og‘zaki matn yarating**.



Milliy marosimlarga joziba beruvchi kuy haqida bahslashing. Mashqni bajarishda rasmda ko’rsatilgan cholg’u asboblarining ovozi audio shaklda eshittirilib, o’quvchilarga *TINGLASH* va topish tavsiya etiladi.

158-mashq. ***Daftaringizga oxiri g yoki k undoshi bilan tugaydigan 10 ta so‘z yozing. Ularning talaffuziga e’tibor bering. Mashqni bajarish uchun “Mehmon-mehmon”o’yinidan foydalanish tavsiya etiladi. O’quvchilar “Imlo lug’ati” kitobi bor sinfdoshlarining partasiga mehmonga boradilar va lug’atdan g va k tovushi ishtirok etgan so’zlarni kitobdan ko’rib, eslab qolib, partadoshiga yetkazadi. Partadoshi esa doskaga YOZADI.***

Namuna: *kerak, barg…*

159-mashq. ***Uyga vazifa. “Biz eshitgan ilk musiqa (qo‘shiq) – ona allasi”* mavzusida matn yarating. Foydalanish uchun so‘zlar:** *go‘daklikda, tunlari, yoqimli, beshik, ovoz, ona, uyqu, tinglamoq, tinchlanmoq, kuylamoq, xotirjam.*

44-dars. *Q* VA *G’* UNDOSHLARINING TALAFFUZI VA IMLOSI

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi*: o’quvchilarga Q va G’ undoshlarining talaffuzi va imlosi haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarga saxovat va bag’rikenglilik g’oyalari singdirilgan matnni tahlil qilish orqali saxiy, insofli farzand etib tarbiyalash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o’quvchilarda tinglab tushunish, o’qish,*

yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Topshiriq. TINGLAB TUSHUNISH **ko'nikmasini shakllantirish uchun mo'ljallangan. Ezop masalidan keltirilgan matnni diqqat bilan o'qing. Q va g' tovushlarining talaffuzi va imlosiga e'tibor bering. Matn o'qituvchi tomonidan yoki audio shaklida eshittirilishi tavsiya etiladi.**

Xasis va uning oltini

Xasis bir odam o'zidagi bor-budini sotib, quyma oltin xa rid qildi. Eski hovli yo'lagidan yurib **bog'ga** kirdi, bir qoziq yonida to'xtadi. O'sha yerdan choh qazib, oltinni ko'mib qo'ydi. Har kuni yo'lakka borar va xazinasining butun turga nidan xabar olardi. Xasis odamning ishchilaridan biri uning **bu yoqqa** serqatnov bo'lib qolganini sezib qoldi va sababini **bilmoqqa** qaror qildi.

Tez orada ishchi ko'milgan xazinaning sirini bilib oldi. Yerni kovlab, oltinni o'g'irlab ketdi. Ertasi kuni xasis **qozig'i** yoniga kelib qarasa, oltin yashirilgan chuqur bo'm-bo'sh. U baqirib sochlarini yuldi, odamlarni qarg'ay boshladi. Xasisning ahvolini ko'rgan qo'shnisi: "Iltimos, bunchalik qayg'urma. Borgin-da, tosh olib o'sha chuqurga tashla. Oltinning har doimgidek o'sha yerda yotganini tasavvur qil: oltining chuqurda bormi-yo'qmi, undan senga hech bir naf yo'q edi-ku", – dedi. (*Ezop masallaridan*)

160-mashq. *TINGLAB TUSHUNISH* ko'nikmasini shakllantirish uchun mo'ljallangan. **Matnga tayanib, quyida keltirilgan voqealar rivojining ketma-ketligini raqamlar bilan belgilang.**

1. Xasis odam o'zidagi bor-budini sotib, quyma oltinga almashtirishga qaror qildi.
2. Bir odam xasisning oltinini o'g'irlab ketdi.
3. Xasis chuqur qazib, unga xazinani yashirdi.
4. Qo'shnisi xasisga quyma oltinning o'rniga tosh tashlashni maslahat berdi.

Yechim:

1. Xasis odam o'zidagi bor-budini sotib, quyma oltinga almash tirishga qaror qildi.
2. Xasis chuqur qazib, unga xazinani yashirdi.
3. Bir odam xasisning oltinini o'g'irlab ketdi.
4. Qo'shnisi xasisga quyma oltinning o'rniga tosh tashlashni maslahat berdi.

161-mashq. *TINGLAB TUSHUNISH* **ko'nikmasini shakllantirish uchun mo'ljallangan. Matn tinglangach, savol-topshiriqlar ustida**

ishlanadi.

Test.

Ushbu masaldan ko‘zlangan maqsad noto‘g‘ri izohlangan javobni toping. “Testkari test” usulidan foydalanish tavsiya etiladi. O’qituvchi test variantlarini aytadi. O’quvchilar esa savol qo’yadilar.

A. Qimmatbaho narsalarni o‘g‘irlanadigan joyda saqlama.

B. Oltining bo‘lsa, albatta, bir kuningga yaraydi.

C. Bor narsangdan foydalanmasliging unga ega emasliging bilan barobar.

D. To‘g‘rilab bo‘lmaydigan narsa uchun qayg‘urma.

162-mashq. **Matnda ajratilgan so‘zlarga qarang. *Q* va *g‘* bilan tugagan so‘zlarga egalik va kelishik qo‘shimchasi qo‘shilganda, yuzaga keladigan o‘zgarishga diqqat qiling.**

Yechim:

Asos	Kelishik qo’shimchasi qo’shilganda	*Egalik qo’shimchasi qo’shilganda*
bog’	bog‘ga	*bog’i*
bu yoq	bu yoqqa	*bu yog’i*
bilmoq	bilmoqqa	*bilmog’i*
qoziq	qoziqqa	*qozig’i*

Qoida chizma yoki jadval asosida sindirilishi tavsiya etiladi. Mustahkamlash darslarida shu qoidalarga asoslanib “Tushunchalar tahlili” metodidan foydalansa bo’ladi

1	*Q* undoshi bilan tugagan asosga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilsa, bu qo‘shimcha *-qa* tarzida aytiladi va shunday yoziladi.	….q+ga=… qqa	*qaymoqqa, toshloqqa*
2	*Q* undoshi bilan tugagan asoslarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilsa, so‘z oxi ridagi *q* undoshi *g‘* ga aylanadi va shunday yoziladi.	…q+ -im=…g’i	*bulog‘i, qishlog‘i*
3	*G‘* undoshi bilan tugagan so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilsa, asos va qo‘shimcha qanday aytilishidan qat’i nazar, o‘zgarmaydi	…g’+ga=… g’ga	*bug‘ga, bog‘ga*


***163-mashq. Q* va *g‘* tovushlari qatnashgan so‘zlarni** *TINGLANG*. **Ularga qo‘shimcha qo‘shib gaplar tuzing.** *Qum, qizg‘anchiq, qanoat, oriq, g‘ubor, yorug‘, yoriq, qiymat, g‘azab, g‘alati.*

Mashqni bajarishda “O’ng qo’l qoidasi” usuli tavsiya etiladi. Asoslarga chapdan o’ngga qarab qo’shimchalar qo’shib ketilaverdi. O’quvchilar mashqni doskada bajarishlari ma’qul. Tez va to’g’ri bajargan o’quvchi rag’batlantiriladi. Albatta, chiroyli yozuvga ham e’tibor qaratiladi.

Yechim: Qum+lik+lar+ga, qizg’anchiq+ga, qanoatli+ning, oriq+-i, g’ubor+i+da…

164-mashq. ***Qo’yilgan muammo: Q*** **va** ***g‘*** **undoshlari bilan tugaydigan narsa nomlarini toping, ularga jo‘nalish kelishigi va egalik qo‘shimchalarini qo‘shib yozing.**




Mashqni bajarish uchun “Mehmon-mehmon”o’yinidan foydalanish

So‘z oxirida ***g‘*** (jarangli) va ***q*** (jarangsiz) undoshlari o‘rtasidagi farq yo‘qolib, har ikki undosh bir xil q ho lida talaffuz qilinsa ham, yozuvda ***q*** va ***g‘*** harfl ari orqali yoziladi.

165-mashq. ***Q undoshi bilan boshlanib, q undoshi bilan tugaydigan 10 ta so‘z YOZING. Yozgan so‘zingizni izohlang. Mashq YOZING VA GAPIRING ko’nikmasini shakllantirishga qaratilgan. “Estafeta” o’yini tavsiya etiladi. Birinchi guruh “ Imlo lug’ati”dan shartga asosan so’zlarni topadilar, ikkinchi guruh “O’zbek tilining izohli lug’ati” dan ma’nosini izlaydilar. Uchinchi guruh a’zolari so’zlar va izohini doskaga chiroyli yozuv asosida YOZADILAR.***

Namuna: *Qayiq – suv transporti.*

166-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Tarkibida *g‘* va *q* undoshi ishtirok etgan 5 ta topishmoq topib *YOZING.***

45-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarning jarangli va jarangsiz tovushlarning talaffuzi va imlosi yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarni yurtimizning me’moriy yodgorliklari, zamonaviy me’moriy obidalar haqidagi matnlar orqali kasbga yo’naltirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o’quvchilarda tinglab tushunish, o’qish,*

yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Darsni quyidagi topishmoq bilan boshlash mumkin.

Ikki uzoq qirg‘oqni *Men hammaga ko’makman.*
Birlashtirib turaman. *Topgin qoqmay kipriging*
Yaqin qilib yiroqni *Bu-men, sening……*

***Matn** TINGLAB TUSHUNISH* **ko’nikmasini shakllantirish uchun mo’ljallangan. O’qituvchi tomonidan yoki audio eshittirilishi mumkin.**

MUNOSABAT BILDIRING. *GAPIRING.*

1. Insoniyat tarixida ko‘priklar dastlab qanday materiallardan qurilgan? Hozir-chi?

2. O‘zbekistonda qurilgan qanday ko‘priklarni bilasiz?

3. *Odamlar qalbini bir-biriga bog‘laydigan ko‘priklar*, deganda nimalarni tushunasiz?

167-mashq. **Qo’yilgan muammo: Matndagi k, q undoshlari bilan boshlanadigan so‘zlarni YOZING: ko‘priklar, qurilgan. “Bilag’on o’quvchilar” o’yini orqali sinf doskasida bajariladi.**

Yechim:

K undoshi bilan boshlanadigan so’zlar	Q undoshi bilan boshlanadigan so’zlar
kelayotgan	qadim
ko‘prik	qurilgan
Keyinchalik	qavatli
ko‘tarma	qatnov
	qatorli
	qad rostlagan
	qolishmaydi

168-mashq. **Nuqtalar o‘rniga kerakli harfl arni qo‘yib, gaplarni YOZING. “Diqqatingni jamla” o’yini tavsiya etiladi. Doskaga yozayotgan o’quvchiga har xil mantiqiy savollar beriladi. O’quvchi diqqatini jamlab, bir paytning o’zida ham savollarga javob berishi kerak, ham tez va xatosiz yozish kerak.**

Yechim: 1. Toshkentda uch qavatli ko‘prik qad rostladi. 2. Yangi Orleandagi Ponshartren ko‘li ustidagi ko‘prik to‘g’on vazifasini bajaradi. 3. San Diyegodagi Koronado Bridj ko‘prigining ulkanligidan uning ostidan kemalar bemalol o‘ta oladi. 4. Arkanzas ko‘prigi jarliklarni birlashtiradi. 5. Yaponiyada shaharlarni birlashtiruvchi ko‘priklar ham mavjud.

169-mashq. **“*K-k o‘yini*”. 3 guruhga bo‘lining. *K* bilan boshlanib, *k* bilan tugaydidan so‘zdan 10 ta topib daftaringizga *YOZING* va izohlang. Qaysi guruh birinchi yozib bo‘lsa, g‘olib hisoblanadi.**

Yechim: Kovak, kerak, katak, kesak, kerik, kemtik, katak, kurak…

170-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Siz qanday ko‘prik kashf qilishni istaysiz? “*Kelajak ko‘priklari*” mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn tuzing.**

46-dars. *D* VA *T* UNDOSHLARINING TALAFFUZI VA IMLOSI

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilaga D va t undoshlarining talaffuzi va imlosi haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarni tabiat in’om etgan boyliklarni asrab-avaylash, oqilon foydalanish, tabiatga zarar yetkazmaslik ruhida tarbiyalash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad:*o’quvchilarda tinglab tushunish, o’qish, yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

171-mashq. **Qo’yilgan muammo: *D* va *t* tovushlari qatnashgan so‘zlarni tinglang. Ular ishtirokida 10 ta gapdan iborat “Dunyoni qanday asraymiz?” mavzusida matn yarating.**

“Qo’lni qo’lga beraylik” o’yinidan foydalanish tavsiya etiladi. Tayanch so’zlar sinf doskasiga yoziladi. Butun sinf o’tirgan joylarida qo’llarini birlashtiradi. Biroz daqiqaga ko’zlarini yumib, ona tabiatni ko’z oldiga keltirishlari so’raladi. Birinchi gapni o’qituvchining o’zi boshlab berishi mumkin. Masalan, “Tabiat onamizdek muqaddas Dunyo, tasavvur qilmoq, dunyoqarash, ona tabiat, dalda, do‘st, daraxt, osoyishta hayot, dildoshlar, dard, taassurot, ehtiyot, uddaburon.

Topshiriq. ***Matn*** *TINGLAB TUSHUNISH* **ko’nikmasini shakllantirish uchun mo’ljallangan Matnni** *O‘QING.* ***D*** **va *t* undoshlari ishtirok etgan so‘zlarga e’tibor bering.**



“Muharrir minbari” usulidan foydalanish tavsiya qilinadi. Avvalgi darsda kelajakda jurnalist bo’lishni istagan o’quvchiga matnni darsga tayyorlab kelish topshiriq sifatida berilsa, maqsadga muvofiq bo’lar edi. O’quvchi qiz istasa, imidjini ham Greta Tunbergnikidek o’zgartishi mumkin.

Munosabat bildiring. *GAPIRING.*

1. Greta va sinfdoshlarini yig‘latgan voqea nima edi?

2. Gretaga ta’sir qilgan voqeadan so‘ng u o‘z xonadonida qanday o‘zgarishlar qildi? Nima uchun?

3. Gretadagi qaysi xususiyat sizda ham bor?

172-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Nuqtalar o‘rniga *d* yoki *t* harfl arini qo‘yib, daftaringizga husnixat bilan *YOZING.***

Yechim: *tashhilot, e’tiqod, itpat, qad, oid, shod, murod, kut, did*

So‘z oxirida *d–t* singari jarangli va jarangsiz undoshlar o‘rtasidagi farq yo‘qolib, bir xil – jarangsiz undosh tovush holida talaffuz etiladi, lekin d yoziladi.

173-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Tabiat muammolariga bag‘ishlangan “*Orol dardi – millat dardi*” matn *TINGLAB TUSHUNISH* ko’nikmasini shakllantirish uchun mo’ljallangan. O’qituvchi tomonidan yoki audio shaklda eshittirilishi mumkin. Matn asosida 174-mashqda berilgan savollarga o‘quvchilar javob beradilar.**

1. Orol fojiasining sabablari nimada?

2. Orolni saqlab qolish uchun nimalar qilish kerak, deb o‘ylaysiz?

3. Greta Tunberg ko‘targan muammo bilan Orol dengizi fojiasining qanday aloqadorligi bor?

Matnlar bilan ishlash jarayonida o’quvchilarning og’zaki nutqiga ko’proq e’tibor qaratish kerak. Jurnalistika sohasiga yo’naltirish mumkin.

175-mashq. **Matnni *YOZING*, nuqtalar o‘rniga zarur harflarni qo‘ying. Matn oxiridagi savolga javob bering.**

Yechim:

Tengdoshingiz Nigora bir kuni yoz faslining yildan yilga isib ketayotgani, jaziramaning tobora kuchayib borayotgani to‘g‘risida o‘ylab qoldi. Nigora Qutb muzliklarining erishi, suv toshqinlari va dovullar, qurg‘oqchilik, chang bo‘ronlari insonlarning aybi bilan bo‘layotganini tushundi. Yirik fab rika-zavodlardan chiqayotgan tutunlar ham ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Orol muammosi ham tabiatga inson aralashuvining natijasi ekanini ko‘plar qatori Nigora ham anglayapti.

Nigora ham Greta Tunberg singari barchani tabiatni asrashga chaqirmoqda. Faqat qanday qilib? Siz bunga nima deysiz? (*“Gulxan” jurnalidan*)

176-mashq. ***Uyga vazifa***. “*Ekologik muammolarni yechishga yor-*

dam beraman” mavzusida fi kr-mulohazalaringizni 10–12 ta gap orqali yozma bayon qiling.

47-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarning jarangli va jarangsiz tovushlarning talaffuzi va imlosi yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad: *matn mavzusi* orqali o‘quvchilarda komil inson sifatlarida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad:*o’quvchilarda tinglab tushunish, o’qish, yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Topshiriq. *TINGLAB TUSHUNISH* **va** *GAPIRISH* **ko’nikmalarini shakllantirish uchun mo’ljallangan. Matn o’qituvchi tomonidan yoki audio shaklda o’qib eshittiriladi. Matnni tinglang. Mazmunini uch jumlada bayon qiling.**

Yechim: Insonlar bilan muomala tikanli dalada ehtiyot bo’lib yurishdek gap. Chunki tilini tiygan kishi salomat bo’ladi. Hadislarda: “ O‘rni bo‘lsa, yaxshi gap gapir, aks holda, sukut ma’qul”, – deya marhamat qilingan. Munosabat bildiring.

1. Matnda insonlar bilan muomala qilish nimaga qiyoslanadi?
2. “*Tilini tiygan kishi salomat bo‘ladi*” degan gapni sharhlang.

177-mashq. **Qo’yilgan muammo: Matndagi quyidagi so‘zlarni izohlab YOZING: ustoz, muomala, nasihatgo‘y, aks holda, ma’qul, marhamat. “Sinkveyn” metodi tavsiya etiladi. Bu usul qatorlar metodi bo‘lib besh qatordan iborat. Har bir qatorga yozilgan so‘zlar bitta gap hisoblanib, u keng ma’noni o‘ziga qamrab oladi.**

Bunday she’r muayyan qoidalarga muvofiq yozilishi kerak:

1-qator – bitta so‘zdan iborat. Unda muhokama qilinadigan mavzu (yoki narsa) ko‘rsatilishi kerak.

2-qator – qo‘yilgan mavzuning sifatlari yoki belgilarini tavsiflashlari kerak.

3-qator – mavzuning odatiy harakatlari haqida tuzish kerakligini tushunishga harakat qilayotgan bolalar ko‘pincha bu erda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

4-qator – har qanday mavzuga mos ibora. Bunga she’r nomida yozilgan narsa yoki mavzu haqida sinxronni yaratuvchisining shaxsiy fikri kiritilishi kerak.

5-qator – mavzu mazmunini umumlashtirish yoki kengaytirish uchun so‘z topishi tushuntiriladi. Bu material va ma’lumotni qisqa

iboralar shaklida uzatishni talab qiladigan ish, shuning uchun o‘quvchi biror narsani qisqacha tasvirlab berishi yoki takrorlashi mumkin.

Masalan: *1-qator.* Maktab. *2-qator.* Bizning maktab. *3-qator.* Olam sirlarini o‘rganamiz. *4-qator.* Yosh avlod ta’lim-tarbiya maskani. 5-qator. Kelajak.

178-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** ***S*****infdoshlaringiz bilan odob-axloq, muomala madaniyati haqida maqollar musobaqasi o‘tkazing.**

Yechim: “Ortiqchasini top” o’yini orqali mashqni mustahkamlash mumkin.

Inson –odobi bilan, Osmon-oftobi bilan	*Bola aziz, odobi undan aziz*
Odobni beodobdan o’rgan	*Vatan qadrini bilmagan o’z qadrini bilmas*
Odobning-boshi til	*Otang bolasi bo’lma, Odam bolasi bo’l*
Bulbul chamanni sevar, Odam-Vatanni	*Yaxshi boladan rahmat, Yomon boladan la’nat*
Odob-insonning zeb-u ziynati	*Odob-oltindan qimmat*



179-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Aytilmoqchi bo‘lgan fikrga diqqat qiling.** ***O’QIB TUSHUNISH*** **va** ***GAPIRISH*** **ko’nikmalarin ini shakllantirish uchun mo’ljallangan.**

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida insonlarni “yaxshilik ka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm”, ya’ni axloq haqida fikr yuritiladi. “Axloq – bu xulqlar majmuyi. Xulq esa ezgulik yoki razillik ning insonda namoyon bo‘lishidir. Kishilar tug‘ilishidan yaxshi yo yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog‘liq.

Tarbiya yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir. Tarbiya inson tug‘ilgan kundan boshlanadi va umrining oxiriga qadar davom etadi”.

180-mashq. ***Matnga tayanib savollarga javob YOZING.***

O’quvchilarning Esse yozish ko’nikmasini shakllantirish tavsiya etiladi.

1. Axloq – xulqlar majmuyi. Xulq nima?
2. Yaxshi yoki yomon xulqli odamlarni qanday farqlash mumkin?
3. Avloniy ta’rificha, tarbiya nima?
4. Tarbiya qachon tugaydi?

181-mashq. ***Uyga vazifa. “Yomon xulqlardan o‘zimizni asraylik”***

mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn tuzing.

48-dars. *J, dj* UNDOSHLARINING TALAFFUZI VA IMLOSI

Darsning *a)* ta'limiy maqsadi: *o'quvchilaga J va Dj undoshlarining talaffuzi va imlosi haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o'quvchilarni o'z-o'ziga ishonch ruhida tarbiyalash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad:*o'quvchilarda tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

182-mashq. Qo'yilgan muammo: **So'zlardagi *j* va *dj* tovushlarining talaffuziga diqqat qiling. Ular ishtirokida 10 ta gapdan iborat "*Kitoblar olami*" mavzusida matn yarating.**

Qo'llash uchun so'zlar: *jurnal, avj, jahon, ajdod, juda, jo'sh urmoq, jilolanmoq, jajji, vijdon.*

"Uzviylik uzluksizlik" metodi tavsiya etiladi. har qatordagi o'quvchilar aylana hosil qilib, bir-birlarining qo'llarini uchlagan holatda turadilar. Birinchi o'quvchi tayanch so'zlardan birortasini qatnashtirib, mavzuga oid gap tuzadi. Masalan,

1-o'quvchi. Ota-onam menga shaxsiy kutubxona tashkillab berishgan.

2-o'quvchi. Kutubxonamda juda ko'p kitoblarim bor.

183-mashq. Bojxona, ajdar. **Ushbu so 'zlarning qaysi birida *j* harfi *ch* ga moyil, qaysi birida *sh* ga moyil talaffuz qilinyapti?**

1-rasmda Dj va Sh tovushining talaffuz jarayoni,

2-rasmda esa J va Ch tovushining talaffuz jarayoni aks etgan.

Rasmdan foydalanib, bojxona, ajdar so'zlarini talaffuz qilib ko'ring.

J harfi *jo'ja, jajji* kabi so'zlarda til oldi, jarangli tovushni ifodalaydi. Bu tovush *ch* tovushiga moyil aytiladi	*Jurnal, jirafa, sajda* kabi so'zlarda esa *dj* til oldi, jarangli tovushni ifodalash uchun qo'llaniladi, jarangsiz jufti *sh* tovushidir.
Jahon, jamol, jabr, jadval, jadal, jafo, jahl, jala, jalb, jamalak	*Jir, ajdar, massaj…*

Topshiriq. **Matnni diqqat bilan *O'QING.* Ajratilgan so'zlarga, *j* va *dj* tovushlarining talaffuzi va imlosiga e'tibor bering**.

Munosabat bildiring.

1. Nega o'qituvchi faqat ijobiy fikrlarni tarqatdi?
2. Nega natijalar sinfda muhokama qilinmadi?
3. O'qituvchi erishgan maqsad nima edi?

4. Matnning davomi qanday tugaydi deb o‘ylaysiz?

Topshiriq. **Matnni o‘qishda davom eting. *J* tovushli so‘zlar talaffuziga diqqat qiling. *TINGLAB TUSHUNISH* va *GAPIRISH* ko’nikmalarini shakllantirish uchun mo’ljallangan.**

Matn o’qituvchi tomonidan o’qib berilishi yoki biror o’quvchi onasiga o’qittirib, audio shaklda tayyorlab kelishi ham mumkin.

184-mashq. **Birinchi matnda ajratilgan so‘zlarni ikki ustunga joylashtiring.**

Yechim:

***J* tovushi ishtirok etgan so’zlar**	***Dj* tovushi ishtirok etgan so’zlar**
“*Jahongashta*”	jurnal
ajoyib	ajdodlar
juma	vijdon
bajarilgan	
natija	
ijobiy	

185-mashq. **Jadvalga joylashtirilgan so‘zlar ishtirokida 3–4 ta gap tuzing. Tuzgan gapingizda *j* va *dj* tovushining talaffuzi va imlosiga diqqat qiling.**

“Meni tushun” o’yini *orqali qiziqarli tashkillash mumkin. Bir o’quvchi yoki o’qituvchining o’zi gapning yarmini aytadi. O’qituvchi darsga bee’tibor o’tirgan bir o’quvchidan davom ettirishini so’raydi. Masalan:*

O’qituvchi-Men kecha bir ajoyib tush ko’rdim.

O’quvchi. Tushimda jahongashta ritsar bo’lib qolgan emishman.

Matn shu tarzda davom etadi. Tayanch so’zlar tugagandan so’ng “Xotira mashqi” usulini qo’llab, o’quvchilardan matnni boshdan oxirigacha qayta hikoya qilishlari so’raladi.

186-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“*Men …-ni juda xohlar edim*” mavzusida orzu-istaklaringizni 10–12 ta gap ko‘rinishida yozing.**

49-dars. *F* VA *V* UNDOSHINING TALAFFUZI VA IMLOSI

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilaga F va V undoshlarining talaffuzi va imlosi haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarni hadislar, hikmatli so’zlar orqali komil inson etib tarbiyalash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o’quvchilarda tinglab tushunish, o’qish,*

yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Dars ilm va uning ahamiyati haqidagi hadis bilan boshlansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. "Ilm olish- har bir musulmon erkak-ayolga farz (majbur)"

Topshiriq. **Matnni *O'QING*, *f* va *v* undoshlari ishtirok etgan so'zlarning talaffuziga diqqat qiling.**

"Kichik dasturchi" o'yini asosida diagrammani to'ldirish tavsiya etiladi. "Asabingizni tinchlantirish uchun nimalar qilasiz?"

187-mashq. **Berilgan so'zlarga qavsdagi ikki harfdan zarurini qo'ying va hosil bo'lgan so'z ishtirokida gaplar tuzing. "Zakovatli zukko" o'yini taklif etiladi**.

Sahi (*p, f*)a, a(*f, v*)sona, Sharo(*f, p*)at, Sha(*f, v*)kat, na(*f, p*)s, ka(*f, v*)t, a (*f, v*)tomat

Yechim:

Sahi(*p, f*)a-sahifa,
a(*f, v*)sona-afsona
Sharo(*f, p*)at-Sharofat
Sha(*f, v*)kat-Shavkat
na(*f, p*)s-nafs
ka(*f, v*)t-kaft
a(*f, v*)tomat-avtomat

188-mashq. *O'QIB TUSHUNISH* **va** *YOZISH* **ko'nikmalarini shakllantirish uchun mo'ljallangan. Matnni** *O'QING***. Ajratilgan so'zlarni daftaringizga** *YOZING.* ***F*** **va V undoshi- ning imlosiga diqqat qiling.**

Yechim:

Hadisi sharif	*f-v*	Hadisi sharip
asrovchi	*v-v*	asrovchi
vosita	*v-v*	vosita
foyda	*f-p*	poyda
fazilati	*f-p*	pazilati
vazifasidir	*f-p*	vazipasidir
shafqatli	*f-v*	shavqatli

189-mashq. **So'zlar tarkibidagi *f* va *v* tovushlarining talaffuziga diqqat qiling. Ular ishtirokida 10 ta gapdan iborat "*Foydali maslahat*" mavzu sida bog'lanishli matn yarating.**

Xavf, foyda, vazifa, taft, fikr, favvora, fidoyi, juft, fasl, sof, afv.

190-mashq. ***Uyga vazifa. "Kitobxon o'quvchi – bilimdon o'quvchi"* mavzusida matn tuzing. *F* va *v* undoshlari qatnashgan so'zlarning tagiga chizib qo'ying.**

50-dars. NAZORAT ISHI.

51-dars. *X VA H* UNDOSHLARINING TALAFFUZI VA IMLOSI

Darsning *a)* ta'limiy maqsadi: *o'quvchilaga X va H undoshlarining talaffuzi va imlosi haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o'quvchilarni hadislar, hikmatli so'zlar orqali komil inson etib tarbiyalash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad:*o'quvchilarda tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Darsni quyidagi qiziqarli ***"Bo'larmish"*** *o'yini bilan boshlash tavsiya etiladi. Avval oq'ituvchining o'zi boshlab berishi kerak.*

– Choyingizdagi shama cho'pi tik turgan bo'lsa, mehmon kelarmish.
– Cho'mich yerga tushib ketsa, mehmon kelarmish.
– Supuriqsiz uyga mehmon kelarmish.
– Zag'izg'on tinmay sayrasa, mehmon kelarmish.
– Qovog'i uchsa, mehmon kelarmish.

191-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Matnni diqqat bilan** *O'QING.* **Unga sarlavha tanlang. Matn o'qituvchi, o'quvchi tomonidan, audio shaklda o'qib, eshittirilishi mumkin.**

Munosabat bildiring.

1. Yana qanday sifatlarni mehmondo'stlik odobiga kiritasiz? Fikringizni asoslovchi 3 ta misol keltiring.

2. Agar mehmon begona bo'lsa, uy egasi taomga birinchi qo'l uzatadi. Nima sababdan?

3. Matnda ajratilgan so'zlardagi "x" yoki "h" tovushi tilning qaysi qismida hosil bo'layotganini aniqlang.

Yechim:

"Mehmondo'stlik-yaxshi fazilat", "Mehmon otangdek ulug', "Mehmon kutish odobi"

1. Yana qanday sifatlarni mehmondo'stlik odobiga kiritasiz? Fikringizni asoslovchi 3 ta misol keltiring. "Bizda shunaqa, sizlarda-chi?" o'yini tavsiya etiladi.

– mehmon kelganda yosh bolalar to'polon qilmaydi. Sizlarda-chi?

– mehmon kelganda dasturxonga toza yuvilgan choynak-piyola qo'yiladi. Sizlarda-chi?

– mehmon kelganda bolalar kattalarga yordam beradi. Sizlarda-chi?

– bolalar mehmonning oldiga kirib o'tirishmaydi. Sizlarda-chi?

2. Agar mehmon begona bo'lsa, uy egasi taomga birinchi qo'l uzatadi. Nima sababdan?

3. Matnda ajratilgan so'zlardagi "*x*" yoki "*h*" tovushi tilning qaysi qismida hosil bo'layotganini aniqlang.

Qoida nutq a'zolarining rasmi orqali tushuntirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

X,x harfi chuqur til orqa undoshini ifodalaydi, ***H, h*** harfi esa bo'g'izda hosil bo'ladigan undoshni ifodalaydi.

193-mashq. **Nuqtalar o'rniga mos harflarni qo'yib, gaplarni *YOZING.* Mashqni bajarish uchun "Mehmon-mehmon"o'yinidan foydalanish tavsiya etiladi.**

Yechim:

1. Kelmoq ixtiyor bilan, Ketmoq ijozat bilan. 2. Mehmon izzatda, Mezbon xizmatda. 3. Mehmonxonang tor bo'lsa ham, Mehri diling keng bo'lsin. 4. Suhbat sevmagan tegirmon qurdirar, Mehmon sevmagan bolasini urar. 5. Mehmon kelsa, pastga tush, Palov bermoq ahdga tush.

193-mashq. *O'QIB TUSHUNISH* **ko'nikmasini shakllantirish uchun mo'ljallangan. Matnni o'qing.**

Eslatmani yodda tutishga harakat qiling.

Aziz o'quvchi! *X* va *h* harfl ari imlosi ba'zan bizni qiynab qo'yishi sir emas. Quyidagi eslatma sizga bu ikki tovushni ajratishda qo'l keladi, deb o'ylaymiz.

Eslatma. X va *h* tovushlarining ishlatilish o'rnini yodda tutishda quyidagi kabi holatlardan foydalanish mumkin:

– *h* tovushi yumshoqroq talaffuz etiladi, shuning uchun sezilarsezilmas darajada eshitiladi. Ba'zan so'zlayotganda so'z tarkibidan tushib ham qoladi: *xohlamoq – xolamoq; fahm – fam;*

– *x* undoshi qattiq talaffuz etiladi, shuning uchun tushib qolishga moyil emas, aksincha, ba'zi shevalarda *q* ga o'xshash xususiyatga ega bo'ladi: *xalq – qalq; xulq – qulq; mix – miq;*

– *h* undoshi tushib qolish darajasiga bormagan hollarda *y* deb talaffuz qilinishi mumkin, *x* undoshida esa bu holni ko'rmaymiz:

shohi – shoyi; Abdurahim – Abdurayim; Shohista – Shoyishta; Ibrohim – Ibroyim;

– yopiq bo‘g‘inda *e* tovushidan keyin doim *h* qo‘llanadi: *ehtimol, ehtiyoj, istehkom, mehmon, istehzo, mehnat.*

– yopiq bo‘g‘inda *i* unlisidan keyin doim *x* undoshi keladi: *ixcham, ixlos, ixtiro, ixtiyoriy, mix, six.*

– rus-yevropa so‘zlarida, ko‘pincha, *x* harfi yoziladi: *texnika, xirurg, arxiv, arxitektor.*

“Mohir qo’llar” yoki “Idrok xaritasi” usullari tavsiya etiladi. O’quvchilar qo’l ishi bilan “*X* va *H* harfli so’zlar lug’ati” tayyorlaydilar. Bu, albatta, uyga vazifa sifatida beriladi. O’qituvchi tomonidan kitob tayyorlash texnikasi o’rgatiladi. Kirish qismiga *X* va *h* tovushlarining ishlatilish o‘rnini yodda tutishda uchun berilgan qoidalarni yozadilar. Eng yaxshi lug’at egasi rag’batlantiriladi.

194-mashq. **Nuqtalar o‘rniga *x* yoki *h* harfl aridan mosini qo‘ying.**

Yechim:

X **harfi qo’yiladigan so’zlar**	***H*** **harfi qo’yiladigan so’zlar**
xola	alohida
arxeolog	voha
paxta	aslaha
axir	ahil
baxt	baho
gulxan	hisobchi
	bahs
	Bahodir
	vahima
	gavhar
	giyoh
	Shohimardon

195-mashq. **So‘zlar imlosiga diqqat qilib,** *YOZING.* **“Estafeta” o’yini taklif etiladi. Sinf kutubxonasidagi “Imlo lug’ati”dan o’ng tomonda o’tirgan o’quvchi berilgan so’zni topib, partadoshiga yozib ko’rsatadi. Pardadoshi esa doskaga yozadi.**

196-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Berilgan so‘zlardagi *x* va *h* tovushlarining talaffuzi va imlosiga diqqat qiling. Ular ishtirokida “*Mehmondo‘stlik odobi*” mavzusida matn yarating.**

Qo‘llash uchun so‘zlar: *havas, mehmon, xotira, suhbat, xohlamoq, ixtiyor, mahalla, qahramon, faxr.*

52-dars. *Z* VA S UNDOSHLARINING TALAFFUZI VA IMLOSI

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilaga Z va S undoshlarining talaffuzi va imlosi haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarning huquqiy ongini rivojlantirish; Davlat boshqaruv organi haqidagi tasavvurlaini boyitish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o’quvchilarda tinglab tushunish, o’qish, yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

197-mashq. **Quyidagi so‘zlarni daftaringizga *YOZING*, ma’nosini izohlang:**

Masalan: ***strategiya – boshqaruvni to‘g‘ri rejalashtirish “Tushunchalar tahlili” metodi tavsiya etiladi.***

Yechim:

Tushuncha	***Mazmun***
strategiya	*boshqaruvni to‘g‘ri rejalashtirish*
suveren	*mustaqillikka ega bo’lgan; erkin, hur*
iztirob	*ruhan ezilish, siqilish holati; ruhiy azob*
sohibqiron	*Zuhra va Mushtariy sayyoralari to’qnashganda tug’ilgan bola.*
zamonaviy	*hozirgi zamonga xos; zamona talablariga javob beradigan*
sujjat’mal	*biror narsadan ; masalan, amal, haylikdan o’z manfaati uchun*

Z tovushi so‘z boshida aniq talaffuz qilinadi. Jarangsiz undoshlardan oldin yoki so‘z oxirida kelganda, ko‘pincha, ***s*** tovushiga moyil aytiladi, ammo ***z*** yoziladi. Masalan: *ischil emas, izchil; tussiz emas, tuzsiz.*

S tovushi o‘zbek tilida so‘zning boshi, o‘rtasi, oxirida erkin kela oladigan eng unumli, ko‘p qo‘llanuvchi tovushdir.

Topshiriq. *O’QIB TUSHUNISH* **ko’nikmasini shakllantirish uchun mo’ljallangan. Nuqtalar o‘rniga *z* va *s* tovushlaridan mosini qo‘yib matnni o‘qing.**

Lug‘at: tuzuk – nizom; **tamaddun** – madaniyat.

Lug’at daftarlariga yozishlari kerak.

Prezident

Prezident shu uchta hokimiyatni bir-biri bilan bog‘lab turadi. Prezident – davlatning eng katta rahbari. U barcha hokimiyatni nazorat qiladi. Ammo Prezident ham

Konstitutsiya va qonunlarni chetlab o‘tolmaydi. Oddiy fuqaro qonunga qanday amal qilsa, Prezident ham shunday amal qiladi.

198-mashq. *TINGLAB TUSHUNISH* **va** *GAPIRISH* **ko’nikmalarini shakllantirish uchun mo’ljallangan. Juftliklarda ishlang. Matnga va Konstitutsiya haqidagi bilimingizga tayanib**, “*Sen Konstitutsiyani bilasanmi?*” mavzusida dialog tuzing.

Komiljon: Donoxon, siz Davlatimiz ramzlarini bilasizmi?

Donoxon: Ha, bilaman.

Komiljon: Sanab berolasizmi?

Donoxon: O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Davlat Bayrog’i, Davlat Gerbi, Davlat Madhiyasi

Dialog shu tarzda davonm etishi mumkin.

azimat	intilish
zamin	yer, tuproq
zarofat	hozirjavoblik
daroz	novcha, baland bo‘yli
mezon	tarozi yoki 12 burjning biri
iztirob	ruhan ezilish
zaxira	g‘amlab qo‘yilgan narsa, xazina
mahzun	g‘amgin

199-mashq. **So‘zlarning yozilishi va talaffuziga diqqat qiling. Chap tomondagi so‘zlarga o‘ngdagi so‘zlardan mos izohni toping.**

Yechim:

Yozsin-yossin *faraz-faras*

tuzsiz-tussiz *izhor-ishor*

imtiyoz-imtiyos *izchil-ischil*
ozsa-ossa *izsiz-issiz*
rizq-ris

200-mashq. **Quyidagi so‘zlardan *z* undoshi aytilgani kabi yozilsa, yangi ma’no hosil bo‘ladiganini toping. Ularni izohlab yozing. *“Bilag’on o’quvchi” o’yini tavsiya qilinadi.***

Yozsin, tuzsiz, imtiyoz, ozsa, faraz, izhor, izchil, izsiz, rizq.

Masalan: *tuzsiz – tussiz (tusi, rangi yo‘q*

201-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Yuqoridagi matnlar va bilganlaringiz asosida quyidagi savol va topshiriqlarga 2–3 jumla bilan javob yozing.**

1. Konstitutsiyaning Bosh qonun deyilishiga sabab nima?
2. Kelajakda qaysi hokimiyatda ishlashni xohlar edingiz?
3. O‘zbekiston Konstitutsiyasining qaysi moddasida bepul ta’lim olish to‘g‘risida yozilgan?

53-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning maqsadi: a) ta’limiy maqsad*: o‘quvchilarga h va x; z va s undoshlarining talaffuzi va imlosi haqidagi bilimlarini mustahkamlash; ularda o‘qish savodxonligini shakllantirish.*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish;*

v) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Darsni O‘zbekiston davlat madhiyasi yangragan 3 daqiqalik video-rolik bilan boshlash o‘quvchilarning *TINGLAB TUSHUNISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi, ular qalbida milliy g‘urur, vatanga bo‘lgan muhabbat, vatanparvarlikni shakllantirishga yordam beradi.

“Muzyorar” metodi asosida matndan avval berilgan savollar bilan ishlanadi. Bu esa o‘quvchilarni mustaqil mushohadaga undaydi. *GAPIRISH* ko‘nikmasini rivojlantiradi.

1. Sport musobaqalarida madhiyamiz jaranglab, bayrog‘imiz ko‘tarilganda yig‘lagan sportchilarni ko‘rganmisiz? Ular nega yig‘ladi, deb o‘ylaysiz?
2. Madhiyamiz mualliflari haqida nimalar bilasiz?

Topshiriqdagi **matnni o‘quvchilarga ovoz chiqarib o‘qitish vositasida ularning *O‘QIB TUSHUNISH* ko‘nikmalari shakllantiriladi.**

Yechim:

№	So‘zlar	Izohi
1	iftixor	Shon-sharaf hissi, faxr
2	tuyg‘u	1. Tashqi ta’sirni sezish, his etish qobiliyati, sezgi. 2. Ruhiy va jismoniy kechinmalar, his-tuyg‘ular majmuyi
3	his qilmoq	1. İlg‘amoq, sezmoq.2.Kishi ruhiyati bilan bog‘liq sezgi.
4	baralla	1. Aniq, ravshan, yaqqol; 2. Dangal, ro‘yi- rost, ochiqdan ochiq
5	muhim	Alohida ahamiyatga ega bo‘lgan
6	yorug‘	Nur tushib turgan,ravshan, charog‘on
7	sharaflovchi	İzzatlovchi, hurmatlovchi
8	tarona	Kuy, ohang

-mashq ***O‘*****quvchilar matn va mustaqil fikrlariga tayangan holda ushbu jumlalarni har xil davom ettirib, daftarga yozadilar. Shuningdek,** *YOZISH* **ko‘nikmasi shakllanadi.**

1. Men madhiyamizni nafaqat sport musobaqalarida, balki……..-da eshitib, faxrlanganman.

2. Madhiyamizni sinfdoshlarim bilan kuylayotganimda xursand bo‘lib ketaman, chunki …… .

3. Har bir yurt fuqarosi o‘z davlatini maqtaydi. Men ham O‘zbekistonimni mana shunday madh etmoqchiman, eshiting: ……. .

204-mashq ***“Zukko o‘quvchi”*** **texnologiyasi asosida bajariladi. O‘quvchilar berilgan javoblardan mosini topib, mantiqiy savollar bilan ishlaydilar.**

1. Bu poytaxt shahar ikki shaharning qo‘shilishidan tashkil topgan. Uning nomi ham ikki shahar nomidan iborat. Bu qaysi poytaxt? (Budapesht)

2. Aynan bir poytaxtning ichida boshqa bir davlat joylashgan. Bu qaysi shahar va davlat? (Rim, Vatikan)

3. Qadimgi Yunonistonda bu so‘z “papka ko‘targan kishi” degan ma’noni bildirgan. Bizda esa bu so‘z – bir kasb egasi. U qaysi kasb? (Buxgalter)

4. Amir Temur: “Jang paytida ularning o‘rni beqiyos, yuzta mohir jangchi ularning o‘rnini bosolmaydi”, – degan. Ular kimlar? (Tabiblar)

205-mashq. ***Uyga vazifa.*** **O‘quvchilar** ***t*****arix va geografi ya faniga oid 4 ta qiziqarli mantiqiy savol topib, daftarga yozib kelishadi.**

54-dars. *Sh, sh* va *Ch, ch* HARFLAR BIRIKMASI VA ULARNING VAZIFALARI

Darsning maqsadi: a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarga *sh va ch* harflar birikmasi va ularning vazifalari haqida nazariy ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad: *o'quvchilarda milliy g'urur; yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o'quvchilarda tinglab tushunish, o'qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Topshiriqda **O'quvchilarga matndagi nuqtalar o'rniga sh yoki ch harf birikmalaridan mosini qo'yib o'qitiladi. (O'quvchilar matnni o'qish jarayonida matn mazmunini tushunadi, Toshkentni boshqa shaharlar bilan qiyoslaydi; Vatanidagi o'lmas obidalar, qadriyatlar bilan faxrlanadi) Bu topshiriq orqali o'quvchilarning** *O'QIB TUSHUNISH* **ko'nikmalari shakllanadi.**

206-mashqni **bajarish uchun "O'z o'rningni top" texnologiyasidan foydalanish mumkin. Jadvalda ajratib berilgan so'zlar tarkibida bir tovushning bir harf emas, harfiy birikma bilan ifodalangani kuzatiladi O'quvchilar bu so'zlar ishtirokida daftarga gaplar tuzsalar,** *YOZISH* **ko'nikmalari ustida ishlaydilar.**

Harfiy birikmali so'zlar	*Harfiy birikmasiz so'zlar*
Toshkent	*ko'hna*
Choch	*mehmondo'stlik*
kengayib	*noz-ne'mat*
eng	*sayyohlar*
dengiz	*iliq*

Sh, sh harfl ar birikmasi bitta (til oldi, jarangsiz undosh) tovushni ifodalaydi.

Eslatma: S va ***h*** harfl ari yonma-yon kelib, alohida tovushlarni ifodalaganda, ular orasiga tutuq belgisi (') qo'yiladi: Is'hoq (ism), as'hob (suhbatdoshlar), mus'haf (sahifalar).

Ch, ch harflar birikmasi ham bitta (til oldi, jarangsiz) tovushni ifodalaydi.

207-mashqda berilgan so'zlarni audio vositasida tinglansa, (*TINGLAB TUSHUNISH*) o'quvchi jadvallardagi so'zlarning to'g'ri aytilishi va yozilishini uzoq vaqt xotirasida saqlashi mumkin.

Noto'g'ri	*To'g'ri*	*Noto'g'ri*	*To'g'ri*

chunmoq	tushunmoq	cho‘pon(to‘n)	chopon
sirguruch	shirguruch	talon-taroch	talon-taroj
shahanshox	shohanshoh	qushxona, (qassobxona)	kushxona (qassobxona)
churik	chirik	xarom-xarij	harom-xarish
chitpurish	chitfurush	falach	falaj
chorshamba	chorshanba	orbitrash (sud)	arbitraj (sudi)
namoshshomgul	namozshomgul		

208-mashq. **She’rdagi harflar birikmasi qatnashgan so‘zlarga diqqat qiling. Ikkinchi misradagi qoshingdan so‘zini izohlang. (GAPIRISH)**

Jilmayadi o‘zida yo‘q **shod**
Yangi oy ham ketmay **qoshingdan**.
Etak-etak olib koinot
Yulduzlarni **sochar** **boshingdan**.
(*E.Vohidov*)

Yechim:

So‘z	*Izohi*
Qoshingdan	oldingdan, yoningdan, huzuringdan.

209-mashq. ***Uyga vazifa.*** **O‘quvchilar O‘zbekiston poytaxti qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi tasavvurlarini rasmda chizib ifodalaydilar va 12 ta gap bilan matn yaratadilar.**

55-dars. *NG, ng* HARFLAR BIRIKMASI VA UNING VAZIFALARI

Darsning a) ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarda ng harflar birikmasi va ularning vazifalari haqida bilim va ko’nikma hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad: o’quvchilarni do‘stlikni qadrlashga o‘rgatish; jamoada ishlash madaniyatini shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Darsni “Men boshlayman, sendavom ettir” grammatik topshirig‘i bilan boshlash mumkin.

– Do‘st so‘zini tashlama
– Tashlab boshing qashlama. Do‘stsiz oshim...
– Tuzsiz boshim. Do‘sting kim?
– Sening kimligingni aytaman...
– ..

Topshiriq. **Matnni o‘qing. Ajratilgan so‘zlarga diqqat qiling.**

Aybsiz do‘st qidirgan kishi yakkalanib qoladi. Arzimas aybi uchun xafa bo‘laveradigan **kishining** do‘stlari dushmanga aylanaveradi, chunki singan **ko‘ngilni** tiklab bo‘lmaydi. **Do‘stining** o‘zidan o‘zib ketayotganiga chiday olmagan kishi g‘am ostida yuraveradi. (*Yusufiy)*


Bu topshiriq o‘quvchilarning *O‘QIB TUSHUNISH* ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchilar unda do‘stlikni qadrlash haqidagi matnni o‘qiydi, ajratilgan so‘zlardagi *ng* harflar birikmasining talaffuziga diqqat qiladilar va tushunganlari bo‘yicha Siz qanday do‘stsiz? Do‘stlik qoidalariga rioya qilasizmi? Kabi savollarga javob beradilar. (o‘quvchi *GAPIRISH* ko‘nikmasi ustida ishlaydi)

Ng, ng harflar birikmasi bitta (til orqa) undoshni ifodalaydi. Bu harflar birikmasini ikkita alohida ***n*** va ***g*** undoshlarini ifodalovchi harflarning yonma-yon kelishidan farqlash lozim.

Ng, ng harfl ar birikmasi bir bo‘g‘in tarkibida, ***n*** va ***g*** harfl ari boshqa-boshqa bo‘g‘inlar tarkibida keladi. Solishtiring: shud-ring, ko‘-ngil, sing-gan, ko‘rdi-ngiz; men-ga, osmon-ga sin-gan.

Rus-yevropa so‘zlarida har doim alohida tovushlarni anglatadi: kon-gress, shtan-ga.

211-mashq. **Gaplarni ko‘chiring, *ng* undoshi ish tirok etgan so‘zlarni topib ostiga chizing. Ushbu mashq ham o‘quvchilarning *YOZISH* ko‘nikmasini shakllantiradi.**



1. Dunyo dunyo bo‘lib yaraldi qachon,
Hayot ohanglari taraldi qachon? (*Muhammad Yusuf*)
2. Sahroyi Kabirda yozsam ko‘nglimni,
Ruhimda chinorday turding, Vatanim. (*Yo‘ldosh Eshbek*)
3. Tanglayimni ko‘targan “kindik momom” qo‘lisan,
Beshigimda sirlashgan shamchirog‘im tilisan. (*O. Hojiyeva*)

212-mashqni bajarish uchun “O‘z o‘rningni top” texnologiyasidan foydalanish mumkin. Avval *ng* undoshi ishtirok etgan so‘zlarni, keyin alohida *n* va *g* tovushlari yonma-yon kelgan so‘zlar ko‘chiriladi.

Menga, ingramoq, kenglik, tanga (pul), mingashmoq, ingichka, yangi, tonggi (shabada), bahor tongi, sening, tungi, dangasa, jonga,

singil.

Yechim:

Ng harflar birikmasi qatnashgan so‘zlar	N va g harflari qatnashgan so‘zlar
ingramoq	*menga*
kenglik	*mingashmoq*
tanga (pul),	*tungi*
ingichka,	*jonga*
yangi	
tonggi(shabada),	
bahor tongi	
sening	
dangasa	
singil	

213-mashq. **Qavs ichidagi harf yoki harfiy birikmalardan mosini qo‘yib, so‘zlar ko‘chiriladi. (O‘quvchilarning *O‘QIB TUSHUNISH* va *YOZISH* ko‘nikmalari shakllantiriladi)**

Yechim: ko‘lanka, to‘nka, jaranglamoq, tangens,qo‘ng‘iz, chang, yong‘oq, kongress, ko‘rdingmi, tengsiz.

214-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“*Do‘stlikni qadrla*” mavzusida matn tuziladi.. Unda harflar birikmalaridan foydalaniladi**.

56-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning a) ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini shakllantirish

b) tarbiyaviy maqsad: o’quvchilarga matnlarni tahlil qilish orqali nafosat tug’usini singdirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Topshiriqda berilgan *Isajon Sultonning “Genetik” romanidan olingan parcha o‘quvchilarga o‘qitiladi.*

Topshiriqdagi matn o‘quvchilarning *O‘QIB TUSGUNISH* **iga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar matnni o‘qigach, unga sarlavha topadilar**.

Tavsiya:

1. Suv shabadasi
2. O‘ynoqi shamol...

“Kim zukko?” metodida shamolni jonlantirish orqali yozuvchi qanday tasvir yaratdi? 2. Siz ham tabiat hodisalarini: shamol, chaqmoq, tong otishi, yomg‘ir yog‘ishi, bahor kelishi paytlarini kuzatganmisiz? Qanday taassurot olgansiz? kabi savollarga javob beradilar. (*GAPIRISH* ko‘nikmasi ustida ishlanadi)

215-mashqda **Shamol so‘zining matnda berilgan sinonim (ma’nodosh)lari to‘g‘ri tiklangan qatorni ko‘rsating. Ushbu mashqdagi she’r audio orqali ham eshittirilishi mumkin. (O‘quvchilarning TINGLAB TUSHUNISH ko‘nikmasi shakllantiriladi)**

Yechim:

a) “puf”, epkin, shabada, quyuncha, shamol
b) epkin, qumoq, kambar, qayrag‘och, girdob
c) shabada, jo‘xori, oqshom, quyuncha, chayqatmoq
d) shamol, “puf”, qumoq, kambar, quyuncha

216-mashq. **Matndan berilgan so‘zlarni to‘g‘ri izohlash maqsadida o‘quvchilar jadvaldagi so‘z bilan uning izohini birlashtiradilar va daftarga ko‘chiradilar. (O‘quvchilarning *YOZISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi)**

*“Tushunchalar tahlili” metod*i asosida vazifani bajarish mumkin.

So‘z	Izohi
qumoq	qum aralashib, donador bo‘lgan
kambar	eni kichik, ensiz
girdob	suv yoki shamol uyurmasi
tomorqa	hovli yonidagi yer bo‘lagi
qayrag‘och	yog‘ochi qattiq, shoxlari tig‘iz, soyali daraxt
baqaterak	teraklarning tarvaqaylab o‘sadigan turi

217-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Tong otish pallasini kuzatish vazifasi beriladi. Taassurotlarini 10–12 gapdan iborat matnda ifodalash topshirig‘i yuklanadi.**

57–58-darslar. NAZORAT ISHI VA UNING TAHLILI. TAASSUROT YOZISH

59-dars. QO‘SH UNDOSHLAR TALAFFUZI VA IMLOSI

Darsning a) ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarda qo‘sh undoshlar talaffuzi va imlosi haqida bilim va ko’nikma hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad: o’quvchilarga matnlarni tahlil qilish orqali hayvonot olamiga mehr-muhabbat tug’usini singdirish ;

d) rivojlantiruvchi maqsad: tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va

yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Darsni “Aqlli doska” metodi yordamida boshlash maqsadga muvofiq. O‘qituvchi xattaxtaga qo‘sh undoshlar qatnashgan maqollardan yozib qo‘yadi. “Maqolda ilgari surilgan g‘oya va undagi qo‘shaloq kelgan undoshlarni toping” topshirig‘i beriladi. Masalan: 1.Bulbul chamanni sevar, Odam – Vatanni. 2. Himmatli er,O’z elini der. 3. Birikkan kuch – kuch, Birikmagan kuch – puch.

218-mashq. **O‘quvchilar berilgan so‘zlarni o‘qiydilar. So‘zlarning qanday talaffuz qilinayotganiga diqqat qiladilar. Yonma-yon kelgan bir xil undoshning bittasi deyarli eshitilmaydigan so‘zlarni ajratib daftarga yozadilar.** *Quvvat, izzat, karra, murabbiy, munaqqid, taassurot, taajjub,taalluqli, million, minnatdor, komissiya, milliard, qassob, hissa, grammatika, iffat.*

Ushbu mashq o‘quvchilarda *O‘QIB TUSHUNISH* **VA** *YOZISH* **ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, talaffuz mashq-**

Tarkibida yonma-yon bir xil undoshlar kelgan so‘zlar qo‘sh undoshli so‘zlardir.

Ba’zi so‘zlarda qo‘sh undosh qismlari aniq talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: *quvvat, chaqqon.*

Ayrim chet tilidan o‘zlashgan so‘zlarda qo‘sh undoshlar bir undoshdek talaffuz etiladi, lekin qo‘sh undosh bilan yoziladi: *million, komissiya, artilleriya.*

Gramm, metall, kongress kabi so‘zlar oxirida kelgan qo‘sh undoshlardan biri talaffuzda tushirib qoldirilsa ham, yozuvda hamisha ifodalanadi.

Bunday undosh bilan tugagan so‘zlarga shunday tovush bilan boshlanadigan qo‘shimchalar qo‘shilganda, qo‘sh undoshning biri yozilmaydi: *metall+-lar→metallar.*

Qo’shimcha nazariy ma’lumot: gramm, metall, kongress kabi so’zlarga har qanday qo’shimcha qo’shilsa, asos oxiridagi tovush tushirilmaydi. (grammga, metallmas, kongressda)

219-mashq. **Ushbu mashqni “Kichik guruhlarda ishlash” metodi orqali bajarish mumkin. ”KIM ZUKKO?” grammatik topshirig‘i beriladi.Gaplardagi qo‘sh undoshli so‘zlar ikki guruhga ajratib ko‘chiriladi. Birinchi guruhga qo‘sh undoshlarning biri talaffuz etiladigan so‘zlar, ikkinchisiga qo‘sh undoshlarning ikkalasi ham**

aniq talaffuz qilinadigan so‘zlar yoziladi.

1. Hamma uylarda chiroq bor, ikkinchi qavatdagi bir xona qopqorong‘i. *(X.To‘xtaboyev)* 2. Shu chog‘ artilleriya qismlari og‘ir to‘plar bilan ota boshladi. *(Oybek)* 3. Suvi mo‘l-ko‘l bog‘larda yayrar ekansan, bulbul. Qanotlaring mallarang, jussang kichikligidan ko‘rinarkansan arang. *(Abdurahmon Akbar)*

Yechim:

qo‘sh undoshlarning biri talaffuz etiladigan so‘z	qo‘sh undoshlarning ikkalasi ham aniq talaffuz qilinadigan so‘z
artilleriya	hamma
	ikkinchi
	mallarang
	jussang

220-mashq. **Qo‘sh undoshli so‘zlarning izohiga diqqat qaratiladi. Mashqni Tushunchalar tahlili” texnologiyasi asosida bararish mumkin. Masalan: *ushshoq – ushoq (non urvog‘i).***

Qo‘sh undoshlar imlosi	Izohi
ushshoq	oshiqlar
yalla	ashula
tilla	qimmatbaho metall
chinni	oq loydan yasalgan idish
silla	mador
qattiq	mustahkam

Jadvaldagi so‘zlarning qo‘sh undoshidan birini tushirib yoziladi va ma’nosini izohlanadi.

Qo‘sh undoshli so‘zlar	Qo‘sh bo‘lmagan undoshli so‘zlar
ushshoq — oshiqlar	ushoq —non uvog‘i
yalla — ashula	yala — harakat
tilla — qimmatbaho metall	tila —holat
chinni — oq loydan yasalgan idish	chini —rosti
silla — mador	sila —harakat
qattiq — mustahkam	qatiq —sut mahsuloti

221-mashq. ***Uyga vazifa.*****O‘quvchilar darsdan olgan taassurotlari asosida “Zavodda” nomli matn yaratadilar. Matnda qo‘sh undoshli so‘zlardan foydalanadilar. Tavsiya etiladigan so‘zlar: *zavod, muruvvat, kilogramm, po‘lat quyuvchi, mehnat, zavq, harorat, zarra,***

***issiq*.**

60-dars. QATOR UNDOSHLAR TALAFFUZI VA IMLOSI

Darsning a) ta'limiy maqsadi: o‘quvchilarda qator undoshlar talaffuzi va imlosi haqida bilim va ko'nikma hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga matnlarni tahlil qilish orqali hayvonot olamiga mehr-muhabbat tug'usini singdirish ;

d) rivojlantiruvchi maqsad: tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Darsni qiziqarli topishmoq-test bilan boshlash maqsadga muvofiq.

(O‘qituvchi o‘quvchilardan qatorlardagi qaysi rasmlarning barchasi so‘zga aylantirilganda undosh tovushlar yonma-yon kelishini so‘raydi. O‘quvchilarning *GAPIRISH* ko‘nikmasi rivojlantiriladi.).

Yechim:

222-mashq. **So‘zlarni ko‘chirish vositasida o‘quvchilarning *YOZISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi.Tarkibida ikki xil undosh yonma-yon kelgan so‘zlarning tagiga chiziladi. Ular ishtirokida gaplar tuziladi.**

Himmat, pand-nasihat, maslahat, baxt, do‘stlik, g‘isht, tabassum, farzand, *foyda, qirq, to‘xtamoq, o‘rtoq, transport, ilhom*, ko‘rk, *mashina, stul, ulkan, aql, daraxt.*

Vazifani "Bu bizniki" texnologiyasi orqali ham bajarish

Bu bizniki!

Pand-nasihat, baxt, do‘stlik, g‘isht, farzand, qirq, transport, ko‘rk, stul, aql, daraxt.

223-mashq* *o‘quvchilarning O‘QIB TUSHUNISH va YOZISH ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

***O‘quvchilar mehr, sabr, sayr, ilm* so‘zlari talaffuzi va yozilishini tahlil qiladilar. Shunday so‘zlar qatorini kengaytiradilar. O‘quvchilar bilan "Kim zukko" texnologiyasi ustida ishlansa, darsda o‘quvchilar faolligi ortadi.**

Bir bo‘g‘inida yonma-yon ikki xil undosh kelgan so‘zlar qator undoshli so‘zlardir.

Masalan: aql, ahd, sehr…

Qator undosh bilan tugagan ba'zi so‘zlar talaffuzida oxirgi undosh deyarli aytilmasa-da, yoziladi: go‘sht, do‘st, xursand, barg, monand…

So‘z boshida qator undoshning kelishi faqat o‘zlashma (boshqa tildan kirgan) so‘zlarga tegishli: stol, broker, bloger…

Qo'shimcha nazariy ma'lumot: barg, qadr,go'sht kabi qator undoshli so'zlarga qo'shimcha qo'shilsa, qator undoshlilik xususiyati yo'qoladi. (bar-gi, qad-rim, go'sh-ti)

224-mashq. **Matndan qo'sh va qator undoshli so'zlarni topib, tagiga chiziladi.Ushbu mashq** *YOZISH* **ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.**

Yechim:

Bir kuni oramizga yangi mehmon – Halima degan qizcha qo'shildi.

Uning qishlog'imizga kelganini hammadan avval men bildim. Kechqurun oyim dadam bilan dardlashib o'tirib, aytib qo'ydi. Hakim brigadir bultur urushdan kelgan. Qizi Halimani shahardan olib kelibdi. Qizchasi chaqqongina, zukko ekan. Men Halima bilan tezda do'st bo'lib oldim. (*O'.Hoshimov*)

225-mashq. **Maqollarni ko'chiriladi. Qo'sh va qator undoshli so'zlar tagiga chiziladi.**

Yechim:

1. Ayrilmagin elingdan, Quvvat ketar belingdan. 2. Bulbul chamanni sevar, Odam – Vatanni. 3. Vataning tinch – sen tinch. 4. Vatanga falokat – o'zingga halokat. 5. Yordan ayrilgan yetti yil yig'lar, Yurtdan ayrilgan o'lguncha yig'lar.

226-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Quyidagi so'zlar orasidan qo'sh va qator undoshli so'zlarni ajratib, daftarga ko'chiriladi.**

Qo'sh undoshli so'zlar: quvvat, pirillayotgan, , issiqda, mitti

Qator undoshli so'zlar: barglarini, chang, qasdlashib.

61-dars. ASOS VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI

Darsning a) ta'limiy maqsadi: o'quvchilarda asos va qo'shimchalar imlosi haqida bilim va ko'nikma hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga matnlarni tahlil qilish orqali hayvonot olamiga mehr-muhabbat tug'usini singdirish ;

d) rivojlantiruvchi maqsad: tinglab tushunish, o'qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Darsni baliq haqidagi quyidagi topishmoq bilan boshlash mumkin.

Akvariumda jami 10ta baliq bor. Ikkitasi suzib ketdi, to'rttasi cho'kib ketdi, uchtasi o'lib qoldi. Akvariumda nechta baliq qoldi?

Yechim: Akvariumda jami 10ta baliq qoldi. Chunki baliq cho'kmaydi,

akvariumdan chiqib ketolmaydi, o'lgan bo'lsa ham, akvariumning ichida.

Topshiriq. **Nuqtalar o'rniga kerakli tovush yoki qo'shimchani qo'yib, matnni O'QING. Nega aynan shu qo'shimcha yoki tovushni qo'yganingizni izohlashga harakat qiling. Matn o'qituvchi tomonidan yoki audio shaklda eshittirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Imkoni bo'lsa, matn o'qilayogan paytda monitor orqali baliqlar haqidagi biror miltfilm yoki ilmiy-ommabop film namoyish etilib turilsa ham bo'ladi.**

Yechim:

no'xatdek	-gina, -kina, -qina	no'xatdekkina
bu yoq	-ga, -ka, -qa	bu yoqqa
shu	-day	shunday
kenglik	-i	kengligi
kich(ik)	-gina, -kina, -qina	kich(ik)kina
og'irlik	-i	og'irligi
saqla	-gan, -kan, -qan	saqlovchi

Munosabat bildiring.

1. Baliqlarning shunday ajoyib xususiyatlarga egaligini avval ham bilarmidingiz?
2. Qaysi baliq miyasi hajm jihatidan boshqa baliqlar miyasidan ustun turadi?
3. Matnning so'nggi gapiga mos biror maqol ayta olasizmi?

Masalan: Toqatliga tog'lar egar boshini, Toqatsizning birovlar yer oshini. (O'zbek maqoli)

Munosabat bildiring (*GAPIRING*) . O'quvchilarning ichida baliqlarga qiziqadiganlari yoki baliqlar haqida multfilm ko'rganlari bo'ladi. Darsga shu o'quvchilarni ko'proq jalb qilish kerak.

Matnning so'nggi gapiga mos biror maqol ayta olasizmi?

Masalan: *Toqatliga tog'lar egar boshini,*
Toqatsizning birovlar yer oshini. (*O'zbek maqoli*)

Yechim: Dushmanning sovg'asidan qo'rq.
Hushyorliging-tinchliging.
Hushyorlik-umr posboni.

227-mashq. **Fonetik hodisalar, ya'ni so'zlarda tovush tushishi, tovush ortishi va tovush almashishi hodisalari haqida o'rgan-**

ganlaringizni yodga oling. Yozuvda aks etadigan o‘zgarishlar haqida fikrlashing.

“Ha, Yo’q” metodi asosida tashkillash tavsiya etiladi.

1. Kitoblar so’zida tovush o’zgarganmi?_____
2. Mening so’zida tovush o’zgarganmi?_____
3. Pasay so’zida tovush o’zgarganmi?_____
4. Unga so’zida tovush o’zgarganmi?_____
5. Qayroq so’zida tovush o’zgarganmi?_____ Savol o’qituvchi

1. a unlisi bilan tugagan fe’llarga *-v, -q, -qi, -vchi* qo‘shimchalari qo‘shilganda, a unlisi o aytiladi va yoziladi: sayla – saylov, qayna – qaynoq, sayra – sayroqi. Shuningdek, o‘qi – o‘quv, sovi – sovuq, to‘qi – to‘quvchi so‘zlarida i unlisi u ga aylanishi mumkin.

2. g tovushi bilan boshlanuvchi qo‘shimchalar 3 xil aytiladi va yoziladi: borgan, eshikka, chiqqach.

Eslatma: bargga, tog‘ga, og‘gan, sig‘guncha, pedagogga kabi so‘zlar, qanday aytilishidan qat’i nazar, asliday yoziladi.

228-mashq. YOZISH ko’nikmasini rivojlantirish uchun mo’ljallangan. **Uch guruhga bo‘lining. 1-guruh tovush tushishi, 2-guruh tovush ortishi, 3-guruh tovush almashishi hodisasiga misollar yozsin. 5 daqiqa ichida kim ko‘p so‘z yozadi?**

Yechim:

1-guruh tovush tushishi	2-guruh tovush ortishi	3-guruh tovush almashishi
susay	*bunga*	*ata*
sening	*mavqeyi*	*qiynoq*
ko’ngli	*shunday*	*bitta*

229-mashq. “Kim chaqqon?” o’yini asosida sinf doskasida tahlil qilib YOZISH tavsiya etiladi. **Berilgan so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajrating.**

Kitob+xon, sino+v, bo‘yo+q, og‘ri+q, tila+k, kubog+i, yo‘g‘+i, olt(i)+ov, chir+illa, shov+ulla.

230-mashq. Uyga vazifa. **Berilgan gaplarni ko‘chiring. Tovush o‘zgarishiga uchragan so‘zlarning tagiga chizing.**

62-dars. ASOS VA QO‘SHIMCHALAR IMLOSI (davomi)

Darsning a) ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarda asos va qo’shimchalar

imlosi haqida bilim va ko'nikma hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga matnlarni tahlil qilish orqali sog'lom turmush tarziga rioya etish ko'nikmasini shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: tinglab tushunish, o'qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Darsni avvalgi darsning mantiqiy davomi sifatida quyidagi she'riy topishmoq bilan boshlash tavsiya etiladi.

Suv ostida ko'z yummay,
Bir so'z aytmay suzaman.
Muqim turmay bir joyda
Ko'p o'lkalar kezaman.
Tezroq topgin, toliqma,
Axir, bu men ----------(baliqman)

231-mashq. **Yozuvda aks etgan tovush o'zgarishlariga uchragan so'zlarni belgilang, tagiga chizing. So'zlarida tovush o'zgarishi uchramagan gapni ko'rsating.**

Yechim:

1. Fevral oyiga kelib, sovuqning shashti biroz pasaydi. 2. Xalqimizning tilagi bitta – tinchlik. 3. Yurtimizning xalqaro miqyosdagi obro'yi kundan kunga oshib bormoqda. 4. Sportchilarning olimpiada o'yinlaridagi ishtiroki hammamizni quvontirdi. 5. Dam olish kuni bog'ga

1. ***-boz*** qo'shimchalari ***-voz*** kabi aytilsa-da, asl shakli bo'yicha yoziladi: *dorboz (dorvoz)*

2. parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo so'zlariga egalik qo'shimchalari qo'shilganda y tovushi ortadi va shunday yoziladi: parvoyim, mavqeyi.

3. ***-da, -dan, -di*** qo'shimchalari jarangsiz undoshlarga qo'shilganda ***-ta, -tan, -ti*** shaklida aytilsa ham, asliday yoziladi: *ketti → ketdi.*

232-mashq. **So'zlarni *YOZING.* Qo'shimcha qo'shilganda o'zgaradigan va shunday yoziladigan so'zlarning tagiga chizing. "So'zlar bahsi" metodi tavsiya etiladi.**

Angla, sanoqsiz, yashovchan, biroz, susaymoq, yig'loqi, bug'ga, bo'yog'i, idroki, shahrimiz, singlisi, mening, undan, bunday, kaptarboz, bog'ga, ekkuncha, dimog'i, bobom, obro'ying, oltovlon, Zarkentni, ozodlik, ittifoqi, ravnaqimiz.

Masalan: ong+la=angla (o-a)

Son+a=sana+q-sanoq (o-a;a-o)

Yechim:

Qo‘shimcha qo‘shilganda o‘zgaradigan va shunday yoziladigan so‘zlar		Qo‘shimcha qo‘shilganda o‘zgarmaydigan so’zlar
Angla	mening	biroz, bug‘ga
sanoqsiz	undan	*idroki*
yashovchan	bunday	*kaptarboz*
susaymoq	ekkuncha	*bog’ga*
yig‘loqi	dimog‘i	*bobom*
bo‘yog‘i	obro‘ying	*Zarkentni*
shahrimiz	oltovlon	*ozodlik*
singlisi		*ittifoqi*
		ravnaqimiz

233-mashq. **Berilgan so‘zlarga qavs ichidagi qo‘shimchani qo‘shing. Asos va qo‘shimchada yuz bergan o‘zgarishga e’tibor bering.** ***YOZING***

Yechim:

Ko‘k (-ga)-ko’kka,
olti (- ovlon) – oltovlon,
o‘g‘il (-im) – o’g’lim,
so‘ra (-q) – so’roq,
mavqe (-im) – mavqeyim,
og‘iz (-ing) – og’zing,
avzo (-i) – avzoyi,
parvo (-i) – parvoyi,
qazi (-vchi) – qazuvchi

234-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“*Tarbiya*” darsligingizdan asosga qo‘shimcha qo‘shilganda tovush o‘zgarishi sodir bo‘ladigan so‘zlar ishtirok etgan 5 ta gap topib ko‘chiring. Ularning imlosi (to‘g‘ri yozilishi)ga e’tibor bering.**

63-dars. NAZORAT ISHI.

64-dars. MUSTAHKAMLASH

Darsning a) ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarning talaffuz va imlo yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad: o’quvchilarda o’zbek va jahon xalq maqollarini tahlil qilish orqali insonparvarlik g’oyalarini singdirish ;

d) rivojlantiruvchi maqsad: tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

“Kichik guruhlarda va juftlikda ishlash” metodi tavsiya etiladi.

1-topshiriq. Savollarga javob bering.*GAPIRISH* ko’nikmasini rivojlantirish uchun mo’ljallangan.

1. So‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va to‘g‘ri yozish qoidalarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limlari qanday ataladi?

2. Yonma-yon kelgan unlilar talaffuzida qanday o‘zgarishlar kuzatdingiz?

3. Yozilishi va talaffuzi farq qiladigan undoshlar ishtirok etgan so‘zlarga misollar ayting.

4. Qator kelgan undoshlarning yozilishidagi farqlar haqida gapiring, misollar yordamida tushuntiring.

5. Qaysi qo‘shimchalar so‘zga qo‘shilganda, so‘z tarkibidagi tovushni tushirish xususiyatiga ega? Misollar keltiring.

6. Qaysi qo‘shimchalar so‘z tarkibida tovush orttiradi? Javobingizni misollar bilan asoslang.

7. So‘z tarkibidagi tovushlarni boshqa tovushga almashtiradigan qo‘shimchalar haqida fikr bildiring.

8. Qaysi qo‘shimchalar uch xil aytiladi va yoziladi. Namunalar keltiring

2-topshiriq. **Imlo lug‘atiga tayanib va o‘rganganlaringiz asosida xato yozilgan so‘zlarni toping, to‘g‘rilab daftaringizga** *YOZING*. ***“Tahrir maktabi” metodi tavsiya etiladi. Bunda kelajakda ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi yoki jurnalist bo’lishni istagan o’quvchilar muharrir vazifasini bajaradilar. Ularning qo’lida “Imlo lug’ati” bo’ladi. Guruh a’zolari tomonidan bajarilgan topshiriqni kichik muharrirlar tahrir qiladilar***.

Shavqatsiz, na’muna, tadbiq, tadqiq, yarimi, qayiril, buruning, qo‘llamma, ketti, inshom, Ahsikenttan, mavzuying, kesdir, ravnag‘i, avzoyi, shuday, inshoot, me’zon, mammanlik, tambal, sumbul.

Yechim:

To’g’ri yozilgan so’zlar	Noto’g’ri yozilgan so’zlar	To’g’rilangan holati
tadqiq, avzoyi, inshoot, me’zon, tambal, sumbul.	*shavqatsiz, na’muna, tadbiq, yarimi, qayiril, buruning, qo‘llamma, ketti, inshom, Ahsikenttan, mavzuying, kesdir, ravnag‘i, shuday, mammanlik*	*shafqatsiz, namuna, tatbiq, yarmi, qayril, burning, qo‘llanma, ketdi, inshoyim, Ahsikentdan, mavzung, kestir, ravnaqi, shunday, manmanlik*

3-topshiriq*. O’QIB TUSHUNISH va YOZISH* ***ko’nikmasini rivojlantirish uchun mo’ljallangan.*** **Jahon xalqlari maqollarini diqqat bilan o‘qing so‘ng yozing. Qator undoshli so‘zlarning tagiga**

chizing.

Yechim:

1. Yakshanba har kuni kelavermaydi. (*Ingliz xalq maqoli*)

2. Uxlayotgan qisqichbaqani oqim olib ketadi. (*Meksika xalq maqoli*)

3. Bir daqiqa kechdan ko‘ra bir soat erta boshlangani ma’qul. (*Nemis xalq maqoli*)

4. Tog‘ qanchalik baland bo‘lmasin, ortga qaytma: odimlasang – zabt etasan; ish qanchalik ulkan bo‘lsa-da, chekinma: bajara boshladingmi – ado etasan. (*Mo‘g‘ul xalq maqoli*)

5. *Vaqting ketdi – naqding ketdi*. (*O‘zbek xalq maqoli*)

4-topshiriq. **Maqollar asosida tuzilgan savollarga javob bering. Topshiriq** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun mo’ljallangan. “Kichik debat” usulida o’tkazish tavsiya etiladi.**

1. Meksika xalq maqolini qanday tushundingiz? Sharhlab bering.

2. Mo‘g‘ul xalq maqoli sizni kelajakdagi harakatlaringizga ruhlantirdimi?

Uni o‘zingizga shior qilib olsangiz bo‘ladimi?

3. Ingliz va o‘zbek xalq maqollarini izohlashga harakat qiling.

Vaqtning g‘animatligi haqida yana qanday hikmatlar bilasiz?

5-topshiriq. ***Uyga vazifa.*** “*Vaqt*” she’ridan olingan ushbu parchani ko‘chiring.

3- va 4-misralarni sharhlab yozing.

Har lahza zamonlar umridek uzun,
Asrlar taqdiri lahzalarda hal.
Umrdan o‘tajak har lahza uchun
Qudratli qo‘l bilan qo‘yaylik haykal. *(G‘. G‘ulom)*

65-dars. QO‘SHIB YOZISH

Darsning a) ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirish; qo’shib yozish haqida bilim va ko’nikma hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad: o’quvchilarga estetik tarbiya berish; tabiat go’zalliklarida bahra olish hissini uyg’otish va tabiatni asrab-avaylashga undash ;

d) rivojlantiruvchi maqsad: tinglab tushunish, o‘qish; gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Darsni “Bliss” yoki “Ha,Yo’q” metodi orqali boshlash tavsiya etiladi. Masalan,

1) kulrang so’zi qo’shib yoziladimi?_____

2) un ikki so’zi qo’shib yoziladimi?_____
3) atirgul so’zi qo’shib yoziladimi?_____
4) ko’k rang so’zi qo’shib yoziladimi?_____
5) darsxona so’zi qo’shib yoziladimi?_____

Topshiriq. **Matnni *O‘QING*, ajratilgan so‘zlarning yozilishiga e’tibor bering. *O’QIB TUSHUNISH* ko’nikmasini rivojlantirish uchun mo’ljallangan.**

Yechim:

Yozda men Uchtog‘ bag‘ridagi Oltinsoy qishlog‘ida buvamlarnikida mehmonda bo‘ldim. U yerdagi shifobaxsh buloq, orombaxsh dam olish maskanlari, tog‘ hayvonlari va o‘simliklari jamlangan ajoyibxona menda katta taassurot qoldirdi. Tog‘rayhon, kiyiko‘t, gulxayri, uchbarg, omonqora, qushqo‘nmas kabi o‘simliklardan gerbariy tayyorladim.

Yurtimizning boy va takrorlanmas tabiati meni lol qoldirdi. Uni yanada yaxshiroq o‘rganishga ahd qildim. (“*Gulxan*” *jurnalidan*)

Munosabat bildiring.

1. Yurtimizdagi qanday orombaxsh maskanlarni bilasiz?
2. O‘lkamizda o‘sadigan o‘simliklar va ularning shifobaxshligi haqida so‘zlab bering.

235-mashq. **Matndagi ikki asosdan iborat qo‘shib yoziladigan so‘zlarni ajratib, daftaringizga *YOZING.***

Yechim:

Ikki asosdan iborat (ot so’z turkumi)	Ikki asosdan iborat (sifat so’z turkumi)
Uchtog’	*shifobaxsh*
Oltinsoy	*orombaxsh*
ajoyibxona	
tog’rayhon	
kKiyiko’t	
gulxayri	
uchbarg	
Omonqora	
qushqo’nmas	

236-mashq. **Tarkibida *xona, noma, xush, baxsh, rang* so‘zlari bo‘lgan qo‘shib yoziladigan so‘zlarga 4 tadan misol yozing: *oshxona…***

Yechim:

xona	*noma*	*xush*	*baxsh*	*rang*
oshxona	*ahdnoma*	*xushhavo*	*shifobaxsh*	*siyohrang*
darsxona	*ma'lumotnoma*	*xushfe'l*	*orombaxsh*	*sabzirang*
gulxona	*bayonnoma*	*xushbo'y*	*murodbaxsh*	*olovrang*
mehmonxona	*tavsiyanoma*	*xushvaqt*	*hayotbaxsh*	*havorang*

237-mashq. **Berilgan so‘zlarni asoslarga ajrating va *YOZING.***

Otboqar, xushmanzara, hurmattalab, qabulxona, gultojixo‘roz, otquloq, oybolta, suvilon, cho‘lyalpiz, Yangiyo‘l, Mirzacho‘l, fotoapparat.

Yechim: Ot+boqar, xush+manzara, hurmat+talab, qabul+xona, gul+toji+xo‘roz, ot+quloq, oy+bolta, suv+ilon, cho‘l+yalpiz, Yangi+yo‘l, Mirza+cho‘l, foto+apparat.

238-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Ikkinchi qismi turdosh ot yo*ki obod so‘*zi bo‘lgan qo‘shib yoziladigan so‘zlarga 5 tadan misol yozing.**

66-dars. AJRATIB YOZISH

Darsning *a)* ta'limiy maqsadi: *o'quvchilarga imlo me'yorlari haqida tushuncha berish; qo'shib yozish qoidalarini o'rgatish*;

b) tarbiyaviy maqsad*: badiiy adabiyotga qiziqishlarini oshirish orqali insonparvarlik tuyg'ularini singdirish ;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Dasrni Zarifa Saidnosirovaning **“Oybegim mening”** kitobi haqida gapirish tavsiya etiladi.

Topshiriq. Qo'yilgan muammo: **Matnni o‘qing. Berilgan parchada xato yozilgan so‘zlarga diqqat qiling. *O'QIB TUSHUNISH* ko'nikmasining rivojlantirish uchun mo'ljallangan. Matn o'quvchilar tomonidan o'qilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.**

Yechim:

Bizning uydan tor ko‘cha bo‘ylab yuz qadamcha yurilsa, tosh terilgan katta ko‘chaga – «Oqmachit» mahallasiga birzumda (bir zumda) chiqiladi. Buyerda(bu yerda) uchta do‘kon bor: biri qassoblik, ikkinchisi baqqollik. Musa baqqolning do‘koni ko‘zimga harvaqt (har vaqt) quruq ko‘rinadi. U hammavaqt(hamma vaqt) faqat sabzi, piyoz, un, kerosin sotadi. Ammo muloyim, shirinso‘z Sobir baqqolda esa pashshalardan qoraygan shoda-shoda teshik kulcha, «ot non»lardan, qurtlagan jiyda va turshaklardan tortib, toshko‘mirgacha – harnarsa(har narsa) topiladi. (*Oybek*)

Qoidani tushuntirishda “Xatosini top!” usulidan foydalanish tavsiya etiladi. Sinf doskasiga quyidagi gap yoziladi.

1. *Har, hech, bir, u, shu, o‘sha, hamma* kabi so‘zlar o‘zi birikib kelgan so‘zdan ajratib yoziladi: *har kim, hech narsa, bir zum, bu yerda, hamma vaqt* (*biroz, birpas, birvarakayiga* so‘zlari qo‘shib yoziladi)

2. *Yildan yilga, kundan kunga, ko‘pdan ko‘p* kabi birliklar ham ajratib yoziladi.

239-mashq. **Berilgan so‘zlar imlosiga diqqat qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing. *“Men boshlayman, sen davom ettir!”* grammatik o‘yinida o‘quvchilarning *GAPIRISH* ko‘nikmasi orqali nutqi, shuningdek, so’zlarning ajratib yozish haqidagi tushunchalari kengaytiriladi.**

O‘rta Osiyo , Janubiy Koreya, kun bo‘yi, soat sayin, hamma vaqt, tim qora, yildan yilga, yangidan yangi, nuqtayi nazar, tarjimayi hol.

Yechim: O‘rta Osiyo - O’rtaOsiyo xalqlari – O’rta Osiyo xalqlari qadimdan dehqonchilik va chorvadorlik bilan shug’ullanishgan.

239-mashq. **So‘zlarni qo‘shib yoki ajratib yozish qoidalari asosida ikki guruhga bo‘lib *YOZING. “Tahrir maktabi” usuli tavsiya etiladi. Bunda kelajakda ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi yoki jurnalist bo’lishni istagan o’quvchilar muharrir vazifasini bajaradilar. Ularning qo’llarida “Imlo lug’ati” bo’ladi. Guruh a’zolari tomonidan bajarilgan topshiriqni kichik muharrirlar tahrir qiladilar.***

Yechim:

Ajratib yoziladigan so’zlar	Qo’shib yoziladigan so’zlar

har narsa, shu yerda, hech qachon, bu yoqqa	*Oltiariq, qirqkokilli, ko‘zoynak, shaharlararo, shirinso‘z, balandparvoz, ishyoqmas, mehnat-sevar, otashqalb, Yakkasaroy, Qumqo‘rg‘on, kinoyulduz, teletanlov, mehmonxona, ommabop, umumjahon, Kumushkon.*

241-mashq. ***Uyga vazifa*****. Qo‘shib yoziladigan joy nomlariga va ajratib yoziladigan joy nomlariga 10 tadan misol yozing.**

67-dars. BOSH HARFLAR IMLOSI

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi*: o’quvchilarga imlo me’yorlari haqida tushuncha berish; bosh harflar imlosi yuzasidan bilim va ko’nikmalarini oshirish*;

b) tarbiyaviy maqsad*: o’zbek adabiyoti va ijodkorlar hayotiga oid matnlar orqali badiiy adabiyotga qiziqishlarini oshirish; o’zbek va jahon adabiyotiga hurmat ruhida tarbiyalash ;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Darsni Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “Adiblar xiyoboni”ning ochilish marosimda so’zlagan nutqidan quyidagi parcha bilan boshlash tavsiya etiladi.

“Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko’rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo’l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o’rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”

Komiljon: Donoxon, siz poytaxtimizdagi Adiblar xiyoboni haqida eshitganmisiz?

Donoxon: Albatta, eshitganman. Xatto ota-onam bilan birga borganman.Siz-chi?

Komiljon: Televizor orqali ko’rganman.

Donoxon: Alisher Navoiy bobomizning muhtasham haykallari atrofida 20dan ziyod atoqli shoir va adiblarning haykallari qad rostlagan.

Komiljon: Juda qiziqtirib qo’ydingiz. Men ham, albatta, ota-onam bilan birga borishni niyat qildim.

Topshiriq. **Matnni *O‘QING.* Ajratilgan so‘zlarga e’tibor bering. Matn o’qish tushunish ko’nikmasini rivojlantirish uchun mo’ljallangan. O’qituvchi tomonidan yoki o’quvchilar tomonidan o’qib eshittirilib, “Qayta hikoya” metodi tavsiya etiladi.**

Adiblar xiyobonida

Keyingi yillarda **Alisher Navoiy** nomidagi **O‘zbekiston Milliy bog‘i** hududida keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. **Bu yerda “Adiblar xiyoboni**” tashkil etildi.

Xiyobonda Bobur, Ogahiy, Berdaq, Muqimiy, Furqat, Behbudiy, Avloniy, Cho‘lpon, Qodiriy, To‘lepbergen Qayipbergenov, Ibroyim Yusupov, Aleksandr Faynberg singari atoqli shoir va yozuvchilar xotirasiga bag‘ishlangan yangi yodgorlik majmualari yaratildi.

“Adiblar xiyoboni”ga kelgan kishi tabiat go‘zalliklaridan bahra olib qaytishi shubhasiz. **Bu** mo‘jaz bog‘ga tashrif buyurgan har bir inson adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo‘shgan siymolarning haykallari poyiga gullar qo‘yadi. (*“Ma’rifat gazetasi”dan*)

Yechim:

Bosh harf bilan yozilgan so’zlar

Bosh harf bilan yozilgan so’zlar	*Izohi*
“Alisher Navoiy” bog’i	*muassasaga atab qo’yilgan nom*
Bobur, Ogahiy, Berdaq, Muqimiy, Furqat, Behbudiy, Avloniy, Cho‘lpon, Qodiriy, To‘lepbergen Qayipbergenov, Ibroyim Yusupov, Aleksandr Faynberg	Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusi
O‘zbekiston Milliy bog‘i	*Atoqli joy nomlari*
Bu yerda, Bu	*Gapning boshlanishi*
“Adiblar xiyoboni”	*Atab qo’yilgan joy nomi*

Munosabat bildiring.

1. Yuqorida nomlari sanalgan adiblarning ijodi bilan tanishmisiz?
2. Dunyo tanigan qaysi o‘zbek ijodkorlarini bilasiz?

242-mashq. **Quyidagi so‘zlarni ko‘chirib *YOZING.* Bosh harflarning ishlatilish sabablarini tushuntiring. “Pinboard” metodi tavsiya etiladi. O‘qituvchi stoli ustiga so‘zlar yozilgan qog‘ozchalar teskari holatda qo‘yilgan bo‘ladi. Doskaga jadval osiladi. Har bir guruhdan bittadan o‘quvchi chiqib shu qog‘ozchalardan birini tanlaydi. Tanlagan so‘zi mos kelsa jadvaldagi yozuvga mos kelgan katakka yopishtirib qo‘yadi va shu so‘zni o‘qib ma’nosini izohlab beradi.**

Yechim:

Kishilarga atab qo'yilgan ism, familiya, otasining ismi, taxallus	Ominaxon, Sa'diy Sheroziy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir
Joy nomlari	Xiva, Mirzacho'l, Oqtoshsoy
Tog' nomlari	Bobotog', Hisor
Qit'a, materik, davlat nomlari	O'rta Osiyo, O'zbekiston Respublikasi, Shimoliy Amerika, Janubiy Koreya
Planeta nomlari	Merkuriy, Saturn
Bayramlar	Navro'z bayrami, Mustaqillik kuni, Ustoz va murabbiylar kuni
Viloyatlar	Sirdaryo, Jizzax

243-mashq. **Berilgan so'zlarning imlosiga diqqat qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.**

Yechim: "Dialog" usulidan foydalanib, o'quvchilarning og'zaki nutqi bilan ishlash, so'z tanlash qobiliyatini rivojlantirish tavsiya etiladi.

"Gulxan" jurnali, "Tong yulduzi" gazetasi, "Bolajon" tele kanali, "O'zbekiston Qahramoni" unvoni, "Kamalak" tashkiloti.

244-mashq. ***Uyga vazifa.*** ***"Ulug' ajdodlarga munosib avlod bo'laylik"*** **mavzusida 10–12 gapdan iborat matn tuzing. Matnda bosh harfl ar bilan yoziladigan so'zlardan foydalaning.**

68-dars. CHIZIQCHA BILAN YOZISH

Darsning *a)* ta'limiy maqsadi: *o'quvchilarga imlo me'yorlari haqida tushuncha berish; chiziqcha bilan yozish qoidasi yuzasidan bilim va ko'nikmalarini oshirish*;

b) tarbiyaviy maqsad*: imlo qoidalarini o'rgatish orqali ona tilimizga yuksak hurmat ruhida tarbiyalash ;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish;*

Darsni quvnoq topishmoq bilan boshlash tavsiya etiladi.

Ota-ona, choy-nonni
Bog'lab turgan "qo'lcha"man.
Dema, tire polvonni
Katta-ku, men-"yo'lcha"man.
Ko'p oy'lama, hoy qizcha,
Axir, bu-men_____(chiziqcha)

Topshiriq. **Matnni o'qing. Chiziqcha bilan yozilgan so'zlarga diqqat qiling**

Ko‘l-u tog‘lik, bog‘-u rog‘lik o‘zbek elim.
Momo yurti, bobo yurti Chambilbelim.
Zar-u gavhar – yaltiroq tosh, nedir olmos,
Sen biz uchun ham non, ham osh, mangu meros. *(Mirtemir)*

245-mashq. **Eslang! Quyi sinflarda qanday so‘zlarni chiziqcha bilan yozgan edingiz? Qaysi qo‘shimchalar so‘zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi?**

“Xotira mashqi” usuli tavsiya etiladi.

Mavzuga oid qoidalar **“Teskari usul”** o’yini orqali tushuntirilsa, maqsadga muvofiq bo’lar edi. Masalan: avval izoh, so’ng qoida.

1. *ota-ona, sekin-sekin so’zlari nega chiziqcha bilan yozilgan?* Juft va takror so‘zlar orasida chiziqcha ishlatiladi.
2. *oyu quyosh, ertayu kech so’zlarida chiziqcha qaysi o’ringa qo’yiladi?* Juft so‘zlar orasida *-u*, *-yu* qo‘shimchasi ishlatilsa, ular birinchi so‘zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.
3. *uyma uy, dam badam kabi so’zlarga duch kelganmisiz? Chiziqcha qayerga qo’yiladi?* So‘zning *-ma*, *ba-* yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi.

sen-chi,keldi-da so’zlarini izolay olasizmi? -chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e ,-ey kabi so‘zga qo‘shimcha ma’no yuklovchi (yuklamalar) qo‘shimchalar chiziqcha bilan yoziladi. Ammo shunday mazmundagi *-mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina, -qina), -ki* qo‘shimchalari o‘zidan oldin kelgan so‘zga qo‘shib yoziladi: *ko‘rdingmi, ertagayoq.*

4. *Onam-la, sen-chun so’zlarini izohlashga harakat qilib ko’ring-chi! Bilan* va *uchun* so‘zlarining qisqargan *-la* va *-chun* shakli chiziqcha bilan yoziladi

246-mashq. **Mashqni ko‘chiring. Xato yozilgan so‘zlarni to‘g‘rilab *YOZING.* Mashqni bajarishda “Imlo lug’ati” bilan ishlash tavsiya etiladi. “Estafeta” usulidan foydalansa ham bo’ladi.**

Yechim:

To’g’ri yozilgan so’zlar:	**Noto’g’ri yozilgan so’zlar (to’g’rilangan variant bilan)**

Bilinar-bilinmas, Yangiyo‘l, erta-indin, don-dun, ertaga-ya?,	**Noto’g’ri yozilgan so’zlar (to’g’rilangan variant bilan)** andijon -Andijon Uch tepa- Uchtepa mirrix-Mirrix mubina - Mubina asta sekin – asta-sekin ikir chikir – ikir-chikir ko‘pdan-ko‘p – ko’pdan ko’p ko‘chama ko‘cha – ko’chama-ko’cha senchi? – sen-chi bir-gina - birgina

247-mashq. Uyga vazifa. **Berilgan so‘zlarning imlosiga diqqat qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.**

Oy-u kun, kecha-kunduz, rang-barang, ko‘raylik-chi, 5-soat, 1-may, yaxshi-da, shaharma-shahar, dum-dumaloq.

69-dars. KO‘CHIRISH QOIDALARI

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi*: o’quvchilarga imlo me’yorlari haqida tushuncha berish; ko’chirish qoidasi yuzasidan bilim va ko’nikmalarini oshirish*;

b) tarbiyaviy maqsad*: inson hayotida ota va ustozning o’rni beqiyosligini matn orqali singdirish; ularga hurmat hurmat ruhida tarbiyalash ;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Darsni bo’g’in ko’chirishning ahamiyatini aytishdan boshlash tavsiya etiladi.

Bo’g’inning amaliy ahamiyati:

1. Satrga sig’may qolgan so’zlarni keying satrga olib tushish mumkin.

2. Barmoq vazni bo’g’inlar miqdoriga asoslanadi.

3. Maktabgacha ta’lim va boshlang’ich ta’limda o’qish va yozishni oson o’rganish uchun kerak bo’ladi.

Topshiriq. Matnni o‘qing, hikmatga diqqat qiling. **“Intervyu” metodi**dan foydalanish tavsiya etiladi.

Bir hakimdan:

– Nima uchun ustozingni otangdan ham yaxshi ko‘rasan, – deb so‘rashdi.

– Ustoz abadiy tirikligimning sababchisi, otam esa o‘tkinchi hayotimning sababchisidir! – deb javob qildi u.

Munosabat bildiring.

1. Nima deb o‘ylaysiz: ustozingiz ulug‘lashga arziydimi? Nima uchun?

2. Ustozlar haqida qanday maqollar bilasiz?

248-mashq. Matnda ajratilgan so‘zlarni izohlang va daftaringizga bo‘g‘inga ajratib *YOZING*: *ha-kim-dan* – donishmand, faylasufdan.

Yechim:

Ha-kim-dan, o-tang-dan (otang-dan), us-toz, a-ba-diy(aba-diy), ti-rik-li-gim-ning, o’t-kin-chi, sa-bab-chi-si-dir.

249-mashq. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari haqida boshlang‘ich sinflarda nimalarni o‘rgandingiz? Yodingizda borini aytib bering va bu

qoidalarning qanday ahamiyati borligi haqida fikrlashing. “Zakovatli zukko” metodi tavsiya etiladi. Metod o‘z xohishlariga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay imkoniyatni yaratadi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi.

250-mashq. **So‘zlarni bo‘g‘inlarga ajrating, daftaringizga ko‘chirib yozing. Qaysi so‘zlarda bo‘g‘in ko‘chirib bo‘lmaydi?**

Yechim: m*a’-lu-mot, max-sus, ta’-kid-la-moq, tat-biq, ko‘-ngil-chan, si-ngil, ta-as-suf, ta-aj-jub-lan-moq, sa-o-dat, taxt, ke-li-ngiz, in-gliz, gramm, fo-no-gram-ma, tram-vay, ki-tob-xon, Navro‘z – 2021, 5-“A” sinf, jur-na-list.*

251-mashq. Ko‘chirish qoidalari buzilgan so‘zlarni belgilang va ularni to‘g‘rilab daftaringizga ko‘chiring.

Yechim:

Den-giz – de-ngiz
ke-tin-glar – ke-ting-lar
o-ta-la-ri – ota-la-ri
Nam-DU – NamDU
ma-‘lu-mot – ma’-lu-mot
B-MT – BMT
ya-ngi.
Er-on – Eron
tong-gi
sa-noq-li
a-ka-xon – aka-xon
yan-ga – ya-nga
mat-baa

252-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“*Ustozim ulug*‘” mavzusida ko‘chirish qoidalariga amal qilib, 10–12 ta gapdan iborat matn tuzing.**

70-dars. O‘ZBEK TILINING LUG‘AT BOYLIGI

Darsning *a)* o‘quv maqsadi: *o’quvchilarga o’zbek tilining lug’at boyligi va undan unumli foydalanish haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: ona tilimizga hurmat ruhida tarbiyalash; uni asrab-avaylash, sofligini saqlash tuyg’ularini singdirish;*

v) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

2006–2008-yillarda “O’zbek tilining izohli” lug’ati chop etilgan edi. 2020 –yil esa 80000 mingdan ortiq so’zni o’z ichiga olgan holda qayta nashr etildi. Foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida izohli-lugat.uz veb-saytiga elektron shaklda joylandi.

Komiljon: – Bilasizlarmi, o‘zbek tili dunyodagi eng boy va go‘zal tillardan biridir. Tilimiz dagi so‘zlar miqdori, ta’sirchanligi,

ifodaviyligiga ko‘ra hayotimizda alohida o‘rin tutadi.

Donoxon: – Bu so‘zlar bizning xazinamiz, katta boyligimizdir. Kelinglar, quyidagi rasmga qarab, “*Tilimizning tillo sandig‘i* ” degan mavzuda suhbatlashaylik. Boshladik bo‘lmasa!

253-mashq. Qo’yilgan muammo: **Qavs ichidagi so‘zlardan mosini tanlab, maqollarni to‘g‘rilab *YOZING*. O‘zbek tilining so‘z boyligi bo‘yicha suhbatlashing. *GAPIRISH* va *YOZISH* ko‘nikmasini shakllantirishga qaratiladi.”Kim zukko” metodi orqali mashqni bajarish mumkin.**

Yechim: 1. *(Qo‘li, mushti, bilagi)* zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r – mingni. 2. Ilm – *(miya, bosh, aql)* chirog‘i. 3. Uchishga qanot kerak, o‘qishga *(sabot, toqat, qanoat)* kerak. 4. *(Chiroy, go‘zallik, husn)* – ilm-u ma’rifatda.

254-mashq. Qo’yilgan muammo: *Nur, yog‘du, shu’la; qizil, qirmizi, qip-qizil, lolarang; talabchan, qattiqqo‘l; yayov, piyoda; bajarmoq, ado etmoq* so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing. *GAPIRISH* ko‘nikmasini shakllantirishga qaratiladi Bir narsa yoki hodisani bir nechta so‘z bilan aytish mumkinmi? Bu nimadan dalolat beradi?

Tildagi barcha so‘zlar yig‘indisiga shu tilning *lug‘at tarkibi* yoki *so‘z boyligi* deyiladi.

Tilshunoslikning so‘z va uning ma’nolarini o‘rganadigan bo‘limiga *leksikologiya* deyiladi. Leksikologiya yunoncha *lexikos – so‘z* va *logos – ta’limot* so‘zlaridan olingan.

255-mashq. Qo’yilgan muammo: **Matnnio‘qing. Fitrat sanab o‘tgan uch xil yo‘l bilan yasalgan so‘zlarga misollar keltiring va ular ishtirokida gaplar tuzing. O‘qituvchi yo‘nalishini *TINGLAB TUSHUNGAN* o‘quvchilar matnni o‘qiydilar.**

256-mashq. Uyga vazifa. **Omonilla Madayevning fikrlariga asoslanib, *“Til – millat boyligi”* mavzusida matn tuzing. Til millatning ma’naviy boyligi, g‘ururidir. Ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz kerak. So‘z ishlatishda o‘ta sinchkov, talabchan bo‘lishimiz darkor.**

71-dars. SO‘ZLARNING SHAKL VA MA’NO MUNOSABATIGA KO‘RA TURLARI

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarga so’zlarning shakl va*

ma'no munosabatiga ko'ra turlari haqidagi tushunchalarini boyitish; o'zbek tilining lug'at boyligi va undan unumli foydalanish haqida tushuncha berish;

***b) tarbiyaviy maqsad**: ona tilimizga hurmat ruhida tarbiyalash; uni asrab-avaylash, sofligini saqlash tuyg'ularini singdirish;*

***d) rivojlantiruvchi maqsad:** mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Komiljon: – Yer kurrasini ko'ryapsizlarmi? U bizning ona sayyoramiz, ona zamindir. Yer – bizning yashash makonimiz. Uni yana qanday nomlar bilan ataymiz?

Topshiriq. Qo'yilgan muammo: **Matnni o'qing. Ajratilgan so'zlar o'rniga ma'nodoshlarini qo'ying.** *O'QIB TUSHUNISH* ko'nikmasini rivojlantirish uchun mo'ljallangan.

O'zbekiston o'zining yerosti va yerusti **boylik**lariga ko'ra **dunyo**ning eng ko'zga ko'ringan **davlat**laridan biridir. **Yurtimizda** 2700 ga yaqin istiqbolli konlar mavjud. Respublikamizda **oltin**, mis, neft, tabiiy gaz, ko'mir, kaliy tuzi kabi **noyob** qazilmalar mavjud. Mamlakatimiz oltin zaxiralari bo'yicha dunyoda to'rtinchi, uran zaxiralari bo'yicha yettinchi-sakkizinchi, mis zaxiralari bo'yicha o'ninchi **o'rin**da turadi. (*"Internet" materialidan*)

Yechim:

Matndagi so'zlar	Ma'nodoshlari
boylik	xazina, ganjina (mol-dunyo, davlat)
dunyo	olam, jahon, koinot
davlat	yurt, mamalakat
oltin	tillo, zar
noyob	tanqis, kamyob
o'rin	joy, mavqe

Qoidani tushuntirishda shakl va ma'no so'zlariga alohida utg'u berilishi kerak.

Tushunchalar	misol	Shakl(yozilishi)	Ma'no
Sinonim	ahil-inoq		+
Omonim	sir-sir	+	
Antonim	yaxshi-yomon		
paronim	yondosh-yondash	- (biroz farqli)	

257-mashq. Qo'yilgan muammo: *YOZING.* **Ajratilgan so'zlarga izoh bering.**

1. Salomatlik – **tuman** boylik. Biz **tuman** markaziga – sport

musobaqasiga bordik. 2. Rang **ko‘r**, hol so‘r. **Ko‘r** hassasini bir marta yo‘qotadi. 3. Bir yil **tut** ekkan kishi yuz yil gavhar teradi. Esing borida biron kasbning etagini **tut**. 4. **Yer** – xazina, suv – gavhar. Mehnat qilgan katta **yer**. 5. Qovun ekkan **qovoq** olmas. Uning **qovog‘**idan qor yog‘ilar edi.

Yechim:

Tuman- o’n ming; ma’muriy bo’linish (Quva tumani).
Ko’r- ko’rmoq fe’li; ko’zi ojiz
Tut – meva; tutmoq fe’li.
Yer – yer-joy, tuproq ma’nosida; ye+r , ya’ni yemoq.
Qovoq – poliz ekini; ko’z kosasini qoplovchi, ochilib-yopilib turadigan teri.

258-mashq. ***Qo’yilgan muammo: A*****vval ma’nosi bir-biriga yaqin so‘zlarni, keyin qarama- qarshi ma’noli so‘zlarni ko‘chiring.**

Yechim:

Ma’nosi bir-biriga yaqin so’zlar	***Qarama-qarshi ma’noli so’zlar***
ko’kat-maysa	yutuq-kamchilik
yugurmoq- chopmoq	uzun- qisqa
bemor- betob- kasal	topmoq-yo‘qotmoq
paqqos tushirmoq- yemoq	

259-mashq. Bir tovush bilan farq qiladigan so‘zlardan 10 ta *YOZING.* **“Quvnoq alifbo”** o’yini tavsiya etiladi. Bunda bir tovush bilan farq qiluvchi so’zlar qatorini hosil qilinadi. Qatordagi so’zlar talaffuz qilib ko’riladi va so’zning talaffuzdoshi tanlanadi. **Ma’nosini izohlang: *top – topmoq, tob – sog‘liq.***

Yechim:

bob- bot, bop, bosh, bol, boq, bor; bob-kitobning bobi, bop- mos.
yot- yoz, yol, yon, yod, yor, yov; yot – begona, yod – es.
xol – tol, shol, qol, hol, mol, fol; xol-yuzdagi xol, hol – ahvol.

260-mashq. ***Uyga vazifa.*** **O‘z yurtingiz haqida 10–12 gapdan iborat matn tuzib, sarlavha tanlang. Unda ma’nosi bir-biriga yaqin, zid ma’noli so‘zlardan, bir tovush bilan farq qiladigan so‘zlardan foydalaning.**

72-dars. SINONIMLAR. SINONIMIK QATORDA BOSH SO‘Z

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarning sinonim so’zlar, sinonimik qator va undagi bosh so’z haqida tushunchalarini boyitish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: ona tilimizning jozibasi, boyligi va rang-*

barangligini mavjud matnlar orqali singdirish, shuningdek, tilimizning rivojida Alisher Navoiy dahosining or'ni haqidagi tushunchalarini kengaytirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Darsni ***"So'z bilimdoni"*** *o'yini orqali boshlash tavsiya etiladi. O'qituvchi tomonidan ma'lum bir so'z aytiladi. O'quvchilar esa shu so'zning ma'nodoshlarini topadilar. Eng ko'p so'z topgan o'quvchi rag'batlantiriladi. Masalan,*

Quyosh *- oftob, kun (o'qituvchi tomonidan quyidagilar qo'shilishi mumkin: shams, xurshid)*

Do'st *– oshna, birodar, o'rtoq, og'ayni, yor…*

Chiroyli *– go'zal, suluv, barno, dilbar….*

261-mashq. Qo'yilgan muammo: **Xalqimizning hikmatli so'zlarini** *YOZING.* **Ma'nodosh so'zlarni aniqlang va ular ichidan eng ko'p qo'llanadigan so'zni toping. Mashq orqali** *YOZISH* **ko'nikmasini shakllanadi.**

1. Betamizda bet bo'lmas, Bezorida – uyat. 2. Qizil yuzing qizartirma, Uzun tiling qisqartir. 3. Afting qiyshiq bo'lsa, oynadan o'pkalama. 4. Kulgi chehra yoritar. 5. Odamning yuzi quyoshni uyaltirar. 6. Turq boshqa-yu, ko'z boshqa. 7. Chiroy husn-u jamolda emas, fazl-u kamolda.

Yechim: yuz-aft- aft-chehra-turq-jamol sinonim so'zlar qatorida **yuz** so'zi bosh so'z hisoblanadi.

Topshiriq. Qo'yilgan muammo: **Lidiya Batning "*Hayot bo'stoni*" asaridan olingan parchani O'QING. Undagi g'oya bo'yicha fi kr bildiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nodoshlarini toping. Mashq orqali** *O'QISH* **ko'nikmasini shakllanadi.**

Yechim: "+" Texnologiyasini qo'llash orqali bajarish mumkin

T/R		odam	dil	bezak	es,yod	kalla	shodlik	hali	go'dak
1	qalb		+						
2	xotir(a)				+				
3	quvonch						+		
4	boya							+	
5	bola								+
6	bosh					+			
7	zeb-ziynat			+					
8	inson	+							

Bir umumiy ma’noni ifodalovchi ikki va undan ortiq so‘zlarga *sinonim* (*ma’nodosh) so‘zlar* deyiladi. Bu kabi so‘zlarning bir qatorga jamlanishiga *sinonim (ma’nodosh) so‘zlar qatori* deb ataladi. Masalan: *g‘alaba, zafar, yutuq*. Qatordagi ma’nosi hammaga tushunarli bo‘lgan, nutqda faol qo‘llanadigan, adabiy shakl sanalgan so‘z *bosh so‘z* deb yuritiladi.

Qo’shimcha nazariy ma’lumot: bosh so’z betaraf so’z, neytral so’z, dominant so’z ham deyiladi.

262-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Qavs ichidagi so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni yozing. Mashq orqali** *YOZISH* **ko’nikmasini shakllanadi.**

Yechim:

1. Dehqonning *(boyligi, ganjinasi, xazinasi)* – yer, kaliti – ter. 2. Yer ichida *(tilla, oltin, zar)* bor, qaziy bersang, topasan. 3. Yerga qarasang (bo‘ston, bog‘, guliston) bo‘lar, (Ko‘ngling, diling, qalbing) ochilib, chog‘ bo‘lar. 4. Suv keldi – *(ziyo, nur, yog‘du)* keldi. 5. Sen yerni yer qilsang, Yer seni *(arslon, sher, yo‘lbars)* qiladi.

263-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Rasm asosida *“Millatning quyoshi – Navoiy bobom”* mavzusida matn tuzing. Gaplarda ma’nodosh so‘zlarni qo‘llang.**

73-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* o‘quv maqsadi*: o’quvchilarning so’zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko’ra turlari, sinonim so’zlar yuzasidan olgan bilimlarini matn va lug’at bilan ishlash orqali mustahkamlash;;*

b) tarbiyaviy maqsad*: xalqlar do’stligiga hurmat ruhida tarbiyalash; so’zning qudrati haqidagi tasavvurlarini boyitish ;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Donoxon: Komiljon, bumerang haqida eshitganmisiz?

Komiljon: Ha, eshitganman, hattoki ko’rganman.

Topshiriq. ***Qo’yilgan muammo: Bumerang*** **haqida bilasizmi? Matnni diqqat bilan** *TINGLANG*. Matn o’qituvchi tomonidan yoki audio, video shaklda o‘qib eshittiradi.

Avstraliyada **ajoyib yurt** vakillari **yashagan.** Materikka **kelgan** yevropaliklar **bu yer**ning o‘zgacha xalqini yovvoyi odamlar deb hisoblashgan. Chunki ularning **davlati** ham, uyi ham yo‘q. Ular jamoa tarzida yashab, **oziq-ovqa**tni ov orqali topishadi. Aborigenlar hayoti

va turmush tarzi bilan yaqindan tanishuv ularning yovvoyi emasligini ko‘rsatadi. Aynan aborigenlar bumerang nomli o‘roqsimon **aqlli** qurol o‘ylab topishgan. Buni qarangki, otilgan qurol **mo‘ljal**ga olingan **jonzot**ga tegmasa, yana aylanib ovchiga qaytib kelardi.

Lug‘at: **aborigenlar** – tub joyliklar; **materik** – qit’a

264-mashq. Qo’yilgan muammo: **Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning sinonimini topib, jadvalga joylashtiring. “*Bilag’on o’quvchilar” o’yini*** *orqali sinf doskasida bajariladi.*

Yechim:

	Ajratilgan so’z	Sinonimi
1	**ajoyib**	g’aroyib, ajib
2	**yurt**	yurt, mamlakat, respublika…
3	**yashagan**	istiqomat qilgan, kun kechirgan…
4	**kelgan**	tashrif buyurgan, qadam ranjida qilgan
5	**bu yer**	shu yer, o’sha joy
6	**oziq-ovqat**	taom, yemish, xo’rak
7	**aqlli**	dono, bilimdon
8	**mo’ljal**	chama, taxmin
9	**jonzot**	jonivor, tirik jon

265-mashq. Qo’yilgan muammo: **Matnni o‘qishda davom eting. Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi sinonimlardan mosini qo‘yib, gaplarni** *YOZING***.**

Yechim:

Avstraliyalik “yovvoyilar”… (mohir, mahoratli, usta) rassomgina bo‘lmay, anatomiya – tana tuzilishi borasida ham yetarlicha bilimga ega edilar. Buning isboti sifatida aborigenlar tomonidan qoyalarda … (chizilgan, tasvirlangan, aks ettirilgan) rasmlarni keltirish mumkin.

Ularning ba’zilarida hayvon …(tana, badan, qomat)lari, suyaklari va organizmning ichki tuzilishi aks etgan. Bu rasmlarni chizgan rassomning …(ko‘z, diyda, qarog‘)lari xuddi rentgen apparatining nurlari kabi o‘tkir bo‘lgan. Bu rasmlar rentgen yo‘nalishidagi rasmlar degan… (nom, ot, ism) olgan. (“*Jajji akademik*” dan)

Topshiriqni bajaring qismi orqali o’quvchining *TINGLAB TUSHUNISH va GAPIRISH* ko’nikmasini rivojlantiradi.

1. Qoyalardagi rasmlar haqida bilganlaringizni GAPIRIB BERING.

2. Aborigenlar haqida bilganlaringizni umumlashtiring. Fikringizni ifodalayot -ganingizda sinonimlardan foydalaning.

3. Sinonim (ma’nodosh) so‘zlarning nutqimizdagi ahamiyati haqida xulosalaringizni bayon eting.

266-mashq. Uyga vazifa. **Tarix darsida olgan ma’lumotingiz asosida “*Qadimgi odamlar kashfi yoti*” mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn yarating. Matningizda sinonim so‘zlardan foydalaning.**

74-dars. OMONIMLAR. NUTQDA OMONIMLARDAN FOYDALANISH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarga omonimlar va ularning nutqimizdagi o’rni, tilning cheksiz imkoniyati haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’zbek tili va adabiyotning uzviy aloqasini ko’rsatish orqali har ikki fanga bo’lgan hurmatlarini oshirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Topshiriq. Qo’yilgan muammo: **Rasmdagi bolalar o‘rnida bo‘lishni xohlaysizmi? Og‘zaki matn tuzib, o‘rtoqlaringiz bilan fi krlashing. Koinotni qanday tasavvur qilasiz? U haqda gapirib bering. Tuzgan gaplaringizda *yosh, dam, soz, uch* so‘zlaridan foyda laning. Bu so‘zlar yana qanday ma’no bildirishini toping.** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

Yechim:

	yosh	**dam**	**soz**	**uch**
I	ko’z yoshi	nafas	yaxshi, tuzuk	uch qismi; ignaning uchi
II	yashagan umr	lahza	tor, musiqa asbobi	son
III		temirchilik asbobi	qamish, qamishzor	paxta o’rab, yog’langan cho’p
IV		chet, qirg’oq		qanot qoqmoq
V		pichoqning dami		

Aytilishi va yozilishi bir xil bo‘lib, turli atash ma’nolarini bildirgan so‘zlar *omonim so‘zlar* deyiladi. Ular *shakldosh so‘zlar* deb ham yuritiladi. Masalan: *un* (*tovush*), *un* (*mahsulot*), *un* (*fe’l*).

Qo’shimcha nazariy ma’lumot. “O’zbek tilining izohli lug’atida omonimlarga alohida so’z sifatida qaraladi va ular rim raqamlari

bilan berilgan. Ko'p ma'noli so'zlar esa bir so'zning turli ma'nolari sifatida berilib, arab raqamlari bilan belgilangan.

267-mashq. Qo'yilgan muammo: **Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. So'zlar bildirayotgan ma'nolarga e'tibor bering.** *GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

Yechim: *1. Karam – saxovat. 2. Karam – poliz ekini.*

Omonim so'zlar	I	II	III
adash	ismdosh	bir poyi adashgan	yo'lini yo'qotmoq
bo'y	uzunasi	hidi	
yeng	kiyim qismi	yengmoq	
yot	begona	Yotmoq	
och	qorni och	och rang	derazani ochmoq
mushak	muskul	pirotexnik vosita	nushak sabzi
palla	yoz pallasi	tarozi pallasi	
soz	yaxshi, tuzuk	tor, musiqa asbobi	qamish, qamishzor
son	raqam	oyoq qismi	
taxt	hashamatli o'rindiq	tayyor, muhayyo	
ter	peshona teri	termoq	
un	bug'doy uni	tovush, ovoz	unmoq
chakka	chakka suyagi	tomchi	taom
qil	hayvonlar dumining bir tolasi	bajarmoq; non qilmoq	
qovoq	poliz ekini	ko'z va qosh orasi	qovoqxona; mayxona
tuz	osh tuzi	suvsiz yer; qo'riq	tuzmoq
shim	ustki kiyim	qand shimmoq	

Omonim so'z	*Ko'p manoli so'z*

Omonimlarda turlicha ma’nolar nazarda tutiladi: *burun* (*yuz qismi*) – *burun (avval)*.  	*Ko‘p ma’noli so‘zlar* bir so‘zni *o‘z* va *ko‘chma ma’no*da qo‘llashdan hosil bo‘ladi: *burun* (*yuz qismi*) – *burun* (*choynakning burni*). Inson og’zi va tandir og’zi rasmi kerak

268-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **She’rni o‘qing, undagi g‘oya to‘g‘risida suhbat- lashing. Shakldosh (omonim) so‘zlar bildirgan ma’nolarni izohlang.** *GAPIRISH va TINGLAB TUSHUNISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi. “Audio matn” metodi tavsiya etiladi.**

Yechim:

Toshni kesa olmas pichoqning **dami**, (o’tkir qismi)
Pok tanga o‘tmaydi saraton **dami**, (issiq harorati)
Ilm va hunarga bag‘ishla o‘zni,
G‘animat yoshlikning har o‘tgan **dami**. (lahzasi) (*A. Shukurov*)

269-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Ikkala rasmni bog‘lab turgan so‘zni toping. Ular o‘rtasida qanday aloqadorlik bor? So‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

Yechim:

I. Sumalak – bahor faslida bug’doy undirilib tayyorlanadigan servitamin, xushxo’r taom

II. Sumalak – qorning eriboqib, qayta muzlash natijasida hosil bo’lgan naysimon, cho’zinchoq muz

270-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Berilgan gaplarni yozing. Shakldosh so‘zlarni aniqlab, ularga izoh bering.** *YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi. “So‘zlar bahsi” metodi**

tavsiya etiladi.

Yechim: 1. Endigina bargak yozgan tolzordan mayin shamol esdi. Otaxon patnisga bir hovuch bargak, bir siqim mayiz, 5–6 ta yong‘oq qo‘ydi. 2. O‘ng qo‘li bilan asta peshanasidagi terni artdi. Abdurahim pishgan qirmizi olmalarni savatga terdi. 3.Koinot bizga o‘z sirlarini ochmoqda. Boshqa sayyoradan kelgan sirli mehmonlarning kosmik kemasi kumushsimon sir bilan qoplangan edi. 4. Ahmad o‘zga sayyoralik – yot odamlarga termilib qoldi. Ominaxon darslarini tayyorlab bo‘lgach, uyquga yotdi.

271-mashq. ***Uyga vazifa. 3, 40, 100*** **sonlarining berilgan rasmlarga qanday aloqasi bor? Ushbu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.**

75-dars. ANTONIMLAR

Darsning ***a)*** **ta’limiy maqsadi:** *o’quvchilarga antonimlar va tilning cheksiz imkoniyati haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: matnni tahlil qilish orqali o’quvchilarda insonparvarlik, mer-muruvvat sifatlarini shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Assalomu alaykum, tengdoshlar. Ichimizda “Qimmat va Zumrad” ertagini o’qimagan bola bo’lmasa kerak. Kelinglar, Zumradoy va Qimmatlarga xos fazilat va illatlarni sanaymiz.

Zumradoy	*Qimmat*
odobli	*Odobsiz*
mehnatkash	*dangasa*

Topshiriq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Matnni O‘QING, ajratilgan so‘zlarga diqqat qiling. Ra’noxonning ishini yangilik deb bo‘ladimi?** *TINGLAB YOKI O’QIB TUSHUNISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

Yechim: yosh-keksa, og’ir-yengil, tekis-notekis, baland-past, ko’p-oz

272-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **“*Innovatsiya – yangi g‘oya (fikr) lar doim...*” deb boshlanuvchi jumlani davom ettiring. Unda qarama-qarshi ma’noli so‘zlardan foydalaning.** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

“Intervyu” metodi tavsiya etiladi. Jurnalistikaga qiziqqan o’quvchilarni kasbga yo’naltirish maqsadida amalga oshirish mumkin. Savol jurnalist-o’quvchi tomonidan beriladi. Javobi esa o’quvchilar tomonidan beriladi. Motivatsiya uchun jurnalistning savoliga

o’qituvchining o’zi ham so’rovnomada ishtirok etishi mumkin. **Masalan:** ***yangi – eski. 1. Yangi g‘oya(fikr)lar doim insonlarni taraqqiyot sari yetaklaydi. 2. Eski g‘oya (fikr)lar rivojlanish yo‘lida to‘g‘anoq bo‘ladi.***

Qarama-qarshi ma’noli so‘zlar *antonim so‘zlar* deyiladi. Ular *zid ma’noli so‘zlar* deb ham yuritiladi. Masalan: *baland – past, yangi – eski, kecha – kunduz* kabi. *Antonim so‘zlar* birgalikda qo‘llanib, yangi so‘z hosil qilishi mumkin. Masalan: *yosh-u qari – barcha, achchiq-chuchuk – ovqat turi, uzoq-yaqindan – hamma yoqdan.*

273-mashq. Qo’yilgan muammo: **Sinfingizni maktabning eng ilg‘or sinfiga aylantirish bo‘yicha bironta tashabbus bilan chiqqanmisiz? Bu haqda fi kr bildiring va unda *ilg‘or – qoloq, oldingi – hozirgi, tez – sekin, o‘tmish – kelajak, salbiy – ijobiy* kabi so‘zlardan foydalaning.** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi. “Qo’lni qo’lga beraylik!” o’yinidan foydalanish tavsiya etiladi.**

273-mashq. Qo’yilgan muammo: **Quyidagi maqollarni** *O‘QING* **va davomida kelgan savollarga javoblar** *YOZING. GAPIRISH va YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

275-mashq. Uyga vazifa. **Darsdan olgan taassurotlaringiz asosida *“Barcha g‘oyalarning, kashfiyotlarning kaliti – kitobda”* mavzusida fi kringizni yozib keling.**

76-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilardagi so’zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko’ra turlari yuzasidan olgan bilimlarini matn va lug’at bilan ishlash orqali mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarni o’zlariga berilgan iqtidor va iste’dod qirralaridan oqilona foydalanish hamda qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga undash; shukronalik hissida tarbiyalash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Topshiriq. Qo’yilgan muammo: **Masalni tinglang. Matn o’qituvchi tomonidan yoki audio shaklda eshittirilishi tavsiya etiladi.** *TINGLAB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini shakllantiradi. “Qayta hikoya” metodidan foydalanish tavsiya etiladi. O’qituvchi tomonidan o’qib, eshittirilgan matnni o’quvchilar talaffuz me’yorlariga amal qilgan holda qayta hikoya qilib beradilar.**

Munosabat bildiring. *TINGLAB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini shakllantiradi. Kasbga yo’naltirish maqsadida**

“Intervyu” metodidan foydalanish mumkin.

1. O‘z-o‘zini boricha qabul qilish baxt uchun birinchi qadamdir, degan fikrga qo‘shilasizmi?

2. Sizda ham o‘zingizni tushunmay qolgan paytlar bo‘lganmi?

3. Siz o‘zingizda boshqalardan faqrli qanday jihatlar bor deb o‘ylaysiz?

276-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Matnda ajratilgan so‘zlarni izohlab, daftaringizga yozing..** *YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

Yechim: *yosh, bog’, chog, o’ta*

277-mashq. Qo’yilgan muammo: **Matndagi sinonim so‘zlarni toping va ko‘chirib yozing.** *YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

Yosh-jajji, yoqimli-mayin, o’t-giyoh, tovush-ovoz, sayrash-xonish

278-mashq. Qo’yilgan muammo: **Matnda berilgan *kamchilik, har safar, chiroyli, xafa, paydo bo‘lmoq, qo‘pol, yaxshi ko‘rmoq* so‘zlariga zid ma’noli so‘z toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

Masalan: *kamchilik – yutuq. Kamchiliklaringdan tashvishlanma, yutuqlaringdan gerdayib ketma.*

	So’zlar	*Zid ma’noli soz’*	*Gap*
1	*har safar*	*bir safar*	*Bir safar bobom menga oymomo haqida ertak aytib bergan edilar*
2	*chiroyli*	*xunuk*	*Chiroylilik murod emas, xunuklik uyat emas*
3	*xafa*	*xursand*	*Mard berib xursand, nomard-olib*
4	*paydo bo’lmoq*	*yo’qolmoq*	*Vaqt qadri yo’qotilgach bilinadi.*
5	*qo’pol*	*mayin*	*Bulbulning mayin ovozi dillarni yayratadi.*
6	*Yaxshi ko’rmoq*	*Yomon ko’rmoq*	*Yomon ko’rgan narsangni birovga berma*

279-mashq. Qo’yilgan muammo: Tut, tom, palla, rasm **so‘zlarining ma’nolarini izohlab, daftaringizga yozing.** *YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

“Mehmon-mehmon” o’yinidan foydalanish mumkin. O’quvchilar sinf kutubxonasiga tashrif buyurib, berilgan sozlarning ma’nolarini

eslab qolib, partadoshlariga yetkazadilar. ular esa doskaga shu so'zlarni yozadilar.

Yechim:

Tut- meva, ushlamoq.
Tom-uyning qismi; to'la, butun; bo'lak, qism; tommoq.
Palla- tarozining pallasi; yoz pallasi.
Rasm- surat; rasm-rusum.

280-mashq. ***Uyga vazifa. To'q, oq, o'ra, bo'lmoq, quymoq*****Matndagi sinonim so'zlarni toping va ko'chirib yozing.**

77-dars. NAZORAT ISHI

78-dars. PARONIMLAR

Darsning *a)* ta'limiy maqsadi*: o'quvchilarga paronimlar haqida tushuncha berisl, to'g'ri talaffuz me'yorlarini o'rgatish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: og'zaki va yozma nutqda so'zlardan tog'ri va unumli foydalanish orqali ona tilimizga hurmat ruhida tarbiyalash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

281-mashq. ***Qo'yilgan muammo: Dars*** **va** ***darz*** **so'zlarining ma'nolarini bilasizmi? Ular bir-biriga nisbatan qanday so'zlar sanaladi? Ularni almashtirib qo'llasangiz, noqulay vaziyatga tushib qolmaysizmi? Masalan:** ***Sinf oynasi dars ketdi – Darz o'z vaqtida boshlandi.*** **GAPIRISH ko'nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

Talaffuzi va yozilishi bir-biriga juda yaqin, lekin ma'nolari farqli bo'lgan so'zlar *paronimlar* deyiladi. Masalan: *yod – yot, bop – bob, xalos – xolos* kabi.

Qo'shimcha nazariy ma'lumot. Paronimlarning kelib chiqishiga sabab- noto'g'ri talaffuz

282-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Quyidagi paronim so'zlarni o'z izohlari bilan juftlab yozing.** ***YOZISH*** **ko'nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi. Paronimlar:** ***Xiyla, hiyla; ta'na, tana; aro, oro.*** **"So'zlar bahsi" metodi** ***tavsiya etiladi.***

Izohlari: ***Makr, biroz; gavda, dashnom; orasida, pardoz.***

Yechim:

Xiyla- biroz, xiyol *hiyla - makr*
ta'na- dashnom *tana- gavda*

aro- orasida *oro-pardoz*

283-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Quyosh quyidagi burjlarga kirganda, tabiatda qanday o'zgarishlar bo'lishini ayting.** ***Burj va burch*** **so'zlariga izoh bering.**

O'z ***burjingizni*** **aniqlang.** ***Burchingiz*** **haqida gapiring.** *GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

Quyoshning bir yillik harakati yo'lida joylashgan **burjlar (o'n ikki yulduz turkumi)**

284-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** *Azim – azm, borlik – borliq, yoq – yog', zamin – zomin, urush – urish, xat – had, hol – xol, chakka – chekka* **so'zlari bildirgan ma'nolarni aniqlang, ular ishtirokida gaplar tuzing va daftaringizga yozing.** *YOZISH* **ko'nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

Namuna: *Iste'dodli o'quvchilar ichida do'stlarim borligidan faxrlanaman.*

Borliq sinoatlarga to'la.

Yechim:

azim	*ulug', buyuk*	*azm*	*qat'iy qaror*
borlik	*mavjudlik*	*borliq*	*olam, dunyo*
yoq	*tomon, taraf*	*yog'*	*moy*
zamin	*yer,tuproq*	*zomin*	*ko'ngilsiz ishga sababchi, aybdor*
urush	*jang, to'qnashuv*	*urish*	*urmoq*
xat	*maktub*	*had*	*chegara;matematik atama*
hol	*ahvol; gap bo'lagi*	*xol*	*yuzdagi xol*
chakka	*chakka suyagi*	*chekka*	*chetki tomon*

285-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Kechqurun falakka bir lahza qarab turing. Koinot haqidagi tasavvurlaringizni 10–12 gapdan iborat matnda yoriting.**

79-dars. MATN VA LUG'AT USTIDA ISHLASH

Darsning ***a)*** **ta'limiy maqsadi:** *o'quvchilardagi so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari yuzasidan olgan bilimlarini matn va lug'at bilan ishlash orqali mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad*:o'quvchilarda matn va uning tahlili orqali tadbirkorlik ko'nikmasini shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Topshiriq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Matn bilan tanishing. Unga sarlavha toping.** *TINGLAB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko'nikmalarini**

rivojlantiradi. Matn o'qituvchi tomonidan yoki audio shaklda o'qib eshittiriladi. "Qayta hikoya" metodi tavsiya etiladi.

Ancha yillar avval katta **nufuz**i – obro'-e'tibori baland bir fabrikaning direktori ikki xodimini Afrika bozorlarini o'rganish uchun yubordi. Birinchi xodim bu yer aholisini sinchiklab o'rgandi va xo'jayiniga axborot berdi: "Bu yerdan bizga hech qanday foyda yo'q, chunki **nufusi** (aholisi) **juda** qashshoq ekan, yalangoyoq yurarkan. Topgan foydamizdan ham **judo** bo'lmaylik".

Birinchi xodim bilan **yondosh** yo'lga chiqqan ikkinchi xodim masalaga o'zgacha **yondashdi**. U qaytganida bergan ma'lumot quyidagicha edi: "Biz oyoq **abzal**i tikamiz. Imkonni qo'ldan bermaslik kerak, shoshilaylik. Biz uchun **afzal** tomoni shundaki, odamlarning poyabzali yo'q ekan".

Munosabat bildiring. *GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

1. Matndagi xodimlardan qaysi birining javobi sizga ma'qul bo'ldi? Nima uchun?
2. Sizningcha, tadbirkor qanday bo'lishi kerak?

286-mashq. Qo'yilgan muammo: **Matnda ajratilgan so'zlarni daftaringizga yozing. Ma'nosini izohlang.** *YOZISH* **ko'nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.** O'qituvchi o'quvchilar bilan **"Talaffuz mashqi"** amaliy ish o'tkazadi.

Yechim:

Nufuz- obro', mavqe — *nufus - aholi*
juda- rosa, ancha — *judo - ayriliq*
yondosh- yonma-yon — *yondash - yaqinlashmoq*
abzal- otning egar-jabduqlari — *afzal – yaxshi, a'lo, ortiq*

287-mashq. Qo'yilgan muammo: **Berilgan paronimlar juftligini daftaringizga YOZING. O'qituvchingiz yordamida ma'nosini izohlang. YOZISH va GAPIRISH ko'nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.** Mashq uchun "Tushunchalar tahlili" metodi tavsiya etiladi.

Yechim:

bank- davlat baknki	*bob- qism*	*gaz zahar- li gaz*	*davo- muo- laja*	*daha- qish- loq*	*faqir- muh- toj*	*soda- ichim lik sodasi*	*siqim- qisim*	*undash- unda- moq*	*uquv- fahm, faro- sat*
banka- idish	*bop- mos*	*g'oz- par- randa*	*da'vo- arz, shi- koyat*	*daho- zako- vat egasi*	*paqir- chelak*	*sodda- oddiy*	*si- g'im- ichki hajm*	*undosh- undosh tovush*	*o'quv- o'qish*

288-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** *Ota – ato, tort – to'rt, bosh – boj, she'r – sher, aso – asov* **paronimlarining ma'nolarini izohlang. Ularning har biriga bittadan gap tuzib yozing.** *YOZISH* **ko'nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

Yechim:

Ota-dada, padar	*ato-sovg'a, hadya*
tort-qandolat mahsuloti	*to'rt- son*
bosh- tana qismi	*boj- chetdan kelgan mol uchun to'lov*
she'r-nazm, poyeziya	*sher- o'rmon hayvoni*
aso-hassa	*asov-odamga o'rganmagan*

289-mashq. ***Uyga vazifa: "Men tadbirkor bo'laman"*** **mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn yarating.**

80-dars. O'ZBEK TILI LEKSIKASINING BOYISH MANBALARI. O'Z VA O'ZLASHGAN QATLAM

Darsning *a)* ta'limiy maqsadi*: o'quvchilarga o'zbek tilining boyish manbalari, shevaga xos so'zlar, o'z va o'zlashgan qatlam tushunchalari haqida ma'lumot berish, ularning nutqiy kompetensiyalarini oshirish va shu orqali tinglab tushunish va yozish kompetensiyasini rivojlantirish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o'quvchilar qalbida ona tilimizga muhabbat tuyg'usini uyg'otish va o'zga tillarga bo'lgan hurmat madaniyatini shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o'quvchilarda o'zga tillardan o'zlashgan so'zlarning ma'nolarini anglash va nutqda o'rinli foydalana olish;*

Darsni ona tiliga bag'ishlangan she'r bilan boshlaymiz.

Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she'rga solaman,
Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to'ti bo'lib qolaman. (A.Oripov).

1. Inson nima uchun o'z tilini onaga o'xshatib ona tili deydi?
2. Har bir millat uchun ona tili qanchalik aziz?
3. Chet tillarni bilish uchun ona tilini qay darajada bilish lozim?
4. Shoir nima uchun to'ti obraziga murojaat qilyapti?

ham-

xam-

egik

Til doimiy ravishda boyib boradi. Ularni ikki katta guruhga ajratish mumkin:

Ichki manba – o'z ichki imkoniyatlari asosida boyish.

Tashqi manba – boshqa tillardan so'z olish asosida boyish.

Tildagi so'zlar ikki qatlamdan iborat:

A) o'z qatlam. Bu qatlamga oid so'zlar azaldan tilimizda qo'llanib kelinayotgan umumturkiy so'zlardir.

B) o'zlashgan qatlam. Arab, fors va Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlardir.

Topshiriq. ***Qo'yilgan muammo:*** **"Arboblar" kitobidan olingan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy haqida berilgan matn bilan tanishing, matn ichidagi o'zlashgan so'zlarga ustozingiz yordamida ta'rif bering. Boshqa tillardan so'z o'zlashishining sabablari to'g'risida fikringizni ayting.** *O'QIB va TINGLAB TUSHUNISH* **ko'nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi. "Qayta hikoya" va "Tushunchalar tahlili" metodlari taklif etiladi.**

Yechim:

t/r	Tushunchalar	Mazmuni
1	algoritm	Ma'lum bir turga oid masalalarni yechishda ishlatiladigan amallarning muayyan tartibda bajarilishi haqida aniq qoida
2	kompyuter	murakkab qurilmaga ega bo'lgan elektron hisoblash mashinasi
3	protsessor	raqamli hisoblash mashinasining dasturda ko'zda tutilgan barcha hisoblash jarayonlarini boshqarib turish uchun mo'ljallangan markaziy qurilmasi.
4	dastur	yo'l-y'riq, ko'rsatma, tartib-qoida.
6	mobil aloqa apparatlari	telefonlar

290-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Matnni o'qing.** ***Nilometr*** **so'ziga izoh be ring.**

Yana shu kabi o'zlashgan so'zlarga misollar keltiring. Buyuk ajdodlarimiz iqtidoriga baho bering. *O'QIB* **va** *TINGLAB TUSHUNISH* **ko'nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi. "Idrok xaritasi" metodi tavsiya etiladi.**

Nilometr – Ahmad al-Farg'oniy boshchiligida abbosiy xalifa al-Mutavakkilning amri bilan 867-yil Qohira shahri yaqinida Nil daryosi sathini o'lchash maqsadida qurilgan inshoot.

Qoshimcha ma'lumot: metr, kilometr, santimetr haqida ma'lumot

beramiz.

291-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **To'rtta guruhga bo'ling. 1-guruh o'zbekcha, 2-guruh arab tilidan o'zlashgan, 3-guruh fors tilidan o'zlashgan, 4-guruh Yevropa tilla ridan o'zlashgan so'zlarga misollar keltirsin. Ular ishtirokida gaplar tuzing.**

"Kichik guruhlarda ishlash" metodi tavsiya etiladi.

Yechim:

1-guruh. O'zbekcha so'zlar: so'ri, o't, to'n, cho'ntak, quyosh.

2-guruh. Arabcha so'zlar: shoir, vaqt, inson, qalb, dars.

3-guruh. Fors tilidan o'zlashgan so'zlar: kamtar, farzand, dushanba, dono, anor.

4-guruh. Rus tilidan o'zlashgan so'zlar: stol, stul, pechka, ruchka, parta.

Har bir guruhga beshtadan so'z berildi. Ana shu so'zlar asosida gaplar tuziladi.

292-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Bolalar shug'ullanayotgan sport turlari nomini yozing va ularning o'z yoki o'zlashgan qatlamga oid ekanligini aniqlang.**

1-rasm. Yengil atletika. (Yugurish).

2-rasm. To'siqlar osha yugurish.

3-rasm. Og'ir atletika.

4-rasm. Sambo (kurash).

5-rasm. Suzish.

293-mashq. ***Uyga vazifa.*** O'z va o'zlashgan so'zlarga 10 tadan so'z yozib kelish.

81-dars. YANGI PAYDO BO'LGAN SO'ZLAR TAHLILI

Darsning *a)* ta'limiy maqsadi: *o'quvchilarga yangi paydo bo'lgan so'zlar va uning omillari haqida tushuncha berish, to'g'ri talaffuz me'yorlarini o'rgatish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: telefon, kompyuter, internetga oid yangi so'zlar bilan tanishtirish va ulardan to'g'ri va unumli foydalanishga undash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Chat so'zi inglizcha *chatter* – "*valdiramoq*", "*vaysamoq*", "*aljiramoq*" so'zlaridan olingan. Internet tarmog'i orqali muayyan vaqtda aloqa qilish va shunday aloqani yo'lga qo'yishga mo'ljallangan dastur ta'minotiga *chat* deyiladi. Unga o'xshash *fleshka, sayt, virus,*

antivurus, xaker, shou so‘zlari ham bor. Bu so‘zlardan o‘z nutqi ngizda ko‘p foydalanasiz. Ularning izohini bilib qo‘ying, chunki zamonaviy texnologiyalarni bilish davr talabidir.

Topshiriqni bajaring.

1. Olinma so‘zlar har doim ham o‘z ma’nosida qo‘llanadimi?

2. Yangi kirib kelayotgan so‘zlar izohi uchun lug‘at daftari tutganmisiz?

294-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Matnni yozing. Olinma so‘zlarning tagiga chizib, izohlang.** *YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

Yechim:

Odamlarning 10 foizi noyob talantga ega bo‘ladi. Ular intellektual rivojlangan insonlar sanaladi. Ma’lumotlarga ko‘ra daholarning aksariyati bolalik chog‘idayoq o‘z iste’dodlarini namoyon etishgan. O‘ta talantli bolalarni vunderkind deyishadi. Masalan, Alisher Navoiy, Imom al-Buxoriy, Motsartlar sakkiz yoshdayoq o‘z zakovatlari bilan atrofidagilarni lol qoldirishgan.

Yechim: “+” Texnologiyasini qo‘llash orqali bajarish mumkin

	SO’ZLAR	Intellektual darajasi rivojlanish darajasidan ustun, iste’dodi tan olingan bolalar	Yuqori darajali tug’ma qobiliyat; iste’dod	Aql-idrok, bilish, tushunish
1	talant		+	
2	intellektual			+
3	vunderkind	+		

295-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Ikki guruhga bo‘lining. Internetga oid yangi paydo bo‘lgan so‘zlardan “*Kim ko‘p topadi*?” musobaqasini o‘tkazing. “Intervyu” metodidan foydalanish mumkin.** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

296-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Buyuklar ilm tufayli mashhur bo‘lishgan. Ilmning foydasi haqidagi maqollarni yozing, sinfdoshlaringiz bilan fikrlashing.** *YOZISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

1. Ilm – yorug‘lik, jaholat – zulmat. 2. Ilm o‘lch ovi – aql, zehn o‘lchovi – naql. 3. Ilmi yo‘qning ko‘zi yumuq. 4. Ilm-u hikmat suvni yondirar. 5. Ilmlining so‘zi – o‘q.

297-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Rasm asosida “*Men ham o‘z iqtidorimni***

***namo yish etmoqchiman*” mavzusida 10–12 ta gapdan iborat hikoya yozib keling.**

82-dars. TARIXIY VA ARXAIK SO‘ZLAR

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi*:* *o’quvchilarga tarixiy so’zlar va ularning ma’nolari haqida ma’lumot berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: matnda berilgan tarixiy so’zlar va ularning ma’nolarini tushuntirish orqali tarixiy asarlarga bo’lgan qiziqishlarini oshirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Darsni boshlashda ***“Rolli o’yin” metodi*** *tavsiya qilinadi. “Zulmat ichra nur” asaridan parcha namoyish etilishi mumkin. Sahnada o’quvchilar tilidan, albatta, tarixiy so’zlarning to’g’ri qo’llanishiga o’qituvchi e’tibor beradi.*

Topshiriq. ***Qo’yilgan muammo: “Amir Temur o‘gitlari”*** **kitobidan olingan parchani o‘qing, unga sarlavha toping.** *O’QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

Yechim: *sarlavhalar tahminan quyidagicha bo’lishi mumkin.*

1. Oliyjanob fazilat.
2. Yuksak qalb egasi.
3. Mehr pog’onasi.
4. Yaxshilikning katta-kichigi bo’lmaydi.

Topshiriqni bajaring. **“Suhbat”** metodidan foydalanish mumkin.

1. Amir Temurning oliyjanobligi to‘g‘risida gapiring.
2. Eskirgan so‘zlarni aniqlang.

298-mashq. *Qo’yilgan muammo:* Tilimiz tarixida ko‘p qo‘llangan quyidagi so‘zlarga e’tibor qarating, ular ishtirokida gaplar tuzishga urinib ko‘ring**.”Kim zukko” metodi** orqali mashqni bajarish mumkin.

Yechim: saltanat – mamlakat; **cherik** – qo‘shin; **sipoh** – askar; **raiyat** – xalq; **dorug‘a** – shahar hokimi; **ziroat** – dehqonchilik; **valiahd** – toj-u taxt vorisi; **rabot** – karvonsaroy; **suvoriy** – otliq askar.

Tilimizning ma’lum davrida qo‘llanib, hozirgi kunda foydalanilmaydigan so‘zlarga *tarixiy so‘zlar* deyiladi. Masalan: *hojib* (eshik og‘asi), *degrez* (cho‘yandan qozon quyuv- chi), *yorg‘ichoq* (donni maydalash va un qilish uchun ishlatilgan tosh asbob)
kabi. O‘z o‘rnini boshqa so‘zga bo‘shatib bergan so‘zlarga *arxaik so‘zlar* deyiladi. Masalan: *payg‘om* (xabar), *bog‘ot* (bog‘lar, bog‘li joylar), *gisu* (soch) kabi.

Qoshimcha nazariy ma’lumot:

TARIXIY SO’ZLAR	ARXAIK SO’ZLAR
Hozirda mavjud bo’lmagan narsa-hodisalarning iste’moldan butunlay chiqib ketgan nomlaridir; bunda so’z o’zi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskiradi: *mingboshi, ellikboshi, kanizak, omoch, dodhoh, mumsik, xalfa, mo’ndi...*	Hozirda mavjud bo’lgan narsa-hodisalarning eskirib qolgan atamalaridir; bunda so’z eskiradi, lekin tushuncha eskirmaydi, u boshha so’z bilan ifodalanadigan bo’lib qoladi. Bunday so’zlar iste’moldan chiqish arafasida turgan, hozirgi tilda sinonimi bo’lgan so’zlardir (qavs ichida hozirgi tildagi sinonimlari berilgan): *rayon* (tuman), *ekspress* (tezyurar), *oblast* (viloyat), *vrach* (shifokor), *xirurg* (jarroh), *injener* (muhandis), *redaktor* (muharrir), *redaktsiya* (tahririyat), *ulus* (xalq), *bitik* (yozuv) ...

299-mashq. *Qo’yilgan muammo:* Quyidagi so‘zlarni tarixiy va arxaik so‘zlarga ajrating. **”Kim zukko?” texnologiyasi** orqali mashqni bajarish mumkin.

Yechim:

TARIXIY SO’ZLAR	ARXAIK SO’ZLAR
qozi, o’lpon, jadid, mudarris, komsomol,	*ulus,mahoraba,rasadxona, oblast, rayon, handasa, riyoziyot*

300-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Quyida berilgan maqol va iboralarni** *YOZING***. Tarixiy va arxaik so‘zlarni aniqlang. “Tarix bilimdoni” usulidan foydalanish tavsiya etiladi.**

Yechim:

1. Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtingda ulton (tagcharm) bo‘l. 2. Bolta tushguncha, kunda dam olar. 3. Da’vogar sust bo‘lsa, qozi muttaham. 4. Bo‘zchining mokisidek serqatnov bo‘lib qolmoq. 5. Igna bilan bitadigan ishga juvoldiz ishlatmoq.

301-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Amir Temurning To‘xtamishxon**

bilan bo‘lgan jangidan olingan tasvirni kuzating. *Sovut, dubulg‘a, palaxmon, zirh, nayza, paykon, kamon,* kabi so‘zlarning izohini topib ular ishtirokida gaplar tuzing

83-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi*: o’quvchilarning o’z va o’zlashgan qatlam, tarixiy hamda yangi so’zlar mavzulari yuzasidan olgan bilimlarini matn va lug’at bilan ishlash orqali mustahkamlash;;*

b) tarbiyaviy maqsad*: matnlarni oqib, tahlil qilish orqali ajdodlarimizning iste’dodlari, ixtirochilik qobiliyatlari haqida tushuncha berish hamda shunday ruhda tarbiyalash;*

d) ***rivojlantiruvchi maqsad:*** *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish* ***Topshiriq. Qo’yilgan muammo:*** **Matnlarni diqqat bilan o‘qing.** *O’QIB VA TINGLAB TUSHUNISH, GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi. Matn o’qituvchi tomonidan yoki audio shaklda o’qib eshittiriladi. “Qayta hikoya” va “Tushunchalar tahlili” metodlari taklif etiladi.**

1. “Farhod va Shirin” dostonini o‘qisak, bugun tilimiz ancha kelishib qolgan XX asr kashfi yotlaridan biri – robotlar haqidagi satrlarga ham ko‘zimiz tushadi: “U odamga juda ham o‘xshar, qo‘lida o‘tkir o‘q tortilgan temir yoyni ushlab turar edi. Boshidan oyoq sovutga o‘ralgan bu temir odam ich- ichidan yonib turardi”.

2. 1928-yili Toshkentda ixtirochilar B. Grabovskiy va I. Belyavskiylar elektrnur yordamida harakat qilayotgan tasvirni bir joydan uzatadigan va qabul qiladigan apparat yaratib, muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazdilar. Poytaxtimiz televideniye vataniga aylanishi bejiz emasdi. Chunki Alisher Navoiy bir necha asrlar ilgari “Farhod va Shirin” dostonida bu qurilmani ham o‘z holicha “oynayi jahon” deb nomlaydi. Farhod uzoq Arman o‘lkasining malikasi Shirinning husni jamolini aynan shu vosita orqali ko‘rib, unga mahliyo bo‘lib qoladi.

3. “Xamsa”ning to‘rtinchi dostoni “Sab’ayi sayyor”da eskalator va lift haqidagi farazlarni o‘qigan mashhur sharqshunos olim Bertels ham hayrat og‘ushida qolganini yashirmagan ekan. “Shoh bu taxtga chiqadigan bo‘lsa, pilla poyalar uning qadam qo‘yishi uchun pasayib, bir-birining ustiga yotadi. Shoh shu 8 poyaning hammasini bosib o‘tib, o‘z taxtiga o‘tirgach, u zinalar yana baland ko‘tariladi”. Bu yerda keyingi asrlarda, yana ham aniqrog‘i, 1892-yilda amerikalik kashfi yotchi Jessi Reno tomonidan yasalgan eskalator haqida gap ketayotganiga shubha yo‘q. (“*Navoiyshunoslik*”*dan*)

Munosabat bildiring. *GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

1. Matnlarda berilgan olinma so'zlarni topib, ular ishtirok etgan gaplarni ko'chiring.

2. Kundalik hayotimizda tez-tez uchrab turadigan olinma so'zlarga misollar keltiring.

302-mashq. Qo'yilgan muammo: **Mirkarim Osimning "*Zulmat ichra nur*" kitobidan olingan parchani yozing. Tarixiy va arxaik so'zlarning tagiga chizing. GAPIRISH va YOZISH ko'nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

Yechim:

1. Ov va jang manzaralari uni shu qadar qiziqtirgan ediki, otasi kelib eshik oldida kavush yechayotganini ham payqamadi. 2. "Shu yoshdin kitobga muhabbat qo'ysa, ulg'aygach, kitobni ilkidan ayirmay o'zi bilan asrab yurg'ay", deb o'yladi G'iyosiddin. 3. "Dada, ushbu suratni ko'ring: mana bu cherik shotidan chiqayotib qulab tushmoqda", – deb aytdi. 4. Otasi devonxonadan kelib, dam olganidan so'ng ba'zan kitob mutolaa qilar edi.

"+" Texnologiyasini qo'llash orqali bajarish mumkin. "Navoiy asarlari uchun izohli lug'at"dan foydalanish tavsiya etiladi.

So'zlar/ tushunchalar	Davlatning yozuv ishlari olib boriladigan mahkama	Oyoq kiyim	Qo'l	Qo'shin
kavush		+		
ilik			+	
cherik				+
devonxona	+			

303-mashq. Uyga vazifa: **"*Men ham kashfiyotchiman*" mavzusida matn tuzing va unda o'z tasavvurlaringizni bayon qiling. Imkon bo'lsa, rasmini chizing.**

84-dars. JOY NOMLARI TARIXI

Darsning *a) ta'limiy* maqsadi: *o'quvchilarga joy nomlari va ularning kelib chiqishi, ma'nolari haqida ma'lumot berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o'quvchilarni yashayotgan joylariga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'ularini yanada oshirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Topshiriq. Qo'yilgan muammo: **Matnni o'qing. Unda berilgan joy nomiga diqqat qiling. O'QIB TUSHUNISH va GAPIRISH ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Farg'ona so'zi hozirda vodiy va shahar nomini anglatadi. Uning kelib chiqishi to'g'risida turli xil taxminlar bor. Xalq ichida "parilar yurti", "parixona" so'zidan hosil qilingan degan rivoyatlar yuradi. Aslida, qadimda chor atrofi baland tog'lar bilan o'ralgan joy Parkana deb yuritilgan. Tovush almashishi tufayli Parkana so'zidan Farg'ona so'zi hosil bo'lgan.

304-mashq. Qo'yilgan muammo: Samarqand, Toshkent, Xorazm, Shahrisabz, Buxoro **nomlari izohini topib yozing.** ***YOZISH*** **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

"+" Texnologiyasini qo'llash orqali bajarish mumkin.

Yechim:

t/r	So'zlar/ tushuncha	Samarqand	Toshkent	Xorazm	Shahrisabz
1	*yashil shahar*				+
2	*"tangri jamoli"*				
3	*toshli shahar*		+		
4	*semiz, boy shahar*	+			
5	*quyoshli yurt*			+	

305-mashq. Qo'yilgan muammo: **Ikki guruhga bo'lining va musobaqalashing. Qaysi guruh eng ko'p joy nomini yoza oladi.** *YOZISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

"Estafeta" metodi *tavsiya etiladi. Yakunda yozilgan so'zlarning soni va imlosi tekshirilib, g'olib aniqlanadi.*

306-mashq. Qo'yilgan muammo: Obod, yangi, tepa **so'zlari ishtirok etgan joy nomlariga misollar yozing va ular ishtirokida gaplar tuzing.** *GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim: ***"Chaqqonlar"*** *metodi tavsiya etiladi.*

Obod	*Yangi*	*tepa*

Mehnatobod, Gulobod, Dehqonobod, Akbarobod, Xonobod	*Yangiyo'l, Yangibozor, Yangiariq, Yangiarab Yangihayot*	*Qiziltepa, Qoratepa, Nog'oratepa, O'ratepa, Oq tepa*

307-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Rasmdagi joy nomini toping. U yerda bo'lgan misiz? Bormagan bo'lsangiz, borishni orzu qilasizmi? Bu joy nomi qanday ma'noni anglatadi? Respublikamizda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan joy nomlarini ayting.** *GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim: *Xiva shahri tasvirlangan.*

308-mashq. ***Uyga vazifa.*** **O'zingiz yashaydigan mahalla, qishloq, tumanning nomi qanday ma'no anglatishini bilasizmi? Fikringizni 3–4 jumlada yozma bayon qiling.**

85-dars. MATN VA LUG'AT USTIDA ISHLASH

Darsning ***a)*** **ta'limiy maqsadi:** *o'quvchilarning joy nomlari mavzusi yuzasidan olgan bilimlarini matn va lug'at bilan ishlash orqali mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad*: matnlarni oqib, tahlil qilish orqali qadimiy shaharlarimiz bilan faxrlanish tuyg'usini singdirish; turizm sohasiga qiziqishlarini orttirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Topshiriq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Matn bilan tanishing. Tarix darsidan olgan ma'lumotlaringiz asosida ta'rifga mos rasmni tanlang.** *O'QIB YOKI TINGLAB TUSHUNISH, SHUNINGDEK, GAPIRISH* **ko'nikmalarini rivojlantiradi. "Qayta hukoya" metodi tavsiya etiladi.**

Yechim: 1. Samarqand 2. Xiva

Munosabat bildiring. **GAPIRISH ko'nikmalarini rivojlantiradi. "Intervyu" yoki "Gid" metodi tavsiya etiladi.**

1. Bu ko'hna shaharlar nimasi bilan sayyohlarni jalb qiladi, deb o'ylaysiz?

309-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** YOZING. ***Urganch*** **so'zining qadimiy nomlariga diqqat qiling.** *YOZISH* **ko'nikmalarini rivojlantiradi.**

Bu shahar nomining kelib chiqishi miloddan avvalgi VII–VI asrlarga borib taqaladi. "Avesto" kitobida Vurukash (Orol) dengizi bo'yida **Urga**

(Urva) shahri bo‘lganligi qayd etilgan. Tabiiy ofatlar (suv toshqini, qurg‘oqchilik) tufayli Urga hozirgi Ko‘hna **Urganch** hududiga ko‘chirilgan. VIII asrgacha **Gurganj** nomi bilan yuritilgan. 712-yilda, shahar arablar tomonidan bosib olinganidan keyin, **Jurjoniya** deb ataldi. 1221-yili mo‘g‘ullar egallagandan so‘ng shahar nomi Urganch shaklida yuritila boshladi. XIV asr Yevropa manbalarida shahar (Ko‘hna Urganch) **Urgant** shaklida tilga olinadi.

310-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Quyidagi matnni *YOZING* va o‘z fikringiz bilan davom ettiring.**

Yurtimiz qadimiy shaharlarga boy. Bu ko‘hna shaharlar o‘z tarixi bilan Rim va Afinani, go‘zalligi bilan Parij va Londonni ortda qoldiradi. Har yili yuz minglab sayyohlarni o‘ziga ohanrabodek tortadi. Bu ulug‘ shaharlarimiz …

311-mashq. ***Uyga vazifa:*** “*Men yoqtirgan makon*” mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn yarating.

86–87-darslar. NAZORAT ISHI

88-dars. ISMLAR MA’NOSI VA IMLOSI

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarga ismlar va ularning kelib chiqishi, ma’nolari haqida ma’lumot berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarga do’stlari va yaqinlarining ismlarini to’liq aytish kerakligini uqtirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Darsni ***“Bu qiziq” o’yini*** *orqali boshlash mumkin.*

2018-yilda chaqaloqlarga eng ko’p Azizbek va Madinabonu ismlari qo’yilgan ekan.

2019-yilda eng ko’p qo’yilgan ismlar Muhammadali va Solihabonu ekan.

313-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Ismlar ma’nosiga diqqat qiling. Berilgan ismlarning ma’nosini bilib oling.** Anvar – nurli yoki toleyi porloq, Akmal – yetuk, barkamol, kuchli; Iroda – istab olingan, irodali qiz, Feruza – baxtli, iqboli baland, ko‘zlari moviy rang qiz. Xurshida – baxti quyosh kabi porloq.

Topshiriq. ***Qo’yilgan muammo:*** **“*Taxalluslar ma’nosini bilasizmi?*” nomli matnni o‘rganing. Ijodkorlar taxallusi mazmuniga diqqat qiling. Yana qanday adabiy taxalluslarning yaralishi haqida ma’lumotga egasiz?** *O’QIB va TINGLAB TUSHUNISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Shoir va yozuvchilar, ko‘pincha, o‘zlariga taxallus tanlashgan. Masalan, Navoiy o‘z taxallusini “navo” – “kuy” so‘zidan, Bobur esa “sher” so‘zidan olgan. Abdulhamid Cho‘lponning taxallusi “Cho‘lpon” – “tong yulduzi” degan ma’noni bildirsa, Abdurauf Fitratning adabiy taxallusi “tug‘ma iste’dod” degan ma’no anglatgan.

Muso Toshmuhammad o‘g‘lining ham taxallusi o‘z tarixiga ega. Yosh Musavoy kechalari tom boshiga chiqib, to‘lin oyga tikilar, go‘zalligiga rom bo‘lar ekan. Shundanmi, o‘ziga Oybek degan taxallusni tanlagan ekan. (*“G‘aroyib olam” kitobidan*)

313-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Erkin Vohidovning so‘zlariga diqqat qiling. Ismlarni qisqartib aytish to‘g‘rimi? Sinfdoshlaringiz ismi misolida savolga javob be ring.** ***GAPIRISH ko’nikmasini rivojlantiradi.***

So‘zni qisqartirishga juda ustamiz. Muhammad Rahim degan ismni Mamaraim, bu ham uzun tuyilib, Maraim deymiz. Xorazmlik esa Mirim deydi-qo‘yadi.

314-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Quyida berilgan qahramonlar qaysi asardan?** *GAPIRISH* ***ko’nikmasini rivojlantiradi.*** **“Tushunchalar tahlili” metodi tavsiya etiladi.**

Yechim:

Ismlar/Asar nomlari	***“Fonarchi ota”***	***“Mening o’g’rigina bolam”***	***“Po’latjon yuz tup ko’chat ekmoqchi”***	***“Zulmat ichra nur”***
Roqiyabibi (Qora buvi)		+		
Fanorchi ota	+			
Qosim battol	+			
G‘iyosid din Bahodir				+
yuz tup ko‘chat ekmoqchibo‘lgan Po‘latjon.			+	

315-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **O‘z ismingizning ma’nosini va kim tomonidan qo‘yilganini uch jumlada bayon qiling. Masalan:** ***Mohlaroyim – to‘lin oy kabi go‘zal degani. Bu ismni buvim qo‘yganlar. O‘zimga ham, oilamizdagilarga ham ismim yoqadi.*** *GAPIRISH* ***ko’nikmasini rivojlantiradi.***

316-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Yaqin qarindoshlaringizning ismini yozing va ma’nosini izohlashga harakat qiling.**

89-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarning joy nomlari va ismlar mavzulari yuzasidan olgan bilimlarini matn va lug’at bilan ishlash orqali mustahkamlash;*

***b) tarbiyaviy maqsad**: matnlarni oqib, tahlil qilish orqali ajdodlarimizning iste’dodlari, ixtirochilik qobiliyatlari haqida tushuncha berish hamda shunday ruhda tarbiyalash;*

***d) rivojlantiruvchi maqsad:** mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

***“Ismlar –ikkinchi umr”o’yini** bilan boshlash tavsiya etiladi. Bunda o’zi vafot etgan bo’lsa-da, ismi mangulikka yozilgan umr egalarining ismlari va ular haqida ma’lumot aytadilar.*

1. Alisher – Alisher Navoiy – g’azal mulkining sultoni.

2. Islom – Islom Abdug’aniyevich Karimov – Birinchi Prezidentimiz.

3. Abu Ali ibn Sino – Mashur tabib…

Topshiriq. Qo’yilgan muammo: **Berilgan matnni diqqat bilan o‘qing. Ismingizning ma’nosini bilasizmi?** *TINGLAB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi. O’qituvchi tomonidan yoki audio shaklda o’qib eshittiriladi. “Qayta hikoya” yoki “ Debat” metodlari tavsiya etiladi.**

317-mashq. Qo’yilgan muammo: **5 ta ism yozing, ma’nosini izohlang.** *YOZISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

318-mashq. Qo’yilgan muammo: **Berilgan ismlarni alifbo tartibida joylashtirib, daftaringizga yozing. Ismlarning talaffuzi va imlosiga e’tibor bering.** *YOZISH* **va** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim: Abdusaid, Davlatshoh, Elbek, E’zoza, Gulinor, Hamida, Komila, Ma’murali, Zubayda, Zunnun.

319-mashq. Uyga vazifa. **Insonlarga xos 10 ta ism va jonivorlarga xos 10 ta nom topib, izohlang.**

90-dars. MUSTAHKAMLASH

Darsning *a)* o‘quv maqsadi: *o’quvchilarning imlo qoidalari,* yangi paydo bo‘lgan so‘zlar, tarixiy va arxaik so‘zlar, inson taqdirida ismning ahamiyati *mavzulari yuzasidan olgan bilimlarini matn va lug’at bilan ishlash orqali mustahkamlash;*

***b) tarbiyaviy maqsad**: matnlarni oqib, tahlil qilish orqali zamondoshimizning iste’dodi, qobiliyatlari haqida tushuncha berish hamda shunday ruhda tarbiyalash;*

c) rivojlantiruvchi maqsad: *o‘quvchilarda tinglab tushunish, o‘qish, gapirish, yozish ko‘nikmasini shakllantirish.*

Dars **“Zakovatli zukko” metodi** bilan boshlansa,maqsadga muvofiq keladi.

(O‘qituvchi o‘quvchilardan berilgan savollarga qisqa,aniq, lo‘nda javob berishlari kerakligini tushuntiradi)

1. Qanday so‘zlar qo‘shib yoziladi? Misollar asosida tushuntiring.
2. Qanday so‘zlar bosh harfl ar bilan yoziladi?
3. Chiziqcha bilan yozish qoidalarini eslang. Misollar keltiring:
ota-ona, shon-shuhrat, boy-badavlat, sen-chi?
4. Yangi paydo bo‘lgan so‘zlar, tarixiy va arxaik so‘zlar deganda nimalarni tushunasiz? Ular haqida bilganlaringizni gapiring, misollar keltiring.
5. Insonlarning taqdirida ismlar qanchalik rol o‘ynaydi?

Topshiriq. Qo’yilgan muammo: **Matnlarni diqqat bilan o‘qing**. *O’QIB va TINGLAB TUSHUNISH, GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi. Matn o’qituvchi tomonidan yoki audio shaklda o’qib eshittiriladi. “Qayta hikoya” metodi taklif etiladi.**

Munosabat bildiring yordamida o‘quvchilarning matndan olgan xulosalari, matnda ilgari surilgan g‘oya haqida umumlashma fikrlari aniqlanadi. Munosabat bildiring. *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.**

1. Ismi taqdiri bilan uyg‘unlashib ketgan yana qanday mashhur insonlarni bilasiz?

Yechim: Furqat,Muqimiy kabi ijodkorlar hayotining ismi bilan uyg‘unlashib ketgani haqida ma’lumot berish mumkin.

2. Tanigan insonlaringiz orasida ismi jismiga monanandlari bormi?

O‘quvchilar orasida **“Men bilaman, sen-chi?” o‘yinini** o‘tkazish mumkin.

Masalan, o‘quvchi: “Men sinfdoshim Dononing haqiqatan aqlli ekanligini bilaman, sen-chi, Hikmat?” (Hikmat biror tanishining ismi jismiga mosligi haqida gapiradi…)

3. Shuhrat Abbosov timsolida bolalikda chekilgan zahmat ulg‘ayganda obro‘-e’tibor olib kelishiga ishondingizmi? (shuhrat so‘zining shon-shavkat so‘zi bilan sinonimligi; yaxshi niyat yarim davlat ekanligi haqida fikrlar bildiriladi)

3-topshiriq **dagi birikmalarda ajratilgan so‘zlarni sinonimlari bilan almashtirib, daftarga yoziladi. Kim ko‘p birikma hosil qila oladi?**

Topshiriqni “Vizual o‘qitish” metodi yordamida bajarish mumkin.

O‘qituvchi **mashhur** kinorejissor, Qo‘qonda **tug‘ilgan, yaxshigina** jarohatlandi, **qattiq** og‘riydi, **o‘lmas** asarlar, **bosh** mukofotlarini, shon-shuhratga **ega bo‘lmoq** kabi so‘z birikmalarini o‘quvchilarga havola qiladi. O‘quvchilar esa ajratilgan so‘zlar sinonimini topib, jadvalga joylashtiradilar.Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi ortadi; *YOZISH* ko‘nikmasi shakllanadi.

Yechim:

	So‘z birikmasi	Ajratilgan so‘z sinonimi
1	Qo‘qonda tug‘ilgan	tavallud topgan,dunyoga kelgan
2	yaxshigina jarohatlandi	sezilarligina, durustgina
3	qattiq og‘riydi	kuchli , jonini ko‘ziga ko‘rsatib og’riydi
4	o‘lmas asarlar	mangu, umrboqiy
5	bosh mukofot	birinchi, avvalboshi
6	ega bo‘ldi	oldi,egalladi

Masalan: **mashhur** kinorejissor→taniqli kinorejissor, iste’dodli kinorejissor, buyuk kinorejissor, atoqli kinorejissor…

Ushbu topshiriqni klaster shaklida ham bajarish mumkin.

4-topshiriq. **Taxalluslar bilan bog‘liq boshqotirma yechiladi. Bunda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash,** *O‘QIB TUSHUNISH* **ko‘nikmasi shakllanadi.**

Yechim:

1. Taxallusining mazmuni “*sher*” ma’nosidagi, o‘z yurtidan ayrilgan shoir. (Bobur)

2. Taxallusi “*kuy*” degan ma’noni bildiradigan “she’riyat sultoni”. (Navoiy)

3. XX asrda yashagan, “*tong yulduzi*” mazmunidagi taxallus bilan ijod qilgan shoir. (Cho‘lpon)

4. Taxallusi “*bir joyda turg‘un yashovchi*” ma’nosini bildiradigan qo‘qonlik shoir. *(Muqimiy)*

5. Taxallusi “*kuchli, qudratli*” ma’nosini bildiradigan, birinchi o‘zbek yaratgan yozuvchi. (Qodiriy)

5-topshiriq. Uyga vazifa. **Tarkibida antonimlar qo‘llangan 5–6 maqol yozing. Bu maqollarning qanday vaziyatlarda qo‘llanishini izohlang.**

91-dars. TERMINLAR. KASBIY TERMINLAR

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi*: o’quvchilarga kasbiy va ilmiy terminlar haqida nazariy ma’lumot berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarni mehnatsevarlikka o‘rgatish; ilm va kasb-hunarga qiziqishini shakllantirish;*


d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Darsni “Brenrayting” metodi yordamida boshlash mumkin.

O‘qituvchi xattaxtaga bir necha kasb nomlarini yozib qo‘yadi. O‘quvchilar o‘zlari tanlagan kasbning kamida 3 ta muhim xususiyati va bu kasb doirasida qo‘llanadigan so‘zlarni bayon qiladilar.

Topshiriq. **Matn o‘quvchilarga o‘qitiladi. Unda berilgan hunarlar nomi va kasbiy terminlarga e’tibor qaratiladi**. *O’QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Matn asosida **“Qayta hikoya” metodi taklif etiladi. Bunda o‘quvchilar naqqoshlikda qo‘llaniladigan so‘zlar; naqsh bilan ishlovchi sohalar haqida fikr bildiradilar. GAPIRISH ko’nikmasini riv**



hosil qil

fanidan

er shoxob-

cha

gaytiris





320-mashq. **Bu mashqni ham “Brenrayting” metodi** yordamida bajarish mumkin. **Xattaxtaga tirkalgan rasmlardan biri o‘quvchi**






321-mashq. **Kasb-hunarga oid maqollarni ko‘chirib yozing, ulardagi g‘oya bo‘yicha o‘z fikrlaringizni ayting.** *YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

322-mashq. **Ona tili faniga oid 10 ta ilmiy termin yozing.** *YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi. Masalan:** *fonetika, ...*

323-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Matematikaga oid 10 ta termin yozib sharhlang.**

92-dars. IQTISODIYOTGA OID TERMINLAR

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi*: o’quvchilarga iqtisodiyot terminlari haqida nazariy ma’lumot berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarni tejamkorlikka o‘rgatish; ilm va kasb-hunarga qiziqishini shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Darsda oi‘qituvchilarga FSMU – metodi asosida o‘quvchilarga to‘rtta bosqichda yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi.

F – mavzu bo‘yicha fikringizni bayon eting

S – fikringiz sababini ayting

M – misollar keltiring
U – Umumlashtiring.

(Qog‘ozda “Pul nima?” savoli yoziladi. Pul haqida FIKR bering SABAB ko‘rsating; MISOL keltiring; Fikringizni UMUMLASHTIRING)

Har bir o‘quvchi o‘z nuqtayi nazarini qog‘ozga yozadi va uni sharhlaydi.(O‘quvchining fikrlash doirasi kengaytiriladi; *GAPIRISH* **ko‘nikmasi shakllanadi)**

Topshiriq. **Matnni o‘qing. Ajratilgan so‘zlarga e’tibor bering. O‘quvchilarning** *O‘QIB TUSHUNISH* **ko‘nikmasi shakllantiriladi**

“Munosabat bildiring “ orqali o‘quvchilarning *GAPIRISH* ko‘nikmasi shakllantiriladi.

3-topshiriqni *TINGLAB TUSHUNISH* (audio) orqali bajarish tavsiya qilinadi. Audio vositasida eshitilgan terminlar izohi o‘quvchilar tomonidan daftarga yoziladi.

“Tushunchalar tahlili” metodidan foydalanish mumkin.

Yechim:

	Tushuncha	Izohi
1	foyda	
2	daromad	
3	pul	
4	sotib olmoq	
5	shoxobcha	
6	qayta ishlash	
7	ishlab chiqarish	
8	erkin ne’mat	

324-mashq. **Quyidagi iqtisodiy terminlarning izohiga diqqat**

qiling, daftaringizga ko‘chiring.Bunda o‘quvchilarning *YOZISH* **ko‘nikmasi shakllantiriladi.O‘quvchilarga izohi berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzdirilsa ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.**

Tovar – sotish uchun chiqarilgan mahsulot.

Narx – tovar qiymatining puldagi ifodasi.

Daromad – kishi (oila)ning ma’lum vaqtda qo‘lga kiritgan moddiy hamda pul tushumlari.

325-mashq. **Tadbirkorlikka oid quyidagi maqollarni ko‘chiring.(‘quvchilarning YOZISH ko‘nikmasi shakllantiriladi)**

1. Ertangi ishga bugun reja tuz. 2. Tadbir bilan mushkul oson bo‘lar. 3. Qalovini topsang, qor yonar. 4. Puxtaning ishi “besh”, “shoshma”ning ishi bo‘sh. 5. Foydadan foyda chiqmasa, qora sigir qayda? 6. Ot olmay oxur tuzat.

326-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Quyidagi terminlarni ota-onangiz va lug‘at yorda mida izohlab ko‘chiring:** *resurs, iqtisodiy ne’mat, tijorat, tadbirkor.*

93-dars. INTERNETGA OID TERMINLAR

Darsning ***a)*** **ta’limiy maqsadi:** *o’quvchilarga internetga oid terminlar haqida nazariy ma’lumot berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Dars Donoxonning internet haqidagi fikrini yodga olish bilan boshlanadi.O‘qituvchi “Muzyorar” metodi asosida o‘quvchilarni mavzuga olib kiradi.

Qo‘yiladigan muammo: O‘quvchilardan internetga oid qanday terminlarni bilishlari haqida so‘rash. (“Men bilaman, sen-chi?” texnologiyasini qo‘llash maqsadga muvofiq) Bu esa o‘quvchilarni *GAPIRISH* **ko‘nikmasini rivojlantiradi.**

Topshiriqda ***“Internet olamida”*** **matnni o‘quvchilarga o‘qitiladi. Matnni** *O‘QIB TUSHUNGAN* **o‘quvchilar , ajratilgan so‘zlarning**

ma’nolarini izohlashga harakat qiladilar.

O‘quvchilar matnda ajratilgan so‘zlar izohini “Tushunchalar tahlili” metodi yordamida izohlashlari mumkin.

	Tushuncha	Izohi
1	**internet**	
2	**“Telegram”, “Instagram”, “Tvitter” (“Twitter”)**	
3	**“Feysbuk” (“Facebook”)**	

327-mashq. **Matn asosida testni yeching, savollarga javob bering:**

Yechim:

1. Butun dunyo kimni “matematika otasi” deb hisoblaydi?

A. Aristotelni;
B. Al Xorazmiyni;
C. Beruniyni;
D. Mark Sukerbergni.

2. “Facebook” dasturi qayerda yaratilgan?

A. Fanlar akademiyasida;
B. talabalar yotoqxonasida;
C. komputer o’yinlari xonasida;
D. talabalar o’quv zalida.

3. Sukerberg fikrini davom ettiring. “*Bir necha dushman topmasdan…*”

A. millionlab pul topa olmaysiz;
B. millionlab pul sarflay olmaysiz;
C. millionlab kashfiyot qila olmaysiz;
D. millionlab do’st topa olmaysiz

4. Aka-uka talabalar Markni nimada ayblashdi?

A. dasturni o’g’irlashda;
B. dasturni sotib olganlikda;
C. foydasiz dastur yaratganlikda;
D. zararli dastur yaratganlikda.

328-mashq. **Quyidagi so‘zlar daftarga ko‘chiriladi. (Izohlari esa “Men bilib oldim, sen-chi?” metodi yordamida yodga olinadi. Bunda o‘quvchilarning *GAPIRISH* ko‘nikmasi shakllanadi.**

Akkaunt – ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchining nomi;

bloger – o‘z qarashlarini internetdagi ma’lum bir platformada doimiy ravishda e’lon qiladigan kishi; **avatarka** – foydalanuvchi taqdimoti sifatida tanlangan rasm;

fayl – kompyuterda ma’lumot saqlovchi diskning nomlangan sohasi;

mem – mashhur bo‘lib, bahsga aylangan g‘oya yoki rasm;

xeshteg – ijtimoiy tarmoqlarda mavzubo‘yicha xabarlarni tarqatishda foydalaniladigan yorliq;

veb-sahifa – internetdagi hujjat va ma’lumotlar zaxirasi;

vebinar – to‘g‘ridan to‘g‘ri mashg‘ulot,

dayjest – ma’lum bir mavzu bo‘yicha eng qiziqarli nashrlarni yetkazadigan maqola.

329-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Iqtisodga oid terminlar qatnashtirib, “*Kompyuter menga nega ke rak: faqat o‘yin uchunmi?*” degan mavzuda 10–12 ta gapdan iborat matn tuzing. Fikrlaringizni ochiq bayon qilishga harakat qiling.**


94-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi*: o’quvchilarga zamonaviy axborot texnologiyalari- ning hayotimizdagi o‘rni haqida ma’lumot berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash; matn*

bilan ishlash texnologiyasi

d) rivojlantiruvchi maqsa







Fikr bering Sababini ayting Misol keltiring Umumlashtiring

Topshiriq. **Matn o‘quvchining *O‘QIB TUSHUNISH* va *GAPIRISH* ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.**

330-mashqda **o‘quvchilar har bir xatboshiga alohida sarlavha qo‘yadilar va matn asosida reja tuzadilar, daftarga yozadilar. Matnni *O‘QIB TUSHUNISH* orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, o‘qish savodxonligi shakllanadi.**

Yechim: ***sarlavhalar quyidagicha bo‘lishi mumkin:***

1. Miyaning vazifasi; Miya va kompyuter…
2. Protsestor; Hisob-kitobni boshqarish…
3. Jahon bozorida protsessorlar; Yangi protsessorlar…

331-mashq. **Quyidagi savollarga og‘zaki javob bering: Ushbu**

mashqda *GAPIRISH* **ko‘nikmasi shakllantiriladi.**

1. Zamonaviy axborot texnologiyalarining hayotimizdagi o‘rni haqida nimalar deya olasiz?

2. Kompyuterda qanday dasturlarda ishlay olasiz? **(“Word”, “Excel”, “Power Point”)**

3. Internetdan o‘zingiz uchun kerakli ma’lumotlarni qidirib topishni,saqlay olishni bilasizmi?

4. Eng yaxshi ko‘rgan kompyuter o‘yinlaringiz qaysilar?

332-mashq. **Matndagi o‘zlashma so‘zlarni ajratib yozing.Bu mashq orqali o‘quvchining** *YOZISH* **ko‘nikmasi shakllantiriladi.**

Yechim: o‘zlashma so‘zlar:

Biolog, kompyuter, protsessor, Intel, AMD va IBM firmasi, kompaniyasi , yadro, “POWER 4.

O‘quvchilarda *TINGLAB TUSHUNISH* ko‘nikmasini shakllantirsh maqsadida o‘qituvchi matndan biror so‘zni ajratib olib ,aytib turadi. O‘quvchilar esa daftarga shu so‘zning sinonimini yozadilar.

Masalan: d*astlabki* *– avvalgi –ilk – birinchi…*

333-mashq. ***Uyga vazifa*****. Informatika darsligingizdan foydalanib, “kompyuter miya”si – protsessorning qandayqurilmalardan tashkil topganini belgilab daftaringizga ko‘chiring.**

Har bir qurilmaningahamiyatini ko‘rsatib, izoh yozing.

Yechim: masalan, POWER4 – IBM kompaniyasining ko’p yadroli mikroprotsessori

95-dars. ANIQ FANLARGA OID TERMINLAR

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi*: o’quvchilarga aniq fanlarga oid terminlar haqida nazariy ma’lumot berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarda olam va odam haqidagi fikrlarini kengaytirish; matn bilan ishlash texnologiyasini shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Dars Donoxonning aniq fanlar haqidagi fikrini yodga olish bilan boshlanadi.O‘qituvchi “Muzyorar” metodi asosida o‘quvchilarni mavzuga olib kiradi.

Qo‘yiladigan muammo: O‘quvchilardan aniq fanlar deganda qaysi fanlarni tushunishlari haqida so‘rash. (“Men bilaman, sen-chi?”texnologiyasini qo‘llash maqsadga muvofiq)

Bu esa o‘quvchilarning *GAPIRISH* **ko‘nikmasini rivojlantiradi.**

O‘qituvchi o‘quvchilarda rasmdagi inson haqida bilganlarini aytishlarini so‘raydi. (U qaysi fanga asos solgan? Uni chet elda qaysi nomlar bilan atashadi? Shu fanda qo‘llanadigan asosiy terminlarni sanang)

Topshiriqdagi **matn o‘quvchilarga o‘qitiladi. Matnni** *O‘QIB TUSHUNGAN* **o‘quvchilar , ajratilgan so‘zlarning ma’nolarini izohlashga harakat qiladilar;** matn asosida 3 ta savol tuzadilar.

Yechim: savollar taxminan quyidagicha bo‘lishi mumkin.

1. Tabiatni kuzatganmisiz?
2. Narsalardagi shakllar haqida nima deb o‘ylaysiz?
3. Nega barcha tillarda raqamlar bir xil ishlatiladi?

334-mashq. **Taniqli bolalar shoiri Abdurahmon Akbarning quyidagi she’rini o‘qing. Ajratilgan so‘zlarni harfga aylantirib ko‘chiring. She’r siri nimada? (***O‘QIB TUSHUNISH* **va** *YOZISH* **orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, o‘qish savodxonligi shakllanadi.)**

O‘quvchilarda *TINGLAB TUSHUNISH* va *GAPIRISH* ko‘nikmasini shakllantirsh maqsadida o‘qituvchi **Matnni (audio vositasida yoki o‘zi) o‘qib beradi.**

Matn tinglangach, o‘qituvchi o‘quvchilarga: “Sizda ham shunday odat bormi? Kelajakda ulug‘ inson bo‘lish uchun qanday harakat qilyapsiz? ” kabi savollar bilan murojaat qiladi.

335-mashq. **O‘quvchilarning** *YOZISH* **ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida raqamlar ishtirok etgan maqollardan beshta yozish vazifasi yuklanadi..**

Masalan: *Sanamay sakkiz dema.*

Uyga vazifa. **Matematika darsiga doir 10 ta termin (atama) yozing va ular ning izohlarini bilib oling.**

96-dars. IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARGA OID TERMINLAR

Darsning *a) ta’limiy* maqsadi*: o’quvchilarga aniq fanlarga oid terminlar haqida nazariy ma’lumot berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarda olam va odam haqidagi fikrlarini kengaytirish; matn bilan ishlash texnologiyasini shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Dars Komiljonning ijtimoiy- gumanitar fanlar haqidagi fikrini yodga olish bilan boshlanadi.O‘qituvchi “Muzyorar” metodi asosida o‘quvchilarni mavzuga olib kiradi.

Qo‘yiladigan muammo: O‘quvchilardan ijtimoiy-gumanitar fanlar deganda qaysi fanlarni tushunishlari haqida so‘rash. (“Men bilaman, sen-chi?”texnologiyasini qo‘llash maqsadga muvofiq) Bu esa o‘quvchilarning *TINGLAB TUSHUNISH* **va** *GAPIRISH* **ko‘nikmasini rivojlantiradi.**

O‘qituvchi “Muzyorar” da quyidagicha murojaatlar qilishi mumkin:

1. Alisher Navoiyning quyidagi baytini takrorlang.

Yuqar yomonlik angakim, kirar yomon el aro,
Ko‘mir aro ilik urg‘an qilur ilkini qaro.

Mazmuni: “Yomonlar orasiga kirgan odamga yomonlik yuqadi, chunki ko‘mirga qo‘l tekizgan odamning qo‘li qora bo‘ladi”.

2. U qaysi janrda yaratilgan?

3. Yana qanday adabiy janrlarni bilasiz? Ularga misollar keltiring.

4. Oybekning “Bolalik”, Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”, Sadriddin Ayniyning “Eski maktab” asarlarini o‘qiganmisiz?

5. Ularda qo‘llangan *xatjild, xatcho‘p, taxta, xalfa, falah, bo‘yra*

kabi so‘zlar qanday ma’noni bildiradi?

6. Ularni tarix atamalari deyish mumkinmi? Eski maktabdagi holatni o‘zingiz o‘qiyotgan maktab sharoiti bilan solishtiring.

Topshiriq. **Matnni o‘qing.** *O‘QIB TUSHUNISH* **va** *YOZISH* **ko‘nikmasini shakllantirish uchun tarixga oid terminlarni topib ko‘chiriladi..**

Yechim: topshiriqni “Tushunchalar tahlili” texnologiyasi vositasida bajarish mumkin.

	Tushuncha	Izohi
1	robot	
2	dorush-shifo	
3	saltanat	

Ijtimoiy- gumanitar fanlar terminlari haqida gap ketganda o‘qituvchi quyidagi matndan ham foydalanishi mumkin: (O‘quvchilarning *GAPIRISH*, mushohada qilish kabi ko‘nikmasi shakllantiriladi)

Baxshilardan ulkan so‘z boyligi, jonli xalq tilining istalgan shaklidan mahorat bilan foydalanish, so‘z o‘yinlari va musiqa san’atidan yaxshi boxabar bo‘lish talab etiladi. Negaki, dostonlar faqat og‘zaki ijro uchun mo‘ljallanmagan. Ular chalgan musiqada 5 tadan 36 tagacha ohang mavjud. Ohanglarda o‘ziga xos sir yashirin. Do‘mbira, dutor yoki qo‘bizda chalib ijro etiladigan termalar xalq og‘zaki ijodining noyob durdonalari hisoblanadi.

Munosabat bildiring.

1. Matnga sarlavha toping.
2. Baxshichilik san’atiga oid terminlarni ko‘chiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

337-mashq. **Adabiyot darsligiga tayanib, savollarga javob yozing.Ushbu mashqni ““Intervyu” metodi”dan foydalanib bajarish mumkin.(** *YOZISH* **ko‘nikmasini shakllantirish)**

1. Hikoya nima?
2. Qanday hikoyalar bilan tanishdingiz?
3. Mirkarim Osimning qaysi qissasi bilan tanishdingiz?
4. Ertak nima? Uning qanday turlari bor?

338-mashq. **Quyidagi so‘zlarni rus va ingliz tillarida yozing:**

Yechim:

	O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
1	*kitob*	книга	
2	*sinf*	класс	
3	*o‘qituvchi*	учитель	
4	*kutubxona*	библиотека	
5	*bilim*	знание	
6	*o‘rganmoq*	научить	
7	*aqlli*	умный	
8	*beshinchi*	пятый	
9	*dars jadvali*	рассисание урока	

339-mashq. Uyga vazifa. **Geografiya faniga oid 10 ta termini izohlab yozing, yodda saqlashga harakat qiling.**

97-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini shakllantirish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o‘quvchilarda olam va odam haqidagi fikrlarini kengaytirish; matn bilan ishlash texnologiyasini shakllantirish;*
d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

O‘qituvchi “Muzyorar” metodi asosida o‘quvchilarni mavzuga olib kiradi.

Qo‘yiladigan muammo: O‘quvchilar bilan “Aqlli doska” metodiga suyanib kasb-hunar haqida savol-javob o’tkaziladi. O‘qituvchi xattaxtaga A4 formatda *Kasb-hunar* deb yozilgan varaqni tirkab qo’yadi. Turli-tuman kasb-hunar haqidagi rasmlar teskari holda stol ustiga qo’yiladi. O‘quvchi rasmlardan birini tanlaydi va o‘sha kasb-hunarga oid termin-so’zlarni aytib, xattaxtaga (klaster ko’rinishida) joylashtiradi.

(“Men bilaman, davom ettir”texnologiyasini qo‘llash maqsadga muvofiq) Bu esa o‘quvchilarning *TINGLAB TUSHUNISH* va *GAPIRISH* ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Topshiriq. **Berilgan matnni o‘qing.**

2. Matndagi muhandislik kasbiga tegishli narsalar nomini chizmaga joylashtiring.

340-mashq. **Kasb-hunarga oid so‘zlarni ko‘chiring. Ularning hayotdagi o‘rni haqida fikringizni bayon qiling.**

O‘qituvchi, uchuvchi, tarjimon, styuardessa, kutubxonachi, kulol, oshpaz, o‘t o‘chiruvchi, zargar.

341-mashq. **Berilgan so‘zlarni ilmiy va kasbiy terminlarga ajrating.” Bu bizniki ” grammatik o‘yini tavsiya qilinadi.**

Ilmiy terminlar	*Kasbiy terminlar*
tenglama	**soatsozlik**
miloddan avvalgi	**randa**
hujayra	**shpris**
she’r	**kashta**
imlo	**andava**
to‘g‘ri to‘rtburchak	

342-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Yurtimizdagi ota-bobolarimiz tomonidan quril gan ko‘hna obidalardan biri haqida matn yozib keling.**

98-dars. QAVM-QARINDOSHLIK BILAN BOG‘LIQ SO‘ZLAR

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi*: o‘quvchilarga qavm- qarindoshlik bilan bog‘liq so‘zlar haqida ma’lumot berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o‘quvchilarda olam va odam haqidagi fikrlarini kengaytirish; matn bilan ishlash texnologiyasini shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Dars Donoxonning shajara haqidagi fikrini yodga olish bilan boshlanadi.O‘qituvchi “Muzyorar” metodi asosida o‘quvchilarni mavzuga olib kiradi.

Qo‘yiladigan muammo: O‘quvchilardan shajaralari haqida

so‘rash. (“Men bilaman, sen-chi?”texnologiyasini qo‘llash maqsadga muvofiq) Bu esa o‘quvchilarning TINGLAB *TUSHUNISH* **va** *GAPIRISH* **ko‘nikmasini rivojlantiradi.**

343-mashq. O‘quvchilar ***“Bizning ahil oila”*** **mavzusida og‘zaki matn yaratadilar. Bobo, buvi, amaki, xola, tog‘a va ammalari haqida so‘zlab beradilar.**

Topshiriqda **Adabiyot darsligidan olingan matn o‘quvchilarga o‘qitiladi. Qavm- qarindoshlikni ifodalovchi atamalarga diqqat qilinadi. (***O‘QIB TUSHUNISH* **va** *YOZISH* **ko‘nikmasi ustida ishlanadi)**

Bola edim, go‘dak edim. **Onam aka-ukalar** haqida g‘alati bir cho‘p chak aytib bergan edi. Emishki, bir zamonlar ikki **aka-uka** yashagan ekan. Birining oti Ilhaq, ikkinchisiniki Is’hoq ekan. Ikkalasi bir-birini ko‘rarga ko‘zi yo‘q, juda noahil ekan. Ularninng ko‘nglini olaman deb, **ona**lari adoyi tamom bo‘pti. Shunda qodir Xudoning qahri kelibdi-yu, ikkovining ko‘zini ko‘r qilib, qushga aylantirib qo‘yibdi. Shundagina **aka-uka** bir-birini ko‘rmasa turolmasligini, bir-biriga kerak ekanligini tushunibdi. O‘shandan beri ikkalasi kechalari bo‘zlab bir-birini chaqirib chiqisharmish-u topolmas emish... *(O‘tkir Hoshimov)*

344-mashq. **Maqollarni ko‘chiring, ularda ilgari surilgan g‘oya to‘g‘risida o‘z fikringizni ayting. Qavm-qarindoshlikka oid so‘zlarning tagiga chizing.(** *YOZISH* **ko‘nikmasi shakllantiriladi)**

Yechim:

1. Bemehr **qarindosh**dan mehr bilgan yot yaxshi. 2. **Ota** – xazina**, aka-uka** – tayanch, do‘st esa har ikkalasi. 3. **Ota-bola** – bog‘,biri – gul, biri – bog‘bon. 4. **Ona**lik uyning ori bor, **Ota**lik uyning – zari.5. **Amma** keldi – hamma keldi. 6. **Xola** – ikkinchi ona.

344 (A)–mashq. ***Mavzuga qo‘shimcha sifatida o‘quvchilarga qavm-qarindosh atamalari qatnashgan topishmoqlar yozish vazifasi***

ham yuklash mumkin.

344 (B)–mashq. Mavzuga qo‘shimcha sifatida: Berilgan qavm-qarindosh otlarini ota taraf, ona taraf, betaraf kabi uch ustunga joylashtiring.

Amma, xola, buvi, bobo, ota-ona, aka, uka, singil, opa, tog‘a, jiyan, amaki, opoqi, kelin oyi, nevara, qaynana, qaynata, qayinsingil, qayin egachi.

345-mashq. Uyga vazifa. **Oilangizning shajara daraxtini chizing va shoxlariga qarindosh-urug‘laringizni joylashtiring.**

99-dars. MUSTAHKAMLA SH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi*: o‘quvchilarga qavm- qarindoshlik bilan bog‘liq so‘zlar haqida ma’lumot berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o‘quvchilarda olam va odam haqidagi fikrlarini kengaytirish; matn bilan ishlash texnologiyasini shakllantirish;*
d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

1-topshiriqni **tezkor savol-javob orqali bajarish mumkin.Bunda o‘quvchilarning** *GAPIRISH* **ko‘nikmasi shakllanadi.**

1. O‘zbek tili leksikasining boyish manbalarini ko‘rsating.
2. Yangi paydo bo‘lgan so‘zlarni qaysi sohalarda uchra tamiz?
3. Yozuvchilar o‘tmish haqidagi asarlarda tarixiy va arxaik so‘zlardan foydalanishadi. Buning sababi nima?
4. Terminlar nima? Ilmiy va kasbiy terminlarga misollar keltiring.

2-topshiriq. **O‘quvchilarning** *YOZISH* **ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi.**

Matn ko‘chirib yoziladi. Terminlar tagiga chiziladi.

Falsafa fanlari **doktor**i, **professor** Baxtiyor To‘rayevning yozishicha, bir kishi Beruniydan iltimos qilib,“Menga foyda keltiradigan biror narsani o‘rgatib qo‘ying”, debdi. Olim unga o‘tkir narsalardan tayyorlanadigan bir **dori tarkib**ini yozib beribdi. Bu **dori** suvga tomizilib,hosil bo‘lgan **modda**ga qalamni botirib, aqiq toshga chizilsa, toshdagi yozuv oq bo‘lib ko‘rinarkan. Buni o‘rganib olgan boyagi kishi “Muhammad”, “Ali” va boshqa ismlarni toshga yozib, “Bu falon joydan topilgan tabiiy yozuv”, deb da’vo qiladigan, sodda odamlarning pulini shiladigan bo‘libdi. Beruniy esa bu darsidan pushaymon bo‘lib, “Ilmni nafsi uchun ishlatadiganlarga o‘rgatish – uning jinoyatiga sherik bo‘lishdir”, deb tavba qilgan ekan. (“*Hikoyalar sarasi*”*dan*)

3-topshiriq. Topshiriqni “Audio matn” metodi orqali yoki o‘qituv-

chi yordamida bajarish mumkin. **Biror kasbga, fanga, internet va iqtisodiyotga oid terminlarni ajratib yozing. Bu terminlardan foydalanib, og‘zaki gaplar tuzing. (***TINGLAB TUSHUNISH* **va** *YOZISH* **ko‘nikmasi shakllanadi.)**

Masala, brauzer, tovar, Google, tikuv mashinasi, xarid qilmoq, randa, tenglama, kislorod, mahsulot, gidrosfera, sayt.

Mashqni “+” texnologiyasi orqali bajarish mumkin.

	So‘zlar	Fan	Texnika	Internet	Iqtisodiyot	Kasb
1	masala	+				
2	brauzer			+		
3	tovar				+	
4	Google			+		
5	tikuv mashinasi		+			+
6	xarid qilmoq				+	
7	gidrosfera	+				
8	randa					+
9	kislorod	+				
10	mahsulot				+	
11	sayt			+		
12	tenglama	+				

4-topshiriq. **Guruhlarga bo‘lining. Besh daqiqa ichida 1-guruh kasblarga oid, 2-guruh fanlarga oid so‘zlar yozadi. Qaysi guruh tezroq va ko‘proq so‘z yozib, g‘olib bo‘ladi?**

Kasbiy termin	Ilmiy termin

5-topshiriq. Uyga vazifa. **Qarindoshlaringizdan birining kasbi haqida 10–12 ta gapdan iborat matn yarating.**

100-dars. NAZORAT ISHI VA UNING TAHLILI

101-dars. IBORALAR

Darsning a) ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarga iboralar va ularning ahamiyati haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarga muomala madaniyatini*

singdirish, ularda ahillik, kamtarlik kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o'quvchilarda tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Dars tashkiliy qismdan so'ng quyidagi shaklan o'xshash bo'lgan jumlalarni yozuv taxtasiga yozish bilan boshlanadi.

1.Bolalar xonani boshiga ko'tardilar. 2.Jannat xola tugunini boshiga ko'tardi.

Gaplar mazmunidagi o'zaro farqni toping. Boshiga ko'tarmoq jumlasi qaysi gapda o'z ma'nosida qo'llangan? O'quvchilar farqni topish jarayonida iboraning mazmunini sharhlaydi.

1-topshiriq. ***TINGLAB TUSHUNISH*** **va** ***GAPIRISH*** *ko'nikmasini shaklantirish uchun mo'ljallangan. Matnni diqqat bilan o'qing. Og'ayni chalish iborasining kelib chiqishi va mazmuniga e'tibor bering. Matn o'qituvchi tomonidan yoki* ***"Audio matn" metodi orqali*** *eshittirilishi tavsiya etiladi*

Munosabat bildiring.

1. Iboraning so'zdan nima farqi bor?
2. Iboralardan foydalanish nutqqa qanday ta'sir qiladi?
3. Kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan qanday iboralarni bilasiz?
4. Ularning ma'nosi qaysi so'zga teng kelishi haqida o'ylab ko'rganmisiz?

350-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** Berilgan iboralarni ko'chiring. Ularning sinonimi va antonimini topib yozing. **"Pinboard" metodi**dan foydalanish tavsiya etiladi. Doskadagi jadvalga iboralar yoziladi. O'qituvchi stolida teskari holatdagi varaqlarga iboralarning sinonim va antonimlari yoziladi. O'quvchi varaqchalardan birini tanlaydi. Jadvaldagi mos katakchaga yopishtiradi.

Yechim:

Berilgan ibora	Sinonimi	Antonimi
og'zi qulog'ida	dimog'i chog', boshi osmonda	qovog'idan qor yog'moq
kapalagi uchmoq	kayfi uchmoq	bir mo'yi ham qilt etmadi
qo'y og'zidan cho'p olmagan	pashshaga ham ozor bermaydigan	yerga ursa, ko'kka sapchiydigan

351-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Quyida noto'g'ri izohlangan iboralarni to'g'rilang, ular ishtirokida gaplar tuzing. Mashq "Kim chaqqon?" o'yini orqali sinf doskasida bajariladi.**

Yechim:

	Ibora	Ma’nosi
1	adabini yemoq	qilmishiga yarasha jazosini olmoq
2	burni ko’tarilmoq	kibrlanmoq, gerdaymoq
3	bu qulog’idan kirib, u qulo g’idan chiqib ketmoq	e’tibor bermaslik, xotirasida tutib qolmaslik
4	misi chiqmoq	oshkor bo‘lmoq, siri fosh bo‘lmoq
5	bir yoqadan bosh chiqarmoq	hamjihat bo‘lmoq, yakdillik bilan
6	yuzi shuvut bo’lmoq	uyatli holda qolmoq

352-mashq. ***Uyga vazifa.*** *Rasmlar asosida “tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq”, “kapalagi uchmoq”, “jo‘jani kuzda sanaymiz” iboralarini izohlang, ular ishtirokida gaplar tuzing.*

102-dars. IBORALAR (davomi)

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarga iboralar va ularning nutqdagi ahamiyati haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarda milliy qadriyatlarimiz va ona tilimizga hurmat hissini tarbiyalash, insoniy fazilatlarni shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o’quvchilarda tinglab tushunish, o’qish, yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

349-mashq. **Qo’yilgan muammo:** *Quyidagi iboralar ishtirokida gaplar tuzing va ular anglatayotgan ma’noga diqqat qiling. Boshiga ko’tarmoq, yeng uchida ish qilmoq(yeng ichida ish qilmoq), oyog’ini qo’liga olib yugurmoq.*

Yechim: 1. Bolalar xonani boshiga ko’tardilar. (to’polon qilmoq)

2. Samandar-aqlli bola, u onasini e’zozlaydi, boshiga ko’taradi. (hurmat qilmoq)

3. Jinoyatchilarning yeng uchida ish bitirganligi ma’lum bo’ldi. (hech kimga bildirmasdan)

4. Bola oyog’ini qo’liga olib yugurgancha qishloq tomon ketdi. (juda tez yugurmoq)

O’qituvchi o’quvchilar bilan iboralar mazmunini izohlash jarayonida “boshiga yetmoq’’ iborasi misolida shakldosh iboralar haqida ham tushuncha berishi lozim. Bu o’rinda **„Zakovatli zukko” metodidan** foydalanish mumkin. Mazkur metod o’quvchilarda tezkor fikrlash ko’nikmalarini shakllantirish, tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Bunda o’quvchilar o’qituvchi tomonidan berilgan savollarga tez va aniq javob berishlari talab etiladi.

SAVOL:

1. Shakldosh iboralarga misol ayting.

2. ”Ko’z yummoq” iborasining ma’nolarini misollar bilan tushuntiring.

350-mashq. **Qo’yilgan muammo: Tarozining bir pallasiga oddiy so‘zlarni, ikkinchi pallasiga iboralarni qo‘ying. Qaysi tomonning qanday “yuk bosishi”ga e’tibor qarating. Iboralar ishtirokida gaplar tuzing, o‘rniga so‘zlarni qo‘yib ko‘ring.**

aldamoq	ko’zini bo’yamoq
aldanmoq	laqqa tushmoq
shirinsuxan	og’zidan bol tomadigan
xursand	chehrasi ochilgan
talabchan	qattiqqo’l
qo’rqmoq	o’takasi yorilmoq

Yechim:

Mashq YOZISH **va** *GAPIRISH ko’nikmasini shakllantirishga qaratilgan.* ***“Estafeta” o’yini*** *tavsiya etiladi. Birinchi guruh iboralar va so’zlarni taqqoslaydilar, ikkinchi guruh iboralar ishtirokida gaplar tuzib doskaga yozadilar, uchinchi guruh gapda qo’llangan iboralarning o’rniga so’z qo’yib ko’radilar va izohlaydilar.*

351-mashq. Qo’yilgan muammo: Ko‘z so‘zi ishtirokida hosil qilingan ko‘zdan kechirmoq; ko‘zi ola-kula bo‘lmoq; ko‘zining qirini tashlamoq; ko‘zi to‘rt bo‘lib kutmoq; qosh qo‘yaman deb, ko‘z chiqarmoq iboralarining ma’nolarini to ping. Ular ishtirokida gaplar tuzing, daftaringizga yozing.

Yechim:

Ibora	**Ma’nosi**
ko’zdan kechirmoq	sinchiklab, ko’rib chiqmoq
ko’zi ola-kula bo’lmoq	xavfsiramoq
ko’zining qirini tashlamoq	zimdan qarab qo’ymoq
ko’zi to’rt bo’lib kutmoq	intizor bo’lmoq
qosh qo’yaman deb, ko’z chiqarmoq	yanglish harakat qilmoq

352-mashq. **Qo’yilgan muammo:** *Quyidagi iboralarni ko‘chiring, qanday vaziyatda qo‘llanishini sharhlang.* **Namuna:** Qush uyasida ko‘rganini qiladi.

Odob – eng katta boylik. Odobni oilada o‘rganadilar, chunki qush uyasida ko‘rganini qiladi.

Yechim: Qush uyasida ko‘rganini qiladi - ota-onadan olgan tarbiyani namoyon qilmoq.(?)

Sichqonning ini ming tanga – qochishga joy topa olmay qolmoq

Sen bog‘dan kelsang, u tog‘dan keladi- fikrlari har xil
Og‘zi qulog‘ida bo’lmoq – xursand bo’lmoq

353-mashq. ***Uyga vazifa.*** *Bosh so‘zi ishtirok etgan iboralarni toping. Ular ishtirok etgan 5 ta gap yozing.*

103-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarning iboralar va ularning nutqdagi ahamiyati yuzasidan olgan bilimlarini matn va lug’at bilan ishlash orqali mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarda badiiy adabiyotga, kitobxonlikka bo’lgan qiziqishlarini oshirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Topshiriq. **Qo’yilgan muammo: Matnlarni diqqat bilan o‘qing. Bu qiziq!** *O’QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim: 1. bola; 2. kitob

Munosabat bildiring topshirig’i gapirish ko’nikmasini rivojlantirish uchun mo’ljallangan. **“Intervyu” metodi** tavsiya etiladi.

“*Topishmoqlar aqlni charxlaydi*” deyishadi. Siz nima deysiz?

354-mashq. **Qo’yilgan muammo: Matnlardagi qo‘shib yoziladigan so‘zlarni belgilab, daftaringizga** *YOZING.* **Imlo qoidalarini yodga oling. “Tahrir maktabi” yoki “Xatosini top” metodi** tavsiya etiladi. O’quvchilar matndan qo’shib yoziladigan so’zlarni izlaydilar. Jarayonda ajratib yoki chiziqcha bilan yoziladigan so’zlarni tahlil qiladilar. Mashq so’ngida qo’shib yoziladigan so’zlar yo’qligi oydinlashadi.

355-mashq. **Qo’yilgan muammo: Topishmoqlarni tinglang. Javobini toping.** *TINGLAB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi. “Meni tushun” metodi tavsiya etiladi.**

Yechim:

1. Uzoq tog‘da o‘t yonar. (quyosh) 2. Suvda yotar – suv ichmas, Yurganini odam bilmas. (oy) 3. Novcha yigit tom teshar. (yomg’ir) 4. Saman otim soy yoqalab keladi.(sel) 5. Tomdan tuxum irg‘itdim. (do’l) 6. Otlari har xil, yoshlari bir xil.(hafta kunlari)

356-mashq. **Qo’yilgan muammo: Berilgan maqollarni daftaringizga YOZING. Oy nomlariga diqqat qiling. YOZISH VA GAPIRISH ko’nikmasini rivojlantiradi “Idrok xaritasi” metodi tavsiya etiladi. Maqollarda berilgan fikrlarni rasmga ko’chirishlari kerak.**

Yechim: 1. Dalv kirdi, ekinlarga davr kirdi. 2. Yoz – yozil, qish –

qisil. 3. Yoz yomg‘iri yondan o‘tar, Qish yomg‘iri – jondan. 4. Asadda oralab ye, Sunbulada – saralab. 5. Ayamajiz olti kun, Olti oy qishdan qattiq kun. 6. Aqrab kelar hayqirib, Bola-chaqasini chaqirib.

Lug‘at:	*Mazmuni*
dalv	*shamsiya yil hisobida o’n birinchi oyning arabcha nomi (22-yanvar – 22-fevral davriga to’g’ri keladi)*
asad	*shamsiya yil hisobida beshinchi oyning arabcha nomi (22-iyul- 21-avgust oralig’iga to’g’ri keladi)*
sunbula	*shamsiya yil hisobida oltinchi oyning arabcha nomi 22-avgust – 21-sentabr oralig’iga to’g’ri keladi)*
ayamajiz	*qishning oxirgi haftasi*
aqrab	*shamsiya yil hisobida sakkizinchi oyning arabcha nomi 22-oktabr– 21-noyabr oralig’iga to’g’ri keladi)*

***357-mashq. Uyga vazifa*. Qiziqarli topishmoqlardan 10 ta yozing. Kelgusi darsda do‘stlaringizga o‘qib berib, bahslashing.**

104-dars. NAZORAT ISHI VA UNING TAHLILI

105-dars. MAQOLLAR

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarga maqollar va ularning nutqdagi ahamiyati haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarda milliy qadriyatlarimiz va ona tilimizga hurmat hissini tarbiyalash, insoniy fazilatlarni shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o’quvchilarda tinglab tushunish, o’qish, yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Topshiriq. **Hikoyani o‘qing va unga maqol bilan ifodalangan sarlavha tanlang.** *O’QIB, TINGLAB TUSHUNISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi. “Qayta hikoya” metodi tavsiya etiladi.**

Bir o‘g‘il otasi bilan ketayotib, yiqilib tushdi va og‘riqdan “Oh” deb yubordi. Tog‘ ortidan xuddi shunday ovoz eshitildi. Bola hayron bo‘lib:

– Sen kimsan? – deb baqirdi.

– Sen kimsan? – deb so‘radi ovoz.

– Sen qo‘rqoqsan! – dedi bola.

– Sen qo‘rqoqsan! – dedi ovoz.

Bolaning hayronligini ko‘rib otasi: “Sen ajoyibsan!” – deb baqirdi.

Ovoz endi mana shu ajoyib so‘zni qaytardi.“ Bolam, – dedi ota, – bu – aksi sado. Aslida, bu hayot degani, hayot berganingni qaytaradi ”.

358-mashq. **Yuqorida keltirilgan hikoyadan xulosa chiqaring. Berilgan o‘zbek xalq maqollari orasidan hikoyaga moslarini ajratib yozing.** *O’QIB TUSHUNISH* **va** *YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

359-mashq. **Adabiyot darslarida maqol janri haqida o‘qiganlaringizni esga oling va aytib bering.** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi. “Ha, Yo’q” yoki “Xotira mashqi” metodi tavsiya etiladi.**

Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Ularda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda lo‘nda bo‘lishi kerak.
Maqollar fi krni ta’sirchan, bo‘yoqdor qilib ifodalaydi. Nutqda maqollardan o‘rinli foydalanish so‘zlovchining mahorati hisoblanadi. Bejiz “Ilm o‘lchovi – aql, zehn o‘lchovi – naql”, deyilmaydi. *Maqollar*, asosan, bir, ikki misrali bo‘ladi. Ularda antonimlardan
keng foydalaniladi.

360-mashq. **“Besh luqma” topshirig‘i. Vatan va vatanparvarlik haqidagi ushbu maqollarni** *O‘QIB*, **sharhlashga harakat qiling. Ular asosida 5 ta gapdan iborat matn tuzing.**

361-mashq. **Maqollarni** *O‘QING*. **Avval ilm haqidagi, keyin mehnat haqidagi maqollarni** *YOZING*. **“Pantomimo” yoki “Zakovatli zukko” metodi tavsiya etiladi.**

Yechim:

Ilm haqidagi maqollar	Mehnat haqidagi maqollar
Ilmli uy charog‘on, ilmsiz uy zimiston. Bilganing daryo bo‘lsa, bilmaganing – dengiz. Ilmning tomir otishi achchiq, ammo hosili shirin.	Baxtingga ishonma, barmog‘ingga ishon. Dangasaga ostona tepa bo‘lib ko‘rinar. Daraxt yaprog‘i bilan ko‘rkam, odam – mehnati bilan. Tindim tunda, tinmadim kunduzi, bo‘ldi qo‘y telpagim qunduzi.

362-mashq. **Rasmdagi maqolni *O‘QING*. “Idrok xaritasi” metodi tavsiya etiladi. O’quvchilar maqollarda aks etgan g’oyani tabiatdagi biror narsaga qiyosan rasm ishlashlari kerak. Uy vazifasi sifatida berilsa, ma’qul bo’ladi.**

Yechim: **Birni kessang, o’nni ek**

363-mashq. **Quyidagi jahon xalqlari maqollaridan qaysi biri mantiqan boshqalariga bog‘lanmaydi?**

Yechim:

a) Bo‘ridan qo‘rqadigan podani uddalay olmaydi. (*Fors maqoli*)
b) O‘z kuchingga ishonmasang, yo‘qolasan. (*Udmurt maqoli*)
c) Muhimi tez yugurish emas, ertaroq yugurishdir. (*Fransuz maqoli*)
d) Qaysi barmog‘ingni tishlama, hammasi og‘riydi. (*Qozoq maqoli*)

364-mashq. ***Uyga vazifa*****. Halollik va do‘stlik haqida 10 ta maqol topib, daftaringizga ko‘chiring. (***YOZISH* **ko‘nikmasi shakllantiriladi*). Sharhlashga harakat qiling.***

106-dars. MAQOLLAR (davomi)

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarga maqollar va ularning nutqdagi ahamiyati haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarda milliy qadriyatlarimiz va ona tilimizga hurmat hissini tarbiyalash, insoniy fazilatlarni shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o’quvchilarda tinglab tushunish, o’qish, yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Topshiriq. ***Qo’yilgan muammo:*** **“Orzuga erishish yo‘li” matnining 1-qismini O‘QING. O’QIB, TINGLAB TUSHUNISH ko’nikmasini rivojlantiradi. O’qituvchi yoki o’quvchilar tomonidan o’qib eshittirilish mumkin. “Qayta hikoya” metodi tavsiya etiladi.**

Munosabat bildiring. *TINGLAB TUSHUNISH va GAPIRISH* ko’nikmasini rivojlantiradi.

1. “Qalbiga quloq solib yozdi” deganda nimani tushunasiz?

2. Nima deb o‘ylaysiz, voqeaning davomi qanday bo‘ladi?

365-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Matnning 2-qismini o‘qing**. *O’QIB, TINGLAB TUSHUNISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi. O’qituvchi yoki o’quvchilar tomonidan o’qib eshittirilish mumkin. “Qayta hikoya” metodi tavsiya etiladi.**

366-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Savollarga og‘zaki javob bering.** *TINGLAB TUSHUNISH va GAPIRISH* ko’nikmasini rivojlantiradi.

1. Anvarning qaysarligi uning hayotida qanday rol o‘ynadi?
2. Nega Anvar inshoni ramkaga solib qo‘ygan deb o‘ylaysiz?
3. Anvarning shunday yutuqlarga erishishiga undagi qaysi xususiyatlar yordam bergan deb o‘ylaysiz?

367-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Maqollarni yozing. Ulardan qaysi biri mantiqan matndagi voqeaga mos keladi?** *O’QISH* **va** *YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

1. Odamlar o‘zlarining aqli va o‘zgalarning boyligini hamisha oshirib gapiradilar. (*Hind maqoli*) 2. Baxtni izlamaydilar, uni mehnatda topadilar. (*Udmurt maqoli*) 3. Dushman qancha aqlli bo‘lsa, shu qadar xavfli. (*Tojik maqoli*) 4. To‘rga ilingan hamma narsa ham baliq emas. (*Portugal maqoli*)

368-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“*Orzuga erishishning 5 yo‘li*” mavzusida matn tuzing. O‘zingiz to‘g‘ri deb biladigan 5 usulni yozing va sharhlang. Matningizda maqollardan foydalaning.**

107-dars. HIKMATLI SO‘ZLAR

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarga hikmatli so’zlar va ularning nutqdagi ahamiyati haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarga o’zbek tilimizning lug’at boyligi haqida gapirish; o’z nutqini to’g’ri, ravon va tushunarli shaklda yetkazib bera oladigan farzand etib tarbiyalash ;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o’quvchilarda tinglab tushunish, o’qish, yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Topshiriq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Matnni diqqat bilan o‘qing.** *O’QIB, TINGLAB TUSHUNISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi. O’qituvchi yoki o’quvchilar tomonidan o’qib eshittirilishi mumkin. “Qayta hikoya” metodi tavsiya etiladi.**

Munosabat bildiring.

1. “Dono hamroh” – kim (nima)?

2. Nuh payg‘ambar haqida nima bilasiz? Navoiy hikmat biluvchilarga nima uchun Nuh payg‘ambarning umrini tilayapti?

Yechim: Nuh payg’ambar 950 yil umr ko’rgan.

“Qissasi Rabg’uziy” asaridan Nuh payg’ambar haqidagi hikoyatni aytib berish tavsiya etiladi.

Buyuk, taniqli shaxslarning ibratomuz fikrlari *hikmatli so‘zlar* deyiladi. Qo’shimcha nazariy ma’lumot: hikmatli so’zlar aforizmlar ham deyiladi.

369-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Hikmatli so‘zlar haqida buyuklar aytgan fikrlarni** *YOZIB OLING*, **sharhlashga harakat qiling.** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi tavsiya etiladi. O’quvchilar maqollarni avval o’z guruhlarida muhokama qiladilar, so’ng saylangan bir o’quvchi (spiker) sharhlab beradi. O’qituvchidan o’quvchi nutqiga, uning o’zini tutishiga e’tibor berishi talab etiladi.

370-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Navoiy hikmatlarini** *YOZING.*

Unga mos maqollarni tanlang. “Kimning xati chiroyli?” o’yini tavsiya etiladi.

So‘z – gavhar; so‘z – qo‘shiq, birinchi sado; so‘z – xazina, sarflagan bilan tuganmas xazina; so‘z – quyosh, nuri kamaymaydigan quyosh; so‘z – dengiz, suvi tugamaydigan dengiz. So‘z – jon, ruh uning qolipi. Til ochilgan lola bo‘lsa, so‘z shabnam kabidir.

Yechim:

Maqollar:

1. Anjom – uy ziynati, so‘z – inson ziynati. 2. Kuch egmaganini so‘z egadi. 3. Osh tuzi bilan sinalar, odam – so‘zi bilan. 4. Besh panjangni og‘zingga tiqma. 5. Olim so‘zi oz, oz bo‘lsa ham, soz. 6. Zang temirni kemirar, hasad – odamni. 7. Yaxshi so‘zga uchar qushlar el bo‘lar, yomon so‘zga pashsha kuchi fi l bo‘lar.

***371-mashq. Uyga vazifa*. Ilm olishning foydasi haqida o‘zingizga yoqqan hikmatli so‘zlardan 5 ta yozing. Muallifi haqida ham ma’lumot berishga harakat qiling.**

108-dars. HIKMATLI SO‘ZLAR (davomi)

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarga hikmatli so’zlar va ularning nutqdagi ahamiyati haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad: *o’quvchilarga o’zbek tilimizning lug’at boylini, imkoniyatlarini ko’rsatish; o’z nutqini to’g’ri, ravon va tushunarli shaklda yetkazib bera oladigan farzand etib tarbiyalash ;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *o’quvchilarda tinglab tushunish, o’qish, yozish va gapirish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Darsni o’quvchilarga Arastu (Atistrotel) shaxsini tanishtirish bilan boshlash tavsiya etiladi.

Aflotunning shogirdi. Miloddan avvalgi 384–322-yillarda qadimgi yunonistonda yashagan. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy “ dostonida shoh Iskandariyning vaziri sifatida tasvirlangan.

***372-mashq. Qo’yilgan muammo:* Yunon faylasufi**

Arastuning quyidagi hikmatlariga diqqat qiling, shaxsiy mulohazangizni bildiring. *O’QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmalarini rivojlantiradi. “Kichik jurnalist”** metodidan foydalanish tavsiya etiladi. O’quvchilarga savollarga oddiy javob bergandan ko’ra qo’lida mikrafonning maketi yoki kamera oldida(kamera vazifasini o’qituvchining telefoni o’tashi mumkin) javob berishi qiziqroq.

Izzat tilasang, iffatli bo‘l. Ulug‘lik tilasang, muloyim bo‘l. Zafar

tilasang, adolat yo‘lini tut. Qadr tilasang, rostgo‘y bo‘l. Jannat tilasang, sabr qil. Ilm o‘rganmoqchi bo‘lsang, jidd-u jahd qil.

Munosabat bildiring. *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

1. Nega inson ulug‘ bo‘lishi uchun muloyimtabiat bo‘lishi kerak?

2. Ilm yo‘lida jidd-u jahd (astoyidil harakat) qilishning qanday ahamiyati bor?

3. Adolatli bo‘lib, g‘alaba qozongan qaysi hukmdorlarni bilasiz?

373-mashq. Qo’yilgan muammo: **Quyidagi hikmatlardan Arastu fikrlariga mos keladiganini ajrating va daftaringizga yozing.(** *O’QIB TUSHUNISH va YOZISH* **ko’nikmalarini rivojlantiradi.)**

Yechim: 1. Igna bilan chiqar oyoqdan tikan, Igna tikan bo‘lsa, bu yomon ekan. (*X. Dehlaviy*) 2. Kuch adolatdadir. (*Amir Temur*) 3. Nodon do‘st – eng xavfli dushman. (*Lafonten*) 4. Har bir kishining fe’li va xulq-atvori o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga intilishida namoyon bo‘ladi. (*Gyote*)

374-mashq. Qo’yilgan muammo: **Quyidagi hikmatli so‘zlarning mualliflarini toping.** ***O’QIB TUSHUNISH va GAPIRISH*** **ko’nikmalarini rivojlantiradi.**

Yechim:

Hikmatli so‘zlar	**Muallif**
1. Badantarbiya bilan mashg‘ul bo‘linsa, hech qanday dori-darmonga zarurat qolmaydi, buning uchun muayyan bir tartibga rioya qilmoq shart.	**b) Ibn Sino**
2. Ishda oshiqqan ko‘p toyilur, Ko‘p toyilgan ko‘p yiqilur.	**a) Navoiy**
3. Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir, Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.	**c) Bobur**
4. Avvalo, maqsad va g‘oyani aniq belgilab oling, qolgan ishlar o‘z-o‘zidan bo‘laveradi.	**d) Maxatma Gandi.**

375-mashq. Qo’yilgan muammo: **Mashhur faylasuf Aflotunning quyidagi hikmatini sharhlab, kichik matn tuzing va daftaringizga yozing.** *O’QIB TUSHUNISH va* **YOZISH ko’nikmalarini rivojlantiradi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi** tavsiya etiladi. O’quvchilar guruhdoshlari bilan hikmatni tahlil qilib, so’ng hamkorlikda matn tuzadilar.

Har kimning gapini tekshirmay turib, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini bilmay turib, hukm chiqarma.

376-mashq. Qo’yilgan muammo: **Adabiyot darsida olgan ma’lu-**

motingizga tayanib, testlarni yeching. Ushbu hikmat adibiga tegishli to‘g‘ri fikrni toping.

Yechim:

Kim bor anga ilm tolibi – ilm kerak,
O‘rgangani ilm – tolibi ilm kerak.

a) “Hayrat ul-abror” dostonida rostgo‘ylikning foydasi haqida yozadi. (Alisher Navoiy)

b) “Dunyoning ishlari” asari muallifi. (O’tkir Hoshimov)

c) “Boburnoma” memuar asarining ijodkori. (Zahiriddin Muhammad Bobur)

d) “Bulut”, “Baliq ovi” kabi she’rlar yozgan. (Mirtemir)

377-mashq. ***Uyga vazifa. “So‘z haqida so‘z”.*** **O‘zbek allomalarining so‘zning qadriga yetish to‘g‘risidagi hikmatlaridan 6 ta topib yozing, sharhlashga harakat qiling.**

109-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi*: o’quvchilarning hikmatli so’zlar va ularning nutqdagi ahamiyati yuzasidan olgan bilimlarini matn va lug’at bilan ishlash orqali mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarni komil inson etib tarbiyalash; foydali internet saytlari bilan tanishtirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Topshiriq. **Matnni diqqat bilan o‘qing. O’QIB yoki TINLAB TUSHUNISH, shuningdek, GAPIRISH ko’nikmalarini rivojlantiradi. Matn o’qituvchi tomonidan yoki audio shaklda o’qib eshittiriladi. “Qayta hikoya” metodi tavsiya etiladi.**

Munosabat bildiring. *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

1. Javlonning tabiatidagi o‘zgarishga tog‘asi qanday ta’sir ko‘rsatdi? 2. Nima sababdan Javlon aynan qushlar haqida asar qidirdi?

378-mashq. Matnda ajratilgan so‘zlarni daftaringizga yozing, imlosiga diqqat qiling. YOZISH ko’nikmasini rivojlantiradi.

Yechim:

Mo‘jazgina, allaqanday, kutubxonachi, kutubxona, mutolaasi, zoologiya, ma’lumotlar

379-mashq. **Matnning qanday yakunlanishini xohlardingiz? Fikringizni og‘zaki bayon qiling.** *TINGLAB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmalarini rivojlantiradi. “Qayta hikoya” metodi**

tavsiya etiladi.

380-mashq. **Kitob haqida aytilgan quyidagi dono fikrlarga qo‘shilasizmi?**

O‘zingizga yoqqanini ko‘chirib oling va sharhlang. *GAPIRISH va YOZISH* **ko’nikmalarini rivojlantiradi.**

1. Kitobsiz uy – derazasiz uy. 2. Kitob baxt bilan bezatadi, ammo baxtsizlikda u tasalli beradi. 3. Kitobsiz ong – qanotsiz qush. 4. Non tanani to‘ydiradi, kitob esa miyani oziqlantiradi.

381-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“*Oilamiz va kitob*” mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn yarating. Unda ota-onangiz o‘qigan, sizga tavsiya qilgan kitoblari haqida yozing.**

110-dars. LUG‘AT VA UNING TURLARI

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarga lug’at va uning turlari, ahamiyati haqida tushuncha berish; ulardan foydalanish ko’nikmasini hosil qilish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: so’zning mo’jiza ekanligi, uning ilohiy qudratga ekanligini singdirish orqali so’zdan unumli foydalanish ruhida tarbiyalash ;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

382-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Rasmlar asosida ko‘chalarda o‘rnatilgan peshlavhalar, shiorlar, e’lonlarda xato yozilgan yozuvlarga misollar ayting. Ulardagi xatoliklarni qaysi lug‘atga asoslanib tuzatamiz? Yoki ko‘chadagi yozuvlarning barchasi to‘g‘ri yoziladimi?** *O’QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

383-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Quyida xato yozilgan so‘zlarni aniqlang. “Imlo lug‘ati” asosida ularni to‘g‘rilab yozing.** *O’QIB TUSHUNISH va YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim: alangga-alanga, abadiiy-abadiy, butkil-butkul, voqia-voqea, ishtimoiy-ijtimoiy, qiziqgan-qiziqqan, mikraskop-mikroskop, momaqaldiroq-momoqaldiroq, mumkun-mumkin, muhum-muhim, nixoyat-nihoyat, ovinmoq-ovunmoq, prizdent-prezident, sovol- jovob – savol-javob, naqorat-naqarot, holol-halol, xashorat-hasharot

So‘zlari alifbo tartibida joylashtirilgan, turlicha izohlar berilib, kitob shakliga keltirilgan to‘plam *lug‘at* deyiladi. Lug‘atlarning turi ko‘p. Masalan, so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi *imlo lug‘ati*da, ma’nosi *izohli lug‘at*da, boshqa tildagi shakli *tarjima lug‘ati*da be riladi. Undan tashqari, *ensiklopedik lug‘atlar*, *sinonim*, *antonim*, *omonim*, *paronim so‘zlar lug‘ati* ham bor.

384-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **“*O‘zbek tilining izohli lug‘ati*”da kitobga berilgan ta’rifni O‘QING, izohli lug‘at qanday bo‘lishi haqida o‘z fikringizni ayting. O’QISH VA GAPIRISH ko’nikmasini rivojlantiradi.**

KITOB [arabcha: yozilgan, muqovalangan asar]: 1. Ma’lum matnli varaqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqo valangan, hajmi 48 betdan kam bo‘lmagan, bosma (qadimda qo‘lyozma ham) asar. 2. Umuman, ma’lum shaxs, voqea-hodisa va boshqalarga oid tugal, odatda, nashr etishga (kitob bo‘lishga) mo‘ljallangan asar.

Lug‘at: **juzlab** – kitob varaqlarini mahkamlab tikmoq

385-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **A.Hojiyevning “*O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati*” kitobidan olingan parchani yozing. So‘zlarning izohiga e’tibor bering.** *O’QIB TUSHUNISH va YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Balandlamoq, yuqorilamoq, ko‘tarilmoq, o‘rlamoq. Baland (yuqori) tomon yo‘nalmoq. *Balandlamoq, yuqorilamoq* so‘zlarida shu ma’no aniq sezilib (ifodalanib) turadi. *Ko‘tarilmoq*, umuman, pastki nuqtadan tikkaga qarab yo‘nalishni bildiradi. Baland (yuqori) tomonga qarab yo‘nalish ma’nosi esa ma’lum so‘z yoki boshqa vositalar yordamida reallashadi. *O‘rlamoq* kam qo‘llanadi.

386-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Quyidagi so‘zlarni “*O‘zbek tilining imlo lug‘ati*”dan foydalanib, to‘g‘rilab** *YOZING.*

Yechim: albatda-albatta, baddiy-badiiy, vofodor-vafodor, gramatika-grammatika, dasxat-dastxat, yetovlon-yettovlon, jaxl-jahl, zahira-zaxira, ijot-ijod, metir-metr, muomila-muomala, odamzot-odamzod

111-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarning so’zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko’ra turlari, sinonim so’zlar yuzasidan olgan bilimlarini matn va lug’at bilan ishlash orqali mustahkamlash;;*

b) tarbiyaviy maqsad*: matnlarni o’qib, tahlil qilish orqali o’z maqsadlariga yetishish yo’lida to’siqlarni yengib o’tishga undash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Topshiriq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Matnni o'qing.** *O'QIB TUSHUNISH va TINGLAB TUSHUNISH,* **shuningdek,** *GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Ko'pchilik Leonardo da Vinchi ismini eshitganida, uning mashhur surati "Mona Liza"ni yodga oladi. U iqtidorli rassom edi. Lekin u faqat rassomchilik bilan chegaralanib qolmagan. Leonardo doim bilim olishga chanqoq bola bo'lgan. Atrof olamni o'rganib, ko'rgan narsalarini chizib borardi. Tasavvurga boy yigit bo'lgan. Leonardoning yozuv daftarchalaridan birida parashutli odamning surati bor. Qizig'i shundaki, bu g'oya 300 yildan keyin hayotga tatbiq etilgan. 1783-yilda fransiyalik uchuvchi yerga parashutda sakragan birinchi inson bo'lgan.

Bundan tashqari, u mexanik odam-robotni loyihalashtirgan. Leonardoning roboti to'g'ri o'tira olardi, qo'llarini silkitardi, boshini qimirlatib, og'zini ochardi va yopardi.

Leonardo da Vinchi o'z davridan ilgarilab ketgan odam edi. (*"Internet" ma'lumotidan*)

Munosabat bildiring. ***Qo'yilgan muammo:*** **Ushbu matnga quyidagi sarlavhalardan qaysi birini tanlagan bo'lar edingiz?** *GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

1. Leonardo da Vinchi – o'z davridan ilgarilab ketgan odam.

2. "Mona Liza" surati bilan mashhur bo'lgan ijodkor.

3. Leonardo – buyuk ixtirochi.

387-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Matndan olingan quyidagi so'zlarni "*O'zbek tilining izohli lugati*" dan topib, daftaringizga yozing.** *O'QIB TUSHUNISH va YOZISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

1	mashhur	*shuhrat qozongan, dong'i ketgan, nom chiqargan; atoqli, taniqli, tanilgan*
2	surat	*rassom tomonidan chizilgan tasvir, rasm*
3	chanqoq	*suvga tashna, suvtalab, suvsiragan*
4	tasavvur	*narsa, hodisa va sh.k. haqida kishi ongi-xayolidagi ma'lumot, bilim, tushuncha*
5	robot	*chexcha robota- erksiz mehnat; bu so'z birinchi marta chex yozuvchisi K.Chapek pyesasida ishlatilgan. Inson hayoti uchun xavfli sharoitlarda, odam borishi qiyin bo'lgan obyektlarda uning murakkab harakatlarini qisman yoki to'la bajaruvchi mashina-odam*
6	ilgarilamoq	*ilgari qarab yurmoq, olg'a tomon harakat qilmoq, siljimoq*

7	davr	*(ar-aylanish, aylana) jamiyat taraqqiyotida yoki tabiatda muhim voqea, hodisa yuz bergan yoki o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadigan ma'lum vaqt oralig'i*
8	birinchi	*tartib o'rni. 1 raqami bilan belgilangan*

388-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Nuqtalar o'rniga zarur harflarni qo'yib daftaringizga yozing va imlosiga diqqat qiling.** *YOZISH va GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim: iftixor, izhor, takbir, tadqiqot, o'yinqaroq, bo'yra, suhbat, saxovat.

389-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **"*O'zbek tilining sinonimlar lug'ati*"dan foydalanib, quyidagi so'zlarning ma'nodoshlarini yozing. ("+" texnologiyasi yordamida** *YOZISH VA GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiriladi.**

Yechim:

t/r	*So'zlar*	*dunyo, jahon, koinon,*	*ot, nom*	*eslamoq, xotirlamoq*	*tinglamoq, quloq solmoq*	*ilm, ma'rifat*	*odam, shaxs, kas*	*qobiliyat, kuch-quvvat, qudrat*
1	iqtidorli							+
2	inson						+	
3	ism		+					
4	eshitmoq				+			
5	yodga olmoq			+				
6	bilim					+		
7	olam	+						

390-mashq. ***Qo'yilgan muammo: Uyga vazifa.*** **"*Men yoqtirgan adib*" mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn yarating. Foydalanish uchun so'zlar:** ***muhtaram, iste'dod, kashfi yot, orzu, maqsad, ilm olmoq, harakat qilmoq, erishmoq.***

112–113-dars. NAZORAT ISHI

114-dars. IZOHLI LUG'AT

Darsning *a)* ta'limiy maqsadi: *o'quvchilarga izohli lug'at va uning ahamiyati, undan foydalanish ko'nikmasini o'rgatish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: jamoaga hurmat ruhida tarbiyalash; qiyin vaziyatda qolgan insonlarga yordam berish kerakligini singdirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

So'zlarning ma'nosi keng izohlanadigan lug'at *izohli lug'at* deyiladi

391-mashq. ***Qo'yilgan muammo: "O'zbek tilining izohli lug'ati"-dagi havas va hasad so'zlariga berilgan izohni o'qing. Yurtimizdagi qanday insonlarga havas qilasiz va kimlarning xatti-harakatlarini qoralaysiz? Shu haqda sinfdoshlaringiz bilan fikr almashing.*** *O'QIB TUSHUNISH va* ***GAPIRISH*** **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

HAVAS [arabcha – *aqlini yo'qotish, ehtiros; mayl, ishtiyoq; biror narsaga g'oyat berilganlik, kuchli istak*]: 1. Qiziqish, zavq hisi; shunday his-tuyg'uli munosabat. 2. Biror ish-faoliyat, kasb-korga bo'lgan rag'bat, intilish, istak, mayl.

HASAD [arabcha – *rashk, ko'rolmaslik, qizg'anish, suq, baxillik*] kimsaga xos, unga tegishli narsa, fazilat va shu kabilarni ko'rolmaslik, xush ko'rmaslik his-tuyg'usi.

392-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Quyidagi maqollarni yozing va ularni izohlang. Ajratilgan so'zlarni izohli lug'at yordamida sharhlang.** *YOZISH VA GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

1. Niyat qilsang, yetarsan, hasad qilsang, yitarsan (yiqilarsan). 2. **Suqlik xo'rlik** keltirar.

3. **Baxil**ning bog'i ko'karmas. 4. **Saxiy**bilan baxil bir quduqdan suv ichmas.

Yechim:

"Tushunchalar tahlili" texnologiyasi

	Tushuncha	Izohi
1	suqlik	suq ekanlik, ochko'zlik, to'ymaslik
2	xo'rlik	izzat-nafsi paymol bo'lish, tahqirlanish
3	baxil	(ar-xasis, ziqna, qurumsoq) birovga hech narsani ravo ko'rmaydigan; sarf-xarajatni yoqtirmaydigan, xasis, qizg'anchiq
4	saxiy	(ar-qo'li ochiq, saxovatli, himmatli, oliyhimmat) hechkimdan narsasini ayamaydigan; hotam; hotamtoy; tanti.

393-mashq. ***Qo'yilgan muammo: "Iqtisodiyotga oid atamalar va tushunchalarning izohli lug'ati"dan olingan misolni yozing. Tadbirkorlarga havas qilasizmi? Siz yashayotgan joyda tadbirkorlar bormi? Xalq nima uchun ularni hurmat qiladi?*** *YOZISH VA GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

TADBIRKOR – iqtisodiy resurslarning bir-biriga qo‘shilishini ta’minlovchi, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, iqtisodiy xavf-xatardan, javobgarlikdan qo‘rqmaydigan kishilar.

Lug‘at: **resurs** – zaxira (saqlab qo‘yilgan narsalar)

394-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“*O‘zbek tilining izohli lug‘ati*”dan *biznesmen, ishbilarmon, uddaburon, korchalon* so‘zlarining izohini toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.**

115-dars. IZOHLI LUG‘AT (davomi)

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarga izohli lug’at va uning ahamiyati, undan foydalanish ko’nikmasini o’rgatish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarning tibbiy madaniyatini oshirish; gigiyena talablariga rioya qilish sog’lomlik tamoyili ekanligini singdirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Topshiriq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan gap bo‘yicha o‘z munosabatingizni bildiring.** *O’QIB TUSHUNISH* ***yoki*** *TINGLAB TUSHUNISH VA GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Alisher Navoiy “Layli va Majnun”da so‘zni, demakki, tilni aytgan bilan sovimaydigan tarona, olgan bilan tugamaydigan xazina deb biladi:

Munosabat bildiring.

1. Maktabingizning kutubxonasida qanday lug‘atlar bor?

2. Ulardan foydalanib turasizmi?

395-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **X. Bekmuhamedovning “*Tarix atamalarining izohli lug‘ ati*”dan olingan parchani yozing. So‘zning ma’nosiga diqqat qiling.** *YOZISH VA GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

KARVONSAROY – Sharq, O‘rta Osiyo, Kavkaz shaharlarida va savdo yo‘llarida savdogarlar, sayyohlar va boshqa yo‘lovchilar qo‘nib o‘tishlari uchun qurilgan joy – robot bo‘lib, unda mehmonxona, oshxona, otxona, ombor, oziq-ovqat, ulov uchun yem-xashak mavjud bo‘lgan. O‘rta Osiyoning katta shaharlarida bir nechtadan karvonsaroylar bo‘lgan.

396-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **“*Tibbiyot qomusiy lug‘ati*”dan olingan parcha asosida bolalarda uchraydigan kasalliklar to‘g‘risida suhbatlashing.** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

ASTMA – kelib chiqish sabablari turlicha bo‘lib, o‘tkir rivojlangan

bo‘g‘ilish xurujlarining umumiy nomi (nafas siqishi).

397-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Quyidagi so‘zlarning izohini yozing va uni “*O‘zbek tilining izohli lug‘ati*”da berilgan ta’rif bilan solishtiring**. *YOZISH VA GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

“*O‘zbek tilining izohli lug‘ati*”da ko’p ma’noli so’zlar arab raqamlari bilan qayd etilgan. Mashq yechimida, asosan, so’zlarning asosiy ma’nolari berildi.

	So’zlar	*Izohi*
1	**kitob**	*(ar-yozilgan, muqovalangan asar) 1.Ma’lum matnli varaqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo’lmagan bosma(qadim qo’lyozma ham) asar; 2.umuman, ma’lum shaxs, voqea-hodisaga va b.ga oid tugal, odatda, nashr etishga mo’ljallangan asar*
2	**qalam**	*(ar-qamish pero; uslub; xat, dastxat) o’rtasiga ingichka, uzun grafit joylangan cho’p shaklidagi, axt yozish, rasm chizish uchun ishlatiladigan yozuv, chizuv asbobi*
3	**ma’naviyat**	*(ar-axloqiy holat; barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar) insoniyatning falsafiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va sh.k tasavvurlari va tushunchalari majmuyi*
4	**ma’rifat**	*(ar-bilim, fan; ma’lumot; tanishish) Ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g’oyalar asosida kishilarning ong-bilimini, madniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat*
5	**dars**	*(ar-saboq; ma’ruza) ta’lim muassasalarida ilm, ma’lumot berish maqsadida o’tkaziladigan o’quv mashg’ulotlari, saboq*
6	**mashg‘ulot**	*(ar-narsa, buyumlar; mahsulot) ish-yumush, kasb*

398-mashq. ***Uyga vazifa. “Sog‘ tanda – sog‘lom aql”*** **mavzusida matn tuzing. Tavsiya etiladigan so‘zlar va birikmalar: *badantarbiya, tozalik, yugurish, mashg‘ulot, to‘g‘ri ovqatlanish, vaqtida uxlash, kitobxonlik.***

116-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ta'limiy maqsadi: *o'quvchilarning lug'at turlari, ularning ahamiyati va ulardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini matnlarni o'qib, tahlil qilish orqali mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad*: matnlarni tahlil qilish orqali tarixiy va zamonaviy badiiy asarlarga qiziqish uyg'otish va badiiy asar o'qishni hayot tarziga aylantirish ko'nikmasini singdirish ;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Topshiriq. Qo'yilgan muammo: **Matnni o'qing. Ajratilgan so'zlar ma'nosini "*O'zbek tilining izohli lug'ati*"dan topib,yozing.** *YOZISH, O'QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Munosabat bildiring. *Qo'yilgan muammo: Humo, Semurg'* kabi afsonaviy qushlar haqida eshitganmisiz? Ular to'g'risida bilganlaringizni gapiring. *YOZISH VA GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:



Semug'-sharq xalqlari og'zaki ijodidagi afsonaviy qush; osmonda uchish, uzoq manzilni yaqin qilish haqidagi asriy orzu-umidlarning ramziy ifodasi. Semurg' obrazi "Qahramon", "Oynayi jahonnamo", "Rustam", "Kenja botir" kabi ertaklarda tasvirlangan.

Turkiy xalqlarda Humo, Anqo, Davlat qushi, Baxt qushi, Marqumomo, Kuntubulg'on, bulbuligo'yo va boshqa variantlari bor.

Humo-afsonaviy qush; baxt-saodat, davlat ramzi. O'zbekiston hududidagime'moriy yodgorliklarda, amaliy bezak san'ati buyumlarida Humo tasviri qadimdan ko'p uchraydi. O'zbekiston Respublikasi davlat gerbida ham Humo tasviri tushirilgan

399-mashq. Qo'yilgan muammo: **Adabiyot darsligingizda berilgan shoir va yozuvchilarning taxallusini sharhlang. Jumladan, "+" texnologiyasi yordamida *Navoiy, Bobur, Sa'diy, Oybek.*** *GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiriladi.**

Yechim:

	navo qiluvchi; kuyga, maqom va ohangga tegishli, kuychi (Navoiy asarlari lug'ati)	*baxt, tole; yaxshilik*	*sher, yo'lbars*	*beklar naslidan bo'lgan omadli, baxtli, toleyi oydek porloq; oyga mahliyo bo'lgan*
		+		
	+			
			+	
				+

400-mashq. ***Qo'yilgan muammo: "O'zbek tilining izohli lug'ati"-dan foydalanib, valiahd, bo' g'in, da'vat, da'vo, yo'lamoq, yo'llamoq so'zlarining ma'nosini yozing.*** *YOZISH va GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

Valiahd-podshoh yoki xon tirikligida o'z o'rniga tayinlab qo'yilgan taxt vorisi

Bo'g'in-gavda suyaklarining tog'aylar, paylar biloan birikkan joylari

da'vat- chaqiriq, undash; tashviqot

Da'vo- arz, shikoyat, iddao

Yo'lamoq-yaqin kelmoq, bormoq; yaqinlashmoq

Yo'llamoq- yo'l ko'rsatmoq, yo'l boshlamoq, yo'naltirmoq

401-mashq. ***Qo'yilgan muammo: "Ming bir so'zni bilaman" izohli***

lug‘atida berilgan quyidagi so‘zlarga to‘g‘ri keluvchi ma’nolarini moslashtiring. GAPIRISH ko’nikmasini rivojlantiradi.

Yechim:

	So‘z	Izohi
1	pista	tog‘larda o‘sadigan past bo‘yli daraxtning qobiqli danagi
2	lahza	ko‘z-ochib yumguncha o‘tgan vaqt
3	ekin	hosil olish uchun ekilgan, urug‘dan unib-o‘sgan o‘simlik
4	ibrat	odamlar uchun namuna
5	sandiq	asralishi kerak bo ‘lgan narsalar saqlanadigan buyum

402-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“*O‘zbek tilining izohli lug‘ati*” har bir xonadonda bo‘lishi kerak, degan fikrga qanday qaraysiz? “*Men uchun zarur lug‘at – izohli lug‘at*” mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn yarating.**

117-dars. IMLO LUG‘ATI

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarga imlo lug’at va uning ahamiyati, undan foydalanish ko’nikmasini o’rgatish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarga savodxonlik ham insonning fazilati ekanligini matnni o’qib, tahlil qilish orqali singdirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Topshiriq. Qo’yilgan muammo: **Dialogni o‘qing, fikr bildiring. Ajratilgan so‘zlarning yozilishiga diqqat qiling.** *TINGLAB TUSHUNISH, O’QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

– Do‘stim, devoriy gazetaga maqola yozayotgan edim. Ba’zi so‘zlarni yozishga qiynalyapman.

– Qanday aytsang, shunday yozavermaysanmi? Baribir, ***tahririyatimiz*** a’zolari tekshirib, keyin gazetani chiqarishadi-ku!

– Yo‘g‘-e, o‘zimiz ishlatadigan so‘zlarimizni ham bilmas ekanda, deyishadi. Harakat qilganimni **uqtirolmayman**, “savodsiz ekan”, degan fikr qoladi ularda.

– Hadeb **so‘rayvermaysan-ku**? “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” kitobing bormi?

– Yo‘q, shu kitobni sotib olishim kerak.

– Uning bir necha xil **nashrlari** bor. Juda bo‘lmasa, internetdan ham topsang bo‘ladi.

– Rahmat, do‘stim. To‘g‘ri yozish – **savodxonlik**, savodxonlik esa **madaniyatlilik** belgisi. Endi shu kitobni o‘zimga hamroh qilib olaman.

Munosabat bildiring.

1. “Savodxonlik madaniyati” deganda nimani tushunasiz?

2. Qaysi so‘zlarni imlo lug‘atidan qarab yozib, keyin eslab qolgansiz?

403-mashq. Qo’yilgan muammo: **Quyidagi so‘zlarni bilimingizga va imlo lug‘atiga tayanib, to‘g‘rilab yozing**. *YOZISH VA GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Tasaruf-tasarruf, momala-muomala, istirob-iztirob, ma’suliyat-mas’uliyat, ma’sud-mas’ud, mutxish-mudhish, hayol-xayol, me’-ros-meros, tadbiq-tatbiq, ta’qiqlamoq-taqiqlamoq, xatti xarakat-xatti-harakat, iftihor-iftixor, sumbula-sunbula, Istambul- Istanbul, qorong‘u-qorong’i, kulgu-kulgi, sajdagox-sajdagoh, etibor-e’tibor, million-million, mayishat-maishat, qirg‘ovil-qirg’ovul, material-material, atel’e-atelye, dorihona-dorixona, mahsustrans-maxsustrans.

Imlo (*orfografik*) *lug‘ati*da tilimizdagi so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi ko‘rsatiladi. So‘zlar alifbo tartibida beriladi. Yurtimizda imlo lug‘atlari bir necha bor nashr etilgan. Eng oxirgisi 2013-yilda chop etilgan imlo lug‘atidir. Unda 85000dan ortiq so‘zning yozilishi qayd etilgan.

404-mashq. Qo’yilgan muammo: **Ushbu so‘zlarni ikki ustunga ajratib yozing. Birinchi ustunga to‘g‘ri yozilganlarini, ikkinchi ustunga xato yozilganlarini yozing. Xato yozilgan so‘zlar yoniga to‘g‘ri shaklini yozib qo‘ying.** *YOZISH VA GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

To’g’ri	*Xato/to’g’ri*
istehzo	Avg‘oniston→Afg‘oniston
kafolat	*avf →afv*
jig’ibiyron	*ta’magir→ tamagir*
axloq	*taasuf→ taassuf*
sovuqmijoz	kish-kishlamoq→ *kishkishlamoq*
yukunmoq (iltijo qilmoq)	inshoat→inshoot
maslahatgo’y	kasbkor→ kasb-kor
shovullamoq	entsiklopediya →ensiklopediya
naqarot	baynalminal→ baynalmilal
	jangovor→ jangovar
	ochiqdanochiq→ ochiqdan ochiq
	poyafzal →poyabzal

405-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Lug'atdan foydalanib, testni yeching.** Imloviy to'g'ri yozilgan so'zlar qatorini belgilang.

Yechim:

a) asqatmoq, burg'ilamoq, mubohasa;
b) asqotmoq, burg'ilamoq, muboxasa;
c) asqatmoq, burg'ulamoq, mubahasa;
d) asqotmoq, burg'ilamoq, muboxasa.

406-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Ko'cha-ko'ydagi peshtaxtalarda, reklama va e'lonlarda xato yozilgan so'zlarni topib, daftaringizga YOZING. Imkoni bo'lsa, fotosuratini taqdim qiling.**

118-dars. IMLO LUG'ATI (davomi)

Darsning *a)* ta'limiy maqsadi: *o'quvchilarga imlo lug'at va uning ahamiyati, undan foydalanish ko'nikmasini o'rgatish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: matnlarni o'qib, tahlil qilish orqali inson hayotiga xavf solayotgan viruslardan himoyalanish ko'nikmasini oshirish; tabiat in'om etgan ne'matlardan oqilona foydalanishga o'rgatish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Topshiriq. Qo'yilgan muammo: **Matnni o'qing. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi to'g'ri yozilgan so'zni qo'ying, imlosiga diqqat qiling** *TINGLAB TUSHUNISH yoki O'QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiriladi.**

Yechim:

O'tgan asrlarda urushlar jahon tarixining tub… (*burilishi, burulishi*) nuqtasi bo'lgan bo'lsa, hozirgi va bundan keyingi o'zgarishlar… (*tabiiy, tabiy*) ofatlar, pandemiyalar ta'sirida yuzaga kelishi kutilmoqda.

Xususan, oxirgi o'n yillikda viruslar tarqalishi orqasidan sodir bo'layotgan pandemiyalar jahon iqtisodiyotiga va odamlarning turmush tarziga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda.

Amerikalalik taniqli epidemiolog Stefen Morz fikriga ko'ra, Yerdagi 50000 turdagi umurtqali… (*jonzot, jonzod*)larning har biriga xos bo'lgan, … (*tahminan, taxminan*), 20 xildagi virus mavjud. Biologlarning fikricha, yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchisi bo'lgan viruslarning tarqalishi qator sabablar bilan bog'liq. Shulardan biri insonlar tomonidan... (*sinashda, sinashta*) bo'lmagan yovvoyi hayvonlarning iste'mol qilinishidir. Shuningdek, o'rmonlarning yo'q qilinib, yerlarning o'zlashtirilishi ham tabiatda yashirinib… (*yotgan, yotkan*) viruslarni yuzaga chiqarmoqda.

Iqlim isishi natijasida eriyotgan tog‘ muzliklarida millionlab yillardan buyon saqlanib qolgan viruslar ham qayta uyg‘onmoqda.

Mutaxassislarning fikricha, insonlarning tabiatga nisbatan tajovuzkorona munosabati o‘zgarmasa, virusli epidemiyalar insonlarning yashashi uchun jiddiy tahdid bo‘lishi mumkin.

407-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Matnga quyidagi sarlavhalardan birini tanlang:**

Yechim:

1. Jahon tarixidagi burilishlar.
2. Viruslar – inqirozga vorislar.
3. Inson ekologiyaga, tabiat esa inson hayotiga tahdid solmoqda.
4. Inson va tabiat: qachon sulh tuzamiz? *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

408-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Matn asosida viruslar tarqalishiga sabab bo‘layotgan inson omillarini ko‘rsating.** *TINGLAB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

1. Sinashta bo‘lmagan yovvoyi hayvonlarni iste’mol qilish.
2. O‘rmonlarni yo‘q qilib, yerlarni o‘zlashtirish.
3. Iqlim isishi natijasida tog‘ muzliklarining erishi.

Yechim: a) 1. 2 b) 1. 2. 3

409-mashq. **Nuqtalar o‘rniga zarur so‘zni qo‘yib yozing.** *YOZISH VA GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

1. …….. – yuqumli kasallikning bir necha mamlakat, qit’ada yoppasiga tarqalishi

Yechim:

a) epidemiya; b) pandemiya; c) azimut.

2. ……. – yuqumli kasalliklarning ma’lum hududda odatdagidan ko‘p tarqalishi

Yechim:

a) epidemiya; b) pandemiya; c) ekologiya.

410-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Quyidagi so‘zlarning imlosiga e’tibor qilib, daftaringizga yozing. O‘qituvchingiz yordamida ma’nolarini izohlashga harakat qiling.**

(“Tushunchalar tahlili” texnologiyasi orqali *YOZISH VA GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiriladi.)**

Yechim:

1	ortopediya	tibbiyotning qo’l, oyoq va umutqa pog’onasiningtug’ma yoki keyin orttirilgan kasalliklarini o’rganuvchi, ularning oldini olush va davolash usullarini ishlab chiquvchibo’limi
2	nevrologiya	normal va patologik holatdagi nerv sistemasining tuzilishi va faoliyatini o’rganuvchi fan
3	multimedia	axborot-informatsiya uzatishning xailma-xil vositalari (matn, ovoz, jonlantirilgan va grafik tasvirlar va sh.k)ni qamrab oluvchi texnologiya; dasturlar, kompyuter vositalari
4	konsepsiya	qarashlar, fikrlar yo’nalishi tizimi; fikr yuritish, dunyoni tushunish, anglash usuli
5	strategiya	ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san’ati, shuningdek, umuman, boshqaruvni to’g’ri va istiqbolli rejalashtirish san’ati(ko’chma)
6	konstitutsiya	davlatning yuksak yuridik kuchga ega bo’lgan asosiy qonuni; barcha joriy qonunlarning asosi
7	delegatsiya	biror tashkilot yoki davlat tomonidan belgilangan, yuborilgan vakillar guruhi
8	biologiya	tirik organizmlarning hayoti va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi ta’limot
9	aksioner	aksiyalar egasi; undan foyda ko’ruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs; aksiyadorlik jamiyati a’zosi
10	advokatura	advokatlar tashkiloti
11	operatsiya	ba’zi kasalliklarni davolash maqsadida kasallangan joyni jarrohlik yo’li bilan yorish, kesish, tikish
12	paleolit	eng qadimgi tosh asri
13	prokuratura	mamalakatda qonunlarga to’la amal qilinishi va ularning to’g’ri qo’llanishi ustidan nazorat qilib turuvchi va sudda davlat manfaatlarini , davlat nomidan tuzilgan aybnomani himoya qiluvchi davlat organi
14	servis (korxona)	kundalik turmushning xilma-xil sohalarida-magazine, mehmonxona, sartaroshxona, yonilg’i quyish shoxobchalari va sh.k. da aholiga sifatli xizmat ko’rsatish va shunday xizmatning o’zi

15	shpris	darajalarga bo'lingan shisha yoki metal silindr hamda porshendan iborat asbob(organizmning to'qima va bo'shliqlariga kiritiladigan kovak nina yoki kateter orqali dori yuborish yoki suyuqlik tortib olishda qo'llanadi)
16	eksponat	muzey va ko'rgazmalarda namoyish qilinadigan, ekspozitsiyaga qo'yilgan narsa
17	elektropoyezd	elektr quvvati bilan yuradigan poyezd

411-mashq. ***Uyga vazifa. Viruslar tarqalishining oldini olish uchun nimalar qilishimiz kerak?*** **Ushbu muammoni yechishga yordam bering. Sizningcha, muammoni hal qilishning qanday yo'llari bor? Kamida 3 ta tavsiya yozing.**

Masalan: 1. Ko'proq ko'chat o'tqazish kerak. 2. Avtomashinalardan chiqayotgan zaharli tutunlarni fi ltrlash kerak. 3. Ozodalikka rioya qilish kerak.

119-dars. MATN VA LUG'AT USTIDA ISHLASH

Darsning *a)* ta'limiy maqsadi: *o'quvchilarning lug'at turlari, ularning ahamiyati va ulardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini matnlarni o'qib, tahlil qilish orqali mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish; olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Topshiriq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Matnni diqqat bilan o'qing. O'rta Osiyo qanday qilib rivojlanish markaziga aylandi?** *TINGLAB* ***yoki*** *O'QIB TUSHUNISH VA GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Munosabat bildiring.

1. Samarqandda o'g'il bolalar tarbiyasiga nima sababdan alohida e'tibor berilgan?

2. Buxoro, Samarqanddagi kutubxonalar ilm-fan taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatgan?

412-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Berilgan so'zlarni ikki ustunga ajratib yozing. Imlosiga diqqat qiling. Xatolarni tuzatib, jadvalga joylang. ("Xatosini toping" grammatik topshirig'i orqali** *YOZISH VA GAPIRISH* **ko'nikmasi rivojlantiriladi)**

Yechim:

Qo‘shib yoziladagan so‘zlar	Ajratib yoziladigan so‘zlar
o’rinbosar	kun bo ‘yi
issiqmijoz	shu yoqdan
tabriknoma	to‘q sariq
taklifnoma	kundan kunga
sheryurak	
mingoyoq	
Yangiyo’l	
fotoapparat	

413-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Quyidagilarni alifbo tartibida yozing.** *YOZISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim: ajdod, aylantirmoq, barpo etilmoq, hudud, hukmdor, ilm-fan, kelajak, kutubxona, madaniyat, qo‘llab-quvvatlamoq, solnoma, tarjima

414-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Yuqoridagi matndan olingan omonim so‘zlarning ma’nolarini izohli lug‘at yordamida topib yozing:** *chog‘, to‘q, ort, yot, yosh. YOZISH VA GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

1	***chog’***	*I.vaqt,davr II. xursang III. kichik IV. tayyor V. kuch-quvvat*
2	***to’q***	*I.qorni to’q II. tovushga taqlid so’z*
3	***ort***	*I.orqa II. oshib qolmoq III. yuklamoq*
4	***yot***	*I. begona II. uzala tushmoq*
5	***yosh***	*I.ko’z yoshi II. umr uzoqligi*

415-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Kutubxonalar qanday bo‘lishi kerak? Shu haqda fikringizni yozib keling.**

120-dars. MUSTAHKAMLASH

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarning lug’at va uning turlari mavzulari yuzasidan olgan bilimlarini matn va lug’at bilan ishlash orqali mustahkamlash;*

b) tarbiyaviy maqsad*: matnlarni o’qib, tahlil qilish orqali ona-tabiatni avaylab-asrash, unga ziyon yetkazmaslik, o’z maqsadlariga yetishish yo’lida to’siqlarni yengib o’tishga undash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

1-topshiriq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Savollarga javob bering.** *GA-PIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

1. Lug‘atlarning qanday turlari bilan tanishdingiz?
2. Qaysi lug‘at to‘g‘ri yozishga o‘rgatadi?
3. So‘zlarning lug‘aviy ma’nosi, ya’ni anglatadigan tushunchasi qaysi lug‘atda beriladi?
4. Biror so‘zning boshqa tildagi shaklini bilmoqchi bo‘lsangiz, qaysi lug‘atga murojaat qilasiz?

2-topshiriq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Tengdoshlaringizning internetdan olingan fikrlariga diqqat qiling.** *TINGLAB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

3-topshiriq. ***Qo’yilgan muammo:*** **O‘quvchilar fikrlaridan foydalanib, test savollariga javob bering va topshiriqlarni bajaring.** *O’QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

1. Sizningcha, tengdoshlaringiz quyidagi savollardan qaysilariga javob berishgan?
a) Bugun dunyoda qanday muhim muammolar mavjud?
b) Fazoviy tadqiqotlarga qanday munosabat bildirasiz?
c) Yerdan tashqarida hayot borligiga ishonasizmi?
d) Fazoviy tadqiqotlar orqali qanday yutuqlarga erishildi?
2. Qaysi o‘quvchi Maftunaning fikriga mutlaqo zid fikr bildirgan?
a) Farzona; b) Komron; c) Asadbek; d) Doniyor.
3. Siz qaysi tengdoshlaringizning fikriga qo‘shilasiz? Sababini o‘z so‘zlaringiz bilan yozing.
4. Koinotni o‘rgangan qaysi allomani bilasiz?

Yechim: Mirzo Ulug’bek, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg’oniy…

4-topshiriq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Guruhlarga bo‘linib, osmon jismlari yashirilgan topishmoqlar musobaqasi uyushtiring**. *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

5-topshiriq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Matnlarda berilgan *koinot* so‘zining sinonimlarini topib, alifbo tartibida yozing.** *O’QIB TUSHUNISH va YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

6-topshiriq. ***Qo’yilgan muammo: Uyga vazifa.*** **“*O‘zga sayyoraga borib qolsam,…*” mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn yarating.**

121-dars. NAZORAT ISHI PUNKTUATSIYA

122-dars. PUNKTUATSIYA BO‘LIMI HAQIDA MA’LUMOT

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarning tinish belgilari va ularning nutqdagi o’rni haqida tuhsunchalarini oshirish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: matnlarni o'qib, tahlil qilish orqali o'quvchilar ongiga ona-yurt tuprog'ining aziz va qadrli ekanligini singdirish va unga hurmat ruhida tarbiyalash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

416-mashq. **She'rni** *O'QING*. ***Qo'yilgan muammo:***

Tinish belgi – bizga o'rtoq,
Matnda u yo'lchiroq.
Har birining o'rni bo'lak,
Savodxonlikka saboq.

Munosabat bildiring. ***Qo'yilgan muammo:*** **Nega tinish belgilari svetoforga o'xshatilyapti? Ularning yozma ishlardagi o'rni haqida gapiring.** *GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

417-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Quyidagi gaplarni tinish belgilariga e'tibor berib yozing. Gaplar ma'nosida qanday farq sezdingiz?** *YOZISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

1. To'g'ri, yo'llarda yurish xavfl i emas. To'g'ri yo'llarda yurish xavfl i emas.

2. Soliha opang qayerda o'qiydi? Soliha, opang qayerda o'qiydi?

1. Tog'ri- kirish so'z; 2. Soliha- undalma

418-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Tinish belgisining ma'no farqlashiga diqqat qiling. "*Robot nechta?*" *GAPIRISH* ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

1. Umarjonning, Ominaning ukasining mikrosxemali roboti bor. (2 ta robot)

Umarjonning, ukasining mikrosxemali roboti bor.

Ominaning ukasining mikrosxemali roboti bor.

2. Umarjonning, Ominaning ukasining (Umarjon so'zining aniqlashtirish uchun qo'llanilgan; ajratilgan bo'lak), mikrosxemali roboti bor. (1 ta robot)

Topshiriq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Matnni o'qing. Tinish belgilariga e'tibor bering.** *O'QIB yoki TINGLAB* **tushunish, shuningdek,** *GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Tumor

O'zbekistonning Afg'onistondagi elchixonasida ishlagan kez larim edi. Bir kuni avto ulovimiz loyga botib qoldi. Qancha urinsak ham, chiqara

olmadik. Mahalliy aholidan ko‘mak so‘radik. Qarangki, baxtimizga ular o‘zbeklar ekan. Ularning ota-bobolari O‘zbekistondan bo‘lgan ekan. Bizni mehmon qilishdi. Ularga yurtimiz haqida, Samarqand-u Buxoro, Toshkent haqida so‘zlab berdik. Ketar chog‘imizda bir ulug‘sifat kishi so‘radi: “Birodari aziz! Vatan tuprog‘idan bir ni shona bormi?”

Birdan yodimga xaltamdagi paxta gulli chinni piyola keldi, ularga berdim. Oqsoqollari birma-bir qo‘llariga olib, tavof qilishdi. So‘ng butun boshli qavm navbat bilan shu piyolada suv ichishdi.

Men piyolani ularga hadya qildim. Ular esa piyolani mayda bo‘laklarga bo‘lib, taqsimlab olishdi.

– Vatan tuprog‘idan tumor yasaymiz, uyimiz to‘riga qadab qo‘yamiz… (*S. Mustafoyev. “G‘aroyibot” kitobidan*)

Lug‘at: **qavm** – bir urug‘ga mansub, mahalla; **tavof qilmoq** – muqaddas, aziz bilib e’zozlamoq

Munosabat bildiring. ***Qo’yilgan muammo:***

1. Afg‘onistonda yashayotgan o‘zbeklar o‘rnida bo‘lib qolishni istarmidingiz?

2. Vatan sog‘inchi ifodalangan qanday fi lm tomosha qilgansiz?

Tinish belgilarining yozma nutqda qo‘llanish qoidalarini o‘rga nuvchi bo‘lim *punktuatsiya* deyiladi. Savodxon bo‘lish, yozuv madaniyatini egallash uchun tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay bilish kerak.

O‘zbek tilida 10 ta tinish belgisi mavjud.

419-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Mashqni yozing. 1- va 3-gaplardagi tirening, 2- va 4-gaplardagi chiziqchaning ishlatilishiga diqqat qiling.** *YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

1. Navoiy fikricha, Vatanni tark etmoq – ranji g‘urbat, alamga to‘la ayriliq. (Ega va ot kesim o’rtasida)

2. Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida usturlob (teleskop) haqida ma’lumot beradi. Usturlob bu asar yozilgandan 100 yil keyin yaratilgan, demak, Navoiyning boy fantaziyasi (xayoloti)ga shak-shubha yo‘q. (*O. Madayev. “Navoiy suhbatlari”*) (juft so’zda)

3. Vatanning vayronasi – umrning g‘amxonasi. (*Maqol*). (Ega va ot kesim o’rtasida)

4. El-u yurting bo‘lmasa, oy-u kuning bo‘lmasin. (*Maqol*) (juft so’zda)

Tire (–) bilan *chiziqcha* (-)ni farqlash lozim. Tire tinish belgisi, chiziqcha (defi s) esa imlo qoidalarida o‘rganiladigan belgidir.

420-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Hikmatni yozing, undagi tire va chiziqchaning qo'yilishiga e'tibor bering.** ***YOZISH*** **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Uquv ko'rki – bilim, bu til ko'rki – so'z,

Kishi ko'rki – yuz-u, bu yuz ko'rki – ko'z. (*Yusuf Xos Hojib*) (Ega va ot kesim o'rtasida; yuz-u so'zida bog'lovchini ajratyapti)

421-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Boshqa shahar yoki qishloqda yashayotgan tengdoshi -ngizga maktub yozing. Maktubingizda o'z joyingizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlari haqida gapiring.**

123-dars. NUQTA VA VERGULNING ISHLATILISHI

Darsning *a)* ta'limiy maqsadi: *o'quvchilarga nuqta va vergulning ishlatilish o'rinlari va ularning nutqdagi ahamiyati haqida tushuncha berish;;*

b) tarbiyaviy maqsad*: oila-muqaddas dargoh ekanligi va ota-onaning xizmatini qilish burchimizligini matnlarni tahlil qilish orqali o'quvchilarga singdirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

422-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Quyidagi belgilar // o'rniga zarur tinish belgisini qo'yib, gaplarni yozing. Qo'yiladigan belgining nima sababdan ishlatilayotganiga diqqat qiling.** *YOZISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

1. To'ti olti kun deganda podsho saroyiga yetib kelibdi // (.) ("*Uch og'a-ini botirlar*" *ertagidan*) (Darak, xabar mazmunidagi, ba'zan buyurish mazmunidagi gaplardan so'ng)

2. To'qayda bir yirtqich sher bor edi // (.)Vahshatda osmon sheridek qo'rqmas edi //(.) (*Navoiy. "Sher bilan durroj" hikoyati*) (Darak, xabar mazmunidagi, ba'zan buyurish mazmunidagi gaplardan so'ng)

3. Bola //(.) (Voqea-hodisa, shaxs-narsani nomlash uchun ishlatilgan (bir so'z yoki so'z birikmasi bilan ifodalangan) qisqa gapdan so'ng) Bolaning ko'ngli – poshsho // (.) (*Oybek*) (Darak, xabar mazmunidagi, ba'zan buyurish mazmunidagi gaplardan so'ng)

Nuqta quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Darak, xabar mazmunidagi, ba’zan buyurish mazmunidagi gaplardan so‘ng: *Bobom mosh-guruch soqolli, yuzi ajinlarga to‘la barvasta qariya edi.* (*I.Sulton*)

2. Voqea-hodisa, shaxs-narsani nomlash uchun ishlatilgan (bir so‘z yoki so‘z birikmasi bilan ifodalangan) qisqa gapdan so‘ng:

Yashash. Bu – orzular qanotin kermoq.

Yashash. Bu – muhabbat gullarin termoq. (*O. Matjon*)

3. Tartib bildiruvchi arab raqamlaridan so‘ng: *Nutq tovushlari 2 xil bo‘ladi: 1. Unli tovushlar. 2. Undosh tovushlar.*

423-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Quyidagi jumlalarni yakunlab, gap hosil qiling.** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

1. Ulg‘ayganimda …
2. Qishlog‘im (shahrim)ning chiroyi …
3. Chet elliklarning …
4. Ellik yildan so‘ng …
5. Onam bir kun yonimda bo‘lmasalar …
6. Aql – bilimdan, bilim esa …

Vergul quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Sanash ohangida aytiladigan bo‘laklar – uyushiq bo‘laklar orasida: *Chetlarida jiydalar, majnuntollar o‘sgan anhorga havas bilan qaradi.* (*Said Ahmad*)

2. Undov so‘zlardan keyin: *Iya, yubilyar ekansan-da, shoshmay tur-chi, hozir.*

(*O‘. Hoshimov*)

3. Biror shaxsga murojaat – undalmalardan keyin: *O‘g‘rigina bolam, hoynahoy, biror tiriklikning ko‘yida tomga chiqqan ko‘rinasan?* (*G‘afur G‘ulom*)

4. So‘z takrorlansa: *Shoir itoatkorona bosh irg‘ab:*

– O‘qiganmiz, o‘qiganmiz, – deb tan oldi. (*O. Yoqubov*)

5. So‘zlovchining o‘zi bildirayotgan fikrga qo‘shimcha munosabatini bildiradigan so‘zlarning ikki tomonida: *Endi bu soatdan boshlab Marg‘ilondan roziman, negaki yo‘qlab kelguvchi sizning kabi qadrdonlar ham bo‘lur ekan.* (*A. Qodiriy*)

424-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Mashqni yozing. O‘tkir Hoshimovning “*Dunyo ning ishlari*” asaridan olingan gaplarda vergulning nima sababdan ishlatilganini tushuntiring.** *YOZISH* **va GAPIRISH ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

1. Qiziq, yuragimda yana o‘sha shirin orziqish uyg‘ondi. (So‘zlovchining o‘zi bildirayotgan fikrga qo‘shimcha munosabatini bildiradigan so‘z) 2. Sandiq qatta, bolam? (Biror shaxsga murojaat – undalma) 3. Shundagina aka-uka bir-birini ko‘rmasa turolmasligini, bir-biriga kerak ekanligini tushunibdi. (Sanash ohangida aytiladigan bo‘laklar – uyushiq bo‘lak) 4. Iya, Tohirjon sizning akangiz-ku! (Undov so‘z) 5. Ehtimol, onalarning so‘ngan yulduzlari birlashib quyoshga aylangandir? (So‘zlovchining o‘zi bildirayotgan fikrga qo‘shimcha munosabatini bildiradigan so‘z) 6. Yo‘q, yo‘q, yig‘layotganim yo‘q. Hozir o‘tib ketadi. (So‘z takrorlangan)

Topshiriq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Shoir Erkin Vohidovning “*Vergul haqida*” she’rini o‘qing.** *O’QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Munosabat bildiring.

1. Shoir bu tinish belgini nimalarga qiyoslagan?

2. Siz nimalarga o‘xshatgan bo‘lar edingiz?

Shoirning o‘xshatishlari	**Sizning o‘xshatishingiz**
yangi oy	erkaklar do‘ppisidagi naqsh
qing‘ir-qiyshiq joy	qosh
shovva bo‘lgan soy	kiprik
mergan tortgan yoy	egilgan qad
kamalak	qalampir
pilla qurti	banan mevasi
Afandining kavushi	o’roq

425-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“*Men nuqta va vergulni qayerlarda ishlatishni bilaman*” mavzusida 10–12 gapdan iborat matn tuzing. Quyi sinflarda olgan bilimlaringizni matn orqali namoyon qiling.**

124-dars. SO‘ROQ BELGISINING ISHLATILISHI

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarga so’roq belgisining ishlatilish o’rinlari va uning nutqdagi ahamiyati haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: umuminsoniy va milliy qadriyatlar ni e’zozlashga o’rgatish; yoshi kattalar bilan suhbatlashganda o’zini qanday tushlari kerakligini matn tahlili orqali singdirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Topshiriq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Matnni o'qing** *O'QIB TUSHUNISH yoki TINGLAB TUSHUNISH,* **shuningdek,** *GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

Aqlli bolaning javobi

Podshohlardan biri o'z vazirinikiga mehmonga boribdi. Vazirning odobli, so'zi chiroyli o'g'li bor ekan. Podshoh o'sha bolani yoniga o'tqazib, undan so'rabdi:

– Mening uyim chiroylimi yoki otangnikimi?

– Qachon podshoh otamning uyida bo'lsa, albatta, otamning uyi chiroyli! – deb javob beribdi bola.

Keyin podshoh barmog'idagi qimmatbaho uzukni ko'rsatib undan so'rabdi:

– Bu uzukdan ham chiroylisini ko'rganmisan?

– Ha! Uzuk taqilgan qo'l uzukdan chiroyli, – debdi bola.

Podshoh uning hozirjavobligidan taajjublanib, yana so'rabdi:

– Mendan keyin podshoh bo'lishni istaysanmi?

– Podshohning o'g'li mendan ko'ra podshohlikka haqliroq, – debdi bola.

Bu javobdan podshohning shodligi yanada oshib, vazirning o'g'liga bergan tarbiyasidan mamnun bo'libdi. ("*Bola odobi bilan aziz" kitobidan*)

Munosabat bildiring.

Kattalar amaldorlarni maqtayversa, "xushomadgo'y" deyishadi. Bolalar maqtasa-chi? Ular xushomad, laganbardorlikni bilishad imi?

426-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Matnda ishlatilgan so'roq mazmunidagi gaplarni** *YOZING***. Agar siz vazirning o'g'li o'rnida bo'lganingizda shu savollarga qanday javob bergan bo'lar edingiz? O'z javobingizni yozing.** *TINGLAB TUSHUNISH***, shuningdek,** *YOZISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

1. Mening uyim chiroylimi yoki otangnikimi?
2. Bu uzukdan ham chiroylisini ko'rganmisan?
3. Mendan keyin podshoh bo'lishni istaysanmi?

Savol mazmunidagi gaplar *so‘roq gaplar* hisoblanadi. Ular so‘roq so‘zlari va ***-mi, -chi, -a, -ya*** kabi so‘roq mazmunidagi qo‘shimchalar yordamida hosil bo‘ladi:

– *“Meniyam kitob qilib yozsang**-chi**?” – degan edingiz.*

– *“Sizning **nimangizni** kitob qilaman, oyi?” – degan edim men.* (*O‘tkir Hoshimov*)

Ko‘pincha *kim?, nima?, qanday?, qancha?, nima qilmoq? so‘zlari* gap ichida qo‘llanganda ular ortidan so‘roq belgisi qo‘yiladi: *Sifat turkumiga oid so‘zlar qanday?, qanaqa?, qaysi? so‘roqlariga javob bo‘ladi.*

427-mashq. Qo’yilgan muammo: **Quyidagi so‘zlarga savol berib, jadvalga joylang. Yozilishiga va ma’nosiga diqqat qiling.** *TINGLAB TUSHUNISH*, **shuningdek,** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

Kim?, nima?	Qanday?	Qancha?	Nima qilmoq?
krossvord	batafsil	ancha-muncha	voyvoylamoq
diyonat	zalvarli	birmuncha	ta’mirlamoq
repititsiya	ibtidoiy	yigirmata	jilovlamoq
adib	ilg‘or	yarim	shu’lalanmoq
	saranjom-sarishta	ozgina	shug‘ullanmoq

428-mashq. Qo’yilgan muammo: **Ushbu gaplarni so‘roq gaplarga aylantirib YOZING. GAPIRISH ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim: Gaplarni har xil ko’rinishdagi so’roq gaplarga aylantirish mumkin.

DARAK GAP	SO’ROQ GAP
1. Yaxshilikdan so‘zlagan foyda topadi, yomon gapirgan gunohkor bo‘ladi. (*Luqmoni Hakim*)	1. Nima haqida so‘zlagan foyda topadi, yomon gapirgan gunohkor bo‘ladi. (*Luqmoni Hakim*)
2. Boshqalarni hurmat qilgan odamgina hurmatga loyiq. (*Suxomlinskiy*)	2. Qanday odam hurmatga loyiq. (*Suxomlinskiy*)
3. Hayotning har lahzasi go‘zal, Umrning har dami g‘animat. (*Anvar Obidjon*)	3. Nimaning har lahzasi go‘zal, Umrning har dami g‘animat. (*Anvar Obidjon*)

429-mashq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Topishmoqlarning javobini toping va yozing.**

YOZISH **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

1. Dengizi bor – suvi yo'q, Yo'llari bor – izi yo'q. U nima? (*xarita)*
2. "Kun yuzini ko'rmadim" degan kim? (*tun)*
3. Ko'kda ko'rdim ko'prik, Rangi yetti turlik. Bu nima? (*kamalak)*
4. Mevasini el olar, Barglarini yel olar. Bu-chi? (*daraxt)*
5. Bozordan oldim bir dona, Ochib qarasam, ming dona. Bu nima? (*anor)*

430-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Tasavvur qiling: siz eng mashhur sportchi – jahon chempioni bilan yuzma-yuz uchrashib qoldingiz. Unga 5 ta savol berish imkoniyatingiz bor. Undan nimalarni so'ragan bo'lar edingiz? Savollaringizni yozing.** *GAPIRISH VA YOZISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

125-dars. UNDOV BELGISINING ISHLATILISHI

Darsning *a)* ta'limiy maqsadi: *o'quvchilarga undov belgisining ishlatilish o'rinlari va uning nutqdagi ahamiyati haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash; muomala madaniyatini matnlarni tahlil qilish orqali o'rgatish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish*

Topshiriq. ***Qo'yilgan muammo:*** **Erkin Vohidov ijodiga mansub ushbu matnni o'qing.** *O'QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

So'z – zabarjad, so'z – gavhar, oltin.
Zargarlikning mashaqqati ko'p!
So'zni baytga qadashdan oldin
Kaftingga qo'y, to'yib qara, o'p!
Ona tilimni sevmasam, so'zlariga mahliyo bo'lmasam,
hayrat lanmasam, menga shoirlik qayda edi?!
Oftob chiqdi, quyosh chiqdi, kun chiqdi,
Mehr-u, shams-u xurshidi gardun chiqdi.

Olimlar! Topib bering-chi, qaysi tilda quyoshning 10dan ortiq ismi bor?! Qaysi tilda osmonni kamalak ranglaridek 7 xil nom bilan ataydilar?! *Osmon, falak, samo, charx, gardun, fazo, ko'k* ... Bular daf'atan xayolga

kelganlari, xolos! *Arsh, davvor, minu* singari kam ishlatiladigan xos so‘zlar ham sanalsa, ro‘yxat yana uzayadi.

Ha, boylikda beqiyos ona tilimiz bor! (“*So‘z latofati*” *asaridan*)

Lug‘at:
zabarjad – yashil rangli qimmatbaho tosh; **gavhar** – sayqallangan olmos; **mehr, shams, xurshid** – quyosh; **daf’atan** – to‘satdan; **gardun** – dunyo, osmon

Munosabat bildiring.

1. So‘zlarning ma’nodoshligiga diqqat qiling. Tilimizda shunday so‘zlar ham borligini bilarmidingiz?

2. Matnda nima sababdan undov belgisi ishlatilgan, so‘roq va undov belgisining qo‘shaloq holda ishlatilishi sababini bilasizmi?

His-hayajon (shodlik, qo‘rquv, g‘azab, ajablanish, achinish, do‘q, yalinish, hayrat va h.k.) bilan aytilgan gaplar *undov gap* hisoblanadi. Ulardan so‘ng *undov belgisi* qo‘yiladi. *Ko‘klamoyim, ko‘kingdan ber bir chimdim!* (*M. Yusuf*)

Undov so‘zlar bir gapga teng bo‘lsa, ularda ham undov belgisi ishlatiladi. *Ofarin! – dedi Mamat bobo.* (*T. Murod*)

Ba’zan nutqimiz qaratilgan shaxs – *undalmalar* ham alohida ta’kid bilan aytilsa, ulardan keyin undov belgisi qo‘yiladi. *She’rim!*

Yana o‘zing yaxshisan! (*U. Nosir*)

431-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **O‘tkir Hoshimovning “*Dunyoning ishlari*” asaridagi hikoyalarda qo‘llangan undov belgilariga diqqat qiling. Qo‘yilish sababini qoidaga tayanib izohlashga harakat qiling.** *O’QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

1. Ishqilib, boshqa yulduz uchmasin! 2. Mana shu shovullagan sukunat ichida dilni titratadigan iztirobli nido yangraydi: Ilhaq! Is’hoq! 3. Oyiii! – dedi Xo‘ja umidsiz, ojiz tovushda. 4. O‘rtoqlaring oldida ayt! – dedi sinf rahbarimiz. 5. Xudo xohlasa, olgan molini qaytarib beradi, eshon oyi! 6. Uff! Isib ketdim!

Xabar-darak, buyruq mazmunidagi gaplarni ohangini o‘zgar tirish, undov so‘zlar qo‘shish orqali ham his-hayajon (undov) gapga aylantirish mumkin: *Bahor fasli chiroyli. → Eh, bahor fasli chiroyli! O‘zingdan kattani hurmat qil. →O‘zingdan kattani hurmat qil!*

So‘roq gaplar ba’zan kuchli hayajon bilan aytilsa va javob talab qilmasa, ulardan keyin so‘roq va undov belgilari qo‘shaloq holda (?!) qo‘yiladi: *Aytgil, do‘stim, nima qildik vatan uchun?! (I. Mirzo)*

432-mashq. Qo’yilgan muammo: **Adabiy parchalarni yozing. Tinish belgilarining qo‘shaloq qo‘llanishi ko‘proq qanday mazmunli gaplarda uchraydi?** *GAPIRISH VA YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

1. Nechun kerak bo‘ldi senga ko‘z yoshim,
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g‘am?! (*Abdulla Oripov*)
2. “Saralab yemoq – faqirning ishi, qo‘yni boqib qo‘yibdimi?!” – dedi o‘rtancha botir. (“*Uch og‘a- ini botirlar” ertagidan*)
3. “Fanorga tegmasanglar, bir narsa bo‘ladimi?!” – mayin bir tovush bilan gapirdi ota. (*Oybek*)
4. Biz baxtiyor bo‘lgaymiz xo‘b,
Bizni zafar quchajak!!! (*Yo‘ldosh Eshbek*)

O‘ta kuchli hayajon bilan aytilgan gaplar oxiriga undov belgisi qo‘shaloq holda (!!!) qo‘yiladi: *Yovuzlik Yer yuzidan butkul yo‘qolsin!!!*

433-mashq. Qo’yilgan muammo: **Ushbu jumlalarni davom ettirib, undov va so‘roq gaplar hosil qiling**. *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

1. Yolg‘on gapirish …
2. Uy ishini vaqtida qilmaslik…
3. Soatlab kompyuter o‘yinlarini o‘ynash …
4. Kelajakdagi rejalarimni..

434-mashq. Uyga vazifa. **Adabiyot darsligingizdan so‘roq va undov belgisi qo‘llangan 6 ta gap topib, daftaringizga yozing. Tinish belgilarining qo‘yilish sabablarini tushunib, sharhlashga harakat qiling.**

126-dars. QO‘SHTIRNOQNING ISHLATILISHI

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarga qo’shtirnoqning ishlatilish o’rinlari va uning nutqdagi ahamiyati haqida tushuncha berish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: matlarni tahlil qilish orqali ajdodlarimizning boy merosi, ularning ilm-fan taraqqiyotidagi o'rni haqida singdirish; ajdodlarimizga munosib farzandlar etib tarbiyalash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Topshiriq. Qo'yilgan muammo: **Tarix darsligingizdan olingan matnni O'QING.** *O'QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

435-mashq. Qo'yilgan muammo: **A. Oripov she'ridan parchani o'qing. Matndan ushbu she'riy parchaga mos xatboshini topib, yozing..** *O'QIB TUSHUNISH va YOZISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Amerika sehrli diyor, Dengiz ortin yoritdi ilk bor
Uxlar edi Kolumb ham hali. Beruniyning aql mash'ali.

436-mashq. Qo'yilgan muammo: **Matnda berilgan qo'shtirnoq ishlatilgan gaplarni YOZING. YOZISH ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

"Baytul-hikma", "*Donishmandlik uyi"*, "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "XI asr Beruniy asridir",

Qo'shtirnoqning ishlatilish o'rinlariga e'tibor bering.

Qo'shtirnoq belgisi quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Badiiy, ilmiy, musiqa, san'at asarlari; gazeta-jurnallar nomi qo's tirnoqqa olinadi: *Sa'diyning "Guliston" asari, "Kichkina tabib" kinofi lmi, "Tong yulduzi" gazetasi.*
2. Tashkilot, muassasa, korxona, jamiyat nomlari ham qo'shtirnoq ichida yoziladi: *"Kamalak" tashkiloti, "El-yurt umidi" jamg'armasi, "Toshkent" mehmonxonasi.*
3. Sinf tartibini bildiruvchi harfl ar, baho ballari ham qo'shtirnoq da beriladi: *5-"B" sinf, "5" baho.*

437-mashq. Qo'yilgan muammo: **Gaplarni yozing. Tinish belgilariga diqqat qiling. Allomalardan qay birining gapi yuqoridagi matnda qo'llangan edi?** *O'QIB TUSHUNISH va YOZISH* **ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

1. I. Y. Krachkovskiy: "Beruniyning ilmda qiziqqan sohalaridan ko'ra qiziqmagan sohalarini sanab o'tish osondir", degan edi.

2. “XI asr Beruniy asridir”, deb yozgan edi AQSHning fanlar tarixi bilan shug‘ullanuvchi olimi Jorj Sarton. 3. G‘arb tadqiqotchisi Meyerxoff shunday degan: “Beruniy musulmon (sharq) fanini namoyish etuvchi qomusiy olimlarning eng mashhuridir”.

Boshqalarning hech o‘zgarishsiz ishlatilgan gapi *ko‘chirma gap* deyiladi. *Ko‘chirma gap muallif gapi* bilan birga qo‘llanadi. *Ko‘chirma gap* qo‘shtirnoqqa olinadi: *“Yurtimizdan dunyo ilm-fani taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Yoshlarni ularga munosib ma’rifatli, ilmli qilib tarbiyalashimiz lozim” degan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev*.

438-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Qo‘shtirnoqning qo‘yilish sabablarini izohlang.** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

1. “Hayrat ul-abror” asari haqida suhbatlashdik. (badiiy asar nomi)
2. Akam – “Yosh tabiatshunoslar” klubi faollaridan. (klub nomi)
3. Alisher Navoiy shunday degan edi: “Tilingni hamisha nazoratingda tut. So‘zingni ehtiyot bo‘lib so‘zla”. *(ko‘chirma gap)*

439-mashq. ***Uyga vazifa.***

1. Abu Rayhon Beruniy asarlaridan 5 tasi ning nomini yozing.
2. Qayerlarga ulug‘ bobomizning nomi berilgani bilan qiziqib ko‘ring.

127-dars. NAZORAT ISHI

ISH QOG‘OZLARI

128-dars. ISH QOG‘OZLARI USTIDA ISHLASH. E’LON, XAT

Topshiriq. **Matnni o‘qing.**

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarni ish qog’ozlari bilan tanishtirish; e’lon va xat yozish ko’nikmalarini hosil qilish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarda mehmondo’stlik, bag’rikenglilik fazilatlarini matn tahlili orqali rivojlantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.*

Munosabat bildiring.

1. E’lon, tabriknoma, taklifnomalar yozganmisiz?

2. Nega e’lonlarda sheva so‘zlaridan foydalanilmaydi?
3. Ish qog‘ozlarida so‘zlarni qisqartirib yozish mumkinmi?
4. Do‘stlaringizga tabrik yozganmisiz?

E’lon so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “*bildirish*”, “*xabarnoma*” degan ma’nolarni anglatadi.

E’lon ko‘pchilikka yetkazilishi zarur bo‘lgan xabar, buyruqni va shunday xabar yozilgan qog‘oz, hujjatni bildiradi.

Xat – xabar berish, fikr almashish maqsadida aniq manzilga yuboriladigan matn.

440-mashq. Qo’yilgan muammo: **Quyidagi e’lonlarga e’tibor bering. Undagi so‘zlarga, matnning yozilish qolipiga diqqat qiling.** *O’QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

E’lon!

Shu yil 15-may kuni maktab faollar zali yonidan 5-sinf adabiyot darsligi topib olindi. E’lon bo‘yicha maktab Yoshlar ittifoqi yetakchisiga murojaat qiling (darslik raqami aytilgandagina kitob egasiga qaytariladi). Maktab Yoshlar ittifoqi

441-mashq. Qo’yilgan muammo: **Yuqorida berilgan e’lon namunasidan foydalanib, topib olingan narsa (kitob, telefon, sport anjomi) haqida e’lon YOZING.**

YOZISH VA GAPIRISH **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

442-mashq. Qo’yilgan muammo: **Aziz o‘quvchi! SMSlar, qog‘ozda maktublar yozgansiz. Ko‘nikmalaringiz asosida biror yaqin odamingizga yoki harbiy xizmatdagi akangizga yoziladigan xatni davom ettiring.** *YOZISH VA GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Assalomu alaykum, akajon! Avvalo, inson uchun suv va havodek zarur bo‘lgan sog‘liqlaringiz yaxshimi? Yigitlik burchingizni hormay ado etyapsizmi? Bizdan so‘rasangiz, rahmat! Hammamiz sog‘-salomatmiz...

443-mashq. Uyga vazifa. **Maktabingizda tashkil etiladigan yozgi oromgohning ochilishi haqida e’lon yozing. Unda ishlatiladigan so‘zlarga diqqat qiling.**

129-dars. ISH QOG‘OZLARI USTIDA ISHLASH. E’LON, XAT (davomi)

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi*: o’quvchilarni ish qog’ozlari bilan tanishtirish; e’lon va xat yozish ko’nikmalarini hosil qilish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarda mehmondo’stlik, do’stlik tushunchalarini matn tahlili orqali rivojlantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish*

444-mashq. Qo’yilgan muammo: **3 guruhga bo‘lining. Maktabingizda yozgi ta’tildan so‘ng sentabr oyida o‘tkaziladigan “*Kitobxon o‘quvchi*” yoki “*Kim ko‘p kitob o‘qidi?*” tanlovi haqida e’lon yarating. Qaysi guruhning e’loni qiziqarliroq, jalb qiluvchi, diqqatni tortadigan bo‘lar ekan?** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

445-mashq. Qo’yilgan muammo: **Quyidagi e’longa, undagi so‘z va gaplarning tanlanishiga e’tibor bering. O‘zingiz ham e’lon matniga o‘xshash matn yozing.**

YOZISH VA GAPIRISH **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

E’lon

Shu yil 15-may kuni soat 15:00da maktab faollar zalida maktabimiz sobiq bitiruvchisi, hozirda boks bo‘yicha Jahon va Olimpiada chempioni Hasanboy Do‘stmatov bilan uchrashuv bo‘lib o‘tadi. Qiziqqan o‘quvchilar sinf rahbarlari bilan birgalikda
ishtirok etishlari mumkin.

Maktab jismoniy tarbiya o‘qituvchisi I. Qurbonov

446-mashq. Qo’yilgan muammo: **Ijtimoiy tarmoqlarda “*SMS*”, “*Messenger*” yozish odat tusiga kirgan. Siz kimlarga va qanday munosabat bilan bunday xatlar yozasiz? Do‘stingizga ertaga bo‘ladigan to‘garak haqida ma’lumot berib xat YOZING. Tavsiya qilinadigan so‘zlar: *muddati, to‘garak, mashg‘ulot, ixtiyoriy, trener, ustoz, birga bajarmoq, o‘z vaqtida, muntazam.*** *YOZISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

447-mashq. Uyga vazifa. **Quyidagi namuna asosida to‘garak haqida e’lon yozing.** *YOZISH VA GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

E’lon

Hurmatli o‘quvchilar! Shu yil 16-may kuni soat 15:00da 5-“A” sinf o‘quvchilari ishtirokida Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Jannati odamlar” asari bo‘yicha to‘garak mashg‘uloti bo‘ladi.

Manzil: 2-qavat, 18-xona.

Tadbir tashkilotchisi – ona tili va adabiyot fanlari o‘qituvchisi Ismoilova Zulfiya

130-dars. ISH QOG‘OZLARI USTIDA ISHLASH. TABRIKNOMA

Darsning *a)* ta’limiy maqsadi: *o’quvchilarni ish qog’ozlari bilan tanishtirish; tabriknoma yozish ko’nikmalarini hosil qilish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarni mustaqil fikrini namoyon eta olish ko’nikmasida tarbiyalash;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish*

Topshiriq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Matnni ovoz chiqarib o‘qing.** *O’QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Tabriknoma

Hurmatli do‘stim Javohir! Sizni “Xalqaro yosh robototexniklar” tanlovidagi yutuqlaringiz bilan tabriklayman. Siz ixtiro qilgan robotlar, albatta, tibbiyot sohasini yanada rivojlantirishiga ishonaman. Butun maktabimiz siz bilan faxrlanadi.

Sizga hurmat bilan sinfdoshingiz Ulug‘bek

Munosabat bildiring.

1. Tabriknoma nima munosabat bilan yoziladi? Tabriknoma yozish shartmi? Unda tabrik yozuvchi insonning qanday fe’l-atvori namoyon bo‘lishi mumkin?

2. Tabriknomada qanday fe’llardan foydalaniladi?

Tabriknoma so‘zi (arabcha-forscha so‘z bo‘lib) *tabrik yozilgan xat* degan ma’noni bildiradi

448-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **1-iyun Xalqaro bolalar kuni munosabati bilan sinfdoshingizga tabriknoma, qutlov yozing. Unda**

samimiy qalb so‘zlaringizni ifodalashga harakat qiling. *YOZISH VA GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Tavsiya etiladigan so‘z va gaplar: *qadrli, qimmatli, qutlayman, muborakbod etaman, ezgu (samimiy) tilaklar, sihat-salomatlik, orzularingiz ro‘yobga chiqsin, osmonimiz musaffo bo‘lsin, limning yuqori cho‘qqilarini egallang.*

449-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Onangiz yoki otangizga bayram munosabati bilan tabriknoma yozing. Tavsiya etiladigan so‘zlar:** ***qutlayman, muborakbod etaman, sihat-salomatlik, tilayman.***

131-dars. ISH QOG‘OZLARI USTIDA ISHLASH. TAKLIFNOMA

Darsning ***a)*** **o‘quv maqsadi:** *o’quvchilarni ish qog’ozlari bilan tanishtirish; taklifnoma yozish ko’nikmalarini hosil qilish;*

b) tarbiyaviy maqsad*: o’quvchilarda mehmondo’stlik, do’stlik tushunchalarini matn tahlili orqali rivojlantirish;*

d) rivojlantiruvchi maqsad: *mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish*

450-mashq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Tug‘ilgan kuningiz munosabati bilan do‘stlaringizni uyingizga taklif etib, noma yozing. Bunday xatda buyruq, do‘q-po‘pisa mazmunidagi so‘zlardan foydalanasizmi?** *YOZISH VA GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Munosabat bildiring.

1. Tabriknoma nima munosabat bilan yoziladi? Tabriknoma yozish shartmi? Unda tabrik yozuvchi insonning qanday fe’l-atvori namoyon bo‘lishi mumkin?

2. Tabriknomada qanday fe’llardan foydalaniladi?

Tabriknoma so‘zi (arabcha-forscha so‘z bo‘lib) *tabrik yozilgan xat* degan ma’noni bildiradi.

Topshiriq. ***Qo’yilgan muammo:*** **Matnni ovoz chiqarib o‘qing.** *O’QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Taklifnoma

Hurmatli 5-“B” sinf o‘quvchisi Rustamova Ominaxonning otaonasi! Sizlarni 16-may kuni soat 14:30da bo‘lib o‘tadigan “*Iqtidorli o‘quvchi – yurt kelajagi*” nomli ko‘rik-tanlovimizga taklif etamiz. Tanlov maktab faollar zalida bo‘lib o‘tadi.

5-“B”sinf rahbari

Munosabat bildiring.

1. Taklifnoma qanday munosabat bilan yoziladi?

2. Taklifnoma bilan tabriknomaning o‘xshash va farqli tomonlarini ayting.

Taklifnoma so‘zi arabcha *taklif* (tashrif buyurish haqidagi iltimos) va forscha *noma* so‘zlaridan olingan. *Taklifnoma* ma’lum bir tadbirga taklif etib yozilgan xat hisoblanadi.

451-mashq. Qo’yilgan muammo: **Quyidagi so‘z va birikmalardan o‘rinli va noo‘rinlarini ikki ustunga ajratib yozing. Taklifnoma yozganingizda qaysi biridan foydalanasiz***? YOZISH VA GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

o‘rinli	noo‘rin
taklif etaman; iltimos qilaman; kelsangiz, boshim osmonga yetadi; tashrif buyurishingizni so‘rayman; marhamat qilib; vaqtida keeling; lutfan taklif qilaman	kelishingiz shart; kelmasangiz, xafa qilaman; kelishga majbursiz; hurmatingizni bilib keling; sovg‘a esdan chiqmasin; iltifot ko‘rsatib; kech qolmang; vaqtida keling;

452-mashq. Uyga vazifa. **Boshqa viloyatda yashayotgan do‘stingizni ta’tilda shahringiz (qishlog‘ingiz)ga taklif qilib, taklifnoma yozing. Unda ta’til vaqtida birgalikda amalga oshiradigan xayrli ishlaringiz to‘g‘risidagi rejalaringizni bayon eting.**

132-dars. FONETIKA VA GRAFIKA BO‘YICHA OTILGANLARNI TAKRORLASH

Darsning a) ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarda fonetika va grafika bo’limlari yuzasidan hosil qilingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarning texnika vositalariga

qiziqishlarini oshirish; o’z texnikalarini o’zlari ta’mirlab olishga o’rganish tushunchasini singdirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.

453-mashq. **Lablar faol ishtirok etgan so‘zlarni aniqlab alifbo tartibida daftaringizga yozing.**

YOZISH **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Kitob, muallim, sadoqat, shajara, bilim, adolat, shaffof, moviy, tabarruk, mushoira, saxovat, o‘quvchi, uquvchi.

Yechim:

Bilim, kitob, moviy, muallim, mushoira, saxovat, tabarruk, uquvchi, shaffof, o‘quvchi.

Topshiriq. **Matnni diqqat bilan o‘qing.** *O’QIB TUSHUNISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Mototsikl Biror marta tongda dilingiz g’ash bo’lib uyg’onganmisiz? O’sha kun men uchun xuddi shunday kun edi. Ko’zimni ochgancha o’rinda yotar edim. Keyinroq o’rnimdan qo’zg’alib, pardani ko’tardim. Ob-havo dahshatli edi – yomg’ir quyar edi. Hovliga qaradim.

Ha! Hovlidagi o’tgan tunda abjag’i chiqqan mototsiklni ko’rishim bilan oyog’im achisha boshladi.

Matnga tayanib savollarga javob bering.

Yechim:

1.Hikoyadagi odam bilan o’tgan tunda nima sodir bo’lgan deb o’ylaysiz?

A. Yomon ob-havo uning motosikliga zarar yetkazgan

B. Noqulay ob-havo uni ko’chaga chiqishiga yo’l qo’ymagan

C. U yangi motosikl xarid qilgan

D. U motosikl bilan baxtsiz hodisaga uchragan

2. “O’sha kun men uchun xuddi shunday kun edi”. Bu qanday kun edi?

A. Yaxshi kun. B. Yomon kun. C. O’ziga xos kun. D. Zerikarli kun.

3. Yozuvchi nega hikoyani savol bilan boshlagan deb o’ylaysiz?

A. Chunki yozuvchi javobni aniqlamoqchi.

B. Yozuvchi shu orqali o’quvchini hikoyaga olib kirmoqchi.

C. Chunki bu savolga javob berish qiyin.

D. Shu orqali o’quvchiga bunday holatlar kamdan-kam uchrashini eslatmoqchi.

4. Matndagi so‘zlarda qanday tovush o‘zgarish hodisalarini kuzatish mumkin? Dalillaringizni daftaringizga yozing.

Shunday, o’rnimdan, abjag’i, chiqqan, oyog’im

454-mashq. **Sinfdoshlaringiz bilan guruhlarga bo‘linib, hikoyadagi voqealar rivoji, voqeaning eng qiziq nuqtasi (kulminatsiyasi), voqeaning tugallanmasini tasavvur qilishga harakat qiling.**

Yechim:

1. Voqealar rivoji: ? O’sha kun men uchun xuddi shunday kun edi.

2. Voqeaning eng qiziq nuqtasi: Ob-havo dahshatli edi – yomg’ir quyar edi.

3. Voqeaning tugallanmasi: Biror marta tongda dilingiz g’ash bo’lib uyg’onganmisiz?

455-mashq. **Mototsikl haqidagi ma’lumotni daftaringizga yozing** *O’QIB TUSHUNISH va YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Mototsikl (moto... va yun. syklos – doira, g‘ildirak) – ichki yonuv dvigateli bilan ta’minlangan. Ikki yoki uch g‘ildirakli transport vositasi. Ichki yonuv dvigateli o‘rnatilgan birinchi mototsiklni nemis ixtirochisi G. Daymler 1885-yil yasagan. Transport, sport va maxsus (o‘t o‘chirish, sanitariya, harbiy va boshqalar) mototsikllar bor. Asosiy qismlari: dvigatel, kuch uzatmasi (transmissiya), yurish qismi, elektr jihozlari tizimi, rul boshqarmasi, tormoz tizimi. Transport mototsikllarining tezligi 215 km/soatgacha, sport mototsikllariniki – 300 km / soatgacha (rekord – 513 km/soat, 1978) yetadi.

(“O’zbek tilining izohli lug’ati”dan)

Topshiriq: Talaffuzda tovush almashinishiga uchragan so‘zlarni topib daftaringiga yozing. *YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

Mototsikl – matatsikl; doira-doyira; g‘ildirak-g’ildirey; dvigatel-dvigitel; birinchi-brinchi; nemis-nems; yil-yl; rul-ro’l;

456-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“Menda qanday transport bo‘lishini xohlayman?” mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn yarating.**

133-dars. IMLO VA TALAFFUZ ME’YORLARI BO‘YICHA TAKRORLASH

Darsning a) ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarda imlo va talaffuz

me’yorlari bo’limlari yuzasidan hosil qilingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad: intellektual bilimli farzandlar etib tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.

457-mashq. **Berilgan so‘zlarning talaffuziga diqqat qiling. Tarix darsidan olgan bilimingiz asosida ushbu nomlar haqida ma’lumot bering.** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Misr, Bobil, Zevs, Gelios, Aleksadr, Galikarnas, Artemida

458-mashq. **Yetti soni bilan bog‘liq ma’lumotlarni o’qing. Nuqtalar o‘rniga mos harfni qo‘ying.** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

1. Toj Ma…al (….indiston) - Toj Mahal (Hindiston)
2. Buy…k Xitoy devori (Xitoy)- Buyuk Xitoy devori (Xitoy)
3. Kolliz…y (Rim)- Kollizey (Rim)
4. Pi…a minorasi (Italiya)- Piza minorasi (Italiya)
5. Ey…el minorasi (Parij)- Eyfel minorasi (Parij)
6. Pas…a orolidagi yodgorlik (Chili)- Pasxa orolidagi yodgorlik (Chili) 7. Chi…in It….a piramidasi (Meksika)- Chichin Itsa piramidasi (Meksika)

459-mashq. Berilgan yetti xazinaning yozilishidagi xatoni topib imlo qoidasiga mos holda daftaringizga yozing.

Yechim:

1. Sigr-sigir; 2. Asal ari-asalari; 3. Ipay qurti-ipak qurti; 4. Objvoz-objuvoz; 5. Tegrmon-tegirmon; 6. U’rmon- o’rmon; 7. Toviq- tovuq.

LUG’AT
Objuvoz- suv kuchi bilan yuradigan, sholi oqlaydigan qurilma
Tegirmon-g’allani, donni yanchib, un qilish uchun moslangan maxsus qismlardan iborta, suv, shamol, elektr energiyasi va sh.k. kuchi bilan ishlaydigan qurilma

460-mashq. **Berilgan izohlarni rasmdagi yetti xazinadan har biriga birlashtiring.**

461-mashq. T… geografiya, musiqa fanidan olgan bilimingizga tayanib y… avl… …ti i…n,yetti musiqa notasi haqida ma'lumot bering.

462-…q. Ma…tnda …gan ma'lumotni daftaringizga yozib, bilib o…ng.



…da so… …lan b… turli afsonalar yuradi. Ko'pgina xalqlarda esa 7 so… …iyatli raqam hisoblanadi. Aslida, bu hech narsani hal qil… …da va hech qanda… …iy mantiqqa ega bo'lmasa-da, hayotda shu so… …bog'liq bir qan… …yibotlar mavjud.

Qadimgi xalqlar yetti muqaddas sayyora inson hayotiga, taqdiriga, o'zaro harakatlariga bog'liq deb tushunganlar va shundan hafta kunlarini chiqarganlar. Quyosh va Oyni ham shunga kiritishgan. Ular:

1. Quyosh – Oftob, Shams, Xurshid, Mehr, Yashiq; Kuch-g'ayrat ramzi **2. Oy** – Qamar, Moh, Anbar, Yalchiq; Dilbarlik ramzi. **3. Mars** – Mirrix, Bahrom, Ko'rkud; Jangu jadal timsoli. Greklarda urush xudosi **4. Merkuriy** – Atorud, Hulkar, Surayyo, Orzu, Dabir; Aql-zakovat, donolik ramzi 5. **Yupiter** – Mushtariy, O'ngoy, Qoraqush, Burjis; Baxt ramzi 6. **Venera** – Zuhro, Cho'lpon, Sirius, Yildiriq, Nohid, Saqid; Sevgi ramzi **7. Saturn** – Zuhal, Sekantir, Kronos; Dehqonchilik va hosildorlik ramzi Arktik

463-mashq. ***Uyga vazifa.*** **Yetti mukammal fan va yetti qavat osmon haqidagi ma'lumotni daftaringizga yozing. Yetti soni bilan bog'liq yana qanday ma'lumotlarni bilasiz?**

Yetti mukammal fanlar

Qadimgi va o'rta asr ta'lim tizimida ongni va mantiqni yuksaltiruvchi yetti fan mavjud edi. Ushbu fanlarni qadimgi yunon mutafakkirlari komillika eltuvchi yo'l deya ta'riflaganlar:

1. Grammatika; 2. Mantiq; 3. Ritorika; 4. Geometriya; 5. Arifmetika; 6. Astronomiya; 7. Musiqa

Yetti qavat osmon

Imom Buxoriy va Imom Muslimlardan rivoyat qilingan "isro va me'roj" haqidagi hadislarda payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.ning Masjidul aqsodan osmonga ko'tarilganliklari haqida rivoyat qilinadi. Ushbu hadisga ko'ra, Rasulullоh s.a.v. yettita osmondan o'tadilar va har bir osmonda quyidagi payg'ambarlar bilan uchrashadilar:

1. Birinchi osmon – Odam alayhissalom

2. Ikkinchi osmon – Iso va Yahyo alayhissalomlar
3. Uchinchi osmon – Yusuf alayhissalom
4. To’rtinchi osmon – Idris alayhissalom
5. Beshinchi osmon – Horun alayhissalom
6. Oltinchi osmon – Muso alayhissalom
7. Yettinchi osmon – Ibrohim alayhissalom

134-dars.LEKSIKOLOGIYA BO‘YICHA TAKRORLASH

Darsning a) o‘quv maqsadi: o‘quvchilardaleksikografiyai bo’limi yuzasidan hosil qilingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad: o’quvchilarga iqtidorlarini bolaligidan rivojlantirish hissini singdirish; bu borada ko’p kitob o’qishning ahamiyati haqida gapirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.

Topshiriq. Ustoz o‘gitlarini tinglang. Matndagi antonimlarni ajratib daftaringizga yozing. *TINGLAB TUSHUNISH VA YOZISH* **ko’nikmalarini rivojlantiradi.**

Uquvchimga...

Bu dunyoda o‘quvchi ko‘p, lekin uquvchi kam. Shu sabab, men, aynan, uquvchimga murojaat qilyapman!

Qadrli uquvchim, kamtar bo‘l, biliming bilan havolanma. Bilki, ilm va tafakkur besarhad. Sen hali bilmaydigan, hatto bilmasligingni bilmaydigan bebaho narsalar ko‘p. Kibr bilan o‘rganilgan bilim pista po‘chog‘i kabi beqadrdir.

Aziz uquvchim, sen o‘zgalarni qadrla, kam so‘zla, ko‘p tingla. Ulug‘lar aytadi, ko‘p gapirish donolik emas, nodonlik belgisi. Ko‘p tingla!

Aziz uquvchim,birovdan xato izlama. Sen ham xatodan xoli emassan. Men xatosizman, deyishingning o‘zi sening birinchi xatoying bo‘lsa, birovdan xato izlashing ikkinchi xatoying. Demak, senda ham hech bo‘lmasa, ikki xato bor.

(NODIRMOHBEGIM)

464-mashq. Motsert haqidagi matnni diqqat bilan o‘qing. *O’QIB TUSHUNISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Masalan, men…

Motsartning favqulodda iste'dodga ega bo‘lganligi ma'lum. U to‘rt yoshida klavishli cholg‘u asboblari uchun kontsert – murakkab musiqa asari yozadi. Bunday asarni mahoratli va tajribali san'atkorlargina ijro etishi mumkin edi. Motsartning mehribon otasi hali yozib tugatilmagan notalarga qarab hayratga tushadi:

– Axir, bu kuylaring juda murakkab-ku, uni hech kim chala olmaydi!

– Qiziqmisiz, dada, – e'tiroz bildiradi Volfgang, – Uni hatto yosh bolalar ham chala oladi-ku. Masalan, men…

1. "Masalan, men," matnida Motsart o‘zini qanday his qiladi?

A. Murakkab asar yozuvchisi ekanligini

B. Iste'dodlili bola ekanligini

C. Notalarni ko‘rib hayratga tushganligini

D. Hali yosh bolaligini.

Mushuk ketib qoladi

Motsartning butun bolaligi turli tadbirlardagi chiqishlar va musiqa mashg‘ulotlari bilan o‘tgan. Yosh iste'dod sohibi Yevropaning turli burchaklarida tashkil etilgan kontsertlarda oqsuyaklarni hayratga solib yuradi: otasi Motsartning ko‘zini ro‘molcha bilan yopib qo‘yar, u ana shu holatda ham kuy ijro etardi. Hatto cholg‘u asbobining klaviatura-tugmalarini ham ro‘molcha bilan yopib qo‘yishar, shunda ham bolakay o‘z ishini uddalay olardi.

Kontsertlarning birida sahnaga to‘satdan mushuk chiqib keladi. Yosh Motsart kuy chalishni to‘xtatib, mushuk tomon yugurib ketadi. Hamma narsani unutib, mushuk bilan ovora bo‘ladi. Otasining asabiy baqirig‘iga javoban esa shunday deydi:

– Cholg‘u asbobim hech qayoqqa ketmaydi, lekin mushuk ketib qolsa nima qilaman?!

2. Ikkinchi matnda Motsartning qanday sifatlari ochib berilgan?

A. Beg‘uborligi va iste'dodi

B. Sezgirligi va orzusi

C. Dangasaligi va omadi

D. O‘yinqaroqligi va saxovati

Motsartcha iltifot

Yosh Motsart imperator saroyida chiqish qilgach, malika Mariya-Antuanetta unga o‘zining hashamatli saroyini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Zallarning birida parket polda yurolmagan Motsart sirpanib yiqilib

tushadi. Malika uning turishiga yordamlashadi.

– Menga iltifot ko‘rsatdingiz… – deydi yosh musiqachi, – sizga uylanishimga ruxsat bering.

Mariya-Antuanetta bu haqda onasiga aytadi.

Qirolicha hali yoshgina musiqachidan so‘raydi:

– Malika hazrati oliyalariga nima sababdan uylanmoqchisan?

– Minnatdorchilik yuzasidan, – javob beradi Motsart.

3. Yosh musiqachining malikaga uylanish taklifini berishiga sabab nima deb o‘ylaysiz?

G‘aroyib suhbat

Etti yoshli Motsart Frankfurt-na-Mayneda kontsert beradi. Tomosha tugagach, uning oldiga o‘n to‘rt yoshli bir bola keladi:

– Juda ajoyib chalar ekansan, menga hech qachon bunaqasini o‘rgatishmagan.

– Nahotki! – ajablananadi yosh Volfgang, – buning hech qanaqa qiyin joyi yo‘q. Nota yozib ko‘rganmisan?… Kallangga keladigan kuylarni qog‘ozga tushirganmisan?…

– Bilmadim… Mening kallamga faqat she’r keladi, xolos.

– Yo‘g‘-e! – battar hayratlanadi Motsart. – She’r yozish juda qiyin deyishadi, shu to‘g‘rimi?

– Bekor gap, juda oson-ku. Bir urinib ko‘rgin…

Motsartning suhbatdoshi yosh Gyote edi.

4. ”G‘aroyib suhbat” matnidagi Mortsert va Gyotening muloqotidan qanday xulosa chiqardingiz? Xulosalaringizni sinfdoshlaringiz bilan o‘rtoqlashing.

Akademikning istagi

Volfgang yetti yoshida birinchi simfoniyasini, o‘n ikki yoshida esa birinchi operasi “Basten va Bastena”ni yozadi. Bolon akademiyasida yigirma olti yoshga to‘lmagan kishi akademiklikka qabul qilinmas edi. Lekin Motsartday favqulodda iqtidor egasi uchun istisnoga yo‘l qo‘yiladi. U o‘n to‘rt yoshida Bolon akademiyasi akademigi bo‘lib saylanadi.

Otasi uni qutlagan payt deydi:

– Dada, mana akademik ham bo‘ldim, endi yarim soat o‘ynab kelishimga ruxsat berasizmi?

(Hikoyalarni Orifjon Madvaliyev tayyorladi.
«Yoshlik» jurnali, 2015 yil, 7-son)

Matnlarga asoslanib savol-topshiriqlarga javob bering.

5. “Oqsuyak” so‘zining ma’nosini izohli lug‘atdan aniqlang.

6. Matnlarda musiqaga oid terminlarni daftaringizga yozing

7. Motsertning akademik maqomini olishi bolalaigidan voz kechdanidan darak beradimi? Fikringizni matnlarga tayangan holda yozma izohlang.

8.Qiziqadigan mashg‘ulotingiz haqida “Masalan, men..” mavzusida qisqa hikoyacha yozing.

9. Yozgan hikoyangizda omonim, sinomim, antonimlardan foydalanishga harakat qiling.

465-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“O‘zbek bastakorlari” mavzusida 10-12 ta gapdan iborat matn yarating.**

135-DARS. NAZORAT ISHI.

136-dars LUG‘ATSHUNOSLIK BO‘YICHA TAKRORLASH

Darsning a) ta’limiy maqsadi: o‘quvchilardaleksikografiyai bo’limi yuzasidan hosil qilingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad: o’quvchilarga iqtidorlarini bolaligidan rivojlantirish hissini singdirish; bu borada ko’p kitob o’qishning ahamiyati haqida gapirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirish.

465-mashq. **Lug ‘atlar uchun alohida va umumiy jihatlarni aniqlang va jadbalga joylashtiring.**

1. Alifbo tartibida yoziladi.2. So‘z ma’nosi aniqlanadai.3. So‘zning yozilishi tekshiriladi.4.Bir tildan ikkinchi tilga o‘giriladi.5.O‘z va ko‘chma ma’nosi beriladi.

Lug‘t jihatlari	Imlo	Izohli	Tarjima
Alifbo tartibida yoziladi	+	+	+
So‘z ma’nosi aniqlanadi		+	
So‘zning yozilishi tekshiriladi	+		
Bir tildan ikkinchi tilga o‘giriladi			+
O‘z va ko‘chma ma’nosi beriladi		+	

467-mashq. **Qavs ichidagi sinonimlardan mosini qo‘yib matnni o‘qing.** *O’QIB TUSHUNISH va GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Keksayib qolgan , (kambag‘al, bechora, qashshoq) bir ayol uyida saryog‘ tayyorlab bir do‘konchiga olib borib sotar edi. Baqqol ayol olib kelgan saryog‘ni hech (tortib, o‘lchab) ko‘rmas edi. Bir kuni negadir uning ko‘ngliga bir(shubha, gumon) tushdi. Navbatdagi olib kelingan saryog‘ni tortib (tekshirib, nazorat qilib) ko‘rdi. Bir kiloli saryog‘ 900 gramm chiqdi. Sotuvchi juda (xafa , dili siyoh) bo‘ldi.

Ertasi kuni kelgan ayolga shunday (dedi, murojaat qildi):

— Endi(men, o‘zim) sendan saryog‘ olmayman.

Ayol dedi:

— Nega endi? Bir (xatolik, ayb, gunoh) o‘tdimi mendan?

– Sen bir kilo deb beradigan saryog‘ing roppa rosa 900 gramm ekan. Ayb emasmi?

Shunda ayol dedi:

– Taqsir, mening uyimda (tarozu, o‘chgich) yo‘q. Men sizdan olgan bir kilo shakarni tosh o‘rnida (ishlataman, qo‘llayman)...

Sotuvchi nima deyishni bilmay duduqlana boshladi...

Kimgadir qilingan nohaqlik hech qachon javobsiz qolmas ekan...

(Said Ahmad)

Munosabat bildiring.

1. Qavsda berilgan so‘zlar ma’nosidagi farqni qaysi lug‘atdan bilishingiz mumkin?

2. Nima sababdan baqqol muloqot so‘ngida saryog‘chiga e’tiroz bildirolmadi.

468-mashq. Halollik haqidagi maqollarni daftaringizga yozing. *YOZISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

1.Halol ishla, halol tishla. 2.Halol mehnat yerda qolmas.3.Halol mehnat – mo‘l daromad. 4.Halol molning qulfi o‘zida bo‘lar. 5.Mehnatingni halol qilsang, Huzurini ko‘rasan.6. Xalq molini yegan halqumidan ilinar.

469-mashq. O‘zbek tilining izohli lug‘atidan *halqum, mol, huzur* so‘zlarining ma’nosini topib, shu so‘zlar qatnashtirib gaplar tuzing. *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

Yechim:

halqum	(ar-tomoq, bo'g'iz) Og'iz bo'shlig'ining qizilo'ngach bilan tutashtiradigan hazm yo'lining boshlang'ich, oldingi qismi; yutqun.
mol	(ar- boylik, mulk; pul) Bisotdagi buyum; mol, boylik.
huzur	(ar- bor, mavjud bo'lish, hozir bo'lish; kelish, ko'rinish, namoyon bo'lish) Yuqori darajadagi qanoat, qoniqish hissi, kishi vujudi, a'zolarining yayrash holati; rohat.

470-mashq. Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering. *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi. “Qayta hikoya” metodi tavsiya etiladi.**

Qadim zamonda Abdusalom degan bir halol inson o‘tgan ekan. Uning yakka-yu yagona farzandi bo‘lib, u bolasini juda yaxshi ko‘rar, yer-u ko‘kka ishonmas ekan. Kunlar, yillar o‘tib bola katta pahlavon yigit bo‘libdi. Bir kuni u otasiga maslahat solibdi:

– Ey, ota! Endi nima kasb qilay?

Otasi: – Ey, o‘g‘lim. “Bo‘ynidan bog‘langan it ovga yaramas”, degan gap bor. Endi sen bir hunar yoki kasbni o‘zing tanla va shunga mehr qo‘y”.

Shunda o‘g‘li: – Eng yaxshi kasb – o‘g‘rilik bo‘lsa kerak, – debdi.

Otasi shunda debdi: – Mayli o‘g‘lim, o‘g‘rilik bo‘lsa o‘g‘rilik-da. Qo‘shnimizning qo‘yini o‘g‘irlab ko‘r-chi. O‘g‘li qo‘shni xonadondagi bitta katta qo‘chqorni o‘g‘irlab olib kelibdi. Otasi xursand bo‘libdi va:

– O‘g‘lim, zo‘r ish qilding. Endi ikkimiz o‘zimizni tejaymiz va bir hafta uydan chiqmay, shu qo‘yni mazza qilib yeymiz, debdi. Xullas, astoydil bir hafta mazza qilib maishat qilishibdi. Qo‘yni yeb bo‘lgach, o‘zlarini tortishibdi.

O‘g‘il bir haftada uch kiloga ozibdi. Ota esa to‘rt kilo ko‘payibdi. O‘g‘il hayron bo‘lib otasiga boqibdi. Ota kulib debdi: – Ey, nodon o‘g‘il! Bilib qo‘y, sen o‘g‘irlagan qo‘yning pulini men bir kun oldin qo‘shniga berib qo‘yganman. Shuning uchun men xotirjam semirdim. Ko‘rdingmi, sen o‘zingga halol kasb tanla. U dunyoing ham, bu dunyoing ham obod bo‘lur.

(Rahmatulloh SAYFUDDINOV)

Munosabat bildiring. ***GAPIRISH*** **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

1. Ayting-chi, nima uchun ota-bola bir xil vazn yig‘ishmadi?
2. Hikoyaga mos maqolni aniqlang.

A. Halollik – jannat mevasi, Haromlik esa do‘zax kulfatidir

B. Haromdan ming tanga,Haloldan bir tanga.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

C. O’zi olgan qo‘y qurbonlikka kirmas.
D. Ishlamagan tishlamaydi.

471-mashq. **“O‘g‘rilik –hurarmi?” mavzusida sinfdoshlaringiz bilan munozara uyushtiring.** *GAPIRISH* **ko’nikmasini rivojlantiradi.**

472-mashq. ***Uyga vazifa.*** **“Hunari yo‘q kishining mazasi yo‘q ishining” mavzusida**
10-12 ta gapdan iborat matn yarating.

MUNDARIJA

KIRISH
1-dars. Tilning ijtimoiy ahamiyati .
2-dars. O‘zbek tili - davlat tili .
TAKRORLASH
3-dars. Mustaqil so‘z turkumlarini takrorlash. Ot so‘z turkumini takrorlash.
4-dars. Sifat so‘z turkumini takrorlash.
5-dars. Son va olmosh turkumini takrorlash.
6-dars. Fe’l so‘z turkumini takrorlash .
FONETIKA .GRAFIKA
7 - dars.Tilshunoslik va uning bo‘limlari.
8 - dars Matn va lug‘at ustida ishlash.
11- dars.Nutq tovushlari va harf.
12- Matn va lug‘at ustida ishlash.
13 - dars Unli tovushlar.
14- dars. Undosh tovushlar.
15- dars. Nutq a’zolari.
16- dars Matn va lug‘at ustida ishlash.
18-dars. Nutq tovushlarining aytilishi va yozilishi.
19-.dars. Nutq tovushlarining ma’no farqlashi.
20- dars Matn va lug‘at ustida ishlash.
21-dars. Fonetik hodisalar.So‘zlarda tovush ortishi.
22- dars.Matn va lug‘at ustida ishlash.
23-dars. So‘zlarda tovush tushishi.
24- dars. So‘zlarda tovush almashinishi.
25-dars. Bo‘g‘in va uning ahamiyati.
26-dars. Mustahkamlash.
27 - dars Matn va lug‘at ustida ishlash.
29-dars. Urg‘u va uning ahamiyati.
31-dars. Matn va lug‘at ustida ishlash.

32-dars. Yozuvlar tarixi.
33 - dars .Matn va lug‘at ustida ishlash.
34-dars. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi.
36-dars. Mustahkamlash.

TALAFFUZ VA IMLO ME’YORLARI

37-dars. Ayrim unlilar imlosi.A va O unlilarining talaffuzi va imlosi.
38-dars. I va U unlilarining talaffuzi va imlosi.
39- dars. E va O‘ unlilarining talaffuzi va imlosi.
40- dars Matn va lug‘at ustida ishlash.
41- dars. Yonma-yon kelgan unlilar talaffuzi va imlosi.
43- dars. G – K undoshlarining talaffuzi va imlosi.
44-dars. Q – G‘ undoshlarining talaffuzi va imlosi.
45- dars. Matn va lug‘at ustida ishlash.
46- dars. D – T undoshlarining talaffuzi va imlosi.
47 - dars Matn va lug‘at ustida ishlash.
48- dars. J undoshining talaffuzi va imlosi.
49- dars. F – V undoshlarining talaffuzi va imlosi.
51- dars. H – X undoshlarining talaffuzi va imlosi.
52- dars. Z – S undoshlarining talaffuzi va imlosi.
53 - dars Matn va lug‘at ustida ishlash.
54- dars. Sh va Ch harflar birikmalari va ularning vazifalari.
55- dars . Ng harflar birikmasi va uning vazifasi.
56 - dars Matn va lug‘at ustida ishlash.
59-dars. Qo‘sh va qator undoshlar talaffuzi va imlosi**.**
60-dars. Qator undoshlar talaffuzi va imlosi**.**
61- dars. Asos va qo‘shimchalar talaffuzi va imlosi.
62- dars. Asos va qo‘shimchalar talaffuzi va imlosi.
64-dars. Mustahkamlash.
65- dars. Qo‘shib yozish
66-dars. Ajratib yozish.
67- dars. Bosh haqflar imlosi.
68 - dars. Chiziqcha bilan yozish.
69-mashq. Ko‘chirish qoidalari.

LEKSIKOLOGIYA

70-dars. O‘zbek tilining lug‘at boyligi.
71-dars. So‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari.
72-dars. Sinonimlar. Sinonimik qatorda bosh so‘z.
73-dars. Matn va lug‘at ustida ishlash.
74-dars. Omonimlar. Nutqda omonimlardan foydalanish.
75-dars. Antonimlar.
76- dars. Matn va lug‘at ustida ishlash.
78-dars. Paronimlar.

79- dars. Matn va lug‘at ustida ishlash.
80-dars. O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari. O‘z va o‘zlashgan so‘zlar.
81-dars. Yangi paydo bo‘lgan so‘zlar tahlili.
82- dars. Tarixiy va arxaik so‘zlar.
83- dars. Matn va lug‘at ustida ishlash.
84- dars. Joy nomlari tarixi
85- dars. Matn va lug‘at ustida ishlash.
88- dars. Ismlar ma’nosi va imlosi.
89- dars. Matn va lug‘at ustida ishlash.
90-dars. Mustahkamlash.
91-dars. Terminlar. Kasbiy terminlar.
92- dars. Iqtisodiyotga oida terminlar .
93-dars. Internetga oid terminlar.
94- dars. Matn va lug‘at ustida ishlash.
95-dars. Aniq fanlarga oid terminlar.
96-dars. Ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid terminlar.
97- dars.Matn va lug‘at ustida ishlash.
98-dars. Qavm-qarindoshlik bilan bog‘liq so‘zlar.
99-dars. Mustahkamlash.
101-dars. Iboralar.
102-dars. Iboralar.
103-dars. Matn va lug‘at ustida ishlash.
105-dars. Maqollar.
106-dars. Maqollar.
107-dars. Hikmatli so‘zlar.
108-dars. Hikmatli so‘zlar.
109-dars. Matn ustida ishlash.

LUG‘ATSHUNOSLIK

110-dars. Lug‘at. Lug‘at turlari.
111- dars. Matn va lug‘at ustida ishlash.
114-dars. Izohli lug‘at.
115- dars. Izohli lug‘at.
116 - dars. Matn va lug‘at ustida ishlash.
117 - dars.Imlo lug‘ati.
118 - dars.Imlo lug‘ati.
119 - dars. Matn va lug‘at ustida ishlash.
120-dars. Mustahkamlash.

PUNKTUATSIYA

122- dars. Punktuatsiya bo‘limi haqida tushuncha.
123- dars. Nuqta, vergulning ishlatilishi.
124-dars. So‘roq va belgisining ishlatilishi.

125- dars. Undov belgisining ishlatilishi.
126-dars. Qo‘shtirnoqning ishlatilishi.
128- dars. Ish qo‘ozlari (e’lon,xat) ustida ishlash.
129-dars. Ish qog‘ozlari (tabriknoma, taklifnoma) ustida ishlash.

O‘QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH

132-dars.Fonetika va Grafika bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash.
133-dars.Imlo me’yorlari bo‘yicha bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash.
134-dars.Leksikologiya bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash.
136-dars.Lug‘atshunoslik bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash.